

**CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK-MUXANDISLIK
BILIM YURTI**

GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI



D. QARSHIYEVA

HARBIY SOTSIOLOGIYA

Darslik

Chirchiq - 2020

UDK 355.233.

Karshiyeva D.E., Gumanitar kafedrası o'qituvchisi.

Harbiy sotsiologiya

Darslik

Nashr etildi: Chirchiq OTQMBYU, 2020y 224-b.

Taqrizchi: Falsafa fanlar nomzodi, dotsent: B.E.Husanov

Ma'sul muharrir: Ch.Nasriddinov. Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti Gumanitar fanlar kafedrası pedagogika va psixologiya sikli dotsenti

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibida Harbiy sotsiologiya - eng yosh fan. Bu fan oliy harbiy va ta'lim muassasalarida o'qitilib kelinmoqda. Bu harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va rolini aniqlashda, harbiy jamoadagi ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarni o'rganadagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi gumanitar ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda yozilgan. Unda harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlar, ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va roli haqidagi masalalar hamda harbiy jamoalarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tashkillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Darslikda Harbiy sotsiologiya fanining maqsadi, vazifalari, sotsiologik tadqiqotlarni harbiy tizimda doimiy ravishda o'tkazilganda, harbiy tizimdagi muammolar keskin ravishda bartaraf etiladi va armiyaning ijtimoiy holati, ko'nikmalari haqida aniq ma'lumotlarni olish va bu ma'lumotlar asosida kelajakni bashorat qilish imkoni tug'ilishining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

"Harbiy sotsiologiya" fanining o'quv dasturida nazarda tutilgan mavzularni o'z ichiga olgan mazkur darslikdan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tasarrufidagi oliy harbiy bilim yurtlari tinglovchi va kursantlari foydalanishi mumkin.

Bibliog. Chizma-1. Rasm-13.Adabiyotlar-53

Darslik Chirchiq OTQMBYU Ilmiy kengashining 2020-yil " 11.11" kungi № 3 sonli bayonnoma qarori bilan nashr etishga tavsiya qilingan.

O'R Mudofaa vazirligi, Chirchiq OTQMBYU bosmoxonasi, 2020

KIRISH

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugun hayotning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak"¹. Bu vazifalarni hal etishda sotsiologiya fanining o'rni va roli muhimdir.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin respublikaning barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sotsiologiya fani o'qitila boshlandi. Bu ish jamiyatni demokratik asoslarda qayta qurilishi, takomillashuvining nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Zero, yurtimizning milliy mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqishi, iqtisodiyotni yangi tamoyillar asosida boshqarishga o'tilishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi, huquqiy davlat va demokratik jamiyat asoslari yaratilayotganligi ijtimoiy fanlar rivojiga alohida e'tibor berish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi.

O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini o'rganish ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va bu jarayondagi xulosalarni umumlashtirgan holda mamlakat ichki siyosatining yo'nalishini belgilashda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu tufayli respublikamizda sotsiologiya fanini yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, u barcha oliy o'quv yurtlarining turli mutaxassisliklari uchun o'rganilishi shart bo'lgan fan darajasiga ko'tarildi.

Milliy armiyamizni isloh qilishda, uning kelajakdagi istiqbolini belgilashda, shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va rolini aniqlashda, ularning o'zaro va jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy munosabatini ilmiy darajada o'rganish va tahlil qilish sotsiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurttaraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.//Xalqso'zi, 2016-yil, 8-dekabr

Sotsiologiya o‘z ob‘yekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug‘ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, harbiy sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarda inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o‘rni, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda harbiy sotsiologiyasining o‘rganilishi katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy daxilsizligi va xalqning tinchligi ta‘minlashga yordam beradi.

Qurolli Kuchlarimizning jamiyat hayotida tutgan o‘rni naqadar muhimligini belgilab beradi. Harbiylarimiz hayotiy faoliyatini sotsiologik tahlil etish orqali ularning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy ta‘sir va muammolarini ilmiy-sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil etish mamlakitimiz harbiy kadrlar salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

1-BOB. UMUMSOTSILOGIYA-HARBIY SOTSILOGIYANING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Sotsiologiya fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishi

REJA:

1. Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar.
2. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limotlari.
3. (Abu Mansur al-Moturudiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sinova boshqalar)
4. G'arbiy Evropa sotsiologiya maktabi. Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelish bosqichlari.
5. XX asr sotsiologiyasidagi asosiy nazariy yo'nalishlar.

Tayanch iboralar: Sotsiologiya, ijtimoiy ob'ekt, predmet, individ, ijtimoiy mavqey, ijtimoiy norma, ijtimoiy rol, status, metodlar, pozitiv, statiska, dinamika, taraqqiyot, tizim, jamiyat, sotsial.

1.1. Sotsiologiya fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishi

Sotsiologiya (lotincha societas–jamiyat va yunoncha Logos–ta'limot)–so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, u yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan. «Sotsiologiya» haqidagi tushuncha birinchi marotaba XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798–1857) tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga talluqli bo'lgan hamma narsalarni o'z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan. Sotsiologiya–insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning tarkibiy qismidir. U XVIII asrda kishilik jamiyati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi.

Sotsiologiya XIX asr boshlaridan boshlab o'ziga xos ilmiy metodlar asosida falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'ldi. Shunga ko'ra sotsial sistemaning taraqqiyoti va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida ilmiy

muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so‘ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o‘rtalarida yuzaga keldi.

Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. Uning vatandoshi E. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.

Marksizmda sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyat va uning tuzim va elementlarini tashkil etgan shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o‘rganish hisoblanadi.

Kont kuchli davlat tarafdori, xususiy mulk himoyachisi edi, sinfiy totuvlikni keng targ‘ib etdi. Kontning asosiy asarlari:

- 6 jildlik “Pozitiv falsafa kursi” (1830-1842y);
- “Pozitiv falsafa ruhi to‘grisida muloxazalar” (1844);
- “Pozitiv katexizis” (1851);
- Pozitiv siyosat sistemasi yoki insoniyat uchun dinni qaror toptiruvchi risola” (4 jildli 1851-1854 yil);

Uning vafotidan keyin “Ogyust Kont vasiyatlari” (4 jildli) e‘lon qilingan.

Hozirgi kundagi adabiyotlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta’rif berilgan:

XVII–XVIII asrlarda sotsiologiya fanining shakllanishida hal qiluvchi rolni o‘ynagan «jamiyat», «madaniyat», «sivilizatsiya», «sinflar», «struktura», «funksiya» va boshqa atamalar ilk bor paydo bo‘ladi.

XIX asrda jamiyat to‘g‘risidagi tajribali, empirik fanning vujudga kelishi tasodif emas, balki muayyan gnoseologik va ijtimoiy – iqtisodiy shart–sharoitlarga ega edi. O.Kont yangi fanni yaratar ekan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: «jamiyatni uning turli – tuman namoyon bo‘lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o‘zi yetarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqatunga e’tibor bergan holda o‘rganadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to‘g‘risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o‘zining metodini o‘ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o‘z metodlari yo‘q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan

kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim». Fanga sotsiologiya nomini bergan O.Kont o'z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallariga tayangan holda, u fan va ma'rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog'lom jamiyatni qanday davolash mumkin, degan savolga O.Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo'lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va ob'yektiv fanni yaratish kerak». Sotsiologik g'oya jadal rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi inqirozga javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq-oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi.

O. Kont sotsiologiyani ikki qismga ajratadi: sotsial statika va sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy institutlar oila, davlat, din kabilar tadqiq etildi. Sotsial dinamikada O. Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozirgi zamon sotsiologiyasi tarkibida ham o'z mazmunini, ilmiy qimmatini saqlab qolgan. Ma'lumki, O.Kont falsafasi "pozitivizm" nomi bilan mashhur. U falsafani fan va metodologiya sifatida rad etadi. Uningcha, "pozitiv" falsafaning asosiy maqsadi xususiy fanlar umumiy xulosalarini umumlashtirish vazifasidan iborat bo'lgan. Bu printsipni sotsiologiyaga ham tadbiiq qilgan. Uning sotsiologiyasi empirik ma'lumotlarni to'plash va kuzatishdan iborat bo'lgan. Empirik ma'lumotlarni falsafiy jihatdan umumlashtirish esa rad etilgan. Ilmiy nazariyasiz va ilmiy metodologiyasiz jamiyat hayoti to'g'risidagi empirik ma'lumotlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib bo'lmaydi. Ular nari borganda, subyektiv xulosalardan iborat bo'lib qolaveradi. O.Kontning vatandoshi Emil Dyurkgeymni (1858-1917) amaliy sotsiologiyaning kashfiyotchisi deyishadi. U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. E. Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini

yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Emil Dyurkgeymni amaliy sotsiologiyaning kashfiyotchisi deyishadi. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integratsiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologiyaning yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: naturalizm - jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda sotsiologizm - ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash. Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan. Nafaqat Fransiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – MaksVeber, Georg Zimmel, Ferdinand Tennyson bilan lol qoldirgan. Masalan, bugungi kunda Veberning 30 dan ziyod jildidan iborat asarlar to'plami nashr etilgan. Karl Marks (1818–1881) ijtimoiy nizo nazariyasi, jamiyat tuzilmasi va rivoji haqidagi ta'limot, ijtimoiy sinflar kontsepsiyasining asoschisi hisoblanadi. U umuman ijtimoiy faylasuflar orasidagi eng yirik shaxsdir. K.Marks bilan bir qatorda nemis mutafakkiri MaksVeberni (1864–1920) ham ko'rsatib o'tish zarur. Uni ikkilanmasdan sotsiologiyaning Leonardo da Vinchisi deyish mumkin. Uning asosiy nazariyalari bugun sotsiologiya fanining poydevorini tashkil etadi: ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik haqidagi nazariyalar. U din sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi asoslarini, byurokratiya nazariyasini, ijtimoiy stratifikatsiya va statusli guruhlar kontsepsiyasini, siyosatshunoslik va

xokimiyat instituti asoslarini, jamiyatning ijtimoiy tarixi va ratsionalizatsiya haqidagi ta'limotni, kapitalizm evolyutsiyasi va mulkchilik instituti to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. M. Veberning yutug'lari shu qadar ulkanki, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Ideal tiplarning kiritilishiuning metodologiya sohasidagi eng asosiy yutug'laridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda M.Veber sotsiologiyasi haqiqiy uyg'onish davrini boshidan kechirmoqda.Uning falsafiy sotsiologik qarashlarining ko'p tomonlari yangidan qayta anglanmoqda. M.Veber, F.Tennis (1855–1936) va G.Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. Angliyada jahon sotsiologiyasi faniga ijtimoiy evolyutsiya haqidagi nazariyani yaratgan va kishilik jamiyatiga tirik organizm sifatida qaragan Gerbert Spenser (1820–1903) ulkan hissa qo'shgan. F. Tennis o'zining «Jamo va jamiyat» (1887) deb nomlanuvchi bosh asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasini, ya'ni bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari hukmron bo'gan jamoa va formal institutlar ustuvor bo'lgan jamiyatni taklif qiladi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Fransiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyaning rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Rossiyada ular qatoriga N.Kareyev, N.Mixaylovskiy, M.Kovalevskiy, V.Xvostovlarni qo'shish mumkin. Biroq ular jahon sotsiologiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadilar. Pitirim Sorokin (1889–1968) bundan mustasno. Uni sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sotsiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M. Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQShda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyaning dong'ini yoydi.

Sotsiologik g'oya jadal rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi. O.Kontning ko'pgina g'oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy

ko'rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri *Gerbert Spenserdir* (1820-1903). G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini "Ilmiy, siyosiy va falsafiy tajribalar" asarida atroflicha bayon etgan. G.Spenser jamiyatni tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o'xshatadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o'sish va rivojlanish jarayonida o'zmassasida ortib boradi;

2. U va boshqalari murakkablashadi;

- 3.Uning qismlarining tobora bir-biriga bog'liqligi kuchayib boradi; 4.Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, butun holda yashashni davom ettiradi.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQSHga ko'chadi va bu erda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va ko'pchilik universitetlarning tezda yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejlarning aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi. Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tezorada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Yevropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat bitta haqiqiy milliy oqimni-simvolik interaktsionizm oqimini va faqat bitta buyuk sotsiologi – Tolkott Parsonsni (1902-1979) bera oldi. Albert Eynshteyn fizikada amalga oshirishga intilgan nazariyasini Parsons sotsiologiyada ham xuddi shunday amalga oshirishga, ya'ni jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani yaratishga urindi. U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi

mavhum tushunchalarning ulkan deduktiv tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSH mana shu xususiy sotsiologik nazariyalar borasida ancha muvaffaqiyat qozondi. Amerika dunyoga buyuk olimlarning eng ko'p sonli guruhini taqdim etdi: E.Shilz, P.Lazarsfeld, R.Merton, P.Blau, Ch.Kuli, J.Mid, R.Park, I.Gofman, J.Aleksander, D.Bell, T.Veblen, A.Gouldner, R.Mills, D.Rismen, U.Samner, A.Smoll, A.Toftler, J.Xomans. Ular zamonaviy sotsiologiyani ilmiy mazmunini belgilab berishdi. Agar Yevropada sotsiologik g'oya falsafa bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsial psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyutsiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilishdi va buni turlicha usulda bajarishdi: Yevropaliklar ko'proq global tarixiy sxemalarga suyanishsa, amerikaliklar konkret modellar va amaliy ishlanmalarga tayanishdi. Amerikaliklar falsafiy substantsiya o'rniga xulq-atvor va harakatga urg'u berishdi. Ularni idrok ichida yashiringan va aniq o'lchab bo'lmaydigan narsa qiziqtirmasdi, aksincha sirtida, ya'ni ochiq xulq-atvorda namoyon bo'ladigan narsa o'ziga tortardi. Shu tarzda XX asrning birinchi yarmida barcha ijtimoiy fanlarni (iqtisodiyot, ruhshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) o'ziga bo'ysundirgan bixeviorizm (ingliz tilidan «behavior» - xulq-atvor) vujudga keladi. Endi ularga xulq-atvorga asoslangan, yoki bixevioral fanlar yorlig'i biriktiriladi. Shu nom bilan, to'g'rirog'i xulq-atvorga asoslangan (XX asr boshida Yevropada bo'lganidek falsafaga asoslanmagan) sotsiologiya hozirgi kunlarga etib keldi.

Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XVIII asrdagina G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan bo'lsa ham uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Odamzod har doim o'z xatti-harakatining sabablari bilan qiziqqan, ularni yuzaga chiqaruvchi omillarni o'rgangan. Shuning uchun ham, eng qadimgi falsafiy tizimlar ijtimoiy hayotni va tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini o'ziga xos holda tushuntiradigan biron-bir ijtimoiy falsafani o'z ichiga oladi.

Lekin ming yillar davomida bu urinishlar tafakkurning avloddan avlodga o'tib kelayotgan va diniy tushunchalarga tayangan an'anaviy usullariga asoslanadi. Inson

xatti-harakati hamda kishilik jamiyatini muttasil ravishda bir tizimga solib o'rganish asosan keyingi 200-300 yillar ichidagi yutuqlardan biridir.

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishini quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'lash mumkin:

1) o'z ratsionalligiga ega bo'lgan, Shuning uchun ham, siyosiy-institutsional tartibi mavjud bo'lgan davlatga bo'ysunavermaydigan, ko'pincha unga qarama-qarshi turuvchi va mustaqil hisoblangan tabiiy-ijtimoiy tartib g'oyasi bilan;

2) bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan;

3) narsalar va hodisalarni ular rivojlanishida, ularni belgilovchi aniq tarixiy shart-sharoit bilan aloqadorligida bilish g'oyasi bilan;

4) fan va ilmiy progress zamonaviy konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan.

Shunday qilib, sotsiologiya fani atigi bir asr muqaddam falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etgan bo'lsa-da, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyaning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi.

Qadim zamonlardan buyon jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar Sharq va G'arb mutafakkirlari umumfalsafiy g'oyalarining asosiy bo'limi sifatida qaralgan. Jamiyat rivoji, siyosat, axloq, fan, din va san'at muammolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari, o'rta Osiyo va Yevropa mutaffakirlari tomonidan aytib o'tilgan. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida.

Biz hozir jamiyat deb ataydigan ta'rifga insonlar qadim zamonlardayoq qiziqishgan. Jamiyat tuzilishi haqidagi dastlabki va ancha to'liq tasavvurni antik davr faylasuflari berishgan. Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari Aflotunning "Qonunlar", "Davlat to'g'risida", Arastuning "Siyosat to'g'risida", "Metafizika", "Etika", Protagorning (eramizdan avvalgi 490-420 yil) "Haqiqat"

kabi asarlarida yoritilgan. Antik davrdagi birinchi sotsiologlarni ijtimoiy faylasuflar deyishadi. Ularning orasida ikkita buyuk mutafakkirni ko'rsatib o'tish mumkin – Aflotun (eramizgacha 427-347 y.) va Arastu (eramizgacha 384-322 y.). Ular hozirgi sotsiologlar kabi an'analarni, urf-odatlarini, insonlarning fe'l-atvorlari va o'zaro munosabatlarini o'rganishgan, faktlarni umumlashtirishgan, jamiyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan tugaydigan konsepsiyalarni tuzishgan. Aflotunning “Davlat” asari “Umumiy sotsiologiya” bo'yicha tarixdagi birinchi risola hisoblanadi. Buyuk mutafakkir ijtimoiy stratifikatsiyaning dunyodagi birinchi nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, unga ko'ra har qanday jamiyat uchta sinfga ajratilgan: davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy sinf; uni g'alayon va tartibsizliklardan saqlovchi jangchilardan iborat o'rta sinf; hunarmandlar va dehqonlarni o'z ichiga oluvchi past sinf. Antik davrning yana bir qomusiy donishmandi Arastu esa stratifikatsiya nazariyasining o'z variantini taklif qildi. Unga ko'ra o'rta sinf tartibning tayanchi sifatida ko'riladi. Undan tashqari yana ikkita sinf mavjud bo'lgan - boy plutokratiya va mulkdan mahrum proletariat. Arastu o'z davridagi mavjud stratifikatsion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab-quvvatlaydi. Arastu komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'z davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Arastuning davlat va jamiyatni mukammallashtirishdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtainazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohidaguruhlar qo'liga topshirib qo'yilmasligi lozim. Arastu davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb hisoblaydi. Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. Uning

sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Sitseron, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga hayotbaxsh ilhom bag'ishladi, so'ngra esa o'rta asrlar sharqining buyuk mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyo qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faqat ikki ming yildan keyingina Yevropa ilm arboblari jahonga jamiyat to'g'risidagi misli ko'rilmagan asarlarni in'om etdi. Bu avvalo, sotsiologiyani ilmiy bosqichiga bevosita zamin yaratgan N.Makiavelli, J.Lokk va T.Gobbs sa'y-harakatlari tufayli yuz berdi. Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlari muhim o'rin tutadi. Uning asarlarini nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. Inson shaxsi va mavqei masalasi uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movaraunnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgani nsoniy yondashuvlar sintezi, deb, baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Motrudiya jabariylarning, insonning hamma amallari oldinda nuning taqdiriga yozib qo'yilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas, degan nuqtai nazarini ham qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqidqilib, inson yaxshi va yomon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohnin madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Shu asoslarda Al-Moturidiy Movaraunnahr jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi. Markaziy Osiyoning mutfakkirlari bo'lmish

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Haldun, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo kabi ulug' allomalar ham o'z davri ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarinig ijtimoiy qarashlarini asarlarida yozib qoldirganlar.

Movaraunnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir Al-Farobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab beradi. Farobiy olamni anglashda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida etuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Farobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Farobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur».² Abu Nasr Farobiy o'zining «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Siyosat al - madaniya» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan. Davlat va

²Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: 1993. - b. 167.

jamiyat masalalarida davlatni ijtimoiy tizimni boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan. "Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb - hunarda ozod, hammaga baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi ozod bo'ladilar" - kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Minerologiya", "Hindiston" asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. "Minerologiya" asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Beruniy o'z davrining etnosotsiologi ham edi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristianmolikiylar va xristian nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmonarablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan Arab donishmandi Ibn Xaldun, kishilik jamiyatining tuzilishini tuzgan holda, odamlarning yirik ijtimoiy guruhlarini xatti-harakatini sinchiklab o'rgangan. Ibn Xaldun (Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1406)) arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining «Sotsiologiya» (arab ilm al-ijtimoi') faniga oid dadil fikrlarini o'rta tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370) yilning muqaddima qismida uning tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. Insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratgan. «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlangan. Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlarini va shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilish ishlarini o'rta qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g'oya ham Ibn Xaldun qarashlarining muhim xulosalaridandir. Ibn Xaldun mulkni

va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yozadi. Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo‘ravonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz shohga bo‘linadi. Yaxshi hukmdor shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini xalqi zo‘r-bazo‘r sezadi va u o‘z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo‘ladi. Chunki o‘z siyosatini adolat asosiga qurgan shohning fuqarolari kuchli va erkin bo‘ladi, buning oqibatida ular qudratliyar atuvchi kuchga aylanadilar. Shu bois mutafakkir shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini haddan ortiq bo‘g‘maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo‘rqitish yo‘li bilan bo‘lar ekan, u xoh o‘quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo‘lsin, ularga qo‘rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o‘sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni sindiradi va uning o‘rniga yalqovlik, aldash, yolg‘onchilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan shu zo‘ravonlik ta’sirida sodir bo‘ladi. Ular qalbi befarqlik bilan to‘ladi, yaxshi va fazilatli sifatlar o‘rmini ahmoqona, yomon sifatlarni qabul qilib, pastlarning eng pastiga aylanadi».

Alisher Navoiyning «Mahbub ul - qulub» asarida bevosita o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi. Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo‘linganligi umuman olganda ijobiy xodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e’tiborga sazovor sotsiologik qarashni asoslab beradi. Ulug‘ mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o‘rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo‘l ochadi. «Shu jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - ham suhbatlarni va do‘st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko‘rindiki, toki ularda har toifani

xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay»³. Zahridin Muhammad Bobur ham "Boburnoma" asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijondan - Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududida yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlar yashagan davrda sotsiologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Ularning ijtimoiy hayot jarayonlari to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari natijalari esa ijtimoiy - falsafiy qarashlar tarzida namoyon bo'lgan.

Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Hamma narsaning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutlaqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Yusuf Xos Hojibning XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boy. Bu kitob axloq-odob ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir. Yusuf Xos Hojib jamiyat va tabiat borasidagi barcha bahslarni ta'lim atrofida olib borar ekan, o'z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma'lumotlar beradi. U o'sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifalari va guruhlarini, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun-qoidalarini, hunar va kasb-korlari, jamiyatda tutgan mavqelari, davlat tuzumining qanday asoslarda qurilganligi, har bir tabaqaning dunyoqarashi xususida atroflicha sotsiologik asoslangan ma'lumotlarni o'rta tashlaydi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatning tom ma'nodagi kamoloti faqat ta'lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar muvaqqatdir, o'tkinchidir, bilim boyligi qancha sarf etilsa, shuncha ko'payaveradi, deydi.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul - qulub. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. -B.3.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Sotsiologiya fani nimani o'rganadi.
2. Sotsiologiya qanday tarkibiy tuzilishga ega.
3. Antik dunyo sotsiologlari inson mavqei to'g'risidagi qarashlari.
4. Platon va Aristotelning antik dunyo falsafiy fikr taraqqiyotida tutgan o'rni.
5. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy jamoalarga bergan bahosi.

1.2. Sotsiologiyaning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari

REJA:

1. Sotsiologiya fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Sosiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari.
3. G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosi.
4. Sotsiologiyaning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat.

Tayanch iboralar: ijtimoiy ob'ekt, predmet, individ, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy norma, ijtimoiy rol, status, sotsial. pozitivizm, sotsial statika, sotsial dinamika, maxsus va tarmoq yo'nalishlar

Sotsiologiya inson hayot faoliyati yoki ijtimoiy tashkilotlarning hamkorlikdagi shakllarini o'rganuvchi va inson hamjamiyatining rivojlanishi hamda xulq atvori to'g'risidagi fandir. Sotsiologiyaning ob'yekti uning nimani o'rganish ikerak, degan savolga javob bersa, predmeti o'sha ob'yektning qay jihatlarini o'rganadi, degan savolga javob beradi. Sotsiologiyaiing ob'yektini jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalari tashkil etadi. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi: 1) aniq-empirik; 2) maxsus; 3) umumiy. Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi. Sotsiologiyaning *tadqiqot predmeti* tarkibiy tuzilish jihatidan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Umumiy sotsiologiya – turli sotsial tizimlarda uchrab turadigan ijtimoiy hayotga oid me'yorlarni, bu tizimlarning yashash tarzi va taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

2. Maxsus sotsiologiya – ijtimoiy faoliyatning alohida sohalarini ko‘p omill itizim sifatida tadqiq etadi. Maxsus sotsiologiyaning bir qancha tarmoqlari bor:

1) industrial sotsiologiya; 2) shahar sotsiologiyasi; 3) demografik sotsiologiya.

3. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar – tadqiq qilinayotgan hodisalar, individlar bilan bevosita aloqa va ularning hayot faoliyatlaridagi faktlar to‘plami bo‘lib, so‘roq, kuzatuv, eksperiment va hujjatlarini o‘rganish usullarini tajriba yordamida bilishdir.

Sotsiologlar jamiyatni makro va mikro darajadan o‘rganadi.

Mikrosotsiologiya – sotsiologiyada nisbatan katta bo‘lmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tahlil qilishga haratilgan, alohida olingan hodisalarning mikro darajadagi (kichik) jarayonlar bilan aloqasini individlar, kishilar xulq-atvorini shaxslararo o‘zaro ta’sirda o‘rganadi.

Makrosotsiologiya – katta ijtimoiy guruhlar va tizimlarni (masalan, jamiyat, sivilizatsiya va hokazo) jarayonlarni, harakatlarni va hodisalarni, shuningdek, guruhlar faoliyatini uzoq muddat davomida o‘rganadi. Bunda asosiy e’tibor har qanday jamiyat mohiyatini tushunishga yordam beruvchi xulq-atvor modeliga qaratiladi. Ushbu model yoki tarkiblar oila, ta’lim, din, iqtisodiy va asosiy tuzum kabi ijtimoiy institutlarni tashkil etadi. Makrosotsiologiya jamiyatning turli qismlari orasidagi o‘zaro aloqa va ularning o‘zgarish dinamikasini o‘rganadi.

Sotsiologiya katta amaliy ahamiyatga ega. Amaliy sotsial islohotlar bir necha yo‘nalishda boradi. Ular, birinchidan, ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri tushunish, uni nazorat qilishga imkon beradi; ikkinchidan, sotsiologiya har qanday vaziyatda madaniy qadriyatlar orasidagi tafovutni baholashga sharoit yaratadi, bizning dunyoni madaniy qabul qilishimizni o‘stiradi; uchin-chidan, biz o‘zimizning muayyan siyosiy dasturlar qabul qilish (qasddan, o‘ylab, o‘ylamasdan shoshma-shosharlik bilan) faoliyatimizga baho bera olamiz; to‘rtinchidan sotsiologiya insonning o‘z-o‘zini bilishiga, o‘rganishiga yordam beradi, individlar va guruhlariga o‘z yashash sharoitlarini o‘zgartirishga imkon yaratadi.

Sotsiologiya fanining predmeti – fundamental tushunchalarning mantiqiy o‘zaro bog‘langan va qarama-qarshi bo‘lmagan tizimi hisoblanib, mazkur fanning tadqiqot usullariga yo‘naltirilgan ob‘yektiv reallik qismini ifodalaydi. Fan predmeti deb ataladigan tushunchalar majmui alohida faktlarni muntazam, takrorlanadigan hodisalar bo‘yicha tartibga soladi va tashkil etadi. Sotsiologiya – bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o‘zaro ta‘siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendensiyalar), haqidagi fandır.⁴ Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko‘pgina umumiylikka ega. Mazkur o‘zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning ob‘ekti jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyaning predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash etarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining ob‘ekti hisoblanadi. Tadqiq etuvchining faoliyati yo‘naltirilgan barcha narsalar bilish ob‘ekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya ob‘ekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeyligi tushuniladi, unda ob‘yektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya‘ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sub‘ektlar). Sotsiologiya predmetlariga shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati va rivojlanishi qonun va qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayoti (sotsial sub‘yektlarning ijtimoiy mavqelar, rollar, ijtimoiylashuv muammolari bo‘yicha o‘zaro ta‘siri) kiradi.

Zamonaviy sotsiologiya predmeti–uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish natijasi bo‘lib, ko‘plab olimlar avlodlarining mehnatlari mahsulidir, ulardan har biri yangi bilim tamoyillarini qo‘shib borgan, yuzaga kelgan vaziyatni ko‘rib chiqqan, tanqid qilgan, bahs munozara olib borgan, yangilik kiritgan, tekshirgan va shu yo‘l bilan bugun sotsiologiya predmeti sohasiga kiritilganlarni barchasini elakdan o‘tkazgan. Sotsiologiya predmetining bosh sababchisi ikkita tushuncha hisoblanadi - «status» va «rol». Birinchisi jamiyatning statistik, ikkinchisi esa dinamik tasvirini ochib beradi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi o‘rni, holati

⁴ Sotsiologiya o‘quv qo‘llanma. 1999, 29-bet

status (mavqe) deb ataladi. To'ldirilmagan mavqelarning majmui bizga jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini beradi. Ijtimoiy mavqelar ijtimoiy munosabatlar bilan, shaxsiy mavqelar esa shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq. Sotsiologiya uchun insonlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishishlari emas, balki ular orasidan qandaydir asosiyroq bo'lgan qarashlar, ya'ni sotsial munosabatlar muhimdir. Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi: Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendensiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni har xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlararo munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır. Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihatı jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdani boratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jixatdan inson ahloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va individlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri xosilasidir. Jamiyat to'g'risidagi xozirgi bilimlarning o'ziga hos xususiyati shundan iboratki, ular sotsiologik fikrlashning

kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Mamlakatimizda sotsiologiyani keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq echishga imkon beradi. Sotsiologiya butun ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o'zaro ta'siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendentsiyalar), haqidagi fandir. Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko'pgina umumiylikka ega. Mazkur o'zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishning ob'yekti jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyani predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash yetarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining ob'yekti hisoblanadi. Tadqiq yetuvchining faoliyati yo'naltirilgan barcha narsalar bilish ob'yekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya ob'yekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeligi tushuniladi, unda ob'yektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya'ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sub'yektlar).

Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishini o'rganuvchi fandir. Sotsiologiya ob'ekti jamiyat hisoblansada, lekin sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish etarli emas.

Sotsiologiyani ilmiy maqomini asoslashning mohiyati uning ob'yekti va predmeti o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Ob'yektni bilish – tadqiqot ob'yekti nimaga yo'naltirilganligi va ob'yektiv voqelik sifatida unga nima qarama-qarshi turganligini anglatadi.

Har qanday hodisa, jarayon yoki ob'yektiv voqelikning o'zaro munosabati turli fanlarning (fizika, ximiya, biologiya, psixologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va hokazolar) ob'yekti bo'lishi mumkin.

Predmet ob'yekt kabi ob'yektiv voqelikning bir qismi yoki uning elementlari yig'indisi bo'lib, umumiy yoki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir fan o'z navbatida predmeti nuqtai nazaridan farq qiladi.

Ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilararo aloqalar, o'zaro bog'liqliklar majmuasi - sotsiologiya fanining ob'yekti vazifasini o'taydi.

Ob'yekt va predmet hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki, ob'yekt mohiyatni to'g'ri tushunish, ilmiy tadqiqot yo'nalishini xolis belgilay olish imkonini beradi.

Demak, **sotsiologiyaning ob'yekti jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir.**

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z ob'yektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning ob'yekti bo'ladi. Insonlar o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umum milliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, ob'yektiv va sub'yektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik ob'yekt mohiyatni talqin etadi.

Sotsiologiya sotsial ob'yektni sotsial sub'yektlar orqali (shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi.

Sotsiologiya turli sotsial sohalarni tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendentsiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'yekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarida inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rni, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus ob'yekti asosida yakka shaxs faoliyatining, konkret namoyon bo'lishining empirik darajasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha sotsial aloqalar hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish ob'yektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitiga moslab, zamonabiy sotsiologiyada biz quyidagi o'rganish ob'yektlarini ajratamiz:

1. Ijtimoiy bosqich: (jamiyat, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy guruh, mahalla, oila, shaxs)

2. Milliy boshich: (millat, elat, etnik guruh, avlod, milliy oila, individ)

3. Tarmoqlar bosqichi (iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat, ekologiya va boshqalar)

4. Xududiy bosqich: (mintaqa, mamlakat, viloyat, shahar, tuman, qishloq, mahalla).

Inson hayot tarizining konkret jihatlari, odamlarning fe'l-atvori jamiyatdagi o'rhi va intilishlaridan, turli hayotiy vaziyatlardagi takroriy harakatlaridan iborat. Vaholanki, oilada, ko'chada, transportda, do'konda, ishxonada, o'quv auditoriyasida, xullas barcha vaziyatlarda inson xulqining takrorlanuvchan ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. (Masalan, odam do'konga kirganida, sotuvchidan qanday muomala kutishni biladi).⁵

⁵ Bekmurodov M., Aliqoriev N. Umumiy sotsiologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –T.: 2002. 11-b.

Agar fanning ob'yekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o'sha ob'yektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi. Quyida sotsiologiyaga doir bir qancha ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rni, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o'rganadigan fan hamdir.

Sotsiologiya – jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fandır.

Sotsiologiya – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fandır. «Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin,- degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladi».⁶

O'z navbatida sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy-madaniy modellarni topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan ham iboratdir.

⁶ Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005. 12-13b.

Sotsiologiyaning funksiyalari

Gnoseologik - (nazariy bilish) jamiyat to'g'risidagi yangi konsepsiyalar, sotsiologik bilimlarni olish imkonini beradi

Boshqarish - bevosita boshqarmaydi balki boshqaruvning yangi usullarini taklif etadi. Muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatib beradi

Axborot yetkazish -mutaxassislargagina emas balki jamiyat uchun ham

Tashviqot qilish - hamma sohada

Tashkillashtirish - birlashtirish, yo'naltirish siyosatda, ishlab chiqarishda, dam olishda

Bashorat - asosan siyosatda OAVlarda va boshqa sohalarda

Dunyoqarashlik funksiyasini

Metodologik funksiyasi

Ijtimoiy funksiyasi

Aksiologik(qadriyat) funksiyasi

Mafkuraviy funksiyani

Insonparvarlik funksiyasi

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy vazifasi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi **sotsiologiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri nazariya va amaliyotning birligidir.**

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda namoyon bo'ladiki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Shu holatda sotsiologiyaning **oldindan aytib berish funksiyasi** namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizimqanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya mafkuraviy funksiyani ham bajaradi.

Ubirinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollari ishlab chiqishga qaratilgan.

Ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish.

Uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish.

To'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Shu tufayli sotsiologiya **insonparvarlik funksiyasini** ham bajaradi.

Sotsiologiyaning metodlari

Metod deganda keng ma'noda u yoki bu masalani yechishda qo'llaniladigan usullar, qoidalar tushuniladi. Metodlar har qanday ilmiy bilishning muhim tashkiliy qismi hisoblanadi. Har qanday olim, hoh u huquqshunos, hoh sotsiolog yoki iqtisodchi bo'lsin, o'z oldiga ma'lum bir ilmiy muammoni qo'ya turib, uni u yoki bu metodlar yordamida hal qiladi.

U yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi shu fanning metodologiyasini tashkil etadi. Metodologiya qo'yilgan muammolarni yechish usullarini tanlash, ilmiy yechimning yo'nalishini va etaplarini aniqlab beradi.

Sotsiologik metodlar deganda sotsiologik bilimni asoslab berish va ko'rish usuli, sotsial sistemalarni empirik va nazariy o'rganishning usul va amallari tushuniladi.

Darajasiga ko'ra sotsiologiya metodlari ikkiga bo'linadi: nazariy va amaliy (empirik)

Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini **nazariy hal etishga xizmat qiladigan o'ziga xos metodlari** ham mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

-Qiyoslash va taqqoslash

-Nazariy metod (fikrlash, abstraktlashdan konkretlik sari o'tish)

-Induktiv va deduktiv metod

-**Izohlash** metod

-**Proгноzlash** metod (ijtimoiy to'qnashuvlar oldi olinadi)

-**Integratsiya, umumlashtirish** metod

Sotsiologiyaning **empirik-amaliy metodlarini** quyidagicha tasniflash mumkin.

- **Eksperiment** metod

- **Kuzatish** metod

- **Xujjatlarni o'rganish** metod

- **So'rov** metod

- **Empirik-sotsiologik** metod

- **Statistik** metod

- **Integratsiya, umumlashtirish** metod

- **Umum mantiqiy metod (analiz, sintiz)**

Sotsiologiyaning metodologiyalari:

1. **Funksional metodologiya** (jamiyatdagi hodisalarning ahamiyatini aniqlashga intiladi).

2. **Fenomenologik metodologiya** (jamiyat a'zolarining mavqeini aniqlashga harakat).

3. **Tasniflash metodologiyasi** (bu qo'llanishiga ko'ra klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirishlarni o'z ichiga oladi). Shuningdek, sotsiologiya fani muayyan ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etish asnosida umumiy, maxsus hamda empirik metodologiya tamoyillariga tayanib ish tutadi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari qonuni o'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish).

Xususiyl (maxsus) qonunlar. Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarida amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar.

Sotsial rivojlanish qonunlari ob'yektiv bo'lib inson ongi, irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi. Shuning uchun sotsial qonunlar inson faoliyati qonunlaridir, ularning xatti-harakatlari esa-omma va insonlarning, sotsial sub'yektlarning determinatsion mexanizmidir.

Sotsial qonunlarning beshta kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin.⁷

Birinchi, o'zgarmas xarakter kasb etuvchi yoki unga bog'liq bo'lgan qonunlar. Bu qonunga binoan «A»voqelik mavjud bo'lsa u holda, albatta «B» voqelik ham bo'lishi shart.

Ikkinchi, rivojlanish tendensiyasini aks ettiruvchi qonunlar. Unda ijtimoiy ob'yektning tuzilish dinamikasi bir turdagi o'zaro munosabatlardan ikkinchisiga o'tishi bilan bog'liq.

Uchinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi funksiyaga oid bog'langanlikni qaror toptiruvchi qonunlar. Bu qonunlar u yoki bu ijtimoiy tizimning barqaror holatda saqlab turilishini ta'minlaydi.

To'rtinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aks ettiruvchi qonunlar. Masalan, sotsial integratsiyaning eng muhim va zaruriysharti bu ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni oqilona birga qo'shib olib borish hisoblanadi.

Beshinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi a'loqalarni o'rnatish mumkinligini anglatuvchi qonunlar. Sotsial qonunlar odamlar aniq faoliyati davomida ro'yobga chiqariladi.

Ijtimoiy jamiyat sotsiologiya fanining jamiyat sifatida uning manbai bu'lishi mumkin. Ammo jamiyat boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlarning ham manbai hisoblanadi. Shu sababli sotsiologiyaning ilmiy statusi, boshqa fanlardek manbai borliq va predmetning turli xilligi va bir-biridan farq qilishidan iboratdir. Sotsiologiya fanining uziga xos bilish nazariyasining asosiy bo'lgan borliq va undan sifat kursatkichlariga olib keladigan xodisa va jarayonlar uziga xos bu predmetni tashkil etib, ular quyidagilardan iborat, ya'ni bir guruh sotsiologiyalar

⁷ Aliev B., Mullajonova M. Sotsiologiya. Darslik. –T.: 2011. 11-b.

fikricha: Ya'ni, «Gruppali uzaro a'loqalar», «insoniy uzaro aloqalar» va «ularning natijalari», «insoniy sotsial munosabatlar», «sotsial institutlar», «sotsial tashkilotlar va ularning inson harakteriga muvofiq munosabatlari», «sotsial harakatlar sistemasi», «kishilik jamiyati va insoniy xarakter», «sotsial intizom va intizomsizlik tabiati», «sotsial gruppalar», «insoniy munosabatlar va a'loqalarning forma-shakllari», «insoniy xayotning zarurligi va uning sotsial konteksta», «qishloq jamiyatining asosiy strukturasi», «sotsial jarayonlar», «ijtimoiy madaniy xolatlar», «sotsial hayotni ilmiy urganish» vazokazolar sotsiologiyaning predmeti bula oladi, deb hisoblaydilar bir guruh sotsiolog olimlar. Sotsiologiya kursining predmeti boshqa fanlar predmetiga uxshash fanning asosiy vazifasi, maqsadi va funksiyasi, qonun va kategoriyalarini belgilab berish bilan bu fan nimani urganadi va nimani urgatadi kabi yo'nalishlarini ham aniqlab beradi. Bu fanning predmetini aniqlashda sotsial ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu xodisa va jarayonlardagi sifat kursatgichlarga e'tibor beriladi, jamiyatning sotsial va ijtimoiy munosabatlarini vujudga keltiradigan xolatlarni, uni aniqlaydigan shakl va forma, mazmunlarini o'z ichiga oladigan jarayonlar asosiy rol uynaydi. Ular quyidagi guruhlarga bulinadi:

1. «Uzaro insoniy aloqalar», «uzaro guruh aloqalari va munosabatlari», «uning natijalari», «insoniy sotsial munosabatlar», «sotsial institutlar», «sotsial tashkilotlar va ularning insoniy xarakterga munosabatlari», «sotsial harakatlar sistemasi», insoniy jamiyat va inson xakteri (qiyofasi)», «ijtimoiy tartib va tartibsizlik tabiati», «sotsial guruhlar», «qishloq jamiyati formalari», «insoniy mavjudot va uning konteksti», «qishloq jamiyatining asosiy strukturasi», «sotsial jarayonlar», «ijtimoiy madaniy xolatlar», «sotsial hayotni ilmiy o'rganish» va xokazolar birinchi guruh fikrlaridir.

2. Ikkinchi guruh fikrlariga quyidagilar kiradi (ya'ni ikkinchi guruh olimlari fikri): Xalqaro sotsial-ijtimoiy ensiklopedik olimlar fikricha bu fan predmeti shundan iboratkim, ya'ni bu fan-«sotsial ijtimoiy-siyosiy agregatlar, guruhlar va ularning institutsional (ya'ni ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari kurinishi), tashkilotlar, uyushmalar, institutlar va ularning faoliyatlari va bu institutlar va ijtimoiy-siyosiy

tashkilotlar sistemasi va faoliyatlari jarayonidagi tub uzgarishlar»ni urganadi deb kursatiladi.

3. Uchinchi guruh olimlar fikricha, ya'ni sotsial guruhlar ularning vakillari asosida tashkil topgan birlikda faoliyat kursatiladigan kishilar hayotida yuz beradigan butun voqealar, xodisalar, tashkilotlarning rivojlanishi jarayonlarini» urganish,-deb hisoblaydilar. Yana bir qancha ana shunday fikrlarni keltirish mumkin. Ammo, xali uning konkret predmeti aniq emas. Bu fikrlarning qanaqa bulishidan qat'iy nazar bu fan iqtisodiy-siyosiy hayotda kishilar ijtimoiy-siyosiy faoliyatining hamma jabhalarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, goyaviy, madaniy va boshqa tomonlarini qamrab oladi va ularga taaluqli ijtimoiy-siyosiy protsesslarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganadi. Shunday qilib, bu fan ma'lum tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, faollashgan ijtimoiy siyosiy sistemalarning umumiy va spetsifik xarakterini, mazmunini ularning sotsial siyosiy qonun va qonuniyatlarining vujudga kelishi, taraqqiyoti va faolligini urganadigan fandır. Bu fan jamiyatning sotsial-siyosiy taraqqiyoti, rejali rivojlanishi, sotsial siyosati, sotsial munosabatlari, sotsial siyosiy sistemasining mohiyatini, uning iqtisodi, siyosati, ijtimoiyiyati va mafkuraviy-ma'naviy, madaniy qiyofasi va ularning uzaro bogliqligini urganadi.

Shu bilan bu fan:

1. Jamiyatdagi turli guruhlar, individlar va ularga xos ijtimoiy-siyosiy hayotning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini;

2. Shunga muvofiq xozirgi davrga muvofiqlashgan ijtimoiy siyosiy munosabatlarni (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, goyaviy) va ularga muvofiq har bir individning o'zaro holatlari va x.k.);

3.Turli individ va guruhlar (ko'proq millat, sinflar, sotsial qatlam va x.k.) bir-biriga jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqea va xodisalar asosida bo'lgan munosabatlarni;

4.Va oqibat natijada turli xil individlar, guruhiarning ijtimoiy-siyosiy jamiyatdagi o'zaro faoliyati va uning natijalarini urganadigan fandır.

Sotsiologiyaning predmetini aniqlashning murakkab tomoni, ijtimoiy hayotning sotsiologiya o'rganadigan qismini aniq ko'rsatib berish qiyinligidadir. Ba'zan sotsiologiyani "jamiyat haqidagi fan" deb ataydilar. Amerikalik sotsiolog Neyl Smelzer sotsiologiyani "jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganuvchi" fan⁸ sifatida belgilaydi. Ammo, bunday ta'rif ancha umumiy tarzda bo'lib, sotsiologiyaning fan sifatidagi aniq chegaraviy mazmunini, mohiyatini belgilab bera olmaydi. Chunki ijtimoiy falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, siyosatshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik kabi ko'plab ijtimoiy va gumanitar fanlar ham jamiyat hayotini ob'ekt sifatida o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, gap sotsiologiyaning boshqa fanlardan farqli o'laroq o'ziga xos predmeti haqida bormoqda. Agarda, "sotsiologiya" so'zining etimologiyasidan kelib chiqsak, sotsiologiya "sotsiallik" jamiyat to'g'risidagi fan ta'limotidir, demakki, «sotsial» tushunchasining aniq mohiyatini, uning sohasini aniqlash zarur.

Ilmiy adabiyotlarda "ob'ekt" va "predmet" tushunchalarining qo'shilib ketish yoki tenglashtirish hollarini ko'rish mumkin. Predmet ham ob'ekt singari ob'ektiv voqelikning aniq yoki o'ziga xos xususiyatiga ega qismi yoki elementlari birligidir. Shu bilan birga har bir fan o'z predmeti bilan boshqasidan farq qiladi. Fizika, ximiya, biologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqa fanlar ham o'z predmetiga ega. Bu fanlarning hammasi tabiat va jamiyatni xarakterlovchi turli xil voqea-hodisa va jarayonlarni o'rganadi. Lekin bu fanlarning har biri ob'ektiv voqelikning:

a) o'ziga xos tomoni yoki o'z sohasini; b) shu fanga xos qonun-qoida va qonuniyatlarini; v) shu qonun va qonuniyatlarning o'ziga xos shakllari va mexanizmlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir ijtimoiy fan jamiyatni, ob'ektiv voqelikni ob'ekt sifatida o'rgana turib, unda o'z predmetini ajratib oladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ob'ektiv voqelikning aynan bir tomoni bir necha fanlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelishi ham mumkin.

⁸ Smelzer N. Sotsiologiya. –M.: 1994. ingliz tilidan tarjima. 37-bet.

Shunday qilib, jismoniy voqelik – ko‘pchilik va tabiiy va texnik fanlarning, sotsial voqelik esa - ijtimoiy va gumanitar fanlarning tadqiqot ob’ektidir.

Turli xil fanlarning bir-biridan farqi shundaki, ular birigina ob’ekt misolida ushbu jamiyatni rivojlantiradigan o‘ziga xos qonun va qonuniyatlarni o‘rganadilar. Aytaylik, jamiyatning rivojlanishi va harakatlanishi shu fanlarning predmeti bo‘lib iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma’naviy, psixologik ehtiyojlardan kelib chiqadi. Bundan tashqari, ushbu ob’ektiv voqelikning alohida qismlari ham shu fanlarning tadqiqot ob’ekti bo‘lib kelishi mumkin: masalan, mehnat, kundalik hayot, ta’lim, oila, shahar, qishloq, siyosiy institutlar va boshqalar iqtisod, sotsiologiya, psixologiya demografiya, huquq va boshqa shu kabi fanlarning tadqiqot ob’ektidir.

G‘arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob’ekti va predmeti muammosi.

Sotsiologiyaning turli yo‘nalishlarida fanning ob’ekti va predmeti muammosini yechish yo‘lidagi g‘oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiyaning turli yo‘nalishlarida fanning ob’ekti va predmeti muammosini echish yo‘lidagi g‘oyaviy-nazariy izlanishlar. Sotsiologiya fani predmeti tadqiqot o‘tkazish faoliyati natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun, sotsiologiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari davomida uning predmeti to‘g‘risidagi tushuncha ham o‘zgarib borgan. Sotsiologiya predmetiga Vesbsterov lug‘atida «sotsiologiya insonlarning sotsial guruhlarining vakili sifatida, birgalikdagi hayotining tarixi, tashkil topishi va muammolarini o‘rganuvchi fan», deb berilgan. Turli sotsiologik ta’limot va yo‘nalishlar vakillari sotsiologiya fani predmeti to‘g‘risida turlicha fikrlar bildirganlar.

Sotsiologiyaning predmet va ob’ektini aniq ajratib berish hozirda sotsiologlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O.Kont sotsiologiyani jamiyat to‘g‘risidagi fan deb bilgan. E.Dyurkgeym esa sotsiologiya predmetini ijtimoiy ma’lumotlar, ya’ni sotsial faktlardan iborat deb bilgan,⁹ nemis sotsiologi G.Zimmel ta’rifiga ko‘ra, - sotsiologiya xususiy ijtimoiy fanlarning bilish

⁹ Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. –М.: 1991. 435-446 с.

nazariyasi,¹⁰ yana bir nemis sotsiologi M.Veberning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy xulq to'g'risidagi fandir.¹¹ Ijtimoiy xulqni M.Veber insoniy munosabatlardan iborat deb bilgan. Insoniy xulq esa o'z navbatida ijtimoiy mohiyatiga egadir.

Mashhur rus sotsiologi P.A.Sorokinning fanni predmeti haqidagi fikri umumiy ma'noga ega bo'lib, u "jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat" deb bilgan.¹² Jamiyat esa ruhiy o'zaro aloqadorlikka ega bo'lgan birliklar majmuidan iborat. Sotsiologiya xuddi shunday o'zaro aloqadoliklardan iborat jamiyat hayotini o'rganadi.

Sovet davri sotsiologlardan V.A.Yadovning fikricha, "sotsiologiya-jamiyatning bir butun organizm ekanligi, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligi to'g'risidagi fan".¹³

Yana bir sotsiolog G.V.Osipov "Sotsiologiya" o'quv qo'llanmasida, sotsiologiya – ijtimoiy tizimlarning funkcionallashuvi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun va qoidalari, qonuniyatlari, bu qonun va qonuniyatlarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatidagi yuzaga kelish va amal qilish shakllari to'g'risidagi fan, deb ta'riflagan.¹⁴

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya– ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funkcionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Yuqorida biz jamiyatning sotsial sohasi sotsial guruhlar, institutlar, sotsial munosabatlar va aloqalar, sotsial sistemalar sotsiologiyaning, uni o'rganishning o'ziga xos oblasti, sohasi ekanligini ta'kidlab o'tdik, ya'ni sotsiologiyani fan sifatida sotsiallikni o'rganadi, deb aytish mumkin ekan. Bundan kelib chiqib sotsiologiyaning fan sifatidagi predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Sotsiologiya - sotsial sistemalarning yuzaga kelishi, funkcionallashuvi va rivojlanishini, ularning strukturasini, komponentlarini sotsial birliklar, sotsial

¹⁰ История буржуазной социологии XIX начала XX веков. –М.: 1979. 183-с.

¹¹ Вебер М. Наука как призвание и профессия. Избр. произв. –М.: 1990. 627-628 с.

¹² Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. –М.: 1992. 27-с.

¹³ Социология. –М.: Мысль. 1990. 25 с.

¹⁴ Социологические исследования. –М.: 1990. №2.

tashkilotlar va institutlar, shuningdek, ularning jamiyatda tutgan o'rnini, ehtiyojlari va qiziqishlarining qondirilishiga muvofiq ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni o'rganuvchi fandır.

Sotsiologiya o'z ob'yekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarda inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rnini, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus ob'yekti asosida yakka shaxs faoliyatining, konkret namoyon bo'lishining empirik darajasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy hayot masalalarini o'rganish doirasi kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham, uning o'rganish ob'ekti ham borgan sari kengayib, chuqurlashib bormoqda.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Sotsiologiya fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
2. Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari nima tashkil qiladi.
3. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar, ularning o'zaro aloqadorligi hamda asosiy farqi.
4. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlarini sanab bering.
5. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiyaning vazifasi.

1.3 Sotsiologiyaning ijtimoiy va harbiy fanlar tizimida tutgan o'rnini.

Reja:

1. Ijtimoiy fanlar tizimida sotsiologiyaning o'rnini.
2. Sotsiologiyaning iqtisodiyot fani bilan dialektik aloqadorligi.
3. Sotsiologiya falsafa fani bilan ham uzviy bog'li.
4. Huquq fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning tutgan o'rnini.
5. Harbiy-sotsiologiya harbiy xizmatchining shaxsiy sifatlarining umumiy muammolarini tadqiqot qilishdagi o'rnini.

Tayanch iboralar: jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, ma'daniyat sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi, sotsiologiyaning asosiy tarmoqlari.

Endi bevosita fanlar bilan aloqadorligi xususida fikr yuritamiz. Sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, huquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida yanada ortib bormoqda. Har bir alohida olingan katta-kichik ijtimoiy tizim tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatning boshqa tizimlari bilan dialektik a'loqada, munosabatda bo'ladi. Shuning uchun, ayrim olingan ijtimoiy tizim tadqiqi jamiyat taraqqiyotning umumiy qonuniyatiga o'zaro mos tushgandagina to'g'ri va ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy voqelik zanjiridagi biron-bir xalqa tadqiqotchining e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas.

Ijtimoiy hayot masalalarning o'rganish doirasi tobora kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham tobora kengayib bormoqda.

Masalan, hozirgi zamon sotsiologiyasi asosida, "fanlar sotsiologiyasi", "madaniyat sotsiologiyasi", "ergonomika", "boshqaruv sotsiologiyasi", "mikro-sotsiologiya" kabi sohalar shakllanadi. Ikkinchi tomondan, sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan dialektik a'loqadorligi kuchayib bormoqda.

Sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, huquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yanada ortmoqda.

Sotsiologiya fani olamni anglash jarayonini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida tarix, falsafa, psixologiya, etnografiya, san'atshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Zero, har qanday amaliyotga murojaat, har bir ilmiy tahlil natijaviy mo'ljalni nazarda tutmog'i, ob'ektiv voqelik xususidagi bilimlarimizni kengaytirmog'i, ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashmog'i, taraqqiyot istiqbollarini belgilashga yordam bermog'i lozimdir.

Iqtisod fanlari bilan sotsiologiyaning dialektik aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol jarayonlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat shakllanishi jarayonida uning ahamiyati juda kattadir. Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va unga bog'liq bo'lgan barcha muammoni hal etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sotsiologiya jamiyatda va uning iqtisodiy hayotida o'ta muhim vazifalarni o'taydi. Sotsiologiya iqtisod fanlari bilan, ularning o'rganish ob'ekti bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, o'z navbatida, shu sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari iqtisodiyot muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya falsafa fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Sotsial falsafa qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlar, eksperimentlar yordamida ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning qanchalik to'g'ri, mazkur ijtimoiy davr mazmuniga mos yoki ularning eskirib, ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob beraolmay qolganligini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Ammo, sotsiologiya har qanday siyosiy va idealogik tizimdan holi bo'lsagina, uning yuqorida ko'rsatilgan ilmiy qimmatini saqlanadi.

Huquqiy davlatni shakllantirib, uni yanada rivojlantirishda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish katta ahamiyatga ega. Huquqiy tashkilotlarga faoliyatini yangi davr talablariga mos ravishda tashkil etish, ularning ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ta'sirini takomillashtirishga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Sir emaski, keyingi vaqtda jinoyatchilik ortdi. Jinoyatga qarshi kurash va uning oldini olish – davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Unga qarshi kurash jinoyat sodir

etilgandan so'ng emas, balki unga qadar olib borilmog'i lozim. Jinoyatchilikning oldini olish, uning tub mohiyatini, motivi va keltirib chiqarayotgan sabablarning o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Demak, huquq fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning o'rnini kattadir.

Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, milliy ongning rivojlanishida, hozirgi murakkab iqtisodiy o'tish davrida kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ma'naviy munosabatlar, tamoyil va normalarning ichki mohiyatini, rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda sotsiologiya bilan aholishunoslik fanlarining dialektik o'zaro aloqadorligi juda ham zarur. Sotsiologik tadqiqot asosida axloq fani jamiyat hayotidagi o'z mavqeini yanada oshiradi.

Jamiyat rivojlanishi bilan kishilarning estetik ehtiyojlari ham o'zgarib, yanada rivojlanib boradi. Kishilardagi bu ehtiyojni o'rganish va ijobiy sifatlarni shakllantirishda, tarbiyalashda sotsiologik tadqiqotlarning natijalari, xulosa va takliflari o'zining ilmiy qimmatiga ega. Shu jihatdan sotsiologiya fani nafosat estetika fani bilan o'zaro bog'liq.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish kishilardagi o'zini ko'zlash, o'z shaxsiy manfaatini jamiyat, millat manfaatidan ustun ko'rishlik hollari kuchaymoqda. Kishilarda halovatlik, asabiylik ortmoqda. Odamlardagi asabiylikning ortishi xuddi yuqumli virus kabi tez tarqalib, ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ushbu muammolarni o'rganish va hal etish borishda sotsiologiya bilan psixologiya fanlarining hamkorligi muhimdir.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki qadamlari, a'niqsa ta'lim-tarbiya jarayonida juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchi yoshlar dunyoqarashida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Nafaqat o'quvchi – yoshlarda, balki pedagog-o'qituvchilar tarkibida ham jiddiy muammolar kelib chiqmoqda. O'quvchilar ongida ilmdan qaytish, fanga e'tiborsizlik, yengil mehnat evaziga yaxshi yashash, ko'p pul topish «instikti» kuchaygan. Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkin: milliy pedagogika hozirda sotsiologik tadqiqotlarga muhtoj. Bu tadqiqotlarning natijalari qanchalik beshafqat bo'lmasin, ulardan to'g'ri xulosalar

chiqarish va amaliy tadbirlar ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, sistemali tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Chunonchi, tarihiy ma'lumotlarni, manbalarni to'plash, ularning haqqoniyligini aniqlash, tarihiy shaxslar esdaliklaridan, tarihiy voqealar guvohlarining xotiralaridan keng foydalanilgan. Masalan, At-Termiziy, Imom Al Buxoriy kabi hadisshunoslar, Abu Rayhon Beruniy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Xerman Vamberi kabi buyuk mutafakkir olimlar o'zlarining tarihgga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar. Tarixiy voqealarga boy bo'lgan bugungi kunimiz ertangi kelajagimiz uchun o'tmish sahifalariga aylanadi. Shunday ekan, hayotimizning keng qamrovli sohalarining ilmiy sotsiologik tadqiqotlari va tahlili natijalari tarix fani uchun xizmat qilishi tabiiy.

Asrimizning keyingi bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatning keskinlashuvi – sotsiologiyaning tabiatshunoslik fanlari bilan aloqadorligini kuchaytiradi. Insonning tabiatiga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muammolarni hal etishga jalb qiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasini matematikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum bir qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa, uning empirik darajadagi tadqiqot o'tkazishdagi o'rni katta. G'arb sotsiologiyasi kibernetik usullardan, axborot nazariyasi, uyin nazariyasi bilan muvaffaqiyatli rivojlantirilgan. Ularda maxsus matematik usullardan daraja ko'rsatkichi, omillik, sababli va sirtidan tahlil qo'llanilmoqda. Sotsiologik tadqiqotlarni keng va unumli foydalanilmoqda.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida sotsiologiya va texnika fanlar aloqadorligi tabiiydir. Chunki, “inson – texnika”, “jamiyat-texnika”, “maishiy turmush – texnika” kabi tizimlarni ilmiy o'rganish ular zimmasiga yagona vazifani yuklaydi. Inson yaratgan barcha texnika faqat inson va jamiyatning ijobiy taraqqiyotiga

xizmat qilsin. Ammo, doimo kutilgan natija bo'la olmaydi. Ularni o'rganishda esa sotsiologiya fanining roli beqiyosdir.

Jamiyat hayoti va inson faoliyatining turli jihatlarini o'rganish jarayonida yuqorida nomi tilga olingan fanlar tarkibida ijtimoiylik yo'nalishi mavjud bo'ladi. Shu jihatdan, o'z navbatida ularning sotsiologiya fani rivojlanishidagi ahamiyati kattadir. Sotsiologiya fanining tobora taraqqiy etishi, ilmning differentsiallasuvi, ko'plab alohida va maxsus sotsiologik nazariyalarning tarkib topishga ham olib keladi.

Sotsiologiya fani statistika fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta shu sohadagi predmetning konkret holatini, real voqelik manzarasini statistik manbalardangina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan ko'p tomonlama aloqalari, jamiyatdagi muammolarni samarali yechishda katta yordam beradi. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar umumnazariy metodologik va xususiy sotsiologik maktablar bilan bevosita ish yuritadi. Shunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologiya fanlaridan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko'plab ijtimoiy gumanitar fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda ham maxsus xususiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi. Bu esa uni zamonaviy ijtimoiy gumanitar fanlar tizimidagi o'rni aniqlab beradi.

Siyosiy sotsiologiya va jamiyat, ijtimoiy tuzum va institutlar, jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik to'g'risidagi fan bo'lib, u bevosita sotsiologiya bilan jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini birgalikda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Sotsiologiya fani siyosatshunoslik fani bilan uzviy aloqada bo'ladi. Sotsiologiya siyosatshunoslik uchun jamiyatda mavjud bo'lgan guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga doir ko'plab ma'lumotlarni tayorlaydi va ynga yetkazib

beradi. Sotsiologiya o'zining 2 yo'nalishi orqali siyosatshunoslik fani bilan yanada bog'lanadi:

a)Sotsiologiya va siyosat

b)Sotsiologiya va siyosat munosabat

Siyosiy sotsiologiya tushunchasi bizga ijtimoiy siyosatni, ijtimoiy hayotning siyosiy oqimini, ichki siyosatining ijtimoiy yo'nalganligini anglatadi. Sotsiologiya sistemasida siyosat sotsiologiyasi, davlat sotsiologiyasi , hokimiyat sotsiologiyasi, siyosiy munosabatlar sotsiologiyasi kabi yirik predmetlarning alohida predmeti sifatida mavjudligi bejiz emas.

Sotsiologiya va siyosatshunoslik fani ham siyosatning ijtimoiy muhitga qiladigan ta'sirini o'rganadi. Ammo siyosatshunoslik fanidan sotsiologiyaning farqi siyosiy sotsiologiya jamiyat a'zolarining ijtimoiy hayotida yuz beradigan o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishini hamda mehnat jamoalari, aholi turli qatlamlarining fikr mulohazalarini umumlashtirish asosida xulosalar qiladi. Siyosiy sotsiologiyada qilingan xulosalar asosida amaliy ko'rsakichlarga, matematik hisob – kitoblarga asoslanadi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.

2. U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.

3. U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. Ya'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.

4. Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.

Sotsiologiya va jurnalistika: Jurnalistikani sotsiologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning vazifasi kishlar turmushini yaxshlashga yordam bera oladigan haqiqiy axborotni aholi o'rtasida tarqatishdir. Jurnalistlarda sotsiologik tafakkur, voqelikni sotsiologiya metodlari o'rganish ko'nikmalarinig mavjudligi ularning professional va siyosiy madaniyatidan guvohlik beruvchi yetuklik zarur belgisidir.

Sotsiologiya faning rivojlanishi uchun antropologik yo'nalish juda muhim ahamiyatga ega, chunki u turli tuman ijtimoiy hayotning kaleydoskopini ko'rish imkonini beradi. Ularni o'z hayotimiz bilan solishtirar ekanmiz, xulqimizning o'ziga xos noyob xususiyatlari to'g'risida ko'proq narsa bilib olamiz¹⁵.

Tibiiy fanlar bilan bog'liqligi: Asrimizning keying bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarinig keskinlashuvi– sotsiologiyaning tabiatshunoslik fanlari bilan aloqadorligini kuchaytirdi. Insonning tabiatga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muommolarni hal etishga jalb qiladi.

Harbiy-sotsiologiya Qurolli Kuchlarning ichidagi umumiy tizimlarini, ularning o'zaro hamkorligi hamda harbiy xizmatchining shaxsiy sifatlarining umumiy muammolarini tadqiqot qilishni ifodalaydi. Shuningdek harbiy xizmatchi shaxsi va ijtimoiy muhitni uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi. Umumiy sotsiologiya doirasida, u tinchlik va urush davrida harbiy tashkilotning ijtimoiy institut sifatida ishlashi va rivojlanishi, shakllanishi (tashkil topishi) qonuniyatlarini uning boshqa ijtimoiy institutlar, tashkilotlar va jamiyat bilan o'zaro hamkorliklarini o'rganadi, shuningdek, tashkilot ichidagi ijtimoiy guruhlar va umumiylik o'rtasidagi ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarni o'rganadi. Shu bilan birgalikda harbiy-sotsiologiya harbiy jamoada harbiy xizmatchilarning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib borish, harbiy faoliyatda mavjud ijtimoiy muammolarni to'la-to'kis ochib berish va harbiy jamoadagi munosabatlar istiqbolini belgilashni nazariy hamda amaliy jihatdan o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

¹⁵. Giddings E. Sotsiologiya. –T.: 2002 .42.b

Umuman sotsiologiya tabiiy fanlar bilan ham uzviy bogʻlanib ketgan. Sotsiologiyada raqamlar yordamida turli ijtimoiy munosabatlar tadqiq qilinadi, oʻlchanadi va uning natijalari ommaviy axborot vositalari orqali habar qilinadi. Sotsiologiya faning rivojlanishi uchun antropologik yoʻnalish juda muhim ahamiyatga ega, chunki u turli tuman ijtimoiy hayotning kaleydoskopini koʻrish imkonini beradi. Ularni oʻz hayotimiz bilan solishtirar ekanmiz, xulqimizning oʻziga xos noyob xususiyatlari toʻgʻrisida koʻproq narsa bilib olamiz.

Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida oʻrin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va maʼnaviy munosabatlar oʻz oʻrnini yangisiga osonlikcha boʻshatib bermaydi. Buning uchun maʼlum vaqt kerak. Sotsiologiya shu vaqt davomida maʼnaviyatda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega boʻlgan tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy fanlar tizimida sotsiologiyaning tutgan oʻrni qanday.
2. Sotsiologiyaning iqtisodiyot fani bilan dialektik aʼloqadorligi nimada.
3. Sotsiologiya siyosatshunoslik fani bilan ham uzviy bogʻli.
4. Fan taʼlimni rivojlanishida ham sotsiologiyaning oʻrni.
5. Harbiy-sotsiologiyaning harbiy faoliyatdagi ahamiyati.

1.4 Harbiy sotsiologiyaning rivojlanish tarixi maqsad va vazifalari

Reja:

1. Harbiy sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanishi.
2. Fransiya, Angliya, Germaniya maʼrifatparvarlari asarlaridagi harbiy mavzularning falsafiy asoslari.
3. Rossiya harbiy sotsiologiyasining evolyutsiyasi bosqichlari.
4. Zamonaviy harbiy sotsiologiyaning xususiyatlari
5. Harbiy xizmatchilar va oilalarining ijtimoiy himoyasi.

Tayanch iboralar: harbiy xizmatchi, oila, jamiyat, tarbiya, xususiyat, moddiy, maʼnaviy, ofitserlar, er-xotin, sotsiomadaniy, polemologik, urush va tinchlik, “urush sotsiologiyasi”, “armiya sotsiologiyasi”, nazariy-kognitiv, pragnoztik, mikrosotsiologiya, makrosotsiologiya

Harbiy sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayoniga bir qator zarur shartlar katta ta'sir ko'rsatdi:

1) urush va tinchlik o'rtasidagi munosabatlar g'oyalari, urushlarning manbalari va sabablari, dunyoning mohiyati va qadimgi mifologiyada, eposlarda, qadimgi dunyo mutafakkirlari asarlarida, shuningdek, Rim imperiyasi faylasuflarining asarlarida uni saqlash yo'llari to'g'risida masalalarni ko'rib chiqish;

2) qadimgi Xitoy va qadimgi hind mutafakkirlari, faylasuflari asarlarida urush va tinchlik masalalarining nazariy umumlashtirilishi;

3) Fransiya, Angliya, Germaniya ma'rifatparvarlari asarlaridagi harbiy mavzular jamoat hayotining ziddiyatlarini falsafiy asoslari bilan: T. More, T. Kampanella, E. Rotterdam, T. Xobbs, J. J. Russo, Volter, Sh. Monteske, F. Bekon, I. Kant, G. Xegel, K. Klauzevits va boshqalar. Biroq, jamiyatdagi urush va tinchlik holati hodisasi va muammolarini ilmiy-falsafiy asoslashning keng manbaviy materialiga qaramay, fransuz sotsiologi Mishel Martinning fikriga ko'ra, chet el harbiy sotsiologiyasi 1960 yillarda paydo bo'lgan.

Rossiya harbiy sotsiologiyasida chet el harbiy sotsiologlari (M. Janovits, C. Moskos, R. Vodt, J. Eberli, L. Mandevil, A. Bebler va boshqalar) faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar deb hisoblanadi. Armiyaning qarindosh sifatida rivojlanishini sotsiologik tushuntirish davlatning qudratli instituti. Uning doirasida bir qator muhim masalalar:

- armiyaning yuqori ijtimoiy ahamiyatini, jamiyat va armiya manfaatlari birligini, shuningdek, harbiy munosabatlarni demokratlashtirish muammosini, "harbiy kiyimdagi fuqaro" sifatida harbiy pozitsiyani asoslash;
- urushning oldini olish, ya'ni turli xil miqyosdagi to'qnashuvlarni siyosiy vositalar bilan hal qilishning ustuvorligi ilmiy asoslash;
- jahon hamjamiyatida bosqichma-bosqich to'planib borishi sababli yadro qurollari chegarasini pasaytirish zarurligini tan olish;
- zamonaviy urushlarning insoniyat uchun oqibatlari;
- qurol-yarog ishlab chiqarishni to'xtatish va mamlakatlar o'rtasida

ishonchni mustahkamlash choralari ishlab chiqish zarurati;

- sayyoramizga yadro qurolining tarqalishidan insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun xavf haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish.

Harbiy sotsiologiyaga oid asarlarni o'rganayotganda, uning AQSh, Fransiya, Angliya, Germaniya olimlari tomonidan turli xil ilmiy darajalariga e'tibor bermaslik mumkin emas. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatlarning har birida uning rivojlanish xususiyatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Qo'shma Shtatlardagi harbiy sotsiologiyaning mazmunli va institutsional shakllanishining xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- 1) urush sotsiologiyasining ilmiy rivojlanishini bir vaqtning o'zida amalga oshirish, uning mavzusi urush sabablarini tahlil qilish va tinchlikni saqlash yoki unga erishish uchun sharoit, shuningdek harbiy sotsiologiya, u qurolli kuchlarda inson hayotining barcha ijtimoiy jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan turli xil muammolarni hal qilishi kerak va birinchi navbatda - jangda askarning xatti-harakatlarini o'rganish;

- 2) muammolarni hal qilishda jamiyat va qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkiloti o'zaro ta'sirini ilmiy tushuntirish: davlatdagi ichki ijtimoiy tartibsizlik; strategiya (professional harbiylarning aniq sohasi) va siyosat (fuqarolik hukumatining aniq javobgarligi) o'rtasidagi farq; harbiy muassasalarda fuqarolik mutaxassislarining ulushini oshirish orqali harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish;

- 3) Ikkinchi Jahon urushi davrida amaliy va nazariy harbiy sotsiologiyaning S.E.Stauffer tomonidan harbiy qismlarda axloqiy iqlimni, kayfiyatni va harbiy xizmatchilarning munosabatlarini doimiy ravishda keng miqyosda o'rganish sharoitida rivojlanishi;

- 4) qurolli kuchlar, milliy tashqi siyosat, Amerika jamiyati oldida hal qilinadigan vazifalarning amaliy yo'nalishi, bu esa o'z navbatida Amerika harbiy sotsiologiyasining fundamental asoslarini yaratishga imkon berdi. Harbiy-ijtimoiy voqelikni o'rganishda o'ziga xos yondashuv fransuz sotsiologlari tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlarini pollemologiya - urush faniga

yoʻnaltirishgan.

Fransiya urush sotsiologiyasining "polemologik" yondashuvining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) "harbiy sotsiologiya" turiga koʻra izlanishlarni qatʼiy taqsimotining yoʻqligi: "urush sotsiologiyasi", "armiya sotsiologiyasi";

2) urush haqidagi sotsiologik bilimlarni "oxir-oqibat polemologiya" va "strukturaviy polemologiya" boʻyicha farqlash;

3) urush boshlanishini taxmin qilib, turli xil alomatlarni oʻrganish (mojarolar xabarchilari); dunyo hodisalari, uning ijtimoiy jihatlari, barqarorligining shakli va holati, shuningdek, urushga oʻtish jarayoni va u bilan almashinish; jamoaviy va individual. Samuel Endryu Sgauffer (1900-1960) - AQSh harbiy sotsiologiyasining asoschisi, "Amerika askari" klassik monografiyasining yozma guruhi rahbari, shuningdek "Oʻlchash va bashorat qilish", "Sinov gʻoyalarida sotsiologik tadqiqotlar" va boshqalar. Fransuz sotsiologi Gaston Butul (1886-1980) Fransiya Polemologiya (urush) institutini asos solgan va boshqargan.

Germaniyada zamonaviy harbiy sotsiologiyaning shakllanishining boshlanishi 1950 yillarning oʻrtalari deb hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar imkoniyatlaridan foydalanishga qaror qilingan paytdan boshlab tashkiliy tadbirlarning istalmagan va kutilmagan lahzalarini va qurilayotgan armiyaning navbatdagi faoliyatini oldini olish uchun. Germaniyada harbiy sotsiologiya rivojlanishining xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi.

1) uning shakllanish manbalarining qutbliligi: bir tomondan, nemis mumtoz falsafasida urush va tinchlikning nazariy va uslubiy asoslari, ikkinchidan, empirik yoʻnaltirilgan Amerika sotsiologiyasining anʼanalari. Ularning birligi marksistik sotsiologiyaning asosiy qoidalarini tanqid qilish asosida sodir boʻldi;

2) jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonini oʻrganish; bundesver va jamiyat oʻrtasidagi dialog; xizmatga, armiyaga (ishonchga), jamoaviy xavfsizlikka munosabat; Germaniyaning qoʻshnilar bilan oʻzaro munosabatlarining tarixiy jihatlari; harbiylarning ruhiy holati;

3) tadqiqotning ustuvor yoʻnalishlarini tinch yoʻnalishga oʻzgartirish, yaʼni

qurolsizlanish, qurolli kuchlarni qisqartirish, xalqaro keskinlikni pasaytirish va umuman urushning oldini olish masalalarini o'z vaqtida hal qilish. Shunday qilib, shaxs va jamiyat hayotining harbiy sohasidagi zamonaviy sotsiologik kontseptsiyaga turli mamlakatlar olimlarining ilmiy ishlari ta'sir ko'rsatdi. Ilmiy maktablar, o'zlarining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramay, baribir bitta g'oya - tinchlikni saqlash majburiyati bilan birlashtirilgan.

Rossiya harbiy sotsiologiyasining evolyutsiyasi bosqichlari.

Bir asrlik uzoq vaqt davomida harbiy sotsiologiya tez rivojlanish va yuksalish davrlari bilan bir qatorda "to'liq unutish" yoki qiyin hayot deb nomlangan davrlar bilan birga keldi, ularga, bir tomondan, qattiq g'oyaviy asoslar sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, - davlat va harbiy boshqaruv organlariga talabning etishmasligi Rossiya harbiy sotsiologiyasining kelib chiqishi va shakllanish tarixini tahlil qilish uning hozirgi rivojlanish darajasini, shuningdek, ushbu ilmiy bilimlar tarmog'ining shakllanishiga mahalliy olimlarning hissasini va sotsiologik bo'linmalar faoliyatining bevosita natijalarini ob'ektiv baholashga imkon beradi.

Rus harbiy sotsiologiyasining shakllanishida odatda quyidagi bosqichlarni shartli ajratish qabul qilingan.

I. Urushni o'rganishga sotsiologik yondashuvning paydo bo'lishi va shakllanish bosqichi (19-asr oxiri – 1917y). Bu birinchi nazariy asarlarning paydo bo'lishi va rus armiyasida empirik amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish bilan tavsiflanadi. O'z mazmuniga ko'ra u jahon harbiy sotsiologiyasining bosqichiga o'xshaydi.

Zamonaviy rus harbiy sotsiologiyasida ushbu bosqichning xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- harbiy sotsiologiyaning dastlabki shakllanishi ijtimoiy sotsiologiya, umumiy sotsiologiya va harbiy fanlarning nazariy va uslubiy asoslari asosida urush sotsiologiyasi sharoitida sodir bo'ldi;

- urushni ijtimoiy hodisa sifatida sotsiologik o'rganish uning qurolli kurash mazmuniga emas, balki jamiyatning turli sohalariga ta'sirini tahlil qilishga

qaratilgan;

- harbiy fanlarda pozitivistik tendentsiyalarning keng tarqalishi qurolli kurash qonunlari va tamoyillarini aniqlashga qaratilgan harbiy sotsiologiyaning ("urush sotsiologiyasi") paydo bo'lishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratdi;

- Rossiya harbiy sotsiologiyasi 1917 yilgacha xorijiy harbiy sotsiologiyaga mos ravishda rivojlanib, o'rganilgan ayrim muammolarda etakchi mavqega ega edi. Harbiy hodisalar nuqtai nazaridan ijtimoiy hodisalar. "Uning so'zlariga ko'ra, "harbiy psixologiya bilan parallel ravishda harbiy-ijtimoiy hodisalar haqidagi fanni harbiy sotsiologiya deb atash mumkin" 1967 yil 13 noyabrda SSSR Mudofaa vazirining ko'rsatmasi bilan SA va Dengiz floti bosh siyosiy boshqarmasining Harbiy sotsiologik tadqiqotlar bo'limi tashkil etildi.

1) Sovet Rossiyasida bu "burjua" sotsiologiyasining siqib chiqarilishi, marksistik yondashuvning shakllanishi, shuningdek keskin tanqislik fonida qo'shinlar va dengiz kuchlarida amaliy tadqiqotlarning o'sishi bilan ajralib turadi, bundan tashqari, sotsiologiya bo'yicha nazariy asarlarning yo'qligi;

2) rus diasporasida u urush sotsiologiyasining nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy harbiy sotsiologiyada harbiy sotsiologik bilimlarni rivojlantirishning ikkinchi bosqichining ajralib turadigan xususiyatlariga quyidagilar kiradi.

- marksistik sotsiologiyaning davlat darajasida ustuvor rivojlanish va 1922 yilda rus sotsiologlari va harbiy olimlarining quvib chiqarilishi sababli "burjua" sotsiologiyasining joyidan siljishi, bu Sovet Rossiyasining ilmiy salohiyatini sezilarli darajada zaiflashtirdi; qizil armiyadagi ijtimoiy muammolarni sotsiologik o'rganish (ijtimoiy-statistik tadqiqotlar ko'rinishida), faqat ijtimoiy sinfiy munosabatlar prizmasi orqali amalga oshirilgan va fundamental nazariy va uslubiy ta'minotdan mahrum bo'lgan;

- harbiy sotsiologiyani (umuman ichki sotsiologiyani ham) qonuniy va amalda taqiqlash tendentsiyalari o'sib bormoqda, bu 30-yillarning oxiriga kelib butunlay yo'q qilindi. empirik tadqiqotlar olib boradigan harbiy organlarni

boshqarish faoliyatidan;

- rus olimlari tomonidan muhojirlikda fundamental harbiy-sotsiologik nazariyani yaratish muvaffaqiyat bilan to'la to'lib toshishi mumkin emasligi, chunki ularning nazariy va uslubiy asoslari, afsuski, empirik materiallardan mahrum edi.

3). Institutlararo taqiqlash bosqichi (30-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlari).

Bunga dastlab mustaqil maqomini yo'qotish bilan birga kelgan ilm-fan, chunki u faqat amaliy tadqiqotlar darajasida mavjud edi. Keyinchalik uning mavhum-nazariy pozitsiyasini almashtirish tarixiy materializmni, ya'ni "marksistik-lenincha ta'limot urush va armiya" va keyin amalda har qanday narsani ushlab turishni taqiqlashamaliy sotsiologik tadqiqotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar.

4). Harbiy sotsiologiyani tiklash va institutsionalizatsiya qilish bosqichi

(1960-yillarning o'rtalaridan hozirgi kungacha). Bu final bilan tavsiflanadi harbiy sotsiologiyani sotsiologiyaning maxsus sohasiga rasmiylashtirish amaliy harbiy sotsiologik tadqiqotlarning jadal rivojlanishi, nazariy va uslubiy yangi harbiy sotsiologik bilimlarning rivojlanishi. Harbiy sotsiologiyaning ushbu rivojlanish davrida ikki davr aniq ajratilgan:

1) 1965-1988 yillar - harbiy sotsiologiyaning tiklanishi. Bu faqat amaliy harbiy sotsiologik tadqiqotlar bilan uni aniqlashga yondashuvlarning ustunligi, kunduzgi sotsiologik bo'linmalarning shakllanishi va faoliyati va qurolli kuchlar tarkibida harbiy sotsiologlar uchun o'qitish tizimini yaratilishi hisobiga tez o'sishi bilan tavsiflanadi;

2) 1989 yildan hozirgi kungacha - harbiy sotsiologiyaning jadal rivojlanishi. Ushbu davr nazariy va uslubiy asoslarning rivojlanishi va harbiy sotsiologiyaning akademik intizom sifatida shakllanishi, qo'shinlar va dengiz kuchlarida olib borilayotgan muntazam keng ko'lamli amaliy harbiy sotsiologik tadqiqotlar tajribasini to'plash, harbiy sotsiologlarni tayyorlashning ko'p bosqichli tizimining faoliyati bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy harbiy sotsiologiyaning xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi.

- aniq harbiy sotsiologik tadqiqotlar nazariyasi, metodologiyasi va metodikasi bo'yicha birinchi ilmiy nashrlarning paydo bo'lishi;
- 1960 yillarning oxirlarida paydo bo'lishi. sotsiologiya fanining bir bo'lagi sifatida harbiy sotsiologiyaning nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirish tendentsiyalari;
- VII Jahon sotsiologik kongressidan (1970 yil sentyabrda Varna shahrida bo'lib o'tgan) harbiy sotsialistlarga xalqaro tadbirlarda qatnashish imkoniyatini beradigan Sovet sotsiologik assotsiatsiyasining harbiy kafedrasini qonuniy ro'yxatdan o'tkazish;
- tadqiqot bo'linmalarini tashkiliy jihatdan mustahkamlash va sotsiologik profilning ilmiy, pedagogik va o'quv bo'linmalarini yaratish;
- zamonaviy Rossiyaning fuqarolik ilmiy tadqiqot sotsiologik markazlari va mutaxassislari (sotsiologlar-nazariyotchilar va sotsiologlar-amaliyotchilar) tomonidan harbiy sotsiologiya muammolarini o'rganish tendentsiyalari tobora kuchayib bormoqda.

Shunday qilib, ichki harbiy sotsiologiyaning EVOLYUTSIY taraqqiyotining qisqacha tahlili nafaqat harbiy sotsiologik bilimlarga mayatnik talabidan, balki uning keng ilmiy doiralarda dolzarbligi oshganligidan ham dalolat beradi.

Harbiy sotsiologiyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan mahalliy ilmiy dunyo vakillari:

Zamonaviy rus harbiy sotsiologiyasida hukmron nuqtai nazar, rus harbiy sotsiologiyasi chet ellarga qaraganda ancha oldin paydo bo'lganligini tan olishdir. Bu, asosan, taniqli mahalliy harbiy olimlar bilan bog'liq. Milyutin Dmitriy Alekseevich (1816-1912), general-feldmarshal. U umumiy va harbiy statistikani ishlab chiquvchi sifatida tanilgan. "Harbiy statistikaning birinchi tajribalari" kitobida u davlatni, urushni va armiyani harbiy tuzilishini ijtimoiy statikada va dinamikada tahlil qilish zaruriyati va imkoniyatini asoslab berdi.

- Leer Geynrix Antonovich (1829-1904), piyoda general. U urushni insoniyat hayotidagi tabiiy hodisa sifatida o'rganar ekan, "Urush yuritish san'ati

qonunlarini tanqidiy-tarixiy tadqiqotlar tajribasi" asarida strategiya-art (urush olib borish fani) va strategiya-fan (urush haqidagi fan), ya'ni ma'naviy va moddiy dialektikani ko'rib chiqishni taklif qildi.

- Mixnevevich Nikolay Petrovich (1849-1927), piyoda askarlar generali. U "Strategiya", "Harbiy fan va uning xulosalarining aniqlik darajasi" asarlarida u urushni dinamik sotsiologiya bo'limlaridan birini tashkil etadigan insoniyat jamiyatlari hayotidagi hodisa, urushdagi muvaffaqiyat esa ichki siyosatning hosilasi sifatida, o'zaro to'liq kelishuv deb hisobladi.

- Korf Nikolay Andreevich (1866-1917), general-mayor. U "Keng ma'noda tushunilgan strategiyaga umumiy kirish" asarida harbiy fanlar bilan ijtimoiy fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab berdi va harbiy sotsiologiyani ijtimoiy hodisalarni harbiy nuqtai nazardan o'rganadigan fan sifatida ko'rib chiqdi.

- Blioh Ivan Stanislavovich (1836-1901), askar emas. O'zining "Armiya holati va ruhi", "Texnik va siyosiy aloqalardagi kelajakdagi urush" asarlarida u ulkan qo'shinlar paydo bo'lishi, qurol-yarog'ning yangi turlari, shuningdek, zarbalar natijasida hech bir tomon g'alabaga erisha olmaydi va muqarrar ravishda o'ladi deya ta'kidlaydi.

- Golovin Nikolay Nikolaevich (1875-1944), general-leytenant. Asarlarda "Urush ilmi". "Urushni sotsiologik o'rganish to'g'risida", "Harbiy san'at tarixi fan sifatida "urush sotsiologiyasi"ni yaratish va harbiy sotsiologiyani fan sifatida institutsionalizatsiya qilish zarurligini asoslab berdi. U "qo'shinlarning axloqiy chidamliligini" baholash metodikasini ishlab chiqdi, uning empirik ko'rsatkichlari quyidagilardir: jangda qatnashuvchilar sonining "qonli yo'qotishlar" ning 25% chegarasi; "qonli yo'qotishlar" - (o'ldirilgan va yaralanganlar) va mahbuslar tomonidan yo'qotishlar o'rtasidagi munosabatlar; asirlikdan qochgan harbiy xizmatchilar soni; Qo'shinlarning "kasalligi"; armiyada qochish; askarlarning xatlarining mazmuni kabilar tashkil etadi.

- Klado Nikolay Lavrentyevich (1862-1919), ad-miraltiya bo'yicha general-mayor. "Strategiya: kirish", "Strategiya. Kitob 1. Zo'ravonlik to'g'risida "falsafiy va sotsiologik urush tushunchasini taklif qildi, insonning ma'naviy tabiati tufayli

hodisa sifatida qaraldi va uning asosiy sharti u insonning ma'naviy tabiatida o'zgarish tarkibiy elementlarning mavjudligini ko'rdi, uning mavjudligi urushni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, dunyoda harbiy sotsiologik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi, avvalo, mahalliy olimlar - mahalliy harbiy fan vakillari bilan bog'liq deb taxmin qilishimiz mumkin.

Ba'zi hollarda, shaxs uchun yangi sharoitlarda, sotsializatsiya jarayoni kuzatiladi - etarlicha o'zlashtirilmagan yoki eskirgan qadriyatlarning o'rniga yangi qadriyatlarni, rollarni, ko'nikmalarni o'zlashtirish. Ekstremal sharoitda sotsializatsiya omillari (Irving Gofmanning fikriga ko'ra) odatda quyidagicha tasniflanadi:

- tashqi dunyodan ajralib qolish (jismoniy yoki geografik);
- alohida turlar ishlaydigan, dam oladigan, uxlaydigan odamlar bilan doimiy aloqada bo'lish;
- kiyinish marosimi (kiyimni almashtirish) orqali sodir bo'lgan oldingi identifikatsiyani yo'qotish;
- nomini o'zgartirish, eski nomini "identifikatsiya raqami" bilan almashtirish va maqomni olish: askar, mahbus, bemor;
- eski jihozlarni yangisiga moslashtirilmagan, yangisini almashtirish;
- eski urf-odatlardan ajralish va yangilariga ko'nikish;
- harakat erkinligini yo'qotish. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning dastlabki davrlarda, ya'ni "armiya oldida" shakllangan ijtimoiy xususiyatlari, bosqichlari o'zgarishsiz qolmaydi, chunki qayta ijtimoiylashtirish harbiy xizmatchilarga ham xosdir. Bu boshlang'ich o'qishdan tortib, kasbiy qayta tayyorlashgacha bo'lgan ko'plab harbiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Bundan kelib chiqadiki, umuman sotsializatsiya 100% samarali bo'lolmaydi. Biroq, qoida tariqasida, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlikni yo'qotish insonning ham individualligini, ham ijtimoiyligini yo'qotishiga aylanadi, ya'ni uning dotsotsializatsiyasi - shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlari, qadriyatlari, me'yorlari, qoidalaridan bosh tortishi. Bu o'zini shaxsning qobiliyatsizligi yoki uning ijtimoiy zaruriy shakllari va turlarida o'z

imkoniyatlarini amalga oshirishni istamasligi sifatida namoyon qiladi.

Harbiy sotsiologiyaning fan sifatida tuzilishi

Harbiy sotsiologiyaning ob'ekti-predmetli sohasining mazmunini ijtimoiy hamkorlik shakllarini tadqiqot qilinishi tashkil etadi:

jamiyat va armiya o'rtasida, ya'ni harbiy tashkilotlarga nisbatan tashqi aloqalar va munosabatlar;

armiyaning ijtimoiy tuzilishining har xil elementlari (tarkibiy qismlari) o'rtasida, ya'ni harbiy tashkilotda guruhlar ichidagi aloqalar va munosabatlar;

harbiy xizmatchilar o'rtasida, harbiy-ijtimoiy munosabatlar sohibi sifatida, ya'ni shaxslararo ijtimoiy aloqalar va munosabatlar.

Zamonaviy sotsiologiyada harbiy sotsiologiya *maxsus sotsiologik nazariya* sifatida ko'rib chiqiladi va uning o'rganish ob'ekti harbiy tashkilotlar jamoalari va umuman Qurolli Kuchlar hisoblanadi (ularning tuzilmalar tarkibi, harbiy jamoalar, tinchlik va urush davridagi harbiy faoliyat).

Harbiy sotsiologiyaning asosiy predmeti – bu Qurolli Kuchlarda yuzaga keladigan harbiy-ijtimoiy munosabatlar va jarayonlardir, xususan butun organizm, shuningdek, jamiyatning ajralmas qismi sifatida.

Zamonaviy harbiy sotsiologiya uch darajali tuzilishda taqdim etilgan, ularga quyidagilar kiradi:

1. *Harbiy sotsiologiyaning umumiy nazariyasi*. Uning asosi – urush va tinchlik muammolarini xal qilishda har xil umumiyliklar va shaxslarning roli va urnini fundamental tadqiqot qilish, ya'ni, ularning davlat mudofaasiga munosabati, jamiyat va armiya, davlat va armiya, fuqarolik va harbiy tuzilmalar, aniq individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorliklar;

2. *Maxsus (xususiy) harbiy-sotsiologik nazariyalar*, ya'ni o'rta darajadagi nazariyalar. Ushbu daraja armiyaning xayotiy faoliyatini butun ijtimoiy organizm sifatida, Qurolli Kuchlarning ichidagi umumiy tizimlarini, ularning o'zaro hamkorligi hamda harbiy xizmatchining shaxsiy sifatlarining umumiy muammolarini tadqiqot qilishni ifodalaydi. Mazkur darajadagi sotsiologik

nazariyalar doirasida harbiy xizmatchi shaxsini va ijtimoiy muhitni uygʻunlashtirish boʻyicha tavsiyalarni taklif etiladi.

3. Konkret (muayyan) harbiy-sotsiologik tadqiqotlar. Ularning funksional vazifasi – bu harbiy-ijtimoiy reallikning (voqelikni) ijtimoiy faktlarini oʻrganishdir, yaʼni Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari doirasida har xil jamoalar, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy xatti-harakatlari va harbiy mehnatni, shuningdek, armiyaning butunlay hayotiy faoliyatini va alohida sohalar boʻyicha uning ishlashini (harakatlarini) oʻrganish: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy-ruhiy va ijtimoiy.

Ajratilgan harbiy-sotsiologik bilimlarning uchta darajasi oʻzaro chambarchas bogʻliqdir. Konkret (muayyan) harbiy-sotsiologik tadqiqotlarning sotsiologik maʼlumotlariga asosan harbiy sotsiologiyani maxsus (xususiy) va umumiy nazariyasi shakllanadi, ular esa oʻz navbatida empirik (tajribali) tadqiqotlar uchun metodologik (uslubiy) instrument sifatida namoyon boʻladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, harbiy sotsiologiya uchun vazifa sifatida quyidagilar hisoblanadi:

mikrosotsiologiya darajasida – Vatan himoyachisini shakllantirishdagi ijtimoiy jarayonlarni tadqiqot qilish, yaʼni uning ehtiyojlari, talablari, motivlari (sabablari), qiziqishlari, qadriyatlari, har xil sohalarda ijtimoiy hamkorlikdagi ijtimoiy harakatlarini;

makrosotsiologiya darajasida – harbiy xizmat va harbiy majburiyat, harbiy tashkilot (jamoalar) va davlatning oʻzaro hamkorligi, Qurolli Kuchlarni ijtimoiy tashkilot sifatida institutsional (qoida tusini olgan tartiblar) harakatlarini (ishlarini) tadqiqot qilish.

Harbiy sotsiologiyani sotsiologik bilimlarning maxsus sohasi sifatida institutlashtirish jarayonida, zamonaviy bosqichda ularni ishlashini qiyinlashtiradigan quyidagi moyillik va fikrlar kuzatiladi:

harbiy sotsiologiyani ilmiy statusiga nisbatan harbiy xizmatni ijtimoiy institut sifatida va Qurolli Kuchlarni ijtimoiy tashkilot sifatida tadqiqot qilish bilan shugʻullanuvchi maxsus tarmoq (soha) sifatida;

rivojlanishning ob'ektiv (xolis) izolyasiyalanganligi (ajralganligi), chunki, nazariy va metodologik (uslubiy) asoslarni ilmiy ishlab chiqish, harbiy sotsiologlar kadrlarini tayyorlash, Qurolli Kuchlar xayotiy faoliyatidagi muammolarning sotsiologik tadqiqot qilinishi faqat harbiy idora (harbiy qism, muassasa, boshqarma va x.k.) doirasida amalga oshiriladi;

harbiy sotsiologiyaning nazariy va metodologik asoslarining ilmiy ishlab chiqilishi etarli darajada emasligi, tarixiy yo'lning xolis baholanmaganligi uning keyingi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra ayrim harbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlar vaqtida harbiy xizmatchilar orasida sotsiologik bilimlarni berishning imkoni yo'qligi va ularga harbiy xizmatni o'tashlari jarayonida singdirish (yoyish).

Harbiy xizmatchilarda sotsiologik bilim, tushunchalar va tasavvurlarni shakllantirishda "Sotsiologiya" o'quv fani nafaqat jamiyatda, davlatda, Qurolli Kuchlarda balki bevosita harbiy xizmatchilarning o'zlarida rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarda nima sodir bo'layotganligini yaxshi tushunishlariga erishish uchun ma'lumotdan foydalanish va fikrlashni rivojlantirishga yordam beruvchi aqlning maxsus sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Negaki xalq donishmandlari aytganlar: "Xayotda eng osoni – bu maslahat berish, hammasidan qiyini esa – o'z-o'zini tushunib anglab etish".

Shu bilan sotsiologiya o'quv fani sifatida quyidagilarga yordam beradi:

jiddiy (o'tkir) muammolarni aniqlab olishga: harbiy texnika va qurollar rivojlanishining Qurolli Kuchlarga ta'siri, armiya rolining o'zgarishi va uning jamiyatdagi o'рни, undagi munosabatlar, boshqaruv apparatini texnik tizimlarni uzluksiz ishlatish vazifalariga ko'niktirish;

o'rganuvchilarni umumiy va harbiy sotsiologiya bilimlari, uni o'rganish usullaridan foydalanish ko'nikmalari bilan qurollantirish, ayniqsa harbiy xizmatchilar-bo'ysunuvchilar, harbiy jamoalardagi ijtimoiy jarayonlar va ko'rinishlarning shaxsiy tavsiflari va xususiyatlarini prognoz qilish (oldindan aytish) uchun, shuningdek, boshqaruv faoliyatini qulaylashtirish, Qurolli

Kuchlarning doimiy (kadrlar bilan) va o'zgaruvchi tarkibi bilan (ya'ni odamlar bilan) ishlashni takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini mustahkam shakllantirib borishi uchun sotsiologlar tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatining dolzarb ijtimoiy muammolarini o'rganib. **Muhim yo'nalishlar sifatida quyidagilar omillarni chuqurroq o'rganilish zarur hisoblanadi:**

yangi iqtisodiy sharoitlarda kadr harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy va moddiy holatini o'rganish;

yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tiklanishi;

harbiy ta'limni isloh qilish;

zaxiraga (rezervga) bo'shaydigan kadr harbiy xizmatchilar muammosi;

harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyalanganligi va uning amalga oshirish choralarining samaradorligi;

Qurolli Kuchlardagi ijtimoiy tanglik;

Armiya va dinning o'zaro hamkorlik xarakteri;

O'zbekiston Qurolli Kuchlarida shartnoma asosidagi harbiy xizmat muammolari;

kadr ofitserlar tarkibining oquvchanlik sababi va sharoitlari, ofitserlik xizmati obro'si va nufuzini oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kadr harbiy xizmatchilarning qadriyatlar yo'nalishining tuzilishini;

o'zgarish sur'atida sifat tavsiflari va har xil toifadagi harbiy xizmatchilarning qadriyatlar yo'nalishlari;

harbiy xizmatchilar oilalari xayotining sifat darajasining o'zgarish sur'ati;

kadr harbiy xizmatchilarning oilalaridagi muammolar va o'ziga xosliklar;

harbiy intizomni mustahkamlash va huquqbuzarliklarni profilaktika qilishning ijtimoiy jihatlarini;

tarbiyaviy ishlar samaradorligi va shaxsiy tarkib bilan ishlash organlarining ish faoliyati;

davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xayotidagi eng muhim masalalari bo'yicha harbiy xizmatchilar va ularning fikrlarining siyosiy afzalliklarining o'zgarish sur'ati;

qo'shinlar kundalik faoliyatida axloqiy-ruhiy holatning o'zgarish sur'ati va uni xal qilish yo'llari;

qo'shinlar harakati ahloqiy-ruxiy ta'minotining shakl va usullari, ularning samaradorligini oshirish;

Qurolli Kuchlarda ijtimoiy jarayonlar rivojlanishini prognoz qilish va boshqalar;

harbiy xizmatchi shaxsini o'rganish;

QK harbiy xizmatchilarning konkret (muayyan) ijtimoiy guruhlar;

harbiy jamoalar;

harbiy intizom va huquqtartibot;

armiyaning davlat va jamiyat bilan hamkorligi;

harbiy xizmatni alohida davlat xizmati turi sifatida;

jangovar tayyorgarlik va qo'shinlarning jangovar shayligini ushlab turish, jangovar navbatchilik (xizmat) muammolari;

qo'shinlarning axloqiy-ruhiy ta'minoti muammolarini;

harbiy ta'lim va harbiy-kasbiy tayyorgarlik muammolarini;

Qurolli Kuchlarni butlash (komplektlash) muammolari;

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash masalalari;

harbiy xizmatchilar va ular oilalarining turmush hayotini;

harbiy xizmatchilar va ular oilalarining madaniy xordiq chiqarishlarini;

harbiy xizmatchilar, zaxiraga (rezervga) bo'shatilgan fuqarolar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini;

ijtimoiy himoya muammolari;

harbiy xizmatni o'ziga xos faoliyati va mehnati sifatida;

harbiy boshqaruvning qulayligi va samaradorligi masalalarini;

qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash;

Qurolli Kuchlarda tarbiyaviy ishlar muammolarini;

Qurolli Kuchlarda jamoat tashkilotlari faoliyatini.

Shunday qilib, umumiy ko‘rinish shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatda va Qurolli Kuchlarda, ijtimoiy holat harbiy-sotsiologik tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlarida tuzatishlar kiritgan, lekin shu bilan birga harbiy sotsiologiya o‘zining doimiylikini saqlab turgan. Umumiy sotsiologiya doirasida, u tinchlik va urush davrida harbiy tashkilotning ijtimoiy institut sifatida ishlashi va rivojlanishi, shakllanishi (tashkil topishi) qonuniyatlarini uning boshqa ijtimoiy institutlar, tashkilotlar va jamiyat bilan o‘zaro hamkorliklarini o‘rganadi, shuningdek, tashkilotning ichidagi ijtimoiy guruhlar va umumiylik o‘rtasidagi ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarni o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898 sonli harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” qaror imzolanib, unga ko‘ra harbiy okrug boshqaruv apparatlarida psixolog va yetakchi sotsiolog lavozimlari joriy etilib, ular zimmasiga bir qator vazifalari belgilab qo‘yildi.¹⁶

Bu tashabbus esa sotsiologlarimizdan harbiy jamoada harbiy xizmatchilarning faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganib borish, harbiy faoliyatda mavjud ijtimoiy muammolarni to‘la-to‘kis ochib berish va harbiy jamoadagi munosabatlar istiqbolini belgilashni nazariy hamda amaliy jihatdan o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymog‘ini taqozo etadi.

Qurolli Kuchlar O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlashda, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini asrab-avaylashda, mamlakatimiz aholisining tinch va osoyishta hayot kechirishining muhim kafolati sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bu esa Qurolli Kuchlarimizning jamiyat hayotida tutgan o‘rni naqadar muhimligini belgilab beradi. Harbiylarimiz hayotiy faoliyatini sotsiologik tahlil etish orqali ularning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy ta’sir va muammolarini ilmiy-sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil etish mamlakitimiz harbiy kadrlar

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-3898- sonli Qarori.

salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi. Harbiy xizmatchilar hayotini o'rganish orqali harbiy jamoalarda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlar va voqealarni uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib berish mumkin bo'ladi. Qurolli kuchlarimiz faoliyatini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan sotsiologlarimiz hozirgi ijtimoiy holatlar ahvoliga to'laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, harbiy-ijtimoiy holatlarning istiqboliy o'zgarishi darajasi xususida bashorat qilishi lozim. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini hayotga tadbqiq qilish zarurati tug'iladi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda harbiy sotsiologiyaning o'rganilishi katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy daxlsizligi va xalqning tinchligini ta'minlashga yordam beradi. Milliy armiyamizni isloh qilishda, uning kelajakdagi istiqbolini belgilashda, shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va rolini aniqlashda, ularning o'zaro va jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy munosabatlarini ilmiy darajada o'rganish va tahlil qilish sotsiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Hozirgi yangi jamiyatga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanish va boshqarish uchun amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Masalan bo'lajak ofitser bo'lajak boshliq sifatida o'zi xizmat qiladigan qism, rota va bo'linmalardagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari va shu guruhlarning boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradigan, sotsiologik amaliyotda keng qo'llanib kelinayotgan, sotsiologik tadqiqotlardan o'z faoliyatida foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Sotsiologik tadqiqotlar ichida keng tarqalgan so'rov ya'ni anketa so'rovnomasi va intervyu usuli orqali harbiy jamoalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar, harbiy

faoliyatda mavjud ijtimoiy muommolarni aniqlash va harbiy jamoadagi munosabatlar istiqbolini belgilash mumkin.

Harbiy jamoalarda sotsiologik so'rov o'tkazish orqali harbiy xizmatchiga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari, o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallangan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olishimiz mumkin.

Harbiy jamoani o'rganishda kuzatish usulidan ham keng foydalaniladi. Bu usuldan harbiy jamoalar har xil sharoit va faoliyatlarda namoyon bo'ladigan hissiyot, xulq-atvorlarning tashqi ko'rinishlarini o'rganishimiz mumkin.

Samaradorligi yuqori hisoblangan hujjatlarni o'rganish usuli orqali harbiy xizmatchining shaxsiy varaqasi, tarjimaiy xoli, tafsiiyanomasi o'rganilib chiqiladi. Albatta bu xususida aniq ma'lumotlar, dalilar va xulosalar keltirilgan bo'lib, jamoadagi har bir harbiy xizmatchini obdon o'rganish, ularni kundalik hayotda boshqarishda, shu bilan ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik ishini yo'lga qo'yish uchun yo'riqnoma-asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy jamoalarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning dolzarbligi va zaruriyati shundaki, harbiy qism, muassasalar va bo'linmalardagi yuksak jangovar shaylikni ta'minlash, harbiy intizomni mustahkamlash va sog'lom ahloqiy-ruhiy muhitni yaratish va uni ushlab turish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Harbiy jamoalarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish harbiy islohotlarni rivojlanish va muammolarni hal qilish yo'llarini to'la va atroflicha o'rganish va istiqboliy o'zgarishi darajasi xususida bashorat qilish imkonini beradi.¹⁷

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa o'rniida aytish mumkinki, harbiy-sotsiologik tadqiqotlar – bu ijtimoiy tadqiqotlarning bir turi bo'lib, empirik ma'lumotlarni yig'ish va ishlab chiqish metodlari, shuningdek, sotsiologik ma'lumotni tahlil va bayon qilish asosida, harbiy tashkilotning (jamoaning) ko'p darajali hayotiy faoliyatining har xil sohasidagi ijtimoiy jihatlarini, harbiy xizmatchilar va harbiy ijtimoiy guruhlarining (urushdagi va harbiy xizmat)

¹⁷ Назаренко С.В. Социология. – М.: 2008

faoliyatida, vaj-sabablarida va munosabatlarida namoyon bo'ladigan harbiy-ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganish va tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Shu asosda milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirishimiz darkor. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni orqali turli sohalarda, xususan, harbiy tizimda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilishi orqali harbiy tizimdagi kamchiliklar, qo'shin tayyorlash va professional kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimidagi muammolar, armiyadagi harbiy texnik va qurol-yarog' bilan ishlashdagi salbiy holatlar, harbiy tashkilotlarning ijtimoiy tizimi va o'zaro munosabatlarini va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi muammoli holatlarning oldi olinadi.

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa tizimini tubdan takomillashtirish uchun milliy mudofaa doktrinasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi milliy xavfsizlik ta'minlashda strategik rejalashtirish bo'yicha aniq davlat tizimi kiritilgan va bu doktrinani Milliy xavfsizlik konsepsiyasining namunasi sifatida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, doktrinada O'zbekistonning tashqi siyosatiga xos moslashuvchanlik va ochiqlik tamoyillari, bizning yaqin qo'shnilarimiz bilan konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa ekanligi qayd etildi.

Harbiy tizimni mukammallashtirish uchun ko'plab vazifalar oldimizga qo'yilgan. Birinchi navbatda, harbiy sotsiologiyaning vazifalari bu borada yordamga keladi. Shunday ekan, harbiy sotsiologiyaning vazifalarini aytib o'tishi maqsadga muvofiq. Harbiy sotsiologiyaning vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Nazariy-kognitiv (zamonaviy fundamental va empirik bilimlarni boyituvchi, ijtimoiy haqiqatni o'rganish asosida harbiy sotsiologiya qonunlari va toifalarini ishlab chiqish).

Nazariy-kognitiv vazifa armiya uchun nazariy va amaliy bilimlar olish uchun qo'llaniladi. Bu vazifada asosan armiyaning ilmiy saviyasini va kadrlarning

malakasini doimiy ravishda oshirish va uni hayotda qo'llay olish uchun kerak. Bu vazifa orqali hozirgi kunda armiyamizda uchrayotgan muammo, ya'ni barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bizning e'tiborimiz markazida bo'lib qolishi zarur. Shuning uchun, oliy harbiy ta'lim borasida anchagina o'zgartirishlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir fan bo'yicha mutaxassis dars berishi va mutaxassislik fanlarini ko'paytirish kerak. Shu bilan birgalikda, harbiy tizimda harbiy sotsiologiya fani ham mutaxassis tomonidan o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Oliy harbiy ta'limda sotsiologiya fani mutaxassis tomonidan o'tilgandagina, har bir kadr harbiy tizimdagi muammoni keltirib chiqarmaslik uchun harakat qiladi va o'zining oldidagi vazifalarni to'raligicha ado etadi.

Aytish kerakki, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Barchamizga yaxshi ayonki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

2. Tavsiflovchi va diagnostik (ijtimoiy to'plam va jarayonlar tabiati va holati to'g'risida ijtimoiy axborotlarni to'plash, tizimlashtirish va to'plash, shu asosda armiya rahbariyati va dengiz kuchlarining eng dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish).

Tavsiflovchi va diagnostik vazifalarda harbiy tizim va harbiy tizimning real holatini ochib berish uchun qo'llaniladi. Umuman olganda, diagnostik vazifa orqali armiya va harbiy tizimga baho beriladi. Agar bu vazifa orqali harbiy tizimga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi kunda harbiy baza, ya'ni qurol-yarog' masalasi ko'z oldimizga keladi. Qo'shnlarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qayta ta'minlash va qurol-yarog'ni doimiy ravishda yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor. Bu sohada qabul qilingan davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha yangi mexanizmlarni

ishlab chiqish ob'yektiv zaruratga aylanganini bugun yaqqol his etmoqdamiz va bu borada olib borilgan amaliy ishlar bu muammoni e'tibordan chetda qolib ketmaganligini bildiradi. Ma'lumot sifatida shuni aytish lozimki, muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibi o'zgartirildi, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish qaratilgan ko'pdan buyon hayot talabiga aylangan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

3. Pragnostik (kelajakdagi ijtimoiy jarayonlar va hodisalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelgusidagi ijtimoiy parametrlarni aniqlash, ularni modellar va ssenariylarda ifodalash, ijtimoiy pragnozlar qilish). Harbiy pragnostik vazifa orqali harbiy strategiyalarni tuzish va armiyaning kuchini mustahkamlash, qurol-yarog' bilan doimiy qurollantirish, armiya uchun kerakli bo'lgan vositalarni yetkazib berish va harbiylarning malakasini oshirish, malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash, tajribasini oshirish, jangovor holatga shay turish, chegaralar xavfsizligini doimiy ta'minlash uchun kerakli bo'lgan vazifadir.

4. Ma'furaviy va ma'rifiy (armiya va dengiz kuchlari rahbarlari orasida ijtimoiy bilimlarni tarqatish, ijtimoiy fikrlashni shakllantirish va boshqaruv faoliyati bo'yicha analitik ko'nikmalarni mustahkamlash).

Ma'furaviy bilimlar esa jangovar holatga va urushning strategik ahamiyatini bilish uchun vazifadir. Shu metodlardan foydalangan holda sotsiologik tadqiqotlarni harbiy tizimda doimiy ravishda o'tkazilganda, harbiy tizimdagi muammolar keskin ravishda bartaraf etiladi. Shuningdek, armiyaning ijtimoiy holati, armiyaning bilim saviyasi, harbiy boshqaruv va ko'nikmalari haqida konkret ma'lumotlarni olish va oshirish yo'llarini qo'llash mumkin. Qo'shinlarni tayyorlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirishga oid yangicha yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Bu tadbirlar avvalambor harbiy bo'linmalarga yuklangan vazifalarga, ularning tayyorgarlik va ta'minlanish darajasiga mos bo'lishi zarur.

Shu boisdan, mamlakatimizda harbiy xizmatchilar o'rtasida turli xildagi tadbirlar tashkillashtirilmoqda. Bu tadbirlar faqat harbiy xizmatchilar uchungina emas, balki ularning oilalari o'rtasida ham bo'lib o'tmoqda. Shuningdek,

armiyamiz nafaqat ichki tadbirlarda faol, qolaversa, davlatlar o'rtasida otkazilayotgan harbiy tadbirlarda ham o'zlarining faolliklari bilan yaxshi natijalarga erishishmoqda.

Askarlar orasida jamoatchilik fikrini o'rganish bugungi kun sotsiologiyasi oldida turgan juda ham qiyin masala. Bu esa O'zbekistonda «harbiy sotsiologiya» yo'nalishining hali rivojlanmaganligi hamda respondentlarning o'ziga xos murakkabligi bilan bog'liqdir. Ammo Qurolli Kuchlar tarkibida turli ko'rinishdagi qonunbuzarliklarning oshib borishi, sotsiologlardan bu sohada nazariy va amaliy tadqiqotlarni koplav o'tkazishni talab etadi. Bu esa katta kuchga ega bo'lgan armiyani har tomonlama nazoratda ushlab turish imkonini hamda yuzaga keladigan muammolarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Harbiy sotsiologiyasi jamiyatda harbiy jamoa, ya'ni harbiylar guruhining nufuzi, o'zni, ular o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rganish bilan bir qatorda harbiy jamoadagi harbiy xizmatchilarning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar, harbiy faoliyatda mavjud ijtimoiy muammolarni to'la-to'kis ochib berish va harbiy jamoadagi munosabatlar istiqbolini belgilashni nazariy hamda amaliy jihatdan o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda. Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda harbiy hayot sotsiologiyasining o'rganilishi katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy daxilsizligi va halqning tinchligi ta'minlashga yordam beradi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanishining sabablari.
2. Fransiya, Angliya, Germaniya ma'rifatparvarlari harbiy sotsiologiyaga oid asarlari qasilari.
3. Rossiya harbiy sotsiologiyasining evolyutsiyasi bosqichlari.
4. Zamonaviy harbiy sotsiologiyaning tuzilishi haqida ma'lumot bering.

2-BOB. HARBIY XIZMATCHI SHAXSI IJTIMOILASHUVI XUSUSIYATLARI

2.1 Harbiy xizmatchi shaxsi va uning ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi

Reja:

1. Shaxs ijtimoiylashuvi sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi.
2. Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuvida harbiy muhid va harbiy jamoalarning o'rni.
3. "Harbiy boshqaruvning" harbiy xizmatchi shaxsga ta'siri.
4. Harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy sifatleri.

Tayanch iboralar: harbiy xizmatchi, tarbiya, xususiyat, moddiy, ma'naviy, ofitserlar, sotsiomadaniy, "urush sotsiologiyasi", "armiya sotsiologiyasi", pragnoz, shaxsning ijtimoiylashuvi

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kiritilishi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shaxs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. Shunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murkkab tuzilmali tizimda aks etadi. Sotsiologiya shaxsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi. «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan»¹⁸.

Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuvi deb, harbiy muhidga, harbiy jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni

¹⁸ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O'zbekiston, 1996, 352–353-betlar.

o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi) ga aytiladi.

Harbiy xizmatchining shaxsning harbiy tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bog'liq: 1) harbiy tashkilotning harbiy xizmatchi shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) harbiy xizmatchi shaxsning boshqa harbiy xizmatchilar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bog'liq.

Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuvi ya'ni ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishi bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayondir, u ob'ektiv muhit ta'siri ostida ham, maxsus tashkil etilgan va ongli yo'naltirilgan tarbiya ishlari ta'siri ostida ham yuzaga keladi. Sotsiologiya ijtimoiylashuvni: birinchidan, shaxsning insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyatni o'zlashtirish mexanizmi sifatida qaraydi. Ijtimoiylashuv shaxsni tarbiyalashga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi. Tarbiyalash tashkil etilgan, maqsadli yo'naltirilgan, oldindan programmalashtirilgan sotsial faoliyatdir. Ijtimoiylashuv esa bu faoliyat bilan bir qatorda yana iqtisodiy, siyosiy, kundalik turmush va boshqa shu kabi shaxsga stixiyali ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt faktorlarning ijtimoiylovchi ta'sirini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiylashuv jamiyatni «tashkil etuvchi mexanizmi» sifatidagi mohiyati shaxsni bir vaqtning o'zida ham sotsial ta'sirining ob'ekti, ham sotsial faoliyat sub'ekti sifatida qaralganda ochish mumkin. Bu birinchi navbatda shaxsning muhit bilan o'zaro aktiv faoliyati jarayonidir. Bu o'zaro faoliyat bir tomondan, muhit tomonidan shaxsga uning rivojlanish jarayoni yo'nalishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatilishida, namoyon bo'lsa, ikkinchi tomonidan shaxsning muhitga aktiv kirib borishi va bu jarayonda mukammallashib, o'z hayotiy pozitsiyasini, qadriyatli yo'nalishini belgilab olishida namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchi shaxsning sotsial muhit bilan o'zaro faoliyati bir necha etapda o'tadi: individlarning birlamchi ijtimoiylashuvi (individual tajriba orttirish, sotsial-shartlangan reaksiyalarni ishlab chiqish).

Harbiy xizmatchining harbiy jamoa bilan o'zaro faoliyati (guruh ichidagi o'zaro hatti-harakat va b.), va nihoyat, individning butun jamiyat bilan o'zaro

faoliyati (sotsial adaptatsiya, individual hulq-atvor motivatsiyasida sotsial ko'nikmalar va b.).

«Harbiy boshqaruvning» harbiy xizmatchi shaxsga ta'siri jarayoni ko'p qirralidir, chunki, u sotsial sistemaning barcha tomonlari, jarayonlarining majmuasini ifodalaydi: moddiy elementlar, harbiy xizmatchini o'rab turgan, o'z konkret sotsial roli, pozitsiyasi, qarashlari va o'rganishlariga ega bo'lgan odamlar, individ tomonidan o'zlashtiriladigan, qabul qilmaydigan (yoki individ tan olmaydigan, qabul qilmaydigan) sotsial hulq-atvor normalar, shuningdek, jamiyatda obe'ktiv mavjud bo'lgan sotsial imkoniyatlar, sotsial «ko'nikmalar», talablar strukturasi.

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalash va ularning kundalik turmushining sotsial shart-sharoitlarni yaxshilash harbiy xizmatchi shaxsning harbiy muhit bilan o'zaro faoliyati jarayonining maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvini bildiradi. Bu o'zaro faoliyatning muhim tarkibiy qismi qilib harbiy xizmatchi va uni o'rab turgan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarni olish tizimi.

Ijtimoiylashuvda mafkura uni o'qitish tizim muhim o'rin tutadi. U bir tomondan, g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalarni ommalashtirish va «ist'emol qilish» o'z ichiga oladi, bular asosan ommaviy axborot vositalari, maktablar va boshqa mafkuraviy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchi shaxsning sotsial mavqei, roli va funksiyalari tizimi haqida gapiradigan bo'lsak, ular harbiy xizmatchi shaxsning sotsial aloqalar va munosabatlar sistemasida tutgan o'rnining ko'rsatkichlari sifatida shunga mos sotsial pozitsiyalarni shakllantiradi, sotsial sistemaning turli sohalardagi o'z hayotiy faoliyati jarayonida hulq-atvor tajribasini o'zlashtirish usuli va xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuv va tarbiya asosidagi shaxsga xos xususiyatlarining shakllanish jarayonini qator ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar bilan asoslash mumkin: 1) sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar; 2) sotsial yo'nalishlar va pozitsiyalar; 3) hulq-atvorni strategik tashkil etish; 4) sotsial aktivlik;

Sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar tizimi, ilgari aytib o'tganimizdek, harbiy xizmatchi shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi asosini tashkil etadi. Ehtiyojlar inson faoliyatining va hulq-atvorining birlamchi, asosidir, ularni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning hamda shaxsning o'zining ob'ektiv va qiziqishlarini anglab yetishda, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega hulq-atvor motiviga aylantirishda, ularga nafaqat tashqi zarurat yuzasidan, balki ichki ishonch yuzasidan ham rioya qilishda o'z aksini topadi.

Shaxsning sotsial yo'nalishi va dunyoqarashi sistemasiga programmalar, maqsadlar, ishonch-e'tiqodlar va baholovchi kriteriylar yig'indisi kiritiladi. Ular shaxsning afzalroq va majburiy fe'l-atvorini belgilaydi. Dunyoqarash shaxsning mavqeidan kelib chiqadi va uning tashqi dunyoga ichki dunyoga ichki sub'ektiv munosabatini bildiradi. U tanlash xususiyatiga ega va shaxsning u uchun tabiiy bo'lgan masalalarga ustunroq turuvchi munosabatini boshqarishga, fe'l-atvorini baholashga va ob'ektiv sotsial voqelik bilan aktiv munosabat o'rnatishga ega.

Fe'l-atvorni ichki strategik tashkil etish tizimini (ya'ni maqsadlarga erishish, umumiy g'oyalar va dunyoqarash prinsiplarga ergashish) ijtimoiylashuvining asoslovchi mexanizmlarini harakatga keltirish «vositasi» sifatida qarash mumkin. U bir tomondan shaxsning ehtiyojlari qiziqishlari oriyentatsiyalari yo'nalish va pozitsiyalari dunyoqarash va ikkinchi tomonda uning aktivligi o'rtasida «ko'prik» sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim tufayli ma'lum bir ehtiyojlar, talablar va ob'ektiv shart-sharoitlarga mos keluvchi hatti-harakatga o'tiladi.

Demak, harbiy xizmatchi shaxsning harbiy muhitga, harbiy jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Harbiy xizmatchining sotsial tashkilot elementlar bo'lishi qay tarzda ro'y berishidan, bir tomondan, harbiy tashkilotning harbiy xizmatchi shaxsga ta'sir etishi orqali qobiliyatini shakllanishi, ikkinchi tomondan, shaxsning boshqa harbiy xizmatchilar ta'siriga berilishi qobiliyatining shakllanishiga bog'liqdir.

Harbiy xizmat sharoitida individni ijtimoiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Individ, harbiy xizmatga kelishi bilan, ijtimoiylashishni davom ettiradi. Harbiy xizmatchida ijtimoiy sifatlarni shakllantirish (orttirish) uchun, **individda quyidagilar zarur:**

o'zining va atrofidagi xizmatdoshlarining harbiy-ijtimoiy mohiyatini anglash, ya'ni Qurolli Kuchlarning ijtimoiy tuzilishi va unda jamiyat ijtimoiy institutlari va davlatning ishlashi to'g'risida konkret bilimlarini orttirish;

muayyan amaliy harbiy-ijtimoiy hayotiy faoliyat va harbiy-ijtimoiy status (huquqiy holat) ko'nikmalarini o'zlashtirishi;

ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish, shaxsiy qadriyatlar yo'nalishi tuzilishini ishlab chiqish;

ma'lum ijtimoiy pozitsiyani (nuqtai nazarini) egallash;

status, rol va pozitsiya bilan tenglashish;

faol ijodiy harbiy faoliyatga qo'shilish.

Harbiy sotsiologiyada harbiy xizmatchilarni ijtimoiylashtirishning o'ziga xosliklari qatoriga xususan harbiy-ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari qaratilgan, unda individning xayotiy faoliyati amalga oshiriladi, ya'ni:

ijtimoiylashuvning yorqin ifodalangan harbiy-kasbiy yo'nalishini belgilovchi harbiy xizmatning mazmuni;

harbiy xizmatchilar hamkorligini tartibga soluvchi ijtimoiy me'yorlarning qat'iy xarakteri (talablar, mazmun, ko'rsatma, vaqtlar bo'yicha);

faoliyatni tartibga soluvchi belgi-ishoralar tizimini rivojlantirish;

harbiy xizmat uchun individlarni o'ziga hos ijtimoiy tanlovining me'yoriy mazmuni;

ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarga qat'iy amal qilishni ta'minlovchi harbiy xizmatning ijtimoiy nazorati;

individni harbiy-ijtimoiy amaliyotga kiritish uchun harbiy xizmat instituti doirasida yaratiladigan harbiy-ijtimoiy tashkilotni;

harbiy xizmatchining statusi va unga tegishli rollar;

harbiy xizmatchidan muayyan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni talab qiladigano'ziga xos harbiy faoliyatni;

xizmatning ijtimoiylashgan ommaviy tavsifini (xarakterini).

Ijtimoiylashuv jarayonida harbiy xizmatchi shaxsi shakllanadi – xaqiqiy harbiy xizmatda turgan individni va Vatan, davlatning Konstitutsion tizimi himoyasini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan o'zining funksional vazifalarini bajarish uchun jamiyatga, Qurolli Kuchlarga va xizmatdoshlari uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlari.

Harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy tuzilishida quyidagi sifatlar ajralib turadi:

Umumijtimoiy sifatlar: odamgarchilik, adolatlilik, vatanparvarlik, chiqishuvchanlik, yaxshilik, ezgulik, raximdillik, hozirjavoblik, ijtimoiy ijodiy faoliyat va x.k.;

Harbiy-kasbiy sifatlar: harbiy mahorat, malaka, chukur bilimga egalik va b.;

Harbiy-siyosiy sifatlar: vatanga sodiqlik, fidokorlik, davlatchilik, intizomiylik va x.k.;

Axloqiy sifatlar: harbiy xizmatchi (ofitser) or-nomusi, harbiy burchni vijdonan va mas'uliyat bilan bajarish, jangovar o'rtoqlik, harbiy birodarlik (o'rtoqlik) va b.;

Psixologik (ruhiy) sifatlar: sabr-toqatlik, chidamlilik, xarakter, maqsadga intiluvchanlik, iroda, mustaqillik va b.;

Jismoniy sifatlar: kuch, bardoshlilik, reaksiya (sezgirlik, ta'sirlashin) va b.

Shaxs tuzilishida muhim urinni ijtimoiy o'zgaruvchanlik sharoitida harbiy xizmatchini ijtimoiylashtiruv jarayonini optimallashtirishga (qulaylashtirish) ko'maklashuvchi sifatlar egallaydi:

qadriyatlar yo'nalishini va intilishlarni o'zgartirish qobiliyati;

o'z qadr-qimmati, harbiy-ijtimoiy muhit va bajaradigan ijtimoiy rol o'rtasida muvozanatni ushlab turish qobiliyati;

hayotiy faoliyat shunda anglab olinadiki, qachonki u nafaqat o'zini qondirishga bo'ysunilgan bo'lsa, balki yuksak maqsadlarga xizmat qilish bilan ham: Vataniga, xalqiga, jamiyatga, davlatga;

nafaqat konkret ijtimoiy talablarga yo'naltirilganlik, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan universal axloqiy qadriyatlardir.

Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuvi jarayonini tahlil qilishda umumiy ijtimoiy omillarga e'tibor bermaslik mumkin emas – harbiy xizmatchini ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi tashqi omillar: ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, jangovar-kasbiy, xizmat-funksional, ijtimoiy-psixologik.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs ijtimoiylashuvi sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlarning o'rni.
2. Harbiy xizmatchining ijtimoiylashuvida harbiy muhim va harbiy jamoalarning ta'sir darajasi.
3. "Harbiy boshqaruvning" harbiy xizmatchi shaxsi ijtimoiylashuvidagi o'rni va roli.
4. Harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy tuzilishida qanday sifatlar ega bo'lish kerak.

2.2. Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi

Reja:

1. Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi.
2. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatidagi muxtoriyat.
3. Harbiy xizmatchilarni xizmat motivatsiyasi.

Tayanch iboralar: tabaqalanish, ijtimoiy harakatchanlik, maqomlar rivojlanish, harbiy xizmat, konstruktiv, ijobiy, salbiy, strategiya, kasbiy, potentsial, real, imkoniyatlar, motivatsiya, mavqei, mobillik.

Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi bu harbiy xizmatchining xizmat faoliyati, shu jumladan harbiy xizmat jarayonida erishilgan maqomlarni rivojlantirish, uning ijtimoiy mavqeini o'zgartirish uchun ijobiy, konstruktiv intilishlarga asosida yuzaga keladi.

Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi:

- ijtimoiy o'zgarishlarning yo'nalishini va intensivligini belgilaydi qurolli kuchlar ichida va ularning ijtimoiy chegaralaridan tashqarida;
- qurolli kuchlarning tabaqalanish xususiyatini belgilaydi.

Ushbu strategiyalarni o'rganish asosida harbiy xizmatchining (harbiy xizmatchilar guruhi, harbiy xizmatchilar jamoasining) qurolli kuchlar, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini o'zgartirishga tayyorligini anglatadigan (proektsion vaziyat orqali) potentsial harakatchanlikni o'rganish mumkin. Bu quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkiloti yoki davlatning harbiy tashkiloti doirasida rasmiy va harbiy va kasbiy o'sishga ijobiy munosabat;

- neytral munosabat, ya'ni qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkilotidan davlatning harbiy tashkiloti tarkibiga kiradigan vazirliklar va xizmatlarning ijtimoiy tashkilotlaridan biriga o'tishga munosabat;

- salbiy munosabat, ya'ni qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkilotidan va umuman harbiy tashkilotdan chiqib ketishga o'ta radikal munosabat. Uning tadqiqotlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratib ko'rsatilgan.

1. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatidagi muxtoriyat.

- rasmiy faoliyati jarayonini rejalashtirish qobiliyati;

- ishlash natijalarini rejalashtirish qobiliyati.

Ular harbiy mehnat muxtoriyatining uchta darajasini ajratishga imkon beradi.

askar:

- 1) o'z ishini va uning natijasini rejalashtirish qobiliyatining to'liq etishmasligi bilan ajralib turadigan avtonom bo'lmagan ish;

- 2) yarim avtonom ish, bu jarayonni rejalashtirishning o'rtacha imkoniyati va askar tomonidan rasmiy faoliyat natijalari bilan tavsiflanadi;

- 3) jarayonni rejalashtirish qobiliyati va ishlash natijasini yuqori darajasi bilan ajralib turadigan avtonom ish.

2. Harbiy xizmatchilarning xizmat ko'rsatish istiqbollari. Bu erda ko'rsatkichlar potentsial va real imkoniyatlarning mavjudligi soni:

- malaka oshirish;

- martaba o'sishi;

- ish haqini oshirish.

Ijtimoiy tabaqalanish va ijtimoiy harakatchanlik

Ularning har tomonlama tahlili harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va kasbiy yuksalish imkoniyatlarini tavsiflovchi xizmat kutishlarining to'rtta asosiy turini aniqlashga imkon beradi:

1) kasbiy rivojlanish, martaba o'sishi va pul ta'minoti uchun hech qanday istiqbollarning to'liq yo'qligini aks ettiruvchi o'ta noumidlik;

2) o'rta darajadagi pessimizm, bu malakani oshirish va ish joyini ko'paytirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda to'lash uchun o'rtacha imkoniyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi;

3) o'rtacha darajadagi optimizm, bu malaka oshirish, ish joyini ko'paytirish va ish haqi olish uchun o'rtacha imkoniyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi;

4) yuqori darajadagi o'qitish, ish joylarini ko'paytirish, ijtimoiy mavqeini yaxshilash uchun to'lash uchun maksimal imkoniyatlar mavjudligi bilan ajralib turadigan o'ta optimizm.

3. Harbiy xizmatchilarni xizmat motivatsiyasi. Bu ikki omil guruhiga bog'liq:

- harbiy xizmatni harbiy lavozimlarda davom ettirish imkoniyati;
- harbiy xizmatdan bo'shatilgan taqdirda yangi ish topish ehtimoli.

Ushbu ikki guruhning o'zaro ta'siri natijalari harbiy xizmatchilarni harbiy xizmatga jalb qilishning to'rtta alternativasi:

1) kuchli turtki - agar harbiy xizmatni o'tash Ushbu ikki guruhning o'zaro ta'siri natijalari harbiy xizmatchilarni harbiy xizmatga jalb qilishning to'rtta alternativasi:

1) kuchli turtki - agar harbiy xizmatni o'tash shaxsiy maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlasa va yangi ish topish imkoniyati kam bo'lsa;

2) zaif motivatsiya - agar harbiy xizmatni o'tash askar va uning oila a'zolari oldida ro'yobga chiqadigan ehtiyojlarning qondirilishini ta'minlashga imkon bermasa va bundan tashqari, nafaqat harbiy xizmatni tark etish imkoniyati, balki yangi ish topish imkoniyati mavjud bo'lsa;

3) majburiy motivatsiya - agar harbiy xizmat askar uchun jozibali bo'lmasa

va yangi ish topish imkoniyati bo'lmasa (haydash motivatsiyasi - bu qiziq bo'lmagan, yoqimsiz ishni yo'qotmaslik qo'rquvi);

4) vaziyat motivatsiyasi - agar harbiy xizmatni o'tash barqarorlikni ta'minlasa, ammo kerak bo'lganda yangi ish topish ehtimoli etarlicha yuqori (motivatsiya ishning shartlari va mazmuniga bog'liq).

Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi Demak, harakatchanlik uchun turtki motivatsiya bo'lib, uning tarkibi tashqi stimullarning kombinatsiyasi va askarning shaxsiy pozitsiyasiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Harbiy xizmatchilarni mavqeini o'zgartirishga undaydigan motivlarning guruhlanishi va tizimlashtirilishi ajralmas kompleksni tashkil etadi, bu qurolli kuchlarda to'da xizmatga nisbatan ijtimoiy muqobil munosabatlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadga erishish vositasi sifatida, ya'ni mamlakat mudofaasini ta'minlash va davlatining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish;

- shaxsan mazmunli yutuq vositasi sifatida, ya'ni moddiy boylik, ijtimoiy muhitdagi obro'-e'tibor, ta'lim va hk.;

- shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida, shaxsiy qobiliyatlarini ochib berish, ya'ni harbiy xizmat jarayonida o'zini anglash istagi;

- ijtimoiy va shaxsan muhim maqsadlarga erishishga imkon bermaydigan vosita va buning natijasida - qurolli kuchlar safidan harbiy xizmatdan bo'shatishga bo'lgan munosabatni shakllantirish.

Mobillik - bu juda munozarali ijtimoiy jarayon. Harbiy xizmatchi harakatga kelganda, qoida tariqasida uning manfaatlari, ijtimoiy muhit (boshqa harbiy xizmatchilar) manfaatlari ta'sirlanadi. Ularning o'z vaqtida muvozanatlashmasligi harakatlanishning muammolarini yoki salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Bular, avvalambor:

- harbiy xizmatchilarni avvalgi guruhga mansubligining yangi ijtimoiy mavqeiga o'tish natijasida yo'qotish, sobiq hamkasblari bilan munosabatlarda begonashuvning kuchayishi (ijtimoiy ko'tarilish yoki tushish avvalgi ijtimoiy

muhit bilan birlamchi aloqalarni uzishiga olib kelishi mumkin);

- harbiy xizmatchini yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirishdagi keskinlik (u yangi subkulturaga moslashganda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi: odob-axloq va xulq-atvor shakllari, turmush tarzi, odob-axloq qoidalari, munosabatlar turlari. Yangi sharoitlarga moslashish uchun qilingan ongli harakatlar paydo bo'ladi.

Ijtimoiy tabaqalanish va ijtimoiy harakatchanlik:

- yangi ijtimoiy rollarni qabul qilish, o'zlashtirishda zo'riqish (qanday qilib) yurish vertikal harakatchanligi nafaqat ishg'olga olib keladi yangi yuqori mavqega ega lavozim, shuningdek, katta javob paydo bo'lishiga ratsionallik va yangi cheklovlar, murakkab vazifalar, pastga qarab vertikal harakatlanish salbiy ta'sir qiladi umuman, harbiy xizmatchining ijtimoiy farovonligi to'g'risida). Shu munosabat bilan harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy harakatchanligini sotsiologik o'rganish aniq muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- harakatchanlikning haqiqiy holatini baholash;
- harakatchanlikni rivojlantirish va rivojlantirish muammolarini aniqlash;
- harbiy xizmatchi shaxsining harakatchanligi va harbiy qismlar va qurolli kuchlar bo'linmalari doirasida harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ijtimoiy tashkil etishning o'zaro bog'liqligini o'rganish;

- mobil jarayonlarning ijtimoiy tashkilotga xos bo'lgan boshqa jarayonlarga o'zaro ta'sir darajasini aniqlash.

Ular ijtimoiy harakatchanlikni tadqiq qilishning ikkita asosiy yo'nalishini belgilaydilar: birinchisi shaxsiy, uning doirasida harbiy xizmatchining shaxsiyat omillari aniqlanadi, uning xatti-harakatlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi; ikkinchisi - atrof-muhit, uning doirasida ijtimoiy muhit omillari aniqlanadi, chunki harakatchanlik "harbiy xizmatchining shaxsiyati - ijtimoiy muhit" muayyan tizimida amalga oshiriladi Shuni ham ta'kidlash kerakki, harbiy xizmatchilar shaxsining harakatchanligi ijtimoiy jarayon sifatida sifat va miqdoriy parametrlar bilan tavsiflanadi.

Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi

Bundan tashqari, harakatchanlikning sifatli parametrlari orqali quyidagilar o'rganiladi:

- harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy munosabati (motivlari va qiymat yo'nalishlari) ifodasi sifatida potentsial harakatchanlik xususiyati;

- harakatchanlikning ijtimoiy natijalari va oqibatlari. Soldat shaxsining ijtimoiy harakatchanligini sotsiologik o'rganishning maqsadi ijtimoiy ta'sir va uning oqibatlarini, ya'ni harbiy xizmatchining harbiy ishiga va harbiy xizmatchining shaxsiga ta'sir qilish darajasini aniqlashdan iborat. Harakatning ijtimoiy mohiyati harbiy xizmatda bo'lgan shaxsning qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishda namoyon bo'lganligi sababli, uning oqibatlarini quyidagi sharoitlarda baholash:

1) harbiy kasb egasi - harbiy xizmatchining malakasi, tajribasi va xizmat sharoitidagi o'zgarishlarni o'rganish orqali; 2) xizmat-mansabdor shaxs - qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkilotida, davlatning harbiy tashkilotida, jamiyatdagi rasmiy pozitsiyasining (ijtimoiy maqomining) o'zgarishini o'rganish orqali;

3) iqtisodiy - moliyaviy ta'minot, moddiy boylik va umuman farovonlik darajasidagi o'zgarishlarni o'rganish orqali. Shu bilan birga, ijtimoiy harakatchanlik ko'rsatkichlaridan biri bu shaxsiy xizmat va harbiy xizmatchining rasmiy va harbiy-professional lavozimini ko'tarish imkoniyatlarini ta'minlashdir.

- Zamonaviy harbiy islohotlar, isloh qilish va ularning qisqarishi xizmat va ish joylarini almashtirishni ancha toraytirdi, ammo shu bilan birga voyaga etmaganlarning kasbiy holatini o'zgartirish imkoniyatlarini biroz kengaytirdi. Shunga qaramay, bu muqarrar ravishda quyidagi muammolarga olib keldi:

- martaba o'sishi istiqbollarining sezilarli darajada pasayishi (qurolli kuchlar sonining haqiqiy qisqarishi hisobiga);

- harbiy kasb martabasi ahamiyatining keskin pasayishi, o'zining hayotiy maqsadlariga erishish vositasi sifatida (harbiy mehnatga talab qilinmagan ehtiyoj va uning jamiyatdagi obro'sining davomiy pasayishi tufayli). 1992 yilda uni yaratish to'g'risidagi farmonni imzolash paytida Rossiya armiyasining umumiy shtat kuchi 2,8 million kishidan oshdi, ya'ni Rossiya aholisining 1,8 foizidan

(armiya soni umumiy aholining 1 foizidan oshmasligi kerak) ni). 2001 yilda Rossiya armiyasida bitta katta ofitserga (general yoki admiral) -890 nafar harbiy xizmatchi to'g'ri keladi. Shu bilan birga, bitta general (admiral) uchun: Germaniya armiyasida -1660 bo'ysunuvchi, AQSh armiyasida -1500, fransuz armiyasida -553, ingliz armiyasida -446. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi shunday tashkil etilganki, harbiy institutlar kursantlarining atigi 15% harbiy akademiyada o'qish imkoniyatiga ega. Ushbu ob'ektiv holatlar bilan bog'liq holda, inson omili deb ataladigan sub'ektiv dominantga bo'lgan ehtiyoj amalga oshirilmoqda. Bu harbiy xizmatchilarning o'zlarining ichki resurslarini safarbar qilish imkoniyatlarini aks ettiradi, ulardan u yanada foydali ijtimoiy mavqega erishish uchun foydalanishi mumkin. Ushbu manbalarga quyidagilar kirishi mumkin:

- ijtimoiy (hozirgi ijtimoiy holat, ijtimoiy doiralar, oilaviy aloqalar, bo'sh vaqt o'tkazish tabiati);
 - madaniy (ta'lim darajasi, madaniyatning umumiy darajasi);
 - ramziy (ushbu lavozimda ishlash muddati, vakolati);
 - shaxsiy (qadriyat yo'nalishlari, o'z manfaatlarini himoya qilishda faol harakatlarga tayyorligi, intilish darajasi);
 - psixofiziologik (yoshi, salomatligi holati);
 - malaka (sinf, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qitish, ish tajribasi)
1. Shunday qilib, askar shaxsining ijtimoiy harakatchanligini sotsiologik o'rganish nafaqat qurolli kuchlarda va davlatning harbiy tashkilotida ijtimoiy tabaqalanishning dinamik tomonini, balki uni boshqarish jarayonini ham tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa ushbu jarayonlarni jamiyat manfaatlarini, davlatning harbiy tashkiloti, qurolli kuchlarning ijtimoiy tashkiloti va harbiy xizmatni shartnoma asosida yoki muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan har bir askar manfaatlarini nuqtai nazaridan tartibga solish bo'yicha bir qator amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Ma'lumki, istalgan jamiyat ushbu jamiyatning bir tomonlama tabiatiga mos, ikkinchi tomondan esa uning jamiy borlig'ini o'zida mujassamlashtirgan shaxslarning uzviy birligi va munosabatidan iboratdir. Shuning uchun ham istalgan

tarixan konkret jamiyatning ijtimoiy tabiatini va uning istiqbolini belgilashda ushbu jamiyat shaxsning mohiyatini asosiy xususiyatlarini va funksiyalarini uning ijtimoiylashuv jarayonining mexanizmini o'rganmoq kerak. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatida ega bo'lishga qaratilgan degan edilar". Ijtimoiy munosabatlarning dastlabki va birlamchi asosi, ularni keltirib chiqaruvchi manbai – shaxs hisoblanadi. Sotsiologiyada shaxsning shakllanishi, ijtimoiy birliklar bilan bog'liq holda rivojlanib boruvchi, uning ehtiyojlarini, shaxs va jamiyat, shaxs va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi funksional munosabatlarni, shaxs huquqini o'z-o'zidan boshqarilishi jarayonlarini o'rganadi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligiga ta'sir etuvchi omillar.
2. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga moslashishuviga harbiy boshqaruvning o'rni.
3. Harbiy xizmatchilarni xizmat motivatsiyasini shakllantirish.

2.3 Harbiy jamoalardagi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarni o'rganish

Reja:

1. Harbiy jamoalardagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish.
2. Harbiy jamoalarning o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlari.
3. Harbiy xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkillashtirish.
4. Harbiy xizmatchilarning turmush tarzi.

Tayanch iboralar: bo'linma shaxsiy tarkib, bo'linma jamoasi, harbiy nizomlar, harbiy jamoa, komandir, askar, boshliqlar, bo'ysunuvchilar, ijtimoiy fikr, jamoa fikri, turmush tarzi, jamoaviylik, individuallik, vatanparvarlik.

Harbiy psixologiyada jamoa deb, harbiy xizmatchilarning shunday guruhiga aytiladiki, bu guruhdagi xizmat va ichki hayot harbiy nizomlar asosida tashkil

etilib, ular o'rtasidagi shaxsiy hamda xizmatga oid munosabatlar mustahkam bo'ladi. *Yoki boshqacha qilib aytganda bir faoliyat atrofida uyushgan kishilar guruhiga-jamoa deyiladi.* «Bo'linma shaxsiy tarkibi» va «bo'linma jamoasi» birikmalari bir narsani anglatmaydi. *O'zaro ixtiloflar mavjud bo'lib, harbiy intizom zaif bo'lgan joyda harbiy jamoa bo'lmaydi.*

Harbiy jamoa o'zgarib, rivojlanib turuvchi ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega: Birinchi bosqichda komandir butun jamoa oldiga o'z talablarini qo'yadi; Komandir talablarining jamoa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi esa rivojlanishning ikkinchi bosqichini anglatadi; Bu talablar jamoaning umumiy fikriga aylanganda va jamoa o'z a'zolarining har biridan o'shu talablarni bajarishni so'raydigan paytda esa rivojlanishning uchunchi bosqichi boshlanadi; Navbatdagi bosqichda jamoa talablari ta'sirida har bir harbiy xizmatchi o'zi o'zidan mana shu majburiyatlarni bajarishni talab qiladi. Ularda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik, tanqid qilish hissi paydo bo'lishi bilan harbiy jamoa rivojlanishining eng yuqori, oliy bosqichiga erishiladi.

Ammo, talab qo'yish harbiy jamoa rivojining yagona mezonini emas. Jamoa fikri rivojlanishi bilan bu talablar har bir harbiy xizmatchidagi boshqalar oldidagi javobgarlik hissiga aylanadi, bu narsa harbiy intizomning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Harbiy jamoalar rivojlanishiga xos bo'lgan va biz yuqorida sanab o'tgan bosqichlardan o'zlarining individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir harbiy xizmatchi turli darajadagi qiyinchiliklar bilan o'tadilar. Buni endigina harbiy xizmatga kelgan yosh askarlar misolida ko'rib chiqamiz. Ulardagi ko'nikish (adaptatsiya) davrini ruhiy va jismoniy jihatdan meyorida o'tkazish bo'linmadagi harbiy intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar ta'sirida shaxs ruhiyatida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Askarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari ta'sir etadi. Ular quyidagilar:

-Askarlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

-Ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

-Harbiy va texnik bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashlariga yordam berish (harbiy-texnik ko'nikish);

-Ularda jang olib borish ko'nikmalarini shakllantirish (jangovar ko'nikish);

-Muayyan bir harbiy jamoaga qo'shilish, komandirlar, boshliqlar va lavozimi tenglar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish (ijtimoiy ko'nikish);

Ko'nikishning turli shakllari o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik mavjud. Masalan, yosh askarning jangovar mahoratni egallashi uning bo'linmadagi ijtimoiy muhitga kirishiga yordam beradi. Bu narsa o'z navbatida ushbu askarning bo'linmadagi obro'yiga hamda jamoaning unga nisbatan bo'lgan munosabatiga ta'sir etadi. Va aksincha, askarning ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridagi faolligi uning harbiy texnikani qanchalik muvaffaqiyatli o'rganishiga hamda unda ishlay olishiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muhit yaxshi bo'lgan inoq jamoalarda harbiy mutaxassislikni egallash jarayonidagi qiyinchiliklar harbiy nizom qoidalari tez-tez buzilib turadigan bo'linmalardagiga qaraganda 3-4 marta kam bo'lar ekan. Yoki, yana bir misol: o'quv bo'linmalari bitiruvchilari o'zlari harbiy xizmat amaliyotini o'tagan qismlardan boshqa qismlarga xizmatga jo'natilganda ularda ko'nikish bilan bog'liq qiyinchiliklar ancha ko'p bo'lgan.

Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish jarayoni yosh askar va uni o'ragan ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv ekanligini e'tiborga olsak, uni shaxsiy va tashqi omillarga ajratish mumkin. Shaxsiy omillarga ijtimoiy tajriba, harbiy xizmatga munosabat, umumiy ma'lumot darajasi, muayyan mutaxassislikni egallashga bo'lgan qobiliyati, temperamenti va xarakter xislatlari kabilar kiradi. Jangovar navbatchilik, qorovullik xizmati, o'quv-tarbiya jarayoni, ruhiy tayyorgarlik, kichik komandirlardagi rahbarlik usullari va jamoadagi o'zaro munosabatlar esa tashqi omillar sirasiga kiradi. Harbiy xizmat sharoitlariga ko'nikish ushbu faoliyatga moyilligi bo'lgan va boshlang'ich harbiy tayyorgarlikdan o'tgan yigitlarda nisbatan tez sodir bo'ladi. Aksincha, xizmatgacha

bo'lgan davrda betartib hayot kechirgan yoshlarda bu bosqich qiyinchilik bilan kechadi.

Yosh askar inoq jamoaga tushsa-yu, harbiy xizmat uni qoniqtirsagina undagi umumiy ma'lumot va texnik qobiliyatlar mutaxassislikni tezroq egallashiga hamda ko'nikish jarayonining oson kechishiga yordam beradi. Aksincha, mutaxassislik va xizmat vazifalari unga quvonch baxsh etmasa, ko'nikish jarayoni uzoqqa cho'zilishi mumkin. Ko'pincha xizmat ko'rsatish va qo'riqlash bo'linmalarida shunday hodisa kuzatiladi. Chunki, bunday bo'linmalarda askarlar zerikarli, jangovar ishdan uzoq vazifalar bilan shug'ullanishadi. Bu yerda komandirlar harbiy xizmatchilar o'rtasidagi vazifalarni shunday taqsimlashlari kerakki, toki askarlar o'z mahoratlarining ijtimoiy nafini va harbiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligini anglashsin.

Kechagi o'quvchi, talaba yoki ishchini fuqarolik hayotidan harbiy xizmat sharoitiga birdaniga o'tkazish har xil ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu bosqich komandirlar nazorati ostida amalga oshiriladi. Yosh askardagi xarakter, qobiliyat va ko'nikmalar bu davrning qanday o'tishini belgilab beradi. Masalan, biri dilkash, ikkinchisi esa xudbin bo'lgan askarlarni olaylik. Dilkash askar xizmatga xos bo'lgan harbiy nizom talablarini va axloq meyorlarini tezda o'zlashtirib oladi. Bundaylar jamoa topshiriqlarini ham ishtiyoq bilan bajaradilar va boshqa safdoshlariga bajonidil yordam beradilar. Odatda ular mustahkam axloqiy-irodaviy xususiyatga ega bo'ladilar.

Xudbin askar esa unga komandirlarning nazariga tushishiga yordam beradigan va uni yuqori mavqega ko'taradigan ishlar bilan shug'ullanadi. U ko'p ham ko'zga tashlanavermaydigan, har vaqt komandirlar payqayvermaydigan «qora» ishlar bilan boshqalar qatori shug'ullanishni yoqtirmaydi. Ko'nikish jarayonida yosh askarlar dunyoqarashi, odatlari va umuman ruhiyatida qayta qurishlar yuz beradi.

Shu o'rinda hozirgi yosh askarlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalishga to'g'ri keladi. Ular o'zlaridagi keng dunyoqarash va bilimdonliklari bilan ajralib turadilar. Ularda mehnatga munosabat ijobiy bo'lib, vatanga muhabbat

hissi rivojlangan. Yoshlar har sohada mustaqillikka intiladilar, lekin, shuning bilan birgalikda ularga jamoa ta'siriga beriluvchanlik xos. Ulardagi fikr yuritish va faoliyat tarzi tengdoshlariga va atrofdagilarga bog'liq bo'lib, boshqalarga o'zini ko'rsatib qo'yish istagi ularda tez-tez paydo bo'lib turadi. Tajribasiz bo'lganliklari uchun ham bu harakatlar qo'pol, agressiv usullar bilan amalga oshiriladi. Bu yoshdagi kishilar atrofdagi voqea-hodisalarga baho berishda ko'proq maksimalizm(bir yoqlamalik)ga berilishadi. Bunga sabab ulardagi sabr-toqatning yo'qligi. Shuningdek, ularga yana tug'ilib o'sgan joylariga nisbatan ma'naviy-ruhiy jihatdan bog'lanib qolish hodisasi ham xos bo'lib, bu narsa xizmat davrida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi.

Yosh askarlarni safga qo'yishda harbiy qism va bo'linmalardagi katta askarlar yordamidan foydalanish lozim. Katta askarlar bo'linmada shakllangan an'analarning barqaror tashuvchilari hisoblanadilar. Ularning bilim va tajribalaridan ekipajlarni tuzishda hamda yosh askarlarga biriktirib qo'yish orqali ham foydalanish mumkin.

Muayyan bir bo'linma harbiy xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu jamoa psixologiyasining muhim elementi hisoblanadi. *Hamkorlikdagi hayot va faoliyat jarayonida jamoadagi kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan har xil aloqa va muloqot shakllariga o'zaro munosabatlar deyiladi.* Mamlakatimiz qurolli Kuchlari harbiy jamoalaridagi o'zaro munosabatlar jangovar tayyorgarlik, o'qish, mehnat hamda kundalik hayot jarayonida shakllanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy va davlat tuzimi, jamiyatimizda shakllanib kelayotgan milliy istiqlol mafkurasi harbiy xizmatchilar orasidagi o'zaro munosabatlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar har doim jamoa muhitida bo'ladilar. Shuning uchun ham shaxslararo munosabatlar aniq bir tizimga solingan bo'lib, ular harbiy nizomlar bilan tartibga solib turiladi. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda bo'ladi: Xizmatga oid, xizmatdan tashqari (maishiy) va shaxsiy munosabatlar.

Xizmatga oid munosabatlar xizmatni o'tashda, jangda va kundalik hayotda nihoyatda zarur bo'lib, har bir kishidan eng avvalo jangovar, xizmatga va mehnatga oid, ijtimoiy-siyosiy majburiyatlarni so'zsiz bajarishni taqozo etadi. Ushbu o'zaro munosabatlar harbiy jamoaning tashkiliy tuzilishida rasman mustahkamlab qo'yilgan. Bundan tashqari ular harbiy nizom, buyruq, qoida va qo'llanmalarda bayon etilgan bo'ladi. Komandirlarning faoliyatlari ushbu o'zaro munosabatlarni qaror toptirishga, mustahkamlashga va boshqarishga qaratiladi. Xizmatga oid o'zaro munosabatlar tizimi muntazam qaror toptirib boriladi (Masalan, xizmat faoliyatining u yoki bu jarayonida harbiy xizmatchilarni qayta taqsimlash, majburiyatlarni belgilash va vazifalarni taqsimlash, hisobot vaqti va shaklini ko'rsatish, xizmatda kamchiliklar bo'lganda jazolash va hokazo). Ammo, xizmat davrida ham, undan tashqarida ham iroda, ong va hissiyotga ega bo'lgan kishilar o'zaro ta'sirlashadilar. Shuning uchun ham xizmatga oid munosabatlarni shaxsiy munosabatlardan, shaxsiy munosabatlarni esa xizmatdan tashqari munosabatlardan butunlay ajratib bo'lmaydi. Xizmat vaqtida ham, xizmatdan tashqari holatlarda ham o'ziga xos his-tuyg'ularga, irodaviy sifatlarga, tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lgan insonlar o'zaro munosabatlarga kirishadirlr. Bu esa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarning chuqur ruhiy-emotsional mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bo'linmadagi o'zaro munosabatlar kishilar xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Askarning o'z komandiriga bo'lgan ichki sub'ektiv munosabati unda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. qandaydir sabablarga ko'ra ushbu munosabat salbiy bo'lsa, bo'ysunish majburiy, xizmat jarayoni esa zerikarli bo'ladi, natijada kelishmovchilik va ko'ngilsiz holatlar kelib chiqadi. Aksincha, komandir va askar o'rtasidagi ijobiy munosabat xizmatni osonlashtirib, uni sevimli mashg'ulotga aylantiradi. Bu esa askarlarda kerakli jangovar sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bo'linmalardagi harbiy intizomni mustahkamlashda o'zaro munosabatlar mazmuni katta ahamiyatga ega: qayerda o'zaro munosabatlar harbiy nizomlar asosiga qurilgan bo'lsa, o'sha joyda harbiy intizom mustahkam bo'ladi.

Harbiy bo'linmadagi o'zaro munosabatlar har xil ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Zamonaviy harbiy texnika va qurollarning murakablashganligi, ularning bir nechta kishilar tomonidan boshqarilishi bo'linmadagi va har bir harbiy xizmatchidagi mas'uliyat hissini nihoyatda oshiradi. Ularni boshqarishda aniqlik va hushyorlik, harakatlardagi o'zaro muvofiqlik talab etiladi. Bularning hammasi harbiy xizmatchilarni bitta jamoa atrofiga birlashtiradi, har bir kishining umumiy ish uchun mas'uliyatini oshiradi.

Insonlarga o'tkazadigan ta'siriga ko'ra, shaxsiy munosabatlar o'zaro munosabatlar tizimida alohida o'rin tutadi. Bunday munosabatlar stixiyali ravishda qaror topadi (yoqtirish, yoqtirmaslik, befarqlik, do'stlik, xayrixohlik va hokazo). Kundalik hayotda bunday munosabatlarga har doim ham e'tibor berilavermaydi. Ammo, shaxsiy munosabatlar katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, doimiy e'tiborni hamda izchil boshqaruvni taqozo qiladi.

Kundalik harbiy xizmat jarayonida harbiy xizmatchilar amalga oshiradigan har xil o'zaro aloqalar va muloqotlar jamoadagi o'zaro munosabatlar tizimini tashkil etadi. Aynan ushbu jarayonda shaxslar va jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllari paydo bo'ladi va rivojlanadi. O'zaro munosabatlar tizimi jamoadagi rahbarlik usullariga, ijtimoiy-psixologik muhitga, an'analarga, harbiy intizomga va shaxsiy tarkibning o'z vazifalariga bo'lgan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sanab o'tilgan omillar esa jamoaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, harbiy bo'linmalardagi o'zaro munosabatlar umumharbiy nizomlar va axloq meyorlari bilan tartibga solib turiladi. O'zaro hurmat, jangovar o'rtoqlik, jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish, har qanday sharoitda ham o'rtoqlariga yordam berishga intilish kabilar harbiy nizomlarga asoslangan o'zaro munosabatlarga xos.

Boshliqlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yakkaboshchilik, turli toifadagi harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum masofani saqlash, o'zaro hurmat va boshliqlarning obro'si kabi tamoyillarga asoslanadi. Boshliq va komandirlarga so'zsiz bo'ysunish harbiy

xizmatchi shaxsini yerga urmaydi. Chunki, ularning qiziqishlari o‘zaro mos keladi, ular bir maqsad-Vatan himoyasi uchun xizmat qiladilar. Jamoada harbiy nizomlarga asoslangan o‘zaro munosabatlarni shakllantirish ko‘p jihatdan askarlarning jamoaga moslashuviga, ularning muloqot usullariga va ruhiy jihatdan qanchalik mosliklariga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichlarni bilgan holda bo‘linmadagi o‘zaro munosabatlarni boshqarish mumkin.

O‘zaro munosabatlarning har qanday shaklida turli xil ijtimoiy-psixologik hodisalar yuz berib turadi. Shunday hodisalardan biri *taqlid* bo‘lib, inson shaxsining kamol topishida uning o‘rni beqiyos, har qanday inson hayotda kimgadir taqlid qiladi, unga o‘xshashga harakat qiladi. Psixologlar tili bilan aytganda insonlardagi ijtimoiy bilim va tajriba manbaalaridan biri taqliddir.

Munosabatlarda paydo bo‘ladigan yana bir ijtimoiy-psixologik hodisa *musobaqa* yoki o‘zaro raqobat hisoblanadi. Musobaqa insonlarni faollashtiruvchi ta’sir kuchiga ega. Ushbu hodisadan bo‘linmalardagi jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik darajasini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari yana harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, shuningdek, o‘zaro tenglar o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘linadi. Bunday munosabatlarning mazmuni O‘zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining intizom nizomida bayon etilgan.

Ijtimoiy fikr yoki *jamoa fikri*—jamoa psixologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. *Biron bir voqea hodisaga nisbatan harbiy bo‘linma a‘zolaridagi fikrlar, baholar yig‘indisiga ijtimoiy yoki jamoa fikri, deyiladi.* Jamoa fikri ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, odamlar o‘rtasidagi g‘oyalar, fikrlar, e’tiqodlar va hissiyotlarning o‘zaro almashinuvida rivojlanadi. Bu jarayonda davlat yuritayotgan siyosat va ayniqsa, jamiyatimizda shakllanayotgan g‘oyalar katta rol o‘ynaydi. Jamoa fikri-bu o‘zaro ta’sirlashuvlarda ma’lum bir o‘zgarishlarga uchragan shaxsiy fikrlarning o‘ziga xos eritmasidan iborat. U jamoa ma’naviy hayotining juda ham murakkab va tez o‘zgaruvchan hodisasi hisoblanadi. Jamoa fikri ijtimoiy ongni ifodalashning o‘ziga xos maxsus shakli bo‘lib, u o‘zida mafkura va ijtimoiy psixologiya unsur (element) larini birlashtirgan bo‘ladi.

Shuning uchun ham bo‘linmalarda ijtimoiy fikrni shakllantirmay turib, mustahkam harbiy intizom, yuksak jangovar tayyorgarlik hamda harbiy jamoa a‘zolarining ijtimoiy faolligiga erishib bo‘lmaydi. Jamoa fikri o‘z mohiyat e‘tibori bilan boshqariladigan hodisa. Uni boshqarish-ma‘lum bir tomonga maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirish mumkin. Harbiy xizmatchilarda mafkura, g‘oya, fikr va maqsadlarni shakllantirishda komandirlar, jamoa faollari, rasmiy va norasmiy liderlar katta rol o‘ynaydilar. Harbiy xizmatchilarning o‘z komandirlariga yoki safdoshlariga nisbatan taqlid qilishlari jamoada g‘oyaviy asosdagi birlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Jamoada g‘oyaviy birlikka erishishda ijtimoiy fikr asos bo‘lib xizmat qiladi. buning uchun esa ijtimoiy fikr yakdil va umumiy bo‘lishi lozim. Jamoa fikrining tez o‘zgaruvchanlik xususiyatini yuqorida aytib o‘tgan edik, komandirning asosiy vazifasi mana shu o‘zgarishlarni kerakli tomonga yo‘naltirishdan iborat.

Shu ma’noda askarlar u yoki bu voqeani faol muhokama qilishayotgan vaqtni qo‘ldan boy bermaslik lozim. Ular stixiyali o‘zaro muhokama va munozara jarayonida u yoki bu fikrga kelishadi. Ushbu vaziyatda ma‘lum bir askarlardagi noto‘g‘ri fikrlardan xalos bo‘lish uchun voqeaning asl sabab va mohiyatini tushuntirib berish katta ahamiyatga ega. Ba‘zan alohida bir kishining(liderning yoki oddiy a‘zoning ham) fikri butun boshli jamoaning fikriga aylanishi mumkin. Agar bunday kishilardagi fikrlar guruhning haqiqiy maqsadlariga zid bo‘lsa, ulardan ehtiyot bo‘lish kerak.

Jamoa fikrini bilishning, o‘rganishning yagona yo‘li shaxsiy tarkibga yaqin bo‘lishdir. Ayniqsa muhim masalalarni, aytaylik jangovar vazifalarni bajarishdan oldin salbiy individual fikrlarning oldini olish juda ham zarur. Bo‘linmada to‘g‘ri va haqiqiy ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun jamoa oldiga va alohida olingan har bir harbiy xizmatchi oldiga aniq talablar qo‘yish kerak bo‘ladi. Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, jamoa fikri jamoaning har bir a‘zosiga nainki ijobiy, balki, salbiy ta’sir ham ko‘rsatishi mumkin. Bu narsa ko‘proq salbiy ijtimoiy fikr mavjud bo‘lgan bo‘linmalarga xos bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarida bo'linmalardagi jangovar tayyorgarlik va ichki intizomni mustahkamlash maqsadida ofitserlarning jamoa fikridan har tomonlama foydalanishlari zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Har xil odamlarni bir jamoaga birlashtiruvchi asoslar turlichadir. Shulardan birinchisi askarlardagi qarashlar, fikrlar, qiziqish va e'tiqodlarning o'xshashligi yoki umumiyliigi. Bunday kishilarga hamfikrlar ham deyiladi.

Ikkinchisi esa askarlarning hamkorlikdagi hayot faoliyatlarida shakllanadi; qurollar va harbiy texnikaga birgalikda xizmat ko'rsatish, umumiy vazifalarni bajarayotganda yakka tartibdagi hatti-harakatlarni o'zaro kelishib olish zarurligi kabilar.

Uchinchidan askarlardagi ichki tuyg'u hisoblanadi. O'zining o'rtog'iga nisbatan hurmat va ishonch tuyg'usiga ega askar yordamida umumiy ish jarayoni ko'tarinki faoliyatga aylanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari harbiy jamoalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilar:

- siyosiy, ahloqiy va g'oyaviy birlik;
- umumiy dunyoqarash va Vatan himoyasi uchun shaxsiy hamda jamoa mas'ulligi.

Jamoaning shakllanishi va birlashishi jarayonida umumiy ma'naviy qadriyatlar tizimi yaratiladi. Ma'naviy qadriyatlar ta'sirida harbiy jamoa fikri shakllanadi. *Jamoa fikri deb, biron bir masalaga nisbatan jamoa a'zolarida paydo bo'lgan fikrlar majmuasiga aytiladi.* Harbiy faoliyat harbiy jamoada amalga oshiriladi, ushbu faoliyat jarayonida harbiy xizmatchilar o'rtasida harakatlarni o'zaro taqsimlash katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari qism va bo'linmalaridagi ijtimoiy fikr butun jamiyatimiz miqyosidagi ijtimoiy fikrga to'la mos keladi. Bu esa mustahkam harbiy intizom va yuksak jangovar tayyorgarlikning asosiy omili hisoblanadi.

Agar harbiy xizmatchilar jamoaga xos ko'nikma va malakalarga ega bo'lsalar, o'zaro ta'sirlashuv, shuningdek, jamoa faoliyati ham samarali, uzluksiz

hamda ziddiyatlarsiz bo'лади. Har bir jamoa o'ziga xos tuzulishga ega bo'лади. A'zolarining ma'lum holatni, mavqeni egallashi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamoa tuzilishini tashkil etadi. Barqaror tuzilishga ega jamoalarda har bir harbiy xizmatchining mavqei ham mustahkam bo'lib, yaxshi samara beradi.

Jamoa kayfiyati-jamoa a'zolarida u yoki bu hodisaga nisbatan paydo bo'ladigan hissiyotlar majmuasi. Jamoa kayfiyati juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, harbiy xizmatchilar hulq-atvori va faoliyatining motivi hisoblanadi. Jamoa kayfiyatining ba'zi turlari (ishtiyoq, muvaffaqiyatga bo'lgan ishonch, ko'tarinki kayfiyat) uning muvaffaqiyatiga omil bo'lsa, boshqalari (yomon kayfiyat, o'z kuchiga ishonmaslik, zerikish, xafalik va norozilik) esa aksincha, jamoaning imkoniyatlarini pasaytiradi.

Bundan tashqari harbiy jamoalar o'ziga xos an'analarga ega bo'ladilar. *Jamoaning o'ziga xos biron bir xususiyatini vaqt o'tishi bilan saqlab qolish hodisasiga an'ana deyiladi.* Umuman jamiyatda, xususan esa jamoada kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot va munosabatlarda paydo bo'ladigan hodisalar ko'p hollarda urf-odat yoki an'ana shakliga kiradi. Harbiy bo'linmadagi kayfiyat, uning faoliyat va hayot tarzi, komandirning rahbarlik uslubi hamda harbiy xizmatchilarning o'ziga xos xulq-atvorlari ham an'ana darajasiga ko'tarilishi mumkin. An'analari umuminsoniy, milliy, hududiy va jamoaviy bo'лади. Ular jamoada o'ziga xos ijtimoiy «kley» vazifasini o'taydi: aynan an'analari jamoani bir butunlikda ushlab turadi. Shu bilan birgalikda u jamoaga o'ziga xoslik va joziba baxsh etadi. Mazmunan an'analari mehnat, sport, jangovar va hakozi turlarga bo'linadi.

Shuningdek, jamoa yana o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhit bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy-psixologik muhit (mikromuhit, axloqiy muhit) murakkab tushuncha bo'lib, u o'z ichiga har bir harbiy xizmatchidagi his-tuyg'ularni, ulardagi ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilganlik darajasini (muloqot, o'zaro hurmat, do'stlik, qobiliyatlarini namoyon qilish darajasi va hakozi) va jamoa kayfiyatini oladi. *Bir vaqtda jamoaning hamma a'zolarida yoki ularning ko'pchiligida*

namoyon bo'ladigan his-tuyg'ular va kechinmalar majmuasiga jamoa kayfiyati deyiladi.

Agar alohida bir shaxsdagi kayfiyat fiziologik, psixologik va boshqa ijtimoiy omillarga bir xil darajada bog'liq bo'lsa, jamoa kayfiyati esa eng avvalo ijtimoiy munosabatlar butun tizimi (iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ma'naviy) natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy hayot esa insonlar hayotining moddiy va ma'naviy sharoitlari bilan belgilanadi.

Kayfiyat psixologiyaning harakatchan elementi bo'lib, juda tez o'zgarib turadi. Bir kishida paydo bo'lgan kayfiyat tezda boshqalarga ham yuqib, ularni ham «ruhan oziqlantirishi» mumkin. Aynan shu yerda taqlid qilishning ijtimoiy-psixologik qonuni amal qiladi, unga ko'ra ijobiy holatlar bilan birgalikda salbiy holatlar ham tez tarqaladi(masalan, yomon xulq-atvor, axmoqona moda). Yomon kayfiyat harbiy xizmatchilar orasida uchrab turadi. Uning g'oyaviy sabablari yo'q, balki psixologik sabablari mavjud. Salbiy kayfiyatlarning oldini olishning eng to'g'ri yo'li bo'linmada nizom talablarini joriy qilish, xizmatni, mehnatni va dam olishni to'g'ri tashkil etish, shuningdek, harbiy xizmatchilar haqida har tomonlama g'amxo'rlik qilishdan iborat. Harbiy xizmatchilarga mamlakatimizdagi va dunyodagi ahvol haqida muntazam axborot berib borish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, komandirlarning o'zlarida o'z faoliyatlariga nisbatan ishonch va tetiklik bo'lishi kerak. Ular endigina bir yoki bir nechta harbiy xizmatchilarda paydo bo'lgan salbiy kayfiyatlarni o'z vaqtida ilg'ashlari va oldini olishlari lozim. Jamoalarda shakllangan harbiy an'analar ijobiy kayfiyat manbai hisoblanadi: harbiy qasamyod qabul qilish, saf ko'rigi, qurollar va harbiy texnika ko'rigi, kechki yo'qlama, yosh askarlarni jamoaga qabul qilish, bayramlar, qorovul almashinuvi, harbiy qismga jangovar bayroq topshirish kabilar.

Harbiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni belgilab beruvchi omillardan yana biri, o'zaro munosabatlarning o'ziga xos shakli bulgan obro'(obro'-e'tibor yoki nufuz) hisoblanadi. Obro'-bir kishi(guruh)ning boshqa kishi(guruh)larga o'tkazadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri. Masalan, rahbar yoki komandirning o'z qo'lostidagilariga, o'qituvchining o'quvchilariga, jamoaning shaxsga va yuqori

tashkilotlarning quyi tashkilotlarga ko'rsatadigan ta'siri. Guruh paydo bo'lishi bilan obro' hodisasi ham paydo bo'ladi va u kishilar o'rtasidagi muloqot-munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Bo'linma komandirining obro'si harbiy xizmatchilar o'rtasidagi harbiy intizomni mustahkamlashda, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, obro'li komandir obro'siz komandirga qaraganda juda katta ta'sir kuchiga ega.

Ammo, hech qachon zo'ravonlik bilan obro' qozonib bo'lmaydi. Obro' jamoadagi mavjud o'zaro munosabatlarning hamda alohida bir shaxsdagi ijobiy sifatlarning mahsuli hisoblanadi. Obro'-e'tiborda har doim o'sha insonga nisbatan hurmat, uning kuchiga va imkoniyatlariga ishonch o'z ifodasini topadi. Obro'ning yana bir ahamiyati shundaki, usiz jamiyatda va alohida harbiy bo'linmada bironta ham tashkiliy faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Obro' ishontirish kuchiga ega. Unga ega bo'lgan kishi atrofdagilarga kuchli ta'sir eta oladi. Jamoadagi obro'li shaxsga bo'lgan ishonch shu jamoani jipslashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Har qanday jamoada bitta emas, balki bir nechta obro'li kishilar bo'lishi mumkin: komandir, yaxshi mutaxassis, harbiy jamoa faollari, sportchi va hokazo. Shuningdek, oddiy askarlar orasida ham shundaylari ko'plab topiladi. Oddiy harbiy xizmatchining obro'si uning xizmatdoshlari o'rtasida o'ziga xos yuqori mavqeni egallashini bildiruvchi mezon bo'lib, undagi hurmat, tajriba, bilimlar, qobiliyatlar, axloqiy-psixologik va jismoniy sifatlarga asoslanadi. Lekin, shu narsani afsus bilan ta'kidlab o'tish kerakki, biz hayotda obro' tushunchasida kattalar yoki komandirlarning mavqeini anglashga o'rganib qolganmiz. Obro'ga nisbatan bunday bir tomonlama qarash harbiy xizmatchilarni jamoada tarbiyalash tamoyiliga zid hisoblanadi. Aynan oddiy askarlar o'rtasidagi obro'li harbiy xizmatchilar jamoaning boshqa a'zolarini tarbiyalashda katta imkoniyatga ega bo'ladilar. Harbiy bo'linmada obro'li kishilarning ko'p bo'lishi jamoa ma'naviy hayotining boyligini, rang-barangligini, uning imkoniyatlari kengligini bildiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, jamoada obro'li-katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan kishilarning ko'p bo'lishi ba'zan ushbu

jamoada nosogʻlom muhitning yuzaga kelishiga-oʻzaro qarama-qarshi turuvchi kichik guruhlarining shakllanishiga ham sababchi boʻlishi mumkin. Natijada jamoa mayda guruhlarga boʻlinib, zaiflashadi.

Intizom ham harbiy boʻlinmalardagi oʻziga xos ijtimoiy-psixologik hodisa boʻlib, umumharbiy nizomlar va axloq meyorlari, komandirlarning buyruq va koʻrsatmalari, ijtimoiy va jamoa fikri, anʼnalar, obroʻ kabi vositalar bilan boshqariladi. Har qanday intizom, jumladan harbiy intizom asosida huquq va axloq yotadi. Umumharbiy nizomlar harbiy intizomni, harbiy xizmatchilar oʻrtasidagi munosabatlarni hamda kundalik xizmat faoliyatida paydo boʻladigan muayyan sharoitlarda qanday harakat qilishni tartibga soladi.

Tajribalarning koʻrsatishicha, harbiy intizom buzilishining asosiy sababi harbiy xizmatchilarning umumharbiy nizomlarni qisman yoki umuman bilmasliklari ekan. Shuning uchun ham askar va serjantlarning harbiy nizomlarni bilishlariga erishish katta ahamiyatga ega. Harbiy intizomga oʻrgatishda uning uslubiyati muhim rol oʻynaydi. Nizomlarni oʻrgatish odatda ofitserning ular haqidagi hikoyasidan, tushintirishidan boshlanadi. U yosh askarlarga harbiy nizomlarning turlari, ularning nima maqsadda yaratilganligi, jangovar tayyorgarlikdagi ahamiyati haqida soʻzlab beradi. Shundan keyin esa alohida moddalarni oʻqib oʻrganishga, ularni hayotiy misollar bilan mustahkamlashga oʻtiladi. Baʼzi ofitserlar esa nizomlarni oʻrgatishda notoʻgʻri yoʻldan borishadi-harbiy xizmatchilardan maʼlum bir moddalarni yoki qoidalarini toʻlaligicha yod olishni talab qilishadi. Bunday munosabat kishilarning oʻz vazifalariga nisbatan sovuqqonliklariga, ulardagi aqliy faoliyatning zaiflashuviga olib keladi.

quyidagilar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit boʻlishining asosiy shartlari hisoblanadi:

- jamoaning barqaror tarkibi;
- shaxsiy tarkib oʻrtasidagi psixologik moslik;
- umumiy natija uchun hammaning harakat qilishi.

Harbiy xizmatchilarning turmush tarzi

Ijtimoiy munosabatlar individni bir holatdan ijtimoiy individga aylantiradi, uning hayotiy turmush-tarzi esa – ijtimoiy turmush tarziga. Aynan shu asosda shaxsning yuzaga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi va ishlashi (harkatlanishi) sodir bo‘ladi va odamning muayyan turmush tarzini aks ettiradi.

Turmush tarzi – bu barqaror, ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllangan odamlarning konkret individual va guruhiiy hayotiy faoliyatining (turumsh tarzining) usuli bo‘lib ma’lum bir ijtimoiy munosabatlar tizimida ijtimoiy (huquqiy va axloqiy) me’yorlar va qadriyatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zining mohiyatiga ko‘ra ushbu qarash jamiyatni sotsiologik tahlil qilish doirasida muayyan (konkret) munosabatlarni aks etadi va individlarning munosabati va aloqa qilishi, ularning xatti-harakati va fikrlash xususiyati me’yorlarida namoyon bo‘ladi.

Harbiy xizmatchining turmush tarzini o‘rganish vaqtida, har qanday ijtimoiy guruhlar va jamiyat jamoalari vakilini o‘rgangandek, birinchi navbatda hayotiy turumush tarziga e’tibor qaratiladi.

Hayotiy turumush tarzi – bu muayyan (konkret) ijtimoiy sharoitlarda sodir bo‘ladigan va faoliyatning ma’lum bir turi va shaklli tizimlari bilan tavsiflanuvchi hamda butun borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish usuli sifatida ijtimoiy sub’ektning real hayotiy jarayonidir.

Umumiy ko‘rinishda harbiy xizmatchining hayotiy faoliyati o‘z ichiga quyidagilarni qo‘shadi:

yashash uchun zaruriy vositalarni yaratish maqsadidagi mehnat, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqish;

jamiyat va ijtimoiy guruhning hayotiy faoliyatida ishtirok etish;

shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faoliyat;

oilada va kundalik turmushdagi faoliyatning har xil shakllari;

xususiy erkin faoliyatni tashabbuskorlik va o‘zini-o‘zi rivojlanish shaklining aks etganligi kabi;

sport, badiiy havaskorlik bilan shug‘ullanish, shuningdek, suhbatlashish, dam olish va x.k.

Harbiy xizmatchining hayotiy faoliyatining (turmush tarzini) har xil shakllarini shartli ravishda turtta asosiy harbiy faoliyat usullariga qo'shish mumkin:

1. Iste'mol qilish;
2. Qayta o'zgartirish (o'zgartirish);
3. Bilish;
4. Munosabat (aloqa qilish).

Hayot tarzi tuzilmali rejada o'z ichiga quyidagilarni qo'shadi:

ishlab chiqish usuli;
odamlarning faoliyati va uning maxsuloti bilan almashish usullari, shakllari;
moddiy va ma'naviy-ruhiy yaxshiliklarni taqsimlash va iste'mol qilishning usullari va shakllari;
munosabatlar, aloqa qilish usullari.

Hayot tarzi determinantlangan (aniqlangan):

bir tarafdin, odamlarning hayot faoliyatining sharoitlari;
boshqa tarafdin, ushbu sharoitlarga indvidlarning munosabatlari (faol, ijodiy yoki passiv (sust); anglaganlik yoki anglamaganlik; yuksak ijtimoiy maqsadlarga bo'ysunganligi yoki iste'molchilikka, mahalliychilikka va x.k.).

Sotsiologik tahlil vaqtida hayot tarzi o'rganiladi:

me'yoriy-dunyoqarash (nuqtai-nazar) (jamiyatning etakchi, asosiy sinfini tahlil qilish vaqtida);

muayyan (konkret)-tarihiy (rivojlanishining tarixiy bosqichida jamiyat, ijtimoiy guruh va indvidni hayotiy faoliyatini tahlil qilish vaqtida).

Hayot tarzining ijtimoiy tavsifi uni quyidagicha ko'rib chiqishni imkon beradi:

mehnat qiladigan yoki mehnatsiz;
ijtimoiy adolatlilikka yoki adolatsizlik prinsiplariga asoslangan;
jamoaviylik yoki indviduallik;
vatanparvarlikka va internatsionalizmga yoki millatchilikka (shovinizmga) asoslangan;

demokratik yoki demokratiyaga qarshi;
gumanizm (insonparvarlik) ruhida yoki gumanizmga qarshi;
ma'naviy-ijodkorlik yoki mahalliychilik;
optimistik (yaxshi umid va ishonch bilan qarash) yoki pessimistik (umidsizlikka tushish);
sog'lom yoki sog'lom emas.

Hayot tarzining holati va o'zgarish sur'ati ko'rsatkichlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Hayot darajasi** (hayotiy daraja, hayotiy standart) – bu individlarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarining qonoatlanishi darajasi, ya'ni ijtimoiy guruhlaning iste'mol qilinadigan yaxshiliklar (ne'matlar) bilan ta'minlanganligi.

Mazkur sotsiologik tushuncha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi darajasi va me'yorlarini tavsiflaydi, asosan ularning son ulchovida (pullik va natural (asli) birligida): milliy daromad darajasi, mehnat haqiga to'lash miqdori, real daromadlar, iste'mol qilinadigan ne'matlar va xizmat ko'rsatish hajmi, oziq-ovqat va ozuqa bo'lmagan tavarlarni iste'mol qilish darajasi, ishlash va bo'sh vaqtning davomiyligi, yashash (uy-joy) sharoitlari, ma'lumot (ilm) olish, sog'liqni saqlash, madaniyat darajasi va x.k.

2. **Hayot sifati** – bu hayot tarzi tavsifi, ya'ni uning mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini, afzalliklarini va kamchiliklarini yoritib (ochib) beruvchi.

Sotsiologik fanda u odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish sifatini aks ettiruvchi tushuncha sifatida ishlatiladi: ovqatlanish sifati, kiyinish sifati va uning modaga mos kelishi, uyning komfortligi (qulayligi, shinamligi), sog'liqni saqlash, ta'lim, axoliga xizmat qilish sohalarida sifat tavsiflari, xordiq chiqarish tizimining sifatliqligi, ahloqiy muhit, odamlarning kayfiyati, mazmunli munosabat qilish, bilim olish, ijodiy mehnat qilish, joylashtirish va b. ehtiyojlarida qoniqlash darajasi.

Harbiy xizmatchilar hayotining o‘zaro bog‘langanlik sifati va darajasi tavsifi sifatida harbiy xizmatchilarning madaniy hayot tarzi namoyon qiladi.

Uning asosiy tarkibiy qismi quyidagilar:

harbiy mehnat va turmush madaniyati;

ko‘p darajali ijtimoiy tizimda harbiy-ijtimoiy munosabatlar madaniyati;

harbiy xizmatchining tabiat bilan o‘zaro munosabati madaniyati, ya’ni tabiiy yashash muhitda;

harbiy xizmatchilarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini to‘liq (maksimal darajada) qondirish;

harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy hayotining boyligi;

madaniy m’rosni saqlash va ko‘paytirish to‘g‘risida tashvishlanish, qayg‘urish;

harbiy xizmatchi tomonidan imkon qadar maksimal ravishda harbiy jamoa, jamiyat, umuman insoniyat ishlab chiqqan barcha boyliklarni egallash;

ilm, fan va san’atning, shu jumladan harbiyni ham taraqqiy etishi;

jamiyatning yuqori qadr-qimmatini sifatida harbiy xizmatchini har tomonlama rivojlantirish;

harbiy xizmatchining asl insoniylik, odamgarchilik hayot tarzini tasdiqlash.

3. Hayot uslubi (yo‘nalganlik) – bu muayyan ijtimoiy sharoitlarda, ijtimoiy sub’ekt tomonidan ichki xohishlarni, o‘zining hayot faoliyatining maqsadi va o‘z tushunchalari ma’nosini anglab amalga oshirish asosida shaxsni (ijtimoiy guruhni) ijtimoiy xatti-harakatining tavsifi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi omillari.

2. Umumharbiy nizomlar va axloq meyorlari, komandirlarning buyruq va ko‘rsatmalari, harbiy bo‘linmalardagi intizomni ushlab turishdagi o‘rni.

3. Harbiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni belgilab beruvchi omillar.

4. Jamoa kayfiyatining, harbiy xizmatchilar hulq-atvori va faoliyatiga ta’siri.

2.4. Harbiy mehnat va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi

Reja:

1. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirilgan islohatlari.
2. Harbiy xizmatchilar va oilalarining ijtimoiy himoyasi to'risidagi qarorlar.
3. Harbiy xizmatchilar oilasi hayotiy davrining sotsiologik tahlili.
4. Harbiy xizmatchilar oilasi mustahkamlanishda bo'linma komandirlari va oila institutlarining o'ni va roli.

Tayanch iboralar: ijtimoiy himoya, islohatlar, qarorlar, ijtimoiy-maishiy, harbiy xizmatchilar, oila, er-xotin, qurol - yarog', texnika, mukofatlash, muhofaza, majburiy sug'urta, rag'batlantirish, moddiy, ma'naviy.

Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish sohasida aniq maqsadga qaratilgan katta ishlar olib borildi. Harbiy islohatlar jarayonida, armiyani zamonaviy qurol - yarog' va texnika bilan ta'minlash, qo'shnlarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilish ular uchun ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi va sohaga oid mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. 1994 yil yanvardan e'tiboran harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatga majbur fuqarolar, oddiy askaralar va boshliqlar tarkibiga mansub shahslar hayotini harbiy xizmat o'tash (harbiy yig'inlarda ishtirok etish) davrida jarohatlanish (kontuziyalanish) va kasallanish holatlarida davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish joriy etildi. 1994 yil 1 oktyabrdan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati tasarrufidagi muddatli harbiy xizmatchilar va maxsus o'quv muassasalarida taxsil ko'rayotgan kursantlarning oylik maoshlari uch barobarga oshirildi. Shu bilan birga muddatli harbiy xizmatchilar o'tagan xizmat davri ularning mehnat staji va ixtisoslik bo'yicha ish stajiga bir oyi ikki oy hisoblanib kiritildi. Muddatli harbiy xizmatchilarning oilalari ular muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan davrdagi yer solig'i to'lashdan ozod qilindi. 1996 yil 30 avgustdan esa haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar shahar yo'lovchilar transportidan bepul

foydalanish huquqiga ega bo'ldilar. 1997 yil 10 yanvardan muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning oylik maoshlari eng kam ish haqiga nisbatan 8 foiz hisobida belgilab qo'yildi, endilikda muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning eng kam oylik maoshlari respublika hududida yagona tarif setkasida qabul qilingan yoki muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning joriy oylik maoshlari o'rtacha 1,5 barobar oshirildi. 2003 yil 1 iyuldan e'tiboran oddiy askarlar va serjantlar tarkibida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning lavozim maoshlari—ikki baravarga, harbiy xizmatdan bo'shatilganda beriladigan nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqining sakkiz baravarigacha yoki 20 baravarigi oshirildi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tagan fuqarolar O'zbekiston Qurolli Kuchlari malakali kadrlar bilan respublikaning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirganida ularga test sinovlarida to'planishi mumkin bo'lgan eng ko'p ballning 20% miqdorida qo'shimcha imtiyoz berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarinig harbiy xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi 2005 yil 30 iyundagi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarinig belgilangan tartibda turar joy bilan ta'minlanmagan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida 2005 yil 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga mansub, turar joy bilan ta'minlanmagan shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilarga ijaraga uy olib yashayotganliklari uchun to'lanadigan pul badalining miqdori (ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar uchun to'lanadigan foydalanishni tartibga solish to'g'risida" gi qonuni Toshkent shahrida - eng kam ish haqining to'rt baravargacha miqdorida, Nukus shahri va viloyat markazlarida – eng kam ish haqining uch baravarigacha miqdorda, O'zbekiston Respublikasining boshqa shaharlari, tuman markazlari va aholi punktlarida - eng kam ish haqining ikki baravarigacha miqdorda, oila a'zolari uch kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda harbiy xizmatchilarga to'lanadigan ushbu pul badalining miqdorlari 50 foizga oshirildi.

2005 yil oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar uchun respublika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda test sinovlarida to'planadigan eng ko'p ballning 25% miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoz berish belgilanadi. Harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega bo'lgan, biroq tanlov davomida (test) kerakli ball to'play olmagan muddatli harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlar o'qishning pedagogika, qishloq xo'jaligi, tabiiy - ilmiy va texnik yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga to'lov shartnoma asosida qabul qilinadi. Muddatli harbiy xizmatni o'tagan va tanlov shartnoma bo'yicha o'qishga qabul qilingan, o'qish davrida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining talaba tashkilotlari faoliyatida faol ishtirok etgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan shartnoma summasining 35 foizini to'lash tariqasida moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarni ma'naviy rag'batlantirish, xurmat ko'satish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib, harbiy burchni bajarishdagi jasorati va mardligi, Vatanimiz mustaqilligini, sarxadlarini, ona – yurt tuprog'ini himoya qilish, milliy xavfsizligimizni ta'minlashga katta hissa qo'shgan fuqarolarimiz Prezidentimiz tomonidan orden va medallar, faxriy unvonlar bilan taqdirlanib kelinmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori Mamlakatimizda ta'sis etilgan "Mustaqillik", "Amir Temur", "Jaloliddin Manguberdi". ordenlari, "Jasorat", "Sodiq xizmatlari uchun " kabi medallar Qurolli Kuchlarimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan vatanparvarlarni mukofatlash, rag'batlantirish bilan birga vatanpar va yurt fidoyilarini tarbiyalashga ham katta hissa qo'shayapti. Zero, Birinchi Prezidentimiz I. A.Karimov "Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan harbiylar O'zbekistonning faxri, ishonchi va suyanchidir. Ularning doimo xushyor va sezgirliги tufayli sarxadlarimiz daxilsiz, yurtimiz tinch, xalqimiz osoyishta hayot kechirmoqda. Harbiylarning ham hayoti, oilasi, quvonchu - tashvishlari bor. Ular uchun munosib shart- sharoitlar yaratib berish doimiy e'tiborimizda bo'lishi

lozim”deb ta’kidlaganlar. Shartnoma bo’yicha harbiy xizmatchilar va ular bilan birga istiqomat qilayotgan oila a’zolariga, haqiqiy harbiy xizmatni davom ettirish uchun tayinlangan yangi joyga yetib kelishlari bilan uch oydan kechiktirmagan tarzda, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me’yoriy - huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan tartib va me’yorlarga muvofiq uy- joy ajratib beriladi. Ayni vaqtda ushbu uy-joy, harbiy xizmatchilarning qo‘shimcha istiqomat maydoniga bo‘lgan haq-huquqi inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi balansiga o‘tkaziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yoki idora tasarrufidagi turar - joy maydonlari fondi hisobidan ajratib beriladi. Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, zamonaviy harbiy shaharchalar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularda bugungi kun talablariga, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ehtiyojlariga javob beradigan barcha qulayliklarni yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini izchil amalga oshirish Mudofaa vazirligi, harbiy tuzulmalarga ega bo‘lgan vazirlik va iboralarning rahbarlar, harbiy okruglar qo‘mondonligining eng dolzarb vazifasidir. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan harbiylar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va kuchli ijtimoiy himoya siyosati ularni vatan oldidagi o‘z burchlarini sharafla bilan bajarishlari uchun moddiy va ma'naviy rag‘bat bo‘lmoqda. Bugungi kunga kelib armiyada o‘z yig‘itlik burchini o‘tab, xizmat qilish katta sharafla aylandi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab mamlakatimiz hayotini barqarorligini ta'minlash maqsadida milliy armiyamiz, ya'ni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi. Birinchi Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni I. A. Karimov milliy armiyamiz tashkil topganligining 24 yilligi munosabati bilan armiyamizning oddiy askar, serjant, ofitser va generallariga yo‘llagan tabrik nutqida, mamlakatimizda harbiy qurilish sohasi bo’yicha olib borilayotgan islohotlarning maqsadi va ularning asosiy mazmunini sharhlab shunday degan edi: “Bugun biz, milliy armiyamiz tarixiy va milliy ananalarimizni saqlagan holda, harbiy qurilish va harbiy san’at sohasida dunyodagi eng yaxshi tajribalarni o‘zlashtirib, chegaralarimiz xavfsizligini ta’minlashning ishonchli kafolatiga

aylandi, deb g'urur bilan ayta olamiz. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tayanchi va suyanchi bo'lgan zamonaviy harbiy xizmatchilar timsolida biz avvalambor chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o'z muqaddas harbiy burchini bajarish yo'lida qat'iy iroda va mustahkam tayyorgarlikka ega bo'lgan, ona yurtimizga sadoqatli, mard va fidoyi insonlarni ko'ramiz va ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz". O'z hayotini dunyodagi eng muhim va olijanob vazifa-Vatan himoyachisi degan sharaflı kasbga bag'ishlangan insonlar esa davlatimiz va jamiyatimizda hamisha yuksak xurmat va ehtiromga munosib bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining 2012 yil 24 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi xuzuridagi Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida mazkur kengash demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va Mudofaa vazirligi faoliyatining ochiq-oshkoraligini, fuqarolarning mudofaa sohasi hamda harbiy yo'nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosatidagi ishtirokini ta'minlashga xizmat qilishi, harbiy xizmatning nufuzini oshirish, armiya saflarida xizmat qilayotgan va harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ko'maklashishi alohida belgilangan. Qurolli Kuchlar tizimini shakllantirishdagi yana bir muhim jihat harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu ma'noda ularni uy-joy bilan ta'minlash, kafolatlangan tibbiy xizmat ko'rsatish, moddiy va maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash borasida davlatimiz rahbarining alohida e'tibori tufayli amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa harbiylarga qator imkoniyat va imtiyozlar yaratmoqda. Birinchi Prezident I. A. Karimov Qurolli Kuchlar tashkil topganligining 24 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigida shunday ta'kidladi: "Harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turar-joy, maishiy va tibbiy xizmat bilan tahminlash bo'yicha davlat dasturlarini so'zsiz bajarish zarur. Yurtimizda 2016 yilning "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan hukumat qarorlari va davlat dasturlari doirasida harbiy xizmatchilarning oila

a'zolarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari nufuzini yanada mustahkamlashning hal qiluvchi omili avvalo harbiy xizmatni o'tash uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, harbiy xizmatchilar va ularni oilalarining ijtimoiy himoyasi va farovonligini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir".

Oilani mustahkamlash va uning farovonligini oshirish demografik siyosatning vazifalari orasida birinchi o'rinda turishi alohida ta'kidlanib, konstitutsiyamizning 3-bo'lim 14-bobi alohida "oila" deb atalib, 63-moddasida esa "Oila jamiyatning asosidir hamda jamiyat davlat muhofazasida huquqiga ega deb ko'rsatilgan".

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Har qanday jamiyatda jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va aqlan etuk sog'lom avlodni yaratish oilaning ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi mehnatini himoya qilishda muhim o'rinni egallaydi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiya qilishda ham uning roli benihoya kattadir. Harbiy xizmatchilarning oilalarini ijtimoiy himoyasi bu ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, tibbiy va boshqa sohalarda oila a'zolarini o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Shuning uchun ham davlatimiz harbiylar va ularning oila a'zolarini o'zining ijtimoiy himoyasiga olib katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buning natijasida harbiy xizmatchilarimiz o'zining professional kasbiy tayyorgarliklarini oshirib borishi uchun mustahkam zamin yaratib bormoqda.

Bu borada tizimli ishlar davom etmoqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorni imzoladilar. Unga ko'ra, mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga munosib hissa

qo'shgan, jangovar-xizmatda va ilmiy faoliyatda muayyan natijalarga erishgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklarning haqiqiy xizmatni o'tayotgan ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar tarkibiga mansub bo'lgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga bevosita komandirlari tavsiyanomasiga asosan ular farzandlarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun, harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun respublika oliy ta'lim yurtlariga kirishlari uchun foizli davlat granti asosida qabul kvotasi ajratildi.

Qaroriga asosan, 5 foizli qabul kvotasi quyidagicha taqsimlandi:

- Mudofaa vazirligi – 44 foiz;
- Ichki ishlar vazirligi – 10 foiz;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi – 3 foiz;
- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi– 1 foiz;
- Davlat xavfsizlik xizmati – 33 foiz;
- Milliy gvardiya – 10 foiz;
- Prezidentning davlat xavfsizlik xizmati – 2 foizli kvotalar ajratildi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi har bir davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanib va ushbu tizimning tartibga solinishida davlat boshqaruvining o'рни va ahamiyati muhim sanaladi. Mamlakatimizda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, turli soha va tarmoqlarda ularning iqtidor va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli, asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirilmoqdaki, buning natijasi albatta davlatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. G'amho'rlik ko'rsatishning ko'pgina shakllari ichida harbiy xizmatchilarga imtiyozlar, yana ularni harbiy xizmatdan ozod etgandan so'ng harbiy pensiya va nafaqalar shaklida davlat ta'minoti ko'rsatish muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari imtiyozlar haqidagi normalar O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida", "Mudofaa haqida" qonunlarida va boshqa huquqiy aktlarda qayd etilgan.

2018-2019 o‘quv yilidan boshlab harbiy xizmatni o‘tashda halok bo‘lgan, shuningdek harbiy xizmatni o‘tashda yarador bo‘lgan, kontuziya, shikast olish natijasida nogiron bo‘lib qolgan yoki kasalliklarga duchor bo‘lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga davlat granti asosida tanlovsiz qabul qilmoqda.

Shuningdek vazirlik va idoralarga 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab, oldin to‘lov-shartnoma asosida oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga to‘lov-shartnoma asosida o‘qishga kirgan, harbiy xizmatni o‘tashda halok bo‘lgan ofitserlar, shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlarning farzandlari uchun shartnoma pulini to‘lab berishga ruxsat berildi. Bugun harbiylarning 700 nafardan ziyod farzandlari oliy ta‘lim muassasalarida shu imtiyozdan foydalanib tahsil olmoqda.

Harbiylarni uy-joy bilan ta‘minlash, oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash uchun munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida, imtiyozli kreditlar asosida 2017 yilda 56 ta, 2018 yilda esa 74 ta 2019 yilning o‘zida harbiy xizmatchilar uchun 116 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Qisqa davr ichida ikki yilda 6 mingdan ortiq harbiy xizmatchi oilalarining yashash sharoitlari yaxshilandi.

Qabul qilingan barcha me‘yoriy hujjatlarda oilalarni mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng yaxshi oilaviy an‘analarni saqlab qolish, targ‘ibot qilish masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etmoqda.

Harbiy xizmatchilar ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bu tizimni zamonaviy talab va standartlarga mos ravishda takomillashtirish sarhadlarimizni daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini asrash imkonini beradi. “Deyarli har bir harbiy xizmatchi qonunlarga muvofiq xizmatni yangi joydan boshlaydi va dastlab yangi sharoitlarga ko‘nikish, o‘z xo‘jaligini yo‘lga qo‘yib olishda ma‘lum qiyinchiliklarni boshidan kechiradi”. Shuning uchun bu davrda u alohida e‘tiborda bo‘lishi, ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, yangi jamoaga ko‘nikishlariga yordam berish, ular bilan do‘stona a‘loqalar o‘rnatish, kattalarning o‘z vaqtida to‘g‘ri maslahatlar berishi, ularning harbiy bo‘lib shakllanishiga ham

yordam berib oilaviy barqarorligini ta'minlanishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmat va oila o'zaro bog'lik, bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy organizm hisoblanib, oilaviy munosabatlar harbiy xizmatning mazmundorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatib mamlakat mudofaasini ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviyatini rivojlantirish, kasbga sodiqlik darajasini yanada kuchaytirish lozim bo'ladiki, uning asosida salmoqli o'rinni oila egallaydi. Insonning ijtimoiylashuvi oilaviy muhitning ta'siri ostida, oiladagi ma'naviyatning kuchi asosida kechadi. Harbiy xizmatchilar oilasi jamiyatda alohida o'rin egallab, doimo xavf bilan ya'ni oilasini yo'qotish bilan yuzma-yuz bo'lib kelgan. Harbiy xizmatchilar oilasining zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklangan va bu ma'suliyat harbiylik kasbining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. "Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, xizmat bilan 12-14 soat band bo'lgan harbiy xizmatchining nafaqat oilasi balki dam olishga, o'zi uchun va boshqa oilaviy yumushlarga ham vaqti bo'lmas ekan". Harbiy xizmatchilar oilasida er va xotin rollarining taqsimlanishi 89% xotin va 83% er rollarining taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib farzandlar tarbiyasi ko'proq ayollar zimmasiga yuklanadi. Bu esa harbiy xizmatchi ayolidan kuchli sabr-toqatli bo'lishni talab qiladi. Oila muommolarini o'rgangan mutaxassis T.Tixomirova ta'kidlaganidek "farzand kamolotida, uning dunyoqarashi, tafakkuri rivojlanishida oila va uning a'zolari bajaradigan rollar ahamiyati darajasi juda yuqori deb hisoblaydi". Haqiqatdan ham oila oilaviy rollar va ularning bajarish odobi haqida ilk saboqlar ota va onalarning hayotiy tajribasi, yer-xotinlik munosabatlarining na'munasi asosida shaxsiy hayot pozitsiyasini belgilab beradi.

Oilaning jamiyat uchun muhurligi inson ma'naviy kamolotidagi o'ziga xos betakror maktab ekanligidadir. Davlat oilaning mustahkamlanishi, er va xotin, farzandlar bilan ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish, muommolarni hal etishni o'z zimmasiga oladi. Harbiy xizmatchilar oilasining har bir hayotiy davrining sotsiologik tahlili shundan dalolat beradiki, yer va xotinning bir-biriga nisbatan moslashuvi, bir-birini tushinishi, nuqtai nazarni anglashi va nozik tuyg'ularini his eta olishi qiyin va notekis jarayondir. Oilaning har bir hayotiy

davri o'ziga xos xususiyat va belgilari bilan ajralib turadi. Bu xolat yer-xotinning yoshida, psixologik va fiziologik o'zgarishlarda bolalarga g'amho'rlik qilishning o'sib borishida namoyon bo'lgan kelishmovchiliklarni oldini olishda yordam beradi. 10-20 yil hamkorlikda yashagan oilalar uchun tuzilgan anketalarda bir-birini tushinish, samiylik, o'z xoxishlarini jilovlay olish, yordam berishga tayyor tura olish. O'z fikrini asoslash va qat'iy turish, xo'jalik yuritish kabi oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradigan o'ziga xos jihatlari mavjud bo'ladi.

Aniqlanishicha yuqoridagi xususiyatlarning eng ustuvorlari:

Birinchisi, yordam berishga tayyor turish;

Ikkinchisi, samiylik va g'inani tezda unitish;

Uchinchisi esa, birining xarakteridagi kamchiliklarga ko'z yuma olish hisoblanadi.

Shuningdek, harbiy xizmatchi va uning xotinlari bilan o'tkazilgan suhbat davomida ham ko'pchilik yer-xotinlar uchun yuqoridagi xususiyatlarni o'z hamroxlari bo'lishini istashlari aytib o'tilgan. Tadqiqotlar oldiga harbiy xizmatchilarning oilaviy holatiga munosabatini aniqlash vazifasi qo'yilgan bo'lib, bunga ko'pchilik harbiy xizmatchilar oilada qanchalik baxtli turmush kechirayotganligi bevosita harbiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Oila ijtimoiy institut sifatida ma'naviy qo'rg'on bo'lishi bilan birga yosh avlod ta'lim-tarbiyasining ilk maskanidir. Er va xotin bu qo'rg'onni mustahkamlash uchun birdek harakat qilishi shart. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarda faoliyat yuritayotgan harbiylar faoliyatini, harbiy boshqaruvning turli jihatlari, muammolarini bir qator harbiy tadqiqotchilar o'rganishgan. Ammo bu tadqiqotlarda oilaning o'rnini alohida o'rganib chiqilmagan.

Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda "Oilaning samarali shakllanishi va muammolarni bartaraf qilishi, har bir shaxsning o'z faoliyatini tug'ri tashkil qila olishi, voqelikni oldindan ko'ra bilishi, vaziyatlarga adolatli yondashishi, muammolarni tug'ri hal qilishga yordam beradi". Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda o'zining tarixiy, madaniy, milliy va

umumbashariy qadriyatlariga ega va shu bilan bir birgalikda O'zbekistonning ravnaq topishi uchun uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlariga asos solinadi, odamlarning talab, ehtiyoj va qadriyatlari shakllanadi”. Shuning uchun ham oila jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo'ladigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanishi, ayniqsa aholining ko'pchiligi oila muhitida tarbiya topishi, oilaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotdagi o'rini belgilab beradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni axlokiy, psixologik va jismoniy sog'ligini mustahkamlashda oilaning masuliyatini oshirish-bu hozirgi davrning o'ta muhim muammolaridan birini hal etish demakdir. Har bir oila boshqalarga o'xshamaydigan o'z shaxsiy idividual qiyofasiga egadir. Oila azolarining malumoti, manaviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlar turlicha bo'lishi sababli oiladagi kelib chiqadigan muammolar ham turlichadir. “Har qanday oilaning mustahkamligi, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanligi va samaradorligi oilada qaror topgan er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteriga, ma'naviy va axloqiy iqlimiga bog'liq”. Aksincha, o'z oila a'zolarini to'g'ri tarbiyalay olmagan oilani mustahkam deb bo'lmaydi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oilalarni tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda oila mustahkamligining asosiy omillari hisoblanmish, dam olish va sog'lomlashtirish ishlariga davlat miqyosida ahamiyat berilishi va buni jamoat tashkilotlari o'z zimmasiga olishi, ya'ni fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, sharoitlarini yaxshilash oilalarning mustahkamligini oshib oshib borishida katta o'rin tutadi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz oilalarini ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilib, harbiy xizmatchilarning shaxsi va xizmat manfaatlarini inobotga olgan holda qator dasturiy tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Harbiy xizmat faoliyati, harbiy xizmatchilar ma'naviyati, harbiy oilalarning tavsifi kabi mavzularda tadqiqotlar olib borib olingan natijalar asosida Qurolli Kuchlar uchun maxsus tavsiyalar, ko'rsatmalar berish lozim.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy ishlar, harbiy xizmatchilar oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi va ma'naviyatini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida. Harbiy shaharchalar hududida katta gektar yerlar ajratilib, ikuvchilik sexlari tashkil etildi. Mazkur tikuvchilik sexlarda ko'plab ish o'rnini yaratilib, mahalliy aholi bilan birgalikda harbiy qismda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari doimiy ish bilan ta'minlab kelmoqda. Bu tashabbus harbiy xizmatchilarning oilaviy budjetini ortib borishida samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki kuchli ijtimoiy himoya esa o'z navbatida, ofitser va askarlarimizning fidoyilik, burchga sadoqat bilan xizmat qilishi, o'z mehnat faoliyatini og'ishmasdan bajarishi. Barcha amalga oshirilayotgan sa'yi-harakatlar natijasida uo'zining professional tayyorgarligini oshirib borishi uchun mustahkam zamin yaratilmoqda. Ko'rilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida Vatan himoyachilarining harbiy xizmatga bo'lgan yondashuvi tubdan o'zgardi, harbiy qismlarda mas'uliyat va intizom mustahkamlandi, barcha harbiylar qalbida o'z Vatani bilan faxrlanish va g'ururlanish hissi yanada ortib bormoqda.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Birinchi Prezidentimiz I. A.Karimov tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirilgan islohatlar haqida ma'lumot bering.
2. Harbiy xizmatchilar va oilalarining ijtimoiy himoyasi to'risidagi qabul qilingan qarorlar.
3. Harbiy xizmatchilar oilasi hayotiy davrining sotsiologik tahlili.
4. Harbiy xizmatchilar oilasi mustahkamlanishda bo'linma komandirlari va oila institutlarining o'ni va roli.

3-BOB. HARBIY JAMOALARDA IJTIMOIIY NAZORATNING AHAMIYATI

3.1 Shaxs ijtimoiylashuvi va deviant xulq-atvor sotsiologiyasi

Reja:

1. Shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
2. Deviant xulq-atvor tushinchasi.
3. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari.
4. Deviant xulq-atvor to'g'risidagi nazariyalar.
5. Ijtimoiy me'yor va ijtimoiy nazorat institutlari.

Tayanch iboralar: Ijtimoiy me'yor, jinoyatchilik, anomiya, axloq, me'yorlar, qonun, ijtimoiy muhit, hatti-harakat, ijtimoiy hodisa, deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat, ichkilikbozlik, giyohvandlik, dangasalik, olkagalizim, ijtimoiy og'ishlar, muammoli vaziyat.

Shaxsning ijtimoiylashuvi ya'ni ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishi bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayondir, u ob'ektiv muhit ta'siri ostida ham, maxsus tashkil etilgan va ongli yo'naltirilgan tarbiya ishlari ta'siri ostida ham yuzaga keladi. Sotsiologiya ijtimoiylashuvni: birinchidan, shaxsning insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyatni o'zlashtirish mexanizmi sifatida qaraydi. Ijtimoiylashuv shaxsni tarbiyalashga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi. Tarbiyalash tashkil etilgan, maqsadli yo'naltirilgan, oldindan programmalashtirilgan sotsial faoliyatdir. Ijtimoiylashuv esa bu faoliyat bilan bir qatorda yana iqtisodiy, siyosiy, kundalik turmush va boshqa shu kabi shaxsga stixiyali ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt faktorlarning ijtimoiylovchi ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiylashuvning jamiyatni «tashkil etuvchi mexanizmi» sifatidagi mohiyatini shaxsni bir vaqtning o'zida ham sotsial ta'sirining ob'ekti, ham sotsial faoliyat sub'ekti sifatida qaralganda ochish mumkin. Bu birinchi navbatda shaxsning muhit bilan o'zaro aktiv faoliyati jarayonidir. Bu o'zaro faoliyat bir tomondan, muhit tomonidan shaxsga uning rivojlanish jarayoni yo'nalishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatilishida, namoyon bo'lsa, ikkinchi tomonidan shaxsning muhitga aktiv kirib borishi va bu jarayonda mukammllashib, o'z hayotiy pozitsiyasini, qadriyatli yo'nalishini belgilab olishida namoyon bo'adi.

Shaxsning sotsial muhit bilan o'zaro faoliyati bir necha etapda o'tadi: individlarning birlamchi ijtimoiylashuvi (individual tajriba orttirish, sotsial-shartlangan reaksiyalarni ishlab chiqish).

Individning sotsial jamoa bilan o'zaro faoliyati (guruh ichidagi o'zaro hatti-harakat va b.), va nihoyat, individning butun jamiyat bilan o'zaro faoliyati (sotsial adaptatsiya, individual hulq-atvor motivatsiyasida sotsial ko'nikmalar va b.).

«Sotsial muhitning» shaxsga ta'siri jarayoni ko'p qirralidir, chunki, u sotsial sistemaning barcha tomonlari, jarayonlarining majmuasini ifodalaydi: moddiy elementlar, individni o'rab turgan, o'z konkret sotsial roli, pozitsiyasi, qarashlari va o'rganishlariga ega bo'lgan odamlar, individ tomonidan o'zlashtiriladigan, qabul qilmaydigan (yoki individ tan olmaydigan, qabul qilmaydigan) sotsial hulq-atvor normalar, shuningdek, jamiyatda obe'ktiv mavjud bo'lgan sotsial imkoniyatlar, sotsial «ko'nikmalar», talablar strukturasini.

Individlarni tarbiyalash va ularning kundalik turmushining sotsial shart-sharoitlarni yaxshilash shaxsning sotsial muhit bilan o'zaro faoliyati jarayonining maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvini bildiradi. Bu o'zaro faoliyatning muhim tarkibiy qismi qilib shaxs va uni o'rab turgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni olish tizimi.

Ijtimoiylashuvda mafkura uni o'qitish tizim muhim o'rin tutadi. U bir tomondan, g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalarni ommalashtirish va «ist'emol qilish» o'z ichiga oladi, bular asosan ommaviy axborot vositalari, maktablar va boshqa mafkuraviy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiylashuvda ijtimoiy etalonlar tizimi ham o'ziga xos o'ringa ega. Ularga sotsial normalar, baholovchi mezonlar, urf-odatlar, an'analar va boshqalar kiradi. Ular shaxsning jamiyatga, sinfga, kollektivga oila va boshqalarga nisbatan majburiyatlarini belgilaydi, uning hulq-atvorini boshqaradi. Bunda hulq-atvorning majburiy va mumkin bo'lgan tipik variantlarini aks ettiruvchi sotsial normalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy etalonlar tizimida baholovchi kriteriyalar – siyosiy, huquqiy, estetik, pedagogik va bu o'ziga xos ahamiyatga ega. Ular individual emas, balki umumiy xarakterga ega normalardan farqli o'laroq ular majburiy hulq-

atvorni belgilamaydi, balki amalga oshirilgan yoki mumkin bo'lgan hulq-atvorning umumiy xarakteristikasini tashkil etadi. Masalan, san'atning baholovchi kriterialari tipik shaxsning badiiy obrazi orqali ko'rinadi va shu obraz orqali shaxsga real ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning sotsial mavqei, roli va funksiyalari tizimi haqida gapiradigan bo'lsak, ular shaxsning sotsial aloqalar va munosabatlar sistemasida tutgan o'rining ko'rsatkichlari sifatida shunga mos sotsial pozitsiyalarni shakllantiradi, sotsial sistemaning turli sohalaridagi o'z hayotiy faoliyati jarayonida hulq-atvor tajribasini o'zlashtirish usuli va xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Insonning ijtimoiylashuv va tarbiya asosidagi shaxsga xos xususiyatlarining shakllanish jarayonini qator ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar bilan asoslash mumkin: 1) sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar; 2) sotsial yo'nalishlar va pozitsiyalar; 3) hulq-atvorni strategik tashkil etish; 4) sotsial aktivlik;

Sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar tizimi, ilgari aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi asosini tashkil etadi. Ehtiyojlar inson faoliyatining va hulq-atvorining birlamchi, asosidir, ularni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning hamda shaxsning o'zining ob'ektiv va qiziqishlarini anglab yetishda, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega hulq-atvor motiviga aylantirishda, ularga nafaqat tashqi zarurat yuzasidan, balki ichki ishonch yuzasidan ham rioya qilishda o'z aksini topadi.

Shaxsning sotsial yo'nalishi va dunyoqarashi sistemasiga programmalar, maqsadlar, ishonch-e'tiqodlar va baholovchi kriteriyalar yig'indisi kiritiladi. Ular shaxsning afzalroq va majburiy fe'l-atvorini belgilaydi. Dunyoqarash shaxsning mavqeidan kelib chiqadi va uning tashqi dunyoga ichki dunyoga ichki sub'ektiv munosabatini bildiradi. U tanlash xususiyatiga ega va shaxsning u uchun tabiiy bo'lgan masalalarga ustunroq turuvchi munosabatini boshqarishga, fe'l-atvorini baholashga va ob'ektiv sotsial voqelik bilan aktiv munosabat o'rnatishga ega.

Fe'l-atvorni ichki strategik tashkil etish tizimini (ya'ni maqsadlarga erishish, umumiy g'oyalar va dunyoqarash prinsiplarga ergashish) ijtimoiylashuvining asoslovchi mexanizmlarini harakatga keltirish «vositasi» sifatida qarash mumkin.

U bir tomondan shaxsning ehtiyojlari qiziqishlari oriyentatsiyalari yoʻnalish va pozitsiyalari dunyoqarash va ikkinchi tomonda uning aktivligi oʻrtasida «koʻprik» sifatida namoyon boʻladi. Bu tizim tufayli maʼlum bir ehtiyojlar, talablar va obʻektiv shart-sharoitlarga mos keluvchi hatti-harakatga oʻtiladi.

Ijtimoiylashuvning shaxsga xos tizimlari konkret – tarixiy xarakterga ega va shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni mohiyatini ochib beruvchi ijtimoiy munosabatlar tipi va xarakteriga bogʻliq. Agarda jamiyatda uning aʼzolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, oriyentatsiyalari va feʼl-atvorining merkantil yoʻnalishi hukmron boʻlsa, u holda odamlarning hohish va intilishlarida shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mohiyati sifatida qaraluvchi qadriyatli – ehtiyojli oriyentatsiyasi, individualizm «qadriyat»lari ustunroq turadi.

Bozor munosabatlariga oʻtish yoʻlidagi mulkchilikning turli koʻrinishlarida, tadbirkorlikning rivojlanishida, shuningdek, xalq maʼnaviyatining tiklanishida insonga oʻz sotsial tabiatining koʻrsatishga, jamiyatning aktiv aʼzosi sifatida sotsial funksiyalarini bajarishga yordam beruvchi mutlaqo yangi ijtimoiylashuv tipi uchun obʻektiv asoslar yuzaga kelmoqda.

Demak, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni oʻzlashtirish orqali sodir boʻladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Individdning sotsial tashkilot elementlar boʻlishi qay tarzda roʻy berishidan, bir tomondan, sotsial tashkilotning shaxsga taʼsir etishi orqali qobiliyatini shakllanishi, ikkinchi tomondan, shaxsning boshqa odamlar taʼsiriga berilishi qobiliyatining shakllanishiga bogʻliqdir.

Shaxs – sotsial taʼsirlanishning obʻekti va subʻektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individd sotsial faoliyati koʻrsatishi uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini oʻzlashtirgan boʻlishi kerak. Individd faoliyat qiluvchi mavjudotdir, u tashqi muhitga shunchaki, javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham tashqi muhitning obʻektiv qonuniyatlarni, ham inson sifatidagi oʻzining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarini anglaydi va bu anglash asosida oʻzining faoliyatini boshqarish

faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishini emas, balki shu qonuniyatlar elementlarining ma'lum sharotidagi shakl va xususiyatlarini ham bilishni taqazo qiladi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'pginadir, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsni moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga ob'ektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyati ehtiyojlarni qondirish shakli sifatida qaralishi, ob'ektiv sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarni anglash sifatida qaralishi mumkin, ehtiyojlarning ikki ko'rinishi farqlanadi: tabiiy va jamiyat tomonidan paydo bo'lingan ehtiyojlar, ya'ni sotsial ehtiyojlar.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan sobitqadamlik bilan borar ekan, jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri ijtimoiy faol hamda qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarni tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, Harakatlar strategiyasi Milliy dasturida hamda davlat dasturlarida ilgari surilgan keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish ota-onalar, ta'lim xodimlari, mahalla faollari va keng jamoatchilikdan yoshlarni o'z yurtining munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek olijanob maqsad yo'lida fidokorona mehnat qilishni talab etmoqda. Biroq keyingi paytlarda jamiyatimizda yaqqolroq namoyon bo'lib borayotgan deviant holatlar, ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur muammolarni ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Zikr etilgan holatlarni tadqiq etishning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ma'lumki jamiyatda insonlararo munosabatlarni ijtimoiy me'yorlar tartibga solib turadi. Aynan ana shu ijtimoiy me'yorlar shaxsga ma'lum hayotiy jarayonlarda o'zini qanday tutish lozimligini ko'rsatib turadi. Biroq shunday shaxslar borki, ularni jamiyatda joriy etilgan me'yorlar qoniqtirmaydi.

Natijada, ular ushbu me'yorlardan chetga chiquvchi xatti-harakatni amalga oshiradilar. Bunaqa shaxslarning har qanday zamon va makonda mavjudligi, deviant holatlarni o'rganish va uni oldini olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni jamiyatning doimiy dolzarb muammolari qatoriga olib chiqadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy me'yorning barqarorligi uning asosiy xususiyatlaridan biridir. Jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar qanchalik barqaror bo'lsa, uni ushbu jamiyat a'zolari tomonidan tushunish va o'zlashtirish shunchalik oson bo'ladi. Biroq bitta yoki bir nechta me'yorning doimiy saqlanib qolishi, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois, jamiyatning ilg'or qatlami hisoblangan ijodkorlar ushbu me'yorlarni o'zgartirib, inson manfaatlariga moslashtirib boradilar. Yuzaki qaraganda ushbu jarayon ham me'yordan chetga chiqishdir. Shu sababli ham, jamiyatdagi yangilik ko'pincha jamiyat a'zolari tomonidan dastlab, salbiy qabul qilinadi, noto'g'ri tushuniladi. Biroq aynan mazkur jarayonlar jamiyatni aqidaparstlikdan saqlab, taraqqiyot yo'liga boshlaydi. Demak, ijobiy va salbiy ma'nodagi me'yordan og'ish holatlarini aniqlab olish hamda chuqur o'rganish lozim.

Uchinchidan, sotsiologik ta'limotlar, xususan E.Dyurkgeymning hamda R.Mertonlarning bildirishlaricha, jamiyatdagi kuchli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa inqirozlar davrida insonlararo munosabatlarni tartibga solib turgan eski ijtimoiy me'yorlar davrning yangicha talablariga javob bermay qoladi.¹⁹ Natijada, jamiyatda yoppasiga deviantlik holatlari yuz bera boshlaydi. Ijtimoiy deviantlikning turli ko'rinishlari keskin o'sib ketadi. Bu jarayonlar garchi o'tkinchi, tarixan kam uchraydigan bo'lsa-da, ushbu holatlarni oldindan o'rganib, uga tayyor bo'lib borish jamiyatning mazkur inqirozlar davridan muvaffaqiyatli o'tib olishi hamda keyingi taraqqiyot yo'lini belgilab olishida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistondagi bugungi anomiya holati deviant xulq-atqor sotsiologiyasi tadqiqotchilari uchun keng imkoniyatlar

¹⁹ Каранг: Дюркгейм Э.Общественное разделение труда. Метод социологии. –М.: Наука, 1991; Мертон Р. Социальная структура и anomия. / Соц.ис, 1992. №2-3-4; Салагаев А.Л. Молодёжные правонарушения и делинквентные сообщества в американских теориях. -Казань: Изд-во Экоцентр, 1997.

maydonini ochib bermoqda hamda ushbu holatlarni ilmiy o'rganishni tarixiy jihatdan ham dolzarb muammolar qatoriga olib chiqmoqda.

To'rtinchidan, maxsus o'rganishlarning ko'rsatishicha, deviant xulqli yoshlarning aksariyati, dastlabki salbiy xatti-harakatini aynan o'smir yoshida sodir etishadi, ya'ni birinchi marta ichkilik yoki giyohvand vosita iste'mol qilishadi, jinoiy xatti-harakatlarga qo'l uradi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda deviant xulq-atvorning oldini olish uchun ko'proq o'smir-yoshlar orasida yuz berayotgan deviantlik xolatlariga e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatadi.

beshinchidan, O'zbekistonda bugungi kunda mavjud bo'lgan demografik vaziyat, ya'ni aholi tarkibida maktab va boshqa ta'lim yo'nalishlari yoshidagilarning ko'pligi (butun aholining 30.9%ini tashkil qiladi.), ta'lim-tarbiya jarayonlariga alohida mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi.

oltinchidan, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarning yoshlarimiz orasidagi hanuzgacha saqlanib qolayotganligi va shular bilan bog'liq ravishda ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lish ehtimolining yuqoriligi mazkur muammoni maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, bola huquqi sog'ligi va manfaatlariga, uning ijtimoiy himoyasiga, barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilab berganidek, bu ustuvor vazifani amalga oshirish yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish o'smirlar, voyaga etmaganlarning deviant xulqi va turli ijtimoiy xatarlarning oldini olish, unga qarshi kurashish chora-tadbirlari bilan chambarchas bog'liqdir²⁰. O'smir-yoshlarning deviant xulq-atvori sotsiologlar, pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy ish va tibbiyot sohasi xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining doimiy diqqat markazidadir. Ilmiy izlanishlardan

²⁰. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: O'zbekiston. NMIU, 2018. – 35-44 betlar

ma'lumki, o'smirlarga turli jamiyat uchun xavfli bo'lgan harakatlar bevosita ta'sir qilmoqda, jumladan, oiladagi moddiy etishmovchiliklar, o'smirlarning turli nosog'lom guruhlar, maktabdagi kelishmovchiliklar va boshqalar. Ko'pgina o'smirlarga deviant xulqining delikvent, adektiv va nointizomiy ko'rinishlar xosdir.

Delikvent xulqi ma'naviy va huquqiy me'yorlarning buzilishi (huquqbuzarlik) bo'lsa, adektiv xulq bolaning hayoti va sog'ligiga xavf tug'diruvchi illatlarga bog'lanib qolishi qo'shimchadir, ya'ni kashandalik, alkogolizm, giyohvandlik, internetni suiiste'mol qilish. Nointizomiy xulq o'quvchilar kunlab, oylab darsga qatnashmasliklari oqibatida salbiy holatlarni namoyon bo'lishi atrofida tengdoshlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Deviant xulq muammolari yagona kompleks tadqiqot sifatida o'rganilmagan bo'lsada, ammo u bilan bog'liq yoki uning atrofida masalalar xorij va mamlakatimiz olimlarining qator ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada o'z aksini topgan. Jumladan, xorijda A.Freyd²¹, R.Bernis²², Y.Langmeer va Z.Mateychek²³, N.P.Ivanova va O.V.Zavodilkinalar²⁴, mamlakatimizda esa A.X.Saidov²⁵, SH.Yuldasheva va A.Qurbonovlar²⁶, E.To'xtamurodov²⁷, A.Yunusov²⁸, S.Kalanova²⁹lar o'z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o'smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tarbiyalashning psixologik, pedagogik, huquqiy masalalarini o'rgangan bo'lsalar, respublika faylasuflari E.Yusupov, X.SHayxova, Q.Nazarov, N.Komilov, M.Xolmatova, M.Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma'naviyaxloqiy tarbiya masalalarini, sotsiolog M.Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda

²¹ Фрейд А. Разлука с матерью. Лондон. 1965, перевод с. англ. –М.: 1970.

²² Бернис Р. Развитие Я-концепции и воспитание. –М., 1986.

²³ Лангмейер Й., Матейчик З. Психическая депривация в детском возрасте. Прага, 1984.

²⁴ Иванова Н.П., Заводилкина О.В. Дети в приёмной семье: Советы начинающим родителям. –М.: 1993.

²⁵ Saidov A.X. Bola huquqlari monitoring. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2011.

²⁶ Yuldasheva Sh., Qurbonov A. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish. –T.: TDYuI, 2006.

²⁷ To'xtamurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari. ped.f.n. dis. –T., 1994.

²⁸ Yunusov A. O'smir me'yorni buzsa. O'quv qo'llanma. T.: Fan.2008.

²⁹ Kalanova S. Jamiyatda avlodlar almanishi jarayonlarining sotsiologik tahlili.-T.: Fan va texnologiya. 2018.248

hamda axloqiy buzilishlarni oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o'rnini masalalarini, jumladan o'smirlar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy o'rganishgan³⁰.

Yuqoridagi olimlar izlanishlarida ta'kidlanganidek, deviant xulqli, og'ir tarbiyali, muammoli o'smir-yoshlar bilan maktabning pedagog jamoasi, mahalla qo'mitalari, voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyasi, bolalar psixologlari ish olib borishmoqda. Bunday tarbiyaviy ishlar o'z samarasini bermoqda, chunonchi, ko'pgina bolalarni maktab quchog'iga qaytarib, ularning kelgusi xatti-harakatlarini nazorat qilishga muvaffaq bo'linmoqda. Ammo ba'zida o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar huquq va axloq me'yorlarining buzilish holatlaridan ham ko'z yuma olmaymiz. Bu izlanishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, xususan, 13-17 yosh oralig'idagi xulqida o'zgarishlar aniq holatlar, jumladan, kattalarning bee'tiborligi, ota-ona va o'qituvchilar bilan o'zaro kelishmaslik, muqaddam sudlangan shaxslarning salbiy ta'siriga, spirtli ichimliklar, giyohvandlik balosi kabilar bilan chambarchas bog'liq bo'lib chiqmoqda.

O'smirlar xulqida deviant ko'rinishlar ildizi ularning tarbiyaviy va ijtimoiy tomonidan etarli darajada ishlanmaganlikdan, jismoniy va aqlan etuk emasligidan ham bo'lishi mumkin. Bu illatlarning o'zaro to'qnashishi natijasida intizomsiz, axloqsiz shaxslar shakllanadi. Oiladagi nosog'lom muhit bolada qo'pollik, odamovilik, yolg'onchilik kabi xususiyatlarni uyg'otadi, bunday bola o'z xarakterlari bilan barchaga va bariga «teskari» ish qilmoqchi, bo'ysunmaslik, agressiya kabi tuyg'ularni keskin ko'rsatmoqchi bo'ladi, bu bilan u huquqbuzarlik, jinoyatlarga zamin yaratadi. Bunday tuzatish ishlari izchil olib borilishi davomida sekin asta nafaqat illatlarni tuzatish, balki butunlay yo'qotib, shaxsni qayta tarbiyalash ham muhimdir. Mohir psixolog va pedagog o'z mahorati bilan illatli xulq-atvor egasi bo'lmish o'smirlarga shunday tarbiya choralari ko'radiki, natijada

³⁰ Yusupov E., Ismoilov F. Inson odobi bilan. T.: O'zbekiston, 1983; Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: O'zbekiston, 1995; Xolmatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. T.: O'zbekiston, 2000; Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T.: Shark, 1998; Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T.: Yozuvchi, 1996; Shayxova X., Nazarov Q.N. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. T.: Fan, 1992. Bekmurodov M.B. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. T.: Fan, 1998; Bekmurodov M.B. Movorounnahrda jamoatchilik fikri tarixidan. T.: Fan, 1994; Bekmurodov M.B. Qonun va jamoatchilik fikri. // Qonun himoyasida, 2016. №8.

ular bunday toifadagi o'smirlarni qayta tarbiyalaydilar. Shu bilan birgalikda shaxs tarbiyasi ma'nomazmuni to'lib, u o'z davlati, jamiyatiga foydali inson bo'lib etishadi.

Deviant so'zi - lotincha "**deviatio**" so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor - mavjud jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisadir.

Ma'lumki, zamonaviy g'arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvorga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'lish turi jinoyatchilik bo'lib, ijtimoiy me'yorning buzilishi sifatida ushbu xodisa fanda juda qadimdan o'rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivistik maktab shakllanishi bilan, jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi.

Jumladan, italiyalik psixiatr Ch.Lombrozo Italiya qamoqxonalaridagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, "jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi" degan xulosaga kelishadi. Uning shogirdi E.Ferri o'zining "Jinoyatchilik sotsiologiyasi" asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham g'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Ularning ta'limotlariga ko'ra ichki sekresiya bezlari, aqliy rivojlanganlik darajasi, xromosomalarning tuzilishi va irsiy sabablar jinoyatchilik va shu kabilarni tug'ma yoki biologik omillarni shakllanishiga ta'sir qiladi.

Ushbu ta'limotlarga qarama-qarshi o'laroq, sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini to'la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasi edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi.

Amerika sotsiologiyasida E.Saterlendning katta o‘rin tutuvchi ta’limotlardan biri “Differensial aloqalar ta’limoti”dir. Bunga ko‘ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan me’yor buzuvchi xulq-atvorga ham u ham o‘rganiladi, ya’ni mavjud jamiyat a’zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me’yorlari boshqalarga o‘rgatiladi.

Fenomenologik sotsiologiya namoyondalarining e’tirof etishlaricha, sotsiologik tahlil “yorliq yopishtirishga” asoslanishi kerak. Ularning fikricha, me’yor buzish sotsial baho va sanksiya qo‘llash natijasidir.

Interaksionizm nazariyasiga ko‘ra, (vakillari G.Bekker, D.Kitsus, K.Erikson va boshqalar) hodisani salbiy va ijtimoiy xavfli deb baholash nisbiy bo‘lib, buni jamiyatdagi hukmron guruhlar belgilaydi. Shafqatsiz jamiyat himoyasiz insonni jinoyatchi qilib qo‘yib, ezaveradi.

Z.Freydning fikricha, inson xulq-atvorining asosida atrof-muhitni ongli baholash bilan ongsiz ishtiyoq orasida ziddiyat yotadi. Ongsizlik asosida esa insonga beshikdan to qabrgacha soyadek ergashib yuradigan, uning barcha fikr va istaklarini belgilaydigan jinsiy rag‘bat-libido yotadi. Barcha atrofimizdagi voqea-hodisalarni jinsiy rag‘bat belgilaydi. Inson ruhiyatidagi barcha jarayonlar hayot instinkti eros va o‘lim instinkti-tanatos o‘rtasidagi kurash natijasi bo‘lib, har qanday xulq-atvor, jumladan noto‘g‘ri xulq-atvor ham, jinsiy rag‘bat va yashash uchun kurash natijasidir.

Deviant xulq-atvorga R.Merton ishlab chiqqan ta’limot zamonaviy sotsiologiyada etakchi o‘rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiyasini rivojlantirib, R.Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta’rif beradi; “Deviant xulq-atvor jamiyatda e’lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir”.

Jamiyatning rasmiy tuzilmalari tomonidan maqsadga erishishning turli guruhlar uchun turlicha imkoniyatlar yaratib berishi natijasi bo‘lmish funksional kamchiliklar maqsadga erishishga xizmat qiluvchi norasmiy tuzilmalarning tashkil bo‘lishiga olib keladi. Maqsad va vositalarga turlicha munosabat quyidagi xulq-atvor turlariga olib kelishi mumkin.

1. **Bo'ysunish** (maqsad va vositalarni qabul qilish).
2. **Innovasiya** (maqsadlarni qabul qilish va vositalarni inkor qilish).
3. **Ritualizm** (maqsadlarni inkor etish va vositalarini qabul qilish).
4. **Retretizm**, chekinish (maqsad va vositalarni inkor qilish).
5. **Isyon** (maqsad va vositalarni inkor qilib, yangilarini o'rnatish).

Deviant xulq-atvor nazariyasida ijtimoiy me'yor markaziy o'rin tutar ekan, avvalo ijtimoiy me'yorning o'zi nima va uning qanday turlari mavjudligini shuningdek, deviant xulq-atvorning eng ko'p uchraydigan va yaqqol namoyon bo'ladigan turlari:

- Jinoyatchilik;
- Ichkilikbozlik;
- Giyohvandlik;
- Fohishabozlik;
- Suitsid
- Korrupsiyaning nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak.

Ijtimoiy me'yor - jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorining morslashishi vositalaridan biri va ularning xulq-atvorlarini jamiyat tomonidan nazorat qilish vositasidir.

Ijtimoiy me'yorning bir qancha turlari mavjud;

1. Xuquq: individga nisbatan ob'ektiv, tashqi uning xulq-atvorini boshqaruvchi qoidalar tizimi. Har qanday jamiyatda xuquq xukmron tabaqa demokratik ko'pchilik yoki butun xalqning yagona irodasini namoyon etuvchi va shu sababli hech qanaqa o'xshatmasi yoki muqobili bo'lmagan yagona me'yorlar majmuidir.

2. Axloq: etika mutaxassislarining fikricha, umumiy va xususiy manfaatlarning moddiy determinatsiyalashgan qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Insonning o'zini takomillashtirish va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyatlarini anglatadi. Xuquqdan farq qilib, axloq birinchidan, baholash vazifasini bajaradi (yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz), ikkinchidan, uning

me'yorlari birinchi navbatda nomus, burch, vijdon, adolat va shu kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan ichki ruhiy kechinmalar orqali faoliyat yurgizadi.

3. Urf-odatlar: ushbu me'yoriy tizim xulq-atvorning erkin moslashuvchi, shu sababli odatga aylangan tarixiy shakllangan namunalari, asosan kishilarning birga yashash qonuniyatlarini ifodalaydi. Axloqiy me'yorlardan farq qilib, urf-odatlar aniq va bir xil, ba'zan to'la shakllangan ko'rinishga ega bo'ladilar.

4. Diniy me'yorlar: ushbu tizim juda qadimiy bo'lib, diniy ta'limot tavsifiga ko'ra diniy me'yorlar ham turlicha bo'ladi. Shuningdek, mazmuniga ko'ra diniy me'yorlar turli huquqiy, axloqiy, urf-odat, estetik va tashkiliy me'yorlarni o'z ichiga oladi va shu sababli ko'pincha yuqoridagi me'yoriy tizimlarning har birining boshqaruv xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Diniy me'yorlar ichki ta'qiqlar bilan birga tashqi ta'qiqlar orqali ham ta'sir qiladi. Tarixiy tajribada, hamda hozirgi jarayonlar, ayniqsa islom davlatlarida aksariyat diniy me'yorlar dindorlar uchun kuchli ta'sir vositalari hisoblanib, ularni turli jinoyatlar, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlardan saqlab turuvchi vosita ekanligini ko'rsatmoqda.

Deviant xulq-atvorni fanda turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda ushbu jarayonlarni turlicha tasniflash mavjud bo'lib, shulardan biri ularning ham ob'ektiv ham sub'ektiv tomonlari bilan to'liq bo'lgan tasniflashdir. Bunga ko'ra deviant xulq-atvor turlari 2 guruhga bo'linadi;

1) tashqi muhitga yo'naltirilgan xulq-atvor (ekstravertiv (masalan, jinoyatchilik);

2) shaxsning o'ziga yo'naltirilgan xulq-atvor (intravertiv (masalan, ichkilikbozlik).

Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, Sotsiologiyada bu narsa «deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.

Deviant xulq-atvor - jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'ochilik, dangasalik, o'g'irlik, ichqilikbozlik, giyoxvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq deganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

a) *jinoyatchilik*. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) *ichkilikbozlik*. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni xar-xar zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish - spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni xaftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikkorda (200 ml. dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm - spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) *giyoxvandlik*. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

g) *fohishabozlik*. Fanda rasmiy nikoxsiz jinsiy aloqa ikkita turga bo'lib o'rganiladi: 1. Konkubinat - nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik - pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, SHarqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida karaladi.

Bulardan tashqari, xalqimizda maxalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham me'yordan chekinishning diqqat talab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Ma'lumki, ijtimoiy me'yorlar va ulardan chekinishlar xaqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaktida paydo bulgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Xindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Ushbu «qonunlar»da barcha huquqlar insonga xudolar tomonidan beriladi va qonun buzuvchilarni xudolar jazolaydi, deb hisoblangan. Bunday qarashlar dastlab yunon va Rim faylasuflari asarlarida o'z ifodasini topdi.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Evropada xristian dini barcha sohada xukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axlokiy-huquqiy me'yorlar va ular xaqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Evropada jamiyat rivojining kuchayishi, axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi.

XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. SH.L. Monteskie, J.J. Russo, CH. Bekkaria, K. Gelvesiy, D. Didro, P. Golbax, Morelli va SH. Furyelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot E.Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi edi. E. Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan «anomiya» atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarni tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni

tushunadi. Bu g'oyani zamonaviy ilm-fanda P.Solis, M.Klaynerd va boshqalar rivojlantirib kelishmoqda.

Amerika sotsiologiyasida katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E.Saterlendning differensial aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan deviant xulq-atvorga ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada etakchi o'rin tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, R.Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular:

- 1) Irsiy omillar;
- 2) Psixofiziologik omillar;
- 3) Shaxsning bilim darajasi.

Shuningdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iyasizligi, prinsipiiallik yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarining manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarnng 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarni yuzaga kelishida ba'zan shaxs xususiyatlari sababchi bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, maxalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sababchi bo'ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni xal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi:

1) hech qanaqa muammo yo'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi;

2) muammo bor, biroq qiyinrok yoki osonroq bo'lsada, uning echimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat;

3) mavjud muammoni sub'ekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;

4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni sub'ektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Me'yor buzilishlar tizimida ijtimoiy ta'sir jihatlaridan farqlanuvchi qadriyatlarni ajratib tahlil etish o'rinlidir. Ijtimoiy ma'naviy zarar darajalarini pastligi va yuqoriligiga ko'ra deviant holatlarning tavsiflanishi ijtimoiy-huquqiy ahamiyatiga ko'ra qonunlar tizimi hamda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tavsiflanish bir necha faktorlarga:

- deviant xulq-atvorga munosabat bildirayotgan kishiga,
- qonunbuzuvchining shaxsiga,
- me'yor buzilish yuz bergan qonkret holatga,

- qonun buzilish va boshqa sharoitlarning o'ziga xosligiga hamda ahamiyatiga bog'liq bo'ladi.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy fol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar raxbarlarining o'rni va roli kattadir. «Ba'zilarga mumkin - boshqalarga mumkin emas», «hozir yaxshi - ertaga yomon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. SHu boisdan, xar qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining raxbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vaqillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichqilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muxitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar - bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'g'ri echimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rinbosuvchi» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunaqa holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda, bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi faktorga olib keladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat o'rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili (agenti) vazifasini bajarishadi.

Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vaqillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muxitining o'rni kattadir. Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muxitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orxali jamiyat talablarini anglaydi, xis etadi.

Xulosa qilib aytganda, inson hatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, qonunni muhofaza qilish organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
2. Deviant xulq-atvor tushinchasi ta'rif bering.
3. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan ko'rinishlari qaysilar.

4. Deviant xulq-atvor to'g'risidagi nazariyalar.
5. Ijtimoiy me'yor va ijtimoiy nazorat institutlarining fazifalari.

3.2 Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning ko'rinishlari.

Reja:

1. Harbiy xizmat jarayonida deviant hulq-atvoning ko'rinishlari.
2. Harbiy xizmatchilarda deviant hulq-atvoning vujudga kelish sabablari.
3. Harbiy xizmatchi shaxsning addiktiv axloqi.
4. Harbiy xizmatchi shaxsning delinkvent axloqi.

Tayanch iboralar: harbiy xizmatchi, addiktiv axloq, delinkvent axloq, badjahllik, darg'azablik, qasoskorlik, kek saqlash, ichkilikbozlar, giyohvandlar, o'z joniga qasd qilish, ruhiyat, ruhiy tobelik.

Harbiy xizmat jarayonida deviant hulq-atvoning ifodalanishi harbiy shart-sharoitlariga moslashishidagi kiyinchiliklar, xususan atrofdagilar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yaolmaslik, xulqida turli ogishlar shaklida ifodalangan xolda, nafaqat harbiy xizmatchi uchun, balki qism va bo'linmalarning umumiy jangovar shayligi darajasini ta'minlash uchun ham salbiy ta'sir ko'rsatish extimoli bor.

Harbiy xizmat jarayonida deviant hulq-atvoning ifodalanishi quyidagi ko'rinishlarda aks etishi mumkin:

his-hayajonli portlashlar;

o'zidan lavozimi va unvoni bo'yicha kattalar bilan janjallar;

kattalarning talablarini yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;

boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;

o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;

jizzakilikning eng keskin darajasi;

badjahllik, darg'azablik, qasoskorlik, kek saqlash;

haqoratlar va uyatsiz so'zlarni tez-tez ishlatish.

Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tajovuzkorlik, gipper faollik va ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yaqqol ko'rinib turgan bolalar

kattaroq yoshga etganlarida hayotda bunday muammolari bo'lmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'proq jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib etishganlar.

Og'uvchi axloqqa ega bo'lgan harbiy xizmatchilarning ko'p qismi umuminsoniy qadriyatlar va axloq me'yorlari haqida tasavvurlarni eslab qoladi, lekin bir qator sabablarga ko'ra o'z xulqidagi bu me'yorlarga tayana olmaydi yoki turli motivatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan o'zining jamoatchilikka zid og'ishlarini oqlashga harakat qiladi.

Ruhiy himoya mexanizmlari - sub'ekt uchun og'riqli, chidab bo'lmaydigan tashvishlarga qarshi himoya usuli bo'lib, uning borliqni, «Men» (obraz)ini yoki tashqi dunyoni buzib ko'rsatish kabilarning natijasidir.

Shunday qilib, og'uvchi axloq o'zini namoyon qilishning keng shakllariga ega. **Deviant axloq namoyon bo'lishi xususiyatlarining differensiatsiyasini o'tkazish uchun zamonaviy psixologiyani quyidagi qoidalariga tayanish zarur.**

1. Garchi psixopatologik buzilishlar mavjud bo'lgan barcha sub'ektlarning axloqi deviant deb hisoblansada, deviant axloqning har qanday turi orqasida ham psixopatologiya yashirilib yotavermaydi.

2. Ruhiyat buzilishlari, ya'ni kognitiv, his-hayajonli va boshqaruvchi jarayon, jarayonlar borishidagi buzilishlar albatta, shaxsning nuqsonini belgilab bermaydi.

3. Buzilishlarning bir qancha ko'rinishlari shakllanishida organik omillarning roli dezadaptiv ta'sirlanishlarga o'rganish imkoniyatini inkor etmaydi.

Bu holda, **dezadaptatsiyaning turli shakllarini ko'rib chiqilayotgan holatning darajasi o'z xarakterlovchi belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan ma'lum guruhlar ko'rinishida tasavvur etamiz.**

Birinchi guruhni shaxsning **delinkvent axloqi** (lot. Delinkuens- jinoiy xulq, qilmish) vakillari guruhi tashkil etadi. Unga yuqorida qayd etib o'tilgan toifadagi jinoyatchilar, shuningdek fohishalar va ma'lum yashash joyiga ega bo'lmagan daydilar ham kiradi.

Delinkvent axloq - ushbu jamiyatda va ayni vaqtda o'rnatilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati.

Delinkvent shaxs - keskin og'uvchi axloqqa ega bo'lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi subekt.

Ikkinchi guruhga kishining o'zini o'zi barbod qiluvchi, ya'ni axloqi va harakatlari orqali, ruhiyati yoki yaxlit organizmning yanada tezroq yoki sekinroq va tiklab bo'lmaydigan emirilishiga olib keluvchi axloqi vakillari kiritilgan. Bu - **ichkilikbozlar, giyohvandlar, o'z joniga qasd qiluvchilardir.**

Va nihoyat, **uchinchi guruhni** kishining me'yoriy bo'lmagan axloqi vakillari tashkil etgan bo'lib, uning tarkibiga turli ruhiyat buzilishlari bilan kasallangan kishilar kiradi.

O'zini o'zi barbod qilayotgan harbiy xizmatchi axloqining psixologik tahlili.

Harbiy xizmatchining ruhan o'zini o'zi emiruvchi axloqini tushunish uchun uning dunyoga nisbatan bo'lgan ratsional va irratsional munosabatlari xususiyatini hisobga olish zarur. Inson o'z axloqini mavjud hayotda rejalashtira va bashorat qila turib, ongsiz ravishda o'zini maqsadga erishish yo'lida kutib turgan taxminiy energetik sarflariga umid qiladi. Maqsadiga erishish jarayonida inson ish bajarish uchun zarur bo'lgan energiya miqdorini chiqarishga qodir bo'lmay qolsa, u holda unda charchoq holati paydo bo'ladi va qo'shimcha ravishda zarur energiya ishlab chiqarish uchun ishni to'xtatib turish istagi paydo bo'ladi.

Agar kishining rejalari va bashoratlari xato bo'lib chiqsa va u talab qilinganidan ko'proq energiya sarflagan bo'lsa, unda hayajonlanish holati paydo bo'ladi. Harbiy xizmatchi o'zini deyarli har narsaga qodir deb his qiladi. Buni odamda kutilmaganda shunchalik ko'p pul paydo bo'lgan va u bu pullarni qaerga sarflashni bilmayotganligi holati bilan tenglashtirish mumkin. Shuning uchun, ko'pgina individlar iloji boricha ko'proq shunday holatga tushishga harakat qiladilar. Unga ruhiy faol moddalar deb ataluvchi vositalar yordamida erishiladi. Ruhiy faol modda - bir marta qabul qilishning o'zida kayfiyatni, jismoniy holatni,

o'zini his qilishni o'zgartirish, uni o'rab turgan olamni, axloqni o'zlashtirish yoxud boshqa ruhiy-jismoniy samaralar berish, uzoq vaqt davomida qabul qilishda esa ruhiy va jismoniy tobelikni keltirib chiqaruvchi har qanday kimyoviy moddaga aytiladi.

Ruhiy tobelik - doimiy yoki davriy ravishda ruhiy-faol moddani astoydil izlash bilan tavsiflanuvchi o'rganib qolishdir. Jismoniy tobelik esa- tolerantlikning ortishi, ya'ni bekor qilish sindromi yuzaga kelishini bartaraf qilish uchun moddaning o'sib boruvchi dozalarini qabul qilish zaruriyati bilan tavsiflanadi. Bekor qilish sindromi (**abstinensiya**)- ruhiy faol moddalarni iste'mol qilishni to'xtatish natijasida yuzaga keluvchi xavotir, vahima, affektli zo'riqish, ichki notinchlik, achchiqlanuvchanlik va kayfiyat, yurak urishining pasayishi, titrash yoki, aksincha, terlashda namoyon bo'luvchi o'ziga xos sindromdir.

Narkotizm yoki toksikomanik axloqlarni olim mutaxassislar «**addiktiv axloq**» (inglizcha addiction) - halokatli odat, nuqsonli moyillik atamasini qo'llaydilar.

Addiktiv axloq- deviant (og'uvchi) axloqning ba'zi moddalarni qabul qilish yoki e'tiborini doimiy ravishda shiddatli hissiyotlarini rivojlantirish va qo'llab turishga yo'naltirilgan faoliyatning ma'lum bir turiga qaratish vositasida o'z ruhiy holatini o'zgartirish yo'li bilan voqelikdan qochishga intilish hosil bo'lishi shakllaridan biridir. Bu jarayon kishini shunchalik qamrab oladiki, hatto uning hayotini boshqara boshlaydi. Kishi o'z ishtiyoqi oldida nochor bo'lib qoladi. Iroda kuchi zaiflashadi va addiksiyaga qarshilik ko'rsatishga imkon bermaydi.

Addiksiyaning emiruvchi xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, bu jarayonda his-hayajonli munosabatlar boshqa odamlar bilan emas, balki jonsiz predmetlar bilan o'rnatiladi. Insonlar bilan hissiy munosabat o'z ahamiyatini yo'qotadi, yuzaki bo'lib qoladi. Addiktiv (to'be axloq) ravishda amalga oshirish usuli vositadan asta-sekin maqsadga aylanadi.

Mushkul hollarda vaqti-vaqti bilan shubha va tashvishlardan chalg'ish hamma uchun ham zarur, lekin addiktiv axloq holatida u hayot uslubi bo'lib qolib, uning jarayonida inson doimiy ravishda real borliqdan qochuvchi qopqonga tushib

qoladi. **Addiksiya** (to‘belik) shakllari bir-biri bilan almashib turishi mumkin, bu esa muammo hal bo‘lishi haqidagi xom xayollarni yanada mustahkamroq va kuchliroq qilib qo‘yadi. Bu esa nafaqat addiktning o‘zi balki uning atrofida qiladi uchun ham xavflidir.

Addiktiv ravishda amalga oshirish do‘stlik, sevgi, faollik boshqa ko‘rinishlarining o‘rnini bosadi. U vaqtni, kuch, energiya va hissiyotni shu darajada yutib ketadiki, addikt hayotda muvozanatni saqlash, faollikning boshqa turlariga kirishish, odamlar bilan muloqotdan lazzat olish, qiziqish, relaksatsiyalanish, shaxsning boshqa tomonlarini rivojlantirish, o‘z maylini namoyon qilish, hatto eng yaqin kishilarini hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga layoqatsiz bo‘lib qoladi.

Ma’lumki, umuminsoniy tajriba, ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar, bilimlar va faoliyat usullari shaxs tomonidan boshqa odamlar bilan muloqotlar jarayonida o‘zlashtiriladi. Addikt o‘zini bu jarayonlardan to‘sis oladi, o‘z hayotiy tajribasini boyitishdan to‘xtaydi, shu orqali muloqotning eng muhim vazifalarini buzadi.

Axloqning addiktiv shakliga ega bo‘lgan shaxslarning quyidagi psixologik xususiyatlari alohida ajratiladi:

1. Inqirozli vaziyatlarga yaxshi chidamlilik bilan bir qatorda qiyinchiliklarga chidamlilikning pastligi. Bunga shaxsda gedonistik yo‘l-yo‘riqlar mavjudligi-darhol qoniqishga ega bo‘lish, o‘z istaklarini qondirishga intilish sabab bo‘ladi. Agar istaklar qondirilmasa, unda addiktlar yoki salbiy hissiyotlarning portlashi, yoxud paydo bo‘lgan muammolardan qochish orqali munosabat bildiradilar.

2.Tashqaridan namoyon qilingan ustunlik bilan uyg‘unlashgan nomukammallikning yashirin kompleksi. Kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi, ishonchsizlik, ularning layoqatlari obektiv ravishda tekshirilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan qochishda o‘z aksini topadi.

3.Yolg‘on gapirishga intilish. Addiktlar ko‘pincha o‘z va’dalarida turmaydilar, subutsizliklari, qoidalariga rioya qilmasliklari bilan ajralib turadilar.

4.Mustahkam his-hayajonli muloqotlar oldidagi qo‘rquv bilan uyg‘unlashgan tashqi ijtimoiy munosabatlar.

5. Ular boshqalarning aybsizligini bilib tursa-da, ayblashga intiladilar.

6. Qarorlar qabul qilishda javobgarlikdan qochishga intilish. Javobgarlikni boshqalarga agʻdarish, zarur vaqtda oqlovchi dalillarni izlash.

7. Axloqning stereotipligi, takroriyliigi. Axloqning yuzaga kelgan stereotipini oldindan bilsa boʻladi, lekin uni oʻzgartirish qiyin.

8. Tobelik. Addiktiv yoʻnalishli boshqa odamlar taʼsiriga boʻysunish koʻrinishida namoyon boʻladi. Baʼzan passivlik, mustaqillikning yoʻqligi, madad olishga intilish kuzatiladi.

9. Xavotirlilik. Nomukammallik, tobelik kompleksi bilan mahkam bogʻliq. Buning oʻziga xosligi shundaki, krizisli vaziyatlarda xavotirlilik ikkinchi oʻringa tushib qolishi mumkin, bunday vaqtda u oddiy turmushda yoki tashvishlar uchun haqiqiy sabab boʻlmaydigan voqealarda yaqqol sabablarsiz yuzaga keladi.

Voqelikdan qochish oʻziga xos «qochish» koʻrinishida, borliqning barcha jihatlari bilan oʻzaro uygʻun munosabatda biron-bir yoʻnalishda faollashish yuzaga kelganda sodir boʻladi. **Bunda inson diqqatini faoliyatning tor yoʻnalgan sohasiga jamlaydi (koʻpincha oʻzini oʻzi emiruvchi shaxs). N.Peseshkyanning konsepsiyasiga muvofiq «voqelikdan qochishning» toʻrtta turi mavjud:**

- 1) «oʻz qobigʻiga berkinish»;
- 2) «ishga berilib ketish»;
- 3) «aloqalarga yoki aksincha, yolgʻizlikka intilish»;
- 4) «xom xayollarga berilish».

Hozirgi vaqtda suitsidal Axloq global jamoatchilik muammosi hisoblanadi. Rasmiy statistik maʼlumotlarga qaraganda er yuzida har yili 1 mln.100 mingga yaqin odam oʻz joniga qasd qilish bilan oʻz hayotiga yakun yasaydi.

Shubhasiz, inson ongi foniylilikni mutanosib ravishda oʻzlashtirishga qodir emas, lekin, shunday boʻlsada, oʻzini oʻzi oʻldirish ehtimolini koʻrib chiqayotgan odam qanchalik agnostik va skeptik boʻlmasin, u beixtiyor oʻlimdan keyingi, hatto yanada maʼqulroq hayot mavjudligini tan oladi. Oʻz-oʻzidan bu hali oʻzini oʻzi oʻldiruvchi shaxsning aqldan tashqari fikrlashi va voqeiy boʻlmagan narsalarni afzalroq koʻrishini isbotlamaydi, lekin shu bilan bir vaqtda oʻzida oʻlimdan keyingi

hayotga bo'lgan ishonch har doim ko'plab xalqlarning madaniy-diniy udumlari predmetini tashkil qilib kelgan.

Bunday holda, potensial o'zini o'zi o'ldiruvchilar tafakkurining irratsionalligi va xayoliyligi tushunarli bo'ladi. **O'zini o'zi o'ldirish hodisa sifatida quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanishi mumkin.**

Birinchidan, bu qotillik. Ko'p tillarda uning tub, tashkil qiluvchi so'zi «qotillik» hisoblanadi. Biroq, atamaning ikkinchi qismi - «o'zini o'zi» so'zi insonning o'zi tomonidan sodir etilgan qotillikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, qotil va qurbon bir kishining o'zi bo'lgan vaziyat yuzaga keladi. Demak, **o'zini o'zi o'ldirishni o'limning uchta ajralmas elementi:** o'lish elementi, o'ldirish elementi va qotillik qurboni elementini anglatuvchi o'ziga xos turi deb hisoblash mumkin.

Ruhan sog'lom odamlarda o'zini o'zi o'ldirish sabablari ko'pincha o'tkir ruhiy-shikastlovchi vaziyatlar va kamroq kelib chiqishi turlicha bo'lgan cho'zilgan ruhiy tanglik yoki yashashning chidab bo'lmas shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. O'zini o'ldirish istagi ruhiy-asab tizimi beqaror bo'lgan shaxslarda, ayniqsa nevrotiklar va kuchli ta'sirlanuvchi, kayfiyati o'zgarib turuvchi psixopatlarda ko'proq uchraydi. Ayrim mualliflar o'zini o'zi o'ldirishga moyillikni xarakterning, ularning fikricha, shoirlar, rassomlar, artistlarga xos bo'lgan alohida badiiy tipiga moyillik deb ta'kidlaydilar.

Ba'zan odamlar o'zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo'lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentratsion lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiynash, azoblash, xo'rlash va ochlik ta'siri ostida o'zlarini o'ldirishga urinadilar. O'zini o'zi o'ldirish to'g'risida fikrlarga shuningdek, chidab bo'lmaydigan og'riq beruvchi og'ir, davosiz kasalliklar- saraton va ba'zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin.

Ko'pincha o'zini o'zi o'ldirishlar va ularning urinishlari turli depressiyalar, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ulardan eng ko'p tarqalgani yolg'izlik, sherigi yoki yaqin kishisini yo'qotish, muvaffaqiyatsizlik yoki toptalgan mavqei, obro'sizlantiruvchi vaziyat, hayotiy manbaini yo'qotish, bankrotlik va

hokazolardir. Demak, o'zini saqlash instinktning buzilishi va o'zini o'ldirish istagi, bir tomondan sub'ektning ruhiy faoliyatidagi qanday o'zgarishlar chuqur affektga olib kelishiga, ikkinchi tomondan esa - ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Suitsidal xulq-atvorli shaxslarning aksariyat qismi uchun kishining hodisalarga ta'sirchanligi turlicha ekanligi xosdir. K. Menninger tomonidan keltirilgan misollarga murojaat qilamiz: qiz soch turmagi ko'ngildagidek chiqmaganidan so'ng o'zini o'ldiradi; erkak kishi uni golf o'ynash imkoniyatidan mahrum etilganidan so'ng hayotidan voz kechadi; ayol ikki marta poezdga kech qolganidan keyin o'zini o'zi o'ldirishga ahd qiladi; bola sevimli kanareykasining o'limini ko'tara olmay, o'zini o'ldirishga qo'l uradi. Ta'sirchanlikning bir xil emasligi o'zini o'zi o'ldirishni sodir etayotgan shaxsning hissiy yoki ruhiy jihatdan etilmaganligi va etilmay qolganligi (infantilligi) bilan belgilanadi.

O'zini o'zi o'ldirishni o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ularning soni ortishi yosh davrlari, jinsi, ijtimoiy ahvoli va hokazolar va lekin birinchi navbatda- kishi shaxsiyatining xususiyatlariga bog'liq. Erkaklar orasida o'zini o'zi o'ldirish soni ayollarga nisbatan ko'proq kuzatiladi. Shu bilan bir vaqtda erkaklar o'zini osish, o'qotar qurol ishlatish kabi «ishonchliroq» bo'lgan usullarni qo'llasa, ayollar ko'proq katta dozada dorilar qabul qilishni afzal ko'radilar, ya'ni ular go'yo o'zlarining o'limdan keyingi tashqi ko'rinishlari haqida qayg'uradilar. Erkaklar orasidagi o'zini o'zi o'ldirishning maksimal soni o'spirinlik yoshiga (16-18 yosh) to'g'ri keladi, bu yoshda ko'pincha ma'naviy mezonlar va da'volar ortishi kuzatiladi, ayollarda esa - klimaks davriga (40-45 yosh), yuqori darajada asabiylik va kayfiyat o'zgarishi, qarilikning ilk alomatlari paydo bo'lishi, ayrim umidlarning yo'qolishi bilan boruvchi organizmning fiziologik qayta tuzilishi sodir bo'ladigan davrga to'g'ri keladi

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy xizmat jarayonida deviant xulq-atvoning qanday ko'rinishlari mavjud.

2. Harbiy xizmatchilarda deviant hulq-atvoning vujudga kelish sabablari.
3. Harbiy xizmatchi shaxsning addiktiv axloqi.
4. Harbiy xizmatchi shaxsning delinkvent axloqi

3.3 Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning oldini olish chora tadbirlari

Reja:

1. Harbiy xizmatga chaqirilish bosqichida - nomzodlar ongida harbiy xizmat va harbiy tartib-intizom haqida to'g'ri tasavvurni shakllantirish.
2. Harbiy xizmatchi shaxsi haqidagi ma'lumotlarni maqsadli to'plab borish (o'quv, xizmat, jangovar faoliyat davomida).
3. Harbiy xizmatchi shaxsi muammosi - bu ma'naviy-axloqiy, ruhiy soglomligiga salbiy ta'sir yetkazuvchi zaiflashishiga olib keluvchi muammolar.
4. Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning oldini olishda profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish yo'llari.

Tayanch iboralar: mudofaa ishlari bo'linmalari va boshliqlari, harbiy okrug, qo'shilma va birlashma, harbiy qismlar, harbiy bo'linmalar, sotsiolog, psixolog va psixiatr, pedagog, intizomlilik.

Deviant xulq - ijtimoiy xayot doirasida qabul qilinmagan, mavjud me'yorlarga mos tushmaydigan hamda guruh va jamoa qadriyatlariga mos tushmaydigan, jamoatchilik tomonidan ma'qullanmaydigan fe'l-atvor majmuasidir.

Deviant xulq kasbiy muhit doirasida o'ziga xos shaklda ifodalanib, kechishi mumkin. Uning ikki jihati mavjud bo'lib, bunda ijtimoiy va siyosiy vaziyatni dominantlik nazari ularni ijobiy yoki salbiyligini baholash imkonini beradi. Deviant xulqning ifodalanishida shaxsning funksional xolati, muhit ta'siri kabi omillar alohida ta'sir ko'rsatib, uning mazmunini belgilashda alohida o'rin tutadi.

Deviant xulq jamiyat hayotining turli sohalarida, shaxsiy, oilaviy, kasbiy darajalarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy majarolar yoki psixotron va psixotrop moddalarning ta'siri asosida vujudga kelishi mumkin. Uning namoyon bo'lishidan

ko'ra, profilaktikasini amalga oshirish har jihatdan ahamiyat kasb etadi.

Biz mazkur holatni harbiy kasb muhiti doirasida ko'rib chiqishga harakat kilamiz, negaki harbiy muhit doirasida deviant xulqning ifodalanishi ijtimoiy-harbiy, harbiy-siyosiy nuqtai nazar asosida ko'rib chiqilishini inobatga olsak, uni profilaktikasini amalga oshirish yo'llari harbiy jamoaning shaylik darajasiga, xizmatchilarning nufuzini ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, barqarorligimizni yanada mustahkam darajada saqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq ifodalanishi profilaktikasini amalga oshirish jarayonida an'anaviy metodlardan foydalanishda xizmatchi shaxsi haqidagi ma'lumotlarni maqsadli to'plab borish (harbiy xizmatchi shaxsiy xususiyatlarining tabiiy sharoitlar (o'quv, xizmat, jangovar faoliyat davomida) jarayonidagi ifodalanishini kuzatish, hujjatlarni o'rganish, ekspertli so'rov o'tkazib, psixologik metodikalar ko'llash)ni ko'zda tutilib, bunda nafakat harbiy xizmatchi shaxsi haqidagi rasmiy ma'lumotlar, balki uning ehtiyojlari, qiziqishlari, xarakteri belgilari, xizmatdoshlari, komandirlari bilan o'zaro munosabatlar xarakterini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda biografik ma'lumotlar, oilasining tarkibi, turmush tarzi; harbiy mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishi yoki xizmatni o'tashi jarayoni, tashkilotchilik ko'nikmalarining mavjudligi; asosiy odatlari, o'tmish va hozirdagi qiziqishlari, tengdoshlari bilan munosabatlari; o'tmishdagi xulq-atvoridagi buzilishlar (kichik bezorilik, uydan ketib qolish, ishga yoki o'kishga kelmasli va sh.k.); o'tgan hayotidagi ko'ngilsiz hodisalar, armiya hayotidagi kiyinchiliklarga munosabati; harbiy xizmatga munosabati, anik bir harbiy ixtisoslikni egallashga bo'lgan intilishining asoslanganligi; umumharbiy tayyorgarlik dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish darajasi; xizmatdoshlari bilan o'zaro munosabatlari, jamoaga nisbatan munosabati; bo'linmaning ijtimoiy hayotidagi ishtiroki darajasi; harbiy xizmatchining ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lum bir etnik guruh, hudud (qishloq, kichik, o'rta yoki katta shahar)ga tegishliligi, kasbiy kategoriyasi; bevosita uni qamrab turgan ijtimoiy guruh (oilasi, maktabdoshlari, kasbdoshlari, tengdosh va do'stlari) xususiyatlari; harbiy jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabat tuzilishi - o'zaro hislari, simpatiya va


antipatiyalari, chiqisha olmaslik, o‘zaro befarqlik kabi xususiyatlarni aniqlash; jamoadagi yetakchilar avtoritetini, shu bilan birga har bir jamoa a’zosining shaxslararo munosabatlar tuzilmasidagi mavqeini aniqlash; bo‘linmada mavjud bo‘lgan mikroguruhlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniklash; guruhij jipslik darajasini baholash asosida ma’lumotlarni to‘plash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotlarni tizimlashtirgan holda qism harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyatini kuzatish jarayonida jamlash, ulardan profilaktik chora - tadbirlarni ishlab chiqishda ham foydalanish mumkin (quyidagi jadvalda).

**Harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyatini kuzatishga taalluqli bo‘lgan
axborotni tizimlashtirish**

Vaziyatlar:	Aniqlanadigan belgilar:
1.O‘quv mashg‘ulotlari	umumiy tayyorgarligi, bilim, ko‘nikma va malakasi, kasbiy mahoratni egallashga intilishi jamoaning jipslik darajasi
2.Mashg‘ulotlar oraligidagi tanaffuslar, xordiq olish soatlari	suhbat mavzusi, yetakchilar va ularning fikrlari, harbiy xizmatchilar dunyoqarashiga, atrofdagilarga ta’sir darajasi
3.Xo‘jalik ishlarini bajarish jarayoni	mehnatga munosabati, faoliyat jarayonida harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, intizomlilik, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamoaning jipsligi darajasi
4. Tarkalish, qorovul almashinishi, ichki naryadda xizmatni o‘tash jarayoni.	harbiy xizmatchining xizmat vazifasini bajarishga yo‘nalganligi, bilim va ko‘nikmalar darajasi.
5. Kechki tekshiruv	safning intizomi, xizmatdagi zo‘rikishlarga harbiy xizmatchining munosabati va uning adolatli taksimlanganligi darajasi
6. Nizoli vaziyatlar	nizo ishtirokchilari, nizo sababi, dinamikasi, qatnashchilarining xulqi va roli darajasi

Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq ifodalanishi diagnostikasi va prognozi - ofitserlar tomonidan bo‘ysinuvchilarining shaxslararo muloqot va harbiy-kasbiy faoliyati tizimida amalda ifodalanuvchi shaxsiy xususiyat va sifatlarining shakllanganlik darajasi, xulq-atvorida salbiy holatlarning harbiy faoliyat sharoitlari doirasida ifodalanishi diagnostikasi va prognozini aniqlashga yo‘naltirilgan faoliyati jarayonidir. Mazkur faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish harbiy bo‘linmalar shaxsiy tarkibi bilan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish yo‘nalishlarini belgilab bergan rasmiy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq ifodalanishi bosqichli profilaktikasini amalga oshirish tadbirlari uning ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ma’lum bir bosqichlarni o‘zida ifodalaydi.

Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq ifodalanishi bosqichli profilaktikasini amalga oshirish tadbirlari		
1-bosqich Harbiy xizmatga chaqirilish bosqichi		Mudofaa ishlari bo‘linmalari va boshliqlari
2-bosqich Harbiy xizmatga tayinlanish bosqichi		Harbiy okrug, qo‘shilma va birlashma
3-bosqich Harbiy xizmat boshlanishining dastlabki bosqichi		Harbiy qismlar
3-bosqich Jangovar mutaxassisliklarni faol egallash va harbiy jamoalarni jipislashtirish bosqichi		Harbiy bo‘linmalar

1. Harbiy xizmatga chaqirilish bosqichida - harbiy xizmatga nomzodlar ongida harbiy xizmat va harbiy tartib-intizom haqida to'g'ri tasavvurni shakllantirish, ularning harbiy faoliyat talablariga mos kelish darajasini aniqlash:

a) mudofaa ishlari bo'limlarida: harbiy xizmatni o'tash tartibi, harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan talablar, ularning burch va majburiyatlari, huquqlari, harbiy tartib intizom qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik tartibi haqida; qurolli kuchlar shakllanishi tarixi va rivojlanishi istiqbollari yaqida suhbatlar tashkil etish;

b) nomzodlarning harbiy kasbiy tanlash: nomzodlarning harbiy xizmat talablariga javob berishi darajasini aniqlash (ijtimoiy-demografik (yosh ko'rsatkichi, ma'lumoti, harbiy-kasbiy tayyorgarligi)), soglig'i holati, ijtimoiy-psixologik ma'lumotlari).

2. Harbiy xizmatga tayinlanish bosqichida - harbiy bo'linmalarda umumharbiy nizomlar asosidagi tartib intizomni ta'minlash, yangi kelgan harbiy xizmatchilarda harbiy xizmat vazifalarini bajarish birlamchi ko'nikmalarini shakllantirish: harbiy qism tarixi, an'analari bilan tanishtirish; harbiy xizmatchilarning xarbiy jamoalardagi o'zaro munosabatlar, ularning burch va majburiyatlari, huquqlariga doir qonunlar va umumharbiy nizomlar talablari, ularni buzganlik uchun javobgarlik tartibi bilan tanishtirish; harbiy xizmatchilar bilan tarbiyaviy ishlarni shakllantirish, deviant xulq ifodalanishi profilaktikasini amalga oshirish yuzasidan bo'linma komandirlari bilan instruktor-metodik mashg'ulotlarni tashkil etish.

3. Harbiy xizmat boshlanishining dastlabki bosqichida - harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat sharoitlariga qo'niqishi, moslashishi ta'minlash: harbiy xizmatchiga o'zi tayinlangan bo'linmaning yaqin muddatda oldida turgan vazifalari, ijobiy an'anapari va jangovar tayyorgarlikdagi muvaffaqiyatlari bilan tanishtirish; harbiy xizmatchining kayfiyati, dastlabki taasurotlari haqida suhbatlashish; serjantlar tarkibi bilan "kichik komandirlarning bo'linmalarda mustahkam harbiy intizomni ta'minlash, nizomdan tashqari munosabatlarni, konunbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, harbiy jamoani jipslashtirishdagi amaliy faoliyati" mavzusida mashg'ulotni tashkil etish; harbiy bo'linmaning yangi a'zolarini ijtimoiy-psixologik o'rganish tashkil etish, harbiy

jamoa axloqiy-ruhiy muhitini o'rganish, uning norasmiy tuzilmasi (mikroguruhlar, yetakchilar va ularning yo'nalganligi), harbiy xizmatchilar xulq-atvorining ustivor shakllarini aniqlash; o'rganilgan ko'rsatkichlar asosida harbiy jamoa ijtimoiy-psixologik portretini tuzish, jamoaning yangi a'zolariga salbiy yo'nalishda bo'lgan yetakchilarning ta'sirini oldini olish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish;

4. Harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar mutaxassisliklarni faol egallashga kirishishi va harbiy jamoalarni jipslashtirish bosqichida - harbiy jamoalardagi mikromuhitni chuqur o'rganish, harbiy xizmatchilar o'rtasida umumharbiy nizomlar talablari asosidagi mustahkam kundalik o'zaro munosabatlarni shakllantirish: jamoalardagi o'zaro munosabatlar va intizomlilik darajasini chuqur o'rganish, har bir nizom qoidalari buzilishi xolatini mukammal tarzda tekshirish; har bir ofitserning harbiy xizmatchilarda deviant xulq ifodalanishi profilaktikasiga doir faoliyatini baholash, bo'linmalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishganlarni rag'batlantirish; harbiy jamoalardagi ijtimoiy-psixologik vaziyatni chuqur o'rganish, deviant xulq ifodalanishiga moyil harbiy xizmatchilarni aniqlash va ularga nisbatan profilaktik chora tadbirlarni qo'llash, sport turlari bo'yicha musobaqa va o'yinlarni tashkil etish, bo'linmalarni video va audio apparaturalar, musiqiy asboblarni bilan jihozlash, har bir bo'linmada badiiy xavaskorlikni tashkil etish, teatr, muzey, konsert, kinoteatrlarga jamoaviy tashrif buyurishni tashkil etish.

Ko'rinib turibdiki, bunda asosan harbiy tizimga moslashuv jarayoni asosiy maqsad qilib olingan bo'lib, og'ishlar moslashuv jarayonini maqsadli kechmaganligi tufayli ham namoyon bo'lishi mumkin. Harbiy faoliyat jarayonida esa mazkur holatni ta'minlashda sotsiologik xizmatning shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega. Sotsiologik xizmat kasbiy faoliyatning ijtimoiy muammolarini amaliy jihatdan bartaraf etish, ijtimoiy jarayon va hodisalarni o'rganish va ularni boshqarish imkoniyatini yaratgan holda, nafaqat harbiy bo'linmalar jangovar shayligi darajasini oshirishga, balki harbiy faoliyatning jamiyatdagi nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan harbiy faoliyat jarayonida sotsiologik xizmatni tashkil etishning asosiy *maqsadi* quyidagi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilishi lozim;

- **birinchidan, harbiy xizmatchi shaxsi muammosi** - bu harbiy xizmatchi shaxsi rivojlanishi, uning ma'naviy-axloqiy, individual-psixologik holati, ruhiy sog'lomligiga salbiy ta'sir yetkazuvchi, jangovar imkoniyatlarining zaiflashishiga olib keluvchi muammolar bo'lib, ularni mazkur guruhlarga ajratish mumkin:

a) *motivatsion muammolar* - qurolli kuchlarning xozirgi kundagi mavjud vazifalari talablaridan kelib chiqib, belgilangan xizmat vazifalarini namunali bajarish, harbiy-kasbiy malakalarini oshirishga yetaklovchi motivlarning yetarlicha ifodalanmasligi yoki mavjud emasligi;

b) *kasbiy-ixtisoslik muammolari* - harbiy xizmatchilar ma'lum qismining xizmat vazifalarini bajarishga kasbiy layoqatsizligi yoki yetarlicha tayyor emasligi;

v) *funksional muammolar* - qarbiy xizmatchilarda bevosita xizmat faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy psixofiziologik xolatlar. Bunda xizmat vaqtining chegaralanmaganligi, kechayu kunduz turli xolat va vaziyatlarda (qor, yomg'ir, turli xil gaz hidlari, har xil shovqinlar va b.) faoliyat yuritishini ko'rsatib o'tish mumkin;

g) *ma'naviy-psixologik muammolar* - shaxsiy munosabatlar doirasida mazkur alohida ahamiyat kasb etib, gohida xatto inobatga olinmaydi. Natijada jamoada, harbiy xizmatchi-komandir kabi munosabatlar tizimida nizolar vujudga kelishi mumkin. Mazkur harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat shart-sharoitlariga moslashishidagi qiyinchiliklarda, xususan atrofdagilar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishda, xulqida turli ogishlar shaklida ifodalangan xolda, nafaqat harbiy xizmatchi uchun, balki qism va bo'linmalarning umumiy jangovar shayligi darajasini ta'minlash uchun ham salbiy ta'sir ko'rsatish extimoli bor.

ikkinchidan, jamoaviy - guruhli muammolar - harbiy jamoa va guruhlarning axloqiy-ruhiy xolatini zaiflashtiruvchi muammolar bo'lib, ularga maishiy nizolar, jamoa a'zolari o'rtasida psixologik moslikning yo'qligi, aksil harbiy, aksilijtimoiy, yolg'on maqsad va yo'nalishlar shaklidagi barqaror salbiy intilishlar bilan tavsiflanuvchi mikro guruhlarning mavjudligida ifodalanuvchi ichki jamoaviy aloqalar (axloqiy, kasbiy, shaxsiy) deformatsiyasi, jamoa ijobiy qadriyatlarining inqirozi kabi muammolarni kiritish mumkin.

uchinchidan, harbiy faoliyat muammolari - oquv-jangovar hamda xizmat vazifalarini bajarish jarayonida harbiy xizmatchilar individual-shaxsiy, ijtimoiy-psixologik sifatlarining harbiy xizmat va harbiy ixtisoslikning ob'ektiv talablariga mos kelmasligi natijasida yuzaga keluvchi muammolar. Mazkur muammolarning mavjudligi o'quv-jangovar hamda xizmat vazifalarini bajarish

- jarayonida faoliyat samaradorligining pasayishi, avariya xolatlari, jinoyat va turli noxush xodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Harbiy faoliyat jarayonida sotsiologik xizmatni joriy etishdan ko'zlangan *vazifalarii* quyidagilarda ifodalash mumkin:

- harbiy jamoalardagi ijtimoiy jarayon va xodisalarni, harbiy xizmatchilar individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish, diagnostikasi, uning rivojlanish darajasini prognozlash hamda profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish;

- xizmatga chaqirilayotgan harbiy xizmatchilar kasbiy layoqat darajasini harbiy kasbiy-tanlov asosida aniqlash va ularni harbiy ixtisoslik va lavozimlarga ratsional taqsimlash tadbirlari samaradorligini aniqlash;

- o'quv-jangovar tayyorgarlik, tarbiyaviy ishlar jarayonini ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil etish hamda ular samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llashga doir takliflarni ishlab chiqish;

harbiy xizmat jarayoni, shart-sharitlaridan harbiy xizmatchilarning qoniqish darajasiga doir ijtimoiy fikrini o'rganish asosida amaliy takliflarni ishlab chiqish;

- harbiy jamoalardagi shaxslararo o'zaro munosabatlar tuzilishi, etakchi avtoriteti darajasi, jamoaning har bir a'zosining undagi mavqeini, mavjud mikroguruhlar va ularning yo'nalishi, o'zaro munosabatlarini, guruh jipsligi darajasi kabilarni aniqlash, harbiy jamoalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- harbiy xizmatchilarning ijtimoiy muammolari, ijtimoiy mavqei, himoyalanganligi darajasini o'rganish va tahlil etish;

- harbiy xizmatchilar ijtimoiy himoyalanganligi darajasini oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni prognozlash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish birlamchi maqsad va vazifalarini aniqlash;

harbiy xizmatchilarning oilalarini o'rganish, mavjud muammolarning kasbiy faoliyat jarayoniga ta'siri darajasini aniqlash.

Sotsiologik xizmat harbiy jamoalardagi ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishi mumkin, ammo bunda mas'ul xodimlarning kasbiy layoqatlilik darajasi asos bo'lib xizmat qilishi lozim:

1 - yo'nalish. Harbiy jamoa shakllanishi va rivojlanishi jarayoni:

Harbiy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni prognozlash. Bunda, harbiy kadrlar xizmatdan bo'shab ketishi muammolarning ijtimoiy sabablarini o'rganish, ularni bartaraf etishga doir amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Harbiy kadrlarni tanlash tadbirlari samaradorligi darajasi monitoringini amalga oshirish. Harbiy jamoalardagi ijtimoiy muvozanatni doimiy ravishda o'rganib, kuzatib borish, kadrlar migratsiyasi (xizmatdan bo'shab ketishi)ning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlash hamda amaliy tadbirlarni tavsiya etish.

2 - yo'nalish. Harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyati va turmush sharoitlaridagi o'zgarishlar kechishi jarayoni:

Harbiy jamoa imkoniyatini aniqlash. Bunda, harbiy mutaxassisning faoliyat jarayonida samarali qo'llanilishi (uning ixtisosi, ma'lumoti, malakasi va sh.k.) darajasini, bu yo'nalishdagi mavjud kamchiliklarning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlash.

Harbiy bo'linma va harbiy xizmatchilarning birlamchi hayotiy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlashidan qoniqish darajasini aniqlash. Bunda harbiy xizmatchilar barcha kategoriyalarining o'z moddiy manfaatdorligidan qoniqish darajasini o'rganish faoliyat jarayonida ularning qiziqish darajasini boshqarish uchun moddiy to'lovlarni differensiallashgan ko'rinishini asoslagan xolda taklif etish.

Ijtimoiy-ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlanish darajasini aniqlash. Faoliyatning sanitar-gigiyenik sharoitlari kulayligi (komfortligi) darajasini, uni belgilovchi ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-texnik, psixofiziologik, estetik omillarini o'rganish.

Ijtimoiy-maishiy infrastruktura rivojlanish darajasini aniqlash. Faoliyat jarayonida yaratilgan shart-sharoitlarning belgilangan me'yoriy talablarga javob

berishi darajasini o'rganish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ma'naviy ehtiyojlarning qondirilish darajasini aniklash. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy xordiq olishlari, sport bilan shugullanishlari uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganish va ular samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berish.

Fuqarolik va mehnat huquqlarining qondirilish darajasini aniqlash.

3 - yo'nalish. Harbiy xizmatchilar ijtimoiy sifatlari shakllanishi va rivojlanishi dinamikasi jarayoni:

1) Harbiy xizmatchilar ehtiyojlari va qadriyatlari yo'nalishi tizimidagi o'zarishlarni doimiy kuzatib borish.

Harbiy jamoadagi tartib-intizom xolati dinamikasi. Bunda, harbiy intizom va uning o'zgaruvchanligi, uni buzuvchilar tarkibi (harbiy xizmatchilar kategoriyalari, ijtimoiy-demografik xususiyatlari bo'yicha) va sababi, harbiy xizmatning tashkil etilish shart-sharoitlar, maishiy sharoitlarning harbiy intizom holatiga ta'siri, harbiy intizomni buzuvchilarga nisbatan qo'llaniluvchi moddiy va ma'naviy ta'sir choralari va uning samaradorligini o'rganish.

Harbiy xizmatchilar ma'lumoti va madaniy darajasini oshirish jarayonini kuzatib borish va uni oshirishga doir chora-tadbirlarni taklif etish.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun, harbiy tizimda "Harbiy-psixologik xizmat markazi"ni tashkil etish, uning bo'linmalarini harbiy okruglar, birlashmalar tarkibida ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Namuna tariqasida quyidagi chizmani keltiramiz.

Harbiy-psixologik xizmat Markazi		
Harbiy-sotsiologik tadqiqotlar va monitoring bo'limi	Ijtimoiy-psixologik pedagogik tadqiqotlar bo'limi	Harbiy kasbga tanlov va monitoring bo'limi
Harbiy okrug, qo'shimmalar psixologik xizmat bo'linmasi		
Harbiy qism psixologi		

Xorijiy mamlakatlar (GFR, AQSh, Buyuk Britaniya) armiyasining tajribasidan ma'lumki, bugungi kunda harbiy faoliyat doirasida profilaktik ishlarni olib borish uchun Buyuk Britaniyada har bir diviziya shtabi tarkibida psixolog va psixiatr, AQShda har bir diviziya tibbiy bataloni tarkibida sotsiolog, psixolog va psixiatr, Rossiya Federatsiyasida qo'shilma darajasida mutaxassis-psixolog, Qozog'iston Respublikasida brigada shtati doirasida sotsiolog va psixolog lavozimlari rasman joriy etilgan bo'lsa, GFRda esa ushbu yo'nalishda maxsus pedagogik va psixologik ma'lumotga ega ofitserlar faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan dasturiy harbiy islohotlar doirasida sotsiologik xizmatning tashkil etilishi nazariy, amaliy, ijtimoiy-harbiy, harbiy-siyosiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi (mazkur xizmat shtat tuzilmasi doirasida amaliy psixolog hamda ijtimoiy pedagog, profammist mutaxassislarning birgalikda faoliyat ko'rsatishini tashkil etish lozim). Bu, **birinchidan**, kurolli kuchlar tizimida ifodalanishi mumkin bo'lgan xizmatni tashlab ketish, Nizom talablariga rioya etmaslik, o'z vazifalarini suiste'mol qilish kabi salbiy xolatlarni bartaraf etishda, **ikkinchidan**, harbiy xizmatchi nufuzini, qurolli kuchlar imijini yanada ko'tarishda, **uchinchidan**, harbiy jamoalarning doimiy jangovar shayligini yuqori darajada saqlab turish imkonini yanada mustahkamlab, muhim chora-tadbirlarni rejalashtirish uchun imkon yaratadi, **to'rtinchidan**, harbiy boshqaruv mexanizmini takomillashuvini ta'minlaydi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy xizmatga chaqirilish bosqichida - nomzodlar ongida harbiy xizmat va harbiy tartib-intizom haqida to'g'ri tasavvurni shakllantirish yo'llari.
2. Harbiy xizmatchi shaxsi haqidagi ma'lumotlarni maqsadli to'plab borish (o'quv, xizmat, jangovar faoliyat davomida).
3. Harbiy xizmatchi shaxsi muammosi - bu ma'naviy-axloqiy, ruhiy sog'lomligiga salbiy ta'sir yetkazuvchi zaiflashishiga olib keluvchi muammolar qaysilar.
4. Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning oldini olishda profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish yo'llari.

4-BOB. SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

4.1 Sotsiologik tadqiqotlarni dasturi, strukturasi asosiy elementlari

Reja:

1. Sotsiologik tadqiqotlar rejalashtirish.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibi qanday qismlari.
3. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish tartibi.
4. Empirik sotsiologik tadqiqotlar.

Tayanch iboralar: dastur, sotsiologik tadqiqot, nazariy-metodologik, amaliy-uslubiy, ijtimoiy muammo, uslub, ob'yekt, predmet, pilotaj-tajriba o'tkazish, faktlar, intervyu, respondent, suhbat, anketa, so'rov, ekspert, statistika, tanlov, empirik, gipoteza, kuzatish usuli, matematik modellash, prognoz.

Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarning ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur haqiqatan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu omillarga bevosita bog'liqdir.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'yekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarini xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarni aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish rejasini tuzib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo'lim, ya'ni nazariy-metodologik va amaliy uslubiy bo'limlardan iboratdir.

Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'yektini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z ichiga olsa, **amaliy-uslubiy** bo'lim ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga o'ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'ilgan empirik materiallardan

nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish, ko'nikmalarga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir. Bu ikki talabga rioya qilish, bir jihatdan, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tizimli yo'lga qo'yish, jamiyat ijtimoiy muammolarini tadqiq etish ishlarini uzluksiz amalga oshira borishni ta'minlasa, ikkinchi jihatdan, ilm-fanning turli sohalarini uzviy rivojlana borishi uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda borishini ko'rsatadi. Maqsadning amalga oshirilish jarayonida tadqiqotchi uch an'anaviy vazifani o'z oldiga qo'yadi. Avvalo, mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha tadqiq etish, ikkinchidan, bu ilmiy-amaliy mavzuning boshqa ilm va hayot jabhalari bilan nechog'lik bog'liqligi, ularga ta'siri masalalarini o'rganish va nihoyat, uchinchidan, ijtimoiy ziddiyatli holatlardan chiqishning mantiqli asoslangan yo'llarini belgilab berishdan iborat.

Sotsiologik tadqiqotlar ilmiy atamalari va tushunchalari qatorida ob'yekt va predmet tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Tadqiqotchi ijtimoiy muammo vaziyatini samarali hal etishi uchun ob'yekt va predmetni to'g'ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Ob'yekt, odatda mustaqil tushuncha sifatida tadqiqotchi ilmiy-amaliy faoliyatlarining umumiy sarhadlarini ifodalaydi. Predmet esa tadqiqotchi tomonidan muayyan shaklga solinadi va maxsus tadqiqot ko'lami sifatida o'rganiladi. Obyekt predmetdan ma'no jihatidan ancha keng, predmet obyektning hosilasidir. Obyekt bu subyekt o'rganishi kerak bo'lgan narsa yoki voqelikni anglatadi, predmet esa obyektning qay jihatlarini o'rganish kerakligini bildiradi. Zero, birgina obyekt zaminida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib, o'rganish mumkin.

Ilmiy muammo obyektini tizimli tahlil etish tadqiqotchi uchun uch faoliyat yo'nalishini ochib beradi. Ular quyidagilar: tadqiqot predmetini aniqlab olish, asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish hamda tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir. Ko'pincha ana shu talabning uchalasi bir paytda yuzaga keladi, shu boisdan ham yuqoridagi uch talabning dastur bosqichlari deb emas, balki dasturning uzviy qismlari deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Izlanishga qaratilgan tadqiqot rejasi uch bosqichdagi tadqiqot turini (hujjatlarni o'rganish, ekspertlar bilan maslahatlashuv, kuzatish o'tkazish) o'z ichiga oladi. Bu

bosqichlarning birinchisida ilmiy muammo xususidagi ma'lum bo'lgan barcha ilmiy, publitsistik va arxiv hujjatlarini chuqur o'rganib chiqish nazarda tutilsa, ikkinchi bosqichda shu soha bo'yicha taniqli olimlar, tajribali kishilardan iborat ekspertlar guruhi fikrini o'rganishga e'tibor qaratiladi. So'nggi bosqichda esa tadqiqotchi muayyan ilmlar tasavvurlariga ega bo'lgan holda ob'yekt xususida kuzatish ishlarini olib borishni ko'zda tutadi. Izlanish rejasi ilmiy muammoni aniq nomlab olish va asoslaydigan gipotezani ilgari surish bilan yakunlanadi.

Bayon etish rejasi bir qator sotsiologik tadqiqot rejalarini qo'llash, olingan ma'lumotlarni tahlil etish orqali qabul etilgan farazning hayotiyligini tekshirib ko'rish va o'rganilayotgan ob'yekt xususida aniq miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega bo'lishni taqozo etadi. Bayon etish rejasi asosida ish ko'rilganda ilgari ma'lum bo'lgan ko'pgina faktlarni tartibga tushirish va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday ekanligi xususida ko'pgina ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Bunday tadqiqotlar ob'yekt tuzilishiga aloqador barcha empirik ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqotlarning eksperimental rejasi ob'yekt haqida ma'lumotlar asosida izohlovchi farazni ilgari surish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot rejasidan maqsad, ob'yekt zahiridagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, obyektning ayni holati va rivojlanishi xususidagi shart-sharoitlarni aniq bilib olishdan iboratdir. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning real tajribasida muayyan ilmiy tadqiqot jarayonida yuqorida tilga olingan har uch reja ham o'zaro uyg'un holatda ketma-ket qo'llanilib boriladi.

Empirik sotsiologik tadqiqot nima?

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt

deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlarga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

1. BOSQICH. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

1.1. Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.

1.2. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha byurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzish.

1.3. Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va budget (sarf qilinadigan xarajatlar smetasini) tuzish.

1.4. Dastur ishlab chiqish.

1.5. Tadqiqot uslubiyati, texnikalarni va vositalarini ishlab chiqish.

2. BOSQICH. Asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

2.1. Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.

2.2. Pilotaj.

2.3. Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yigish.

2.4. Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

3. BOSQICH. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

3.1. Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.

3.2. Taqsimiy jadval tuzish.

3.3. Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

4. BOSQICH. Yakunlovchi bosqich bo'lib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish,

umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

4.1. Tadqiqot ma'lumotlarning dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.

4.2. Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.

4.3. Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy yechimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari: davlat buyurtmasi asosida, xo'jalik shartnomasi asosida,

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot ob'ekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti shakllanganda, mavjud muammoni yechish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot ob'ekti deganda, sotsiologik yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'ekti tizimli xususiyatiga, asosan vaqt, makoniy imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-uslubiy

darajasida tadqiqot ob'ektini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo harakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi tadqiqot ob'ekting qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot ob'ekting unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot ob'ekti qilib olinishi mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot olib borish yoki tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot ob'ekting nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Ilmiy muammo ob'ektini sistemali tahlil etish tadqiqotchi uchun 3 faoliyat yo'nalishini ochib beradi. Ular:

- 1) Tadqiqot predmetini aniqlab olish.
- 2) Asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish.
- 3) Tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir.

Dasturda aniq ko'rsatilishi zarur

1) Empirik tadqiqot ob'ekti. 2) Sotsiologik tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi. 3) Tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi (ro'yxat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar).

Sotsiologik tadqiqot farazi:

Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik harakteri to'g'risidagi ilmiy asoslangan farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan ob'ekt to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Faraz, bu tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish-empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir. Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazi

to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiy darajasi past bo'ladi.

Empirik (aniq) tadqiqot usullari

Ilmiy bilishning metodlarini falsafa va sotsiologiyada 3 turga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilmiy bilishning eng umumiy-ilmiy metodi (ongli amaliy va nazariy faoliyat).
2. Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.
3. Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

Dastur tarkibi uslubiy qismining muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyati, texnika jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

Sotsiologik tadqiqot uslubiyati – xususiy sotsiologik usullar majmui bo'lib, undan empirik materiallarni to'plash va tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi. Metod tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash uchun vositachi demakdir. Sotsiologiyaning usul sifatidagi umumsotsiologik prinsiplari: ijtimoiy voqealikdagi jarayonlar, hodisalarni bilishdagi xususiy prinsiplar va konkret usullar – matematik-statistik usullar, sotsiologik axborotni yig'ish usullari: kuzatish, so'roq, eksperiment va boshqalardan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqot texnikasi – maxsus usullarning birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi.

Sotsiologik tadqiqot jarayoni tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning batartib borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati ham katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ib boriladi. Quyida shular xususida to'xtalib o'tamiz.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Sotsiologik tadqiqot qanday rejalashtiriladi.
- 2.Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibi qanday qismlardan tashkil topgan.

3.Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish tartibi.

4.Empirik sotsiologik tadqiqotlar.

4.2 Sotsiologiyada ma'lumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi

Reja:

- 1.So'rov usuli olib borilishi.
2. Kuzatish usulining turlari.
3. Hujjatlarni o'rganish usulining amalga oshirilishi.
4. Sotsial eksperiment usuli olib borilishi.

Tayanch iboralar: sotsiologik tadqiqot, ijtimoiy muammo, uslub, ob'yekt, predmet, pilotaj-tajriba o'tkazish, faktlar, intervyu, respondent, suhbat, anketa, so'rov, ekspert, statistika, tanlov, empirik, gipoteza, kuzatish usuli, matematik modellashtirish, prognoz, hujjatlarni o'rganish, sotsial eksperiment.

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani **so'rov** usulidir. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo'llanilganda katta korxona va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin. Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatidan ko'zlagan niyatlari, o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallagan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi, chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

So'rov usulining mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent o'zining dunyoqarashi, ma'lumoti, bilimi va xohishidan kelib chiqib,

savollarga javob beradi. Tadqiqotchi respondentga savol berishdan avval o'zi bir necha savollarga javob topishi kerak. Va savollar quyidagilar:

1. Savolni kimga yoki kimlarga bermoqchi?
2. Respondent savollarga javob berishni xohlaydimi yoki yo'qmi?
3. Respondent qo'yilgan savollarga javob bera oladimi, yo'qmi?
4. Respondent haqqoniy javob berishi uchun savollarni qanday tarzda, shaklda berish kerak?

Mana shu savollarga javob topa olgan sotsiolog tadqiqotning muvaf-faqiyatli chiqishini ko'p jihatdan ta'minlagan bo'ladi.

To'plamning kerak bo'lgan ma'lumot xarakteri va uni to'plash usuliga qarab so'rovlar ikki turga bo'linadi:

1. Anketa so'rovi.
2. Intervyu.

Savol berilishi mumkin bo'lgan odamlar yoki potensial respondentlarni qay darajada qamrab olishiga qarab so'rovlar yana ikki turga bo'linadi:

1. Yalpi so'rovlar.
2. Tanlab o'tkaziladigan so'rovlar.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirtidan so'rov singari turlari ham mavjud.

Sotsiologiyada keng qo'llaniladigan usullardan biri **intervyu** bo'lib, u anketa bilan ko'p umumiylikka ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, intervyuda og'zaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Intervyuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birini qiziqtirgan masalalar to'g'risida gap yuritsa, intervyu jarayonida faqat bir tomon — tadqiqotchi savol va respondent javob beradi. Intervyu bilan oddiy suhbat o'rtasida tafovut yana shunda ko'rinadiki, suhbatdoshlar, odatda, tanish odamlar bo'ladi, intervyu esa de-yarli ikki notanish odamning suhbatidir.

So'rov – sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri. Bu usul sotsiologik, psixologik, demografik va boshqa tadqiqotlarda qo'llaniladigan

birlamchi verbal (og'zaki) axborot yig'ish usuli deb ham yuritiladi.³¹ Bu usul XVIII asrda ishlab chiqilgan va eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. So'rov usuli yordamida boshqa hujjat manbalarida uchramaydigan, tadqiqot usuli yordamida olish qiyin bo'lmagan ma'lumot, axborotlar olish mumkin.

O'tish davrida bozor munosabatlarini shakllantirish demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazishda bu usulning ahamiyati yanada ortib borishini tabiiy holat sifatida baholamoq kerak. So'rov usuli yordamida boshqa hujjatli manbalarda uchramaydigan va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar, axborotlarni olish mumkin. Shuning uchun, kishilar, ijtimoiy hayot jarayonlariga bo'lgan munosabatini, fikrini sotsiologik jihatdan o'rganishda so'rov usulining ahamiyati beqiyos kattadir. Ayniqsa, hozirda, jamiyatimizning bozor munosabatlariga o'tib borish jarayonida, ijtimoiy kommunikatsiyaning roli ortib borishi bilan so'rov usulining sotsiologik tadqiqotlar olib borishdagi o'rni va ahamiyati yanada o'tmoqda.

So'rov metodining turlari:

1. Anketalashtirilgan yozma shakldagi so'rov
2. Suhbatlashish (intervyu).
3. Sotsiometrik so'rov.
4. Test o'tkazish so'rov.
5. Ekspert so'rov.
6. Panel so'rovlar.
7. Yaxlit so'rovlar.

So'rov usulidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

1. O'rganilayotgan muammo bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlar kam yoki mutlaqo bo'lmaganda;
2. Tadqiqot predmeti yoki uning ayrim jihatlarini kuzatish imkoniyati bo'lmaganda;

³¹T.Sultonov, M.Mullajonova. "Sotsiologiya". Darslik. 2009. 338-b.

3. Tadqiqot ob`yekti sifatida ehtiyoj, manfaatlar, qiziqishlar, kayfiyat, qadriyatlar, e`tiqod, ishonch, yoqlash kabi ijtimoiy yoki individual ong elementlarini o`rganish jarayonida;
4. So`rov usulining imkoniyat darajasini oshirish maqsadida qo`shimcha tarzda va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olingan empirik ma`lumotlarni qayta tekshirish uchun;
5. Muayyan ijtimoiy muammo ustida olib borilayotgan sotsiologik tadqiqot jarayonini qanchalik to`g`ri ekanligini nazorat qilib borishda.³²

So`rov usulidan dastlabki sotsiologik axborotlarni olish uchun foydalaniladi. So`rov usulidan dastlabki sotsiologik axborotlarni olish uchun foydalaniladi. **So`rov usuli xarakteriga ko`ra: sotsiologik tadqiqotlarda so`rov usulidan) yozma ravishda – b) anketa orqali va og`zaki – intervyu olish** ravishda bo`lishi mumkin. Tadqiqotda, **respondent (inglizcha – so`z bo`lib, javob bermoq** ma`nosini anglatadi, ya`ni anketa savollariga va intervyuga javob beruvchi tushuniladi) bilan muloqotda bo`lish shakli va sharoitiga qarab so`rov yozma – anketa orqali va og`zaki – intervyu_olish, yashash joyi va uyushgan auditoriyada (mehnat jamoasida, mahallada, o`quv yurtida, sirdan ro`znoma orqali, pochta orqali anketa o`tkazish) va yuzma-yuz, telefon\_orqali, guruhli yoki inidividual kabi ko`rinishlarda bo`lishi mumkin. Formallashtirish darajasi bilan oldindan rejalashtirilgan va erkin, bir marotaba va takror bo`lishi mumkin.

**-Anketa orqali so`rov** o`tkazish eng keng tarqalgan so`rov turi hisoblanadi. Chunki, anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to`g`risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Olingan ma`lumotlarning qanchalik to`g`ri, ob`yektiv va hayotiy ekanligi esa tadqiqotchilar tomonidan tuziladigan anketa savollarining qanchalik mohirona va savodli ekanligiga bog`liq bo`ladi. Anketaga kiritilgan savollar sodda, tushunarli va javob berishga qulay tuzilishi shart. Unda respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma`lumot darajasi va ruhiy jihatlari

³²M.Bekmurodov, T. Sultonov Sotsiologiya asoslari «Ma`ruzalar matini». T. 2000. y. 64-bet

hisobga olinmog'i lozim. Aks holda, anketa so'rovi o'rganilayotgan muammo to'g'risida ishonchli, ob'yektiv ma'lumotlar bermasligi mumkin.

Anketa so'rovi orqali empirik ma'lumotlarning aniq, hayotiy bo'lishi – anketa o'tkazish jarayonini qanchalik to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Anketa o'tkazishning asosiy komponentlari – tadqiqotchi, so'roqlov varaqasi va respondent hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tadqiqot o'tkazilayotgan ob'yektning rasmiy va norasmiy vakillari, rahbarlari tomonidan respondentlarga anketani tarqatish va ularni to'ldirish vaqtida nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, respondent tomonidan mustaqil, o'zgalarning maslahatisiz to'ldirilishi shart. Anketa to'ldirishda respondentning ismi-sharifi ko'rsatilmasligi kerak. Chunki, anketa varaqasiga ismi-sharifini ko'rsatish talab qilinsa, o'rganilayotgan muammo to'g'risida salbiy yoki e'tirozli fikr bildirishdan cho'chib, respondent o'z fikrini ochiq-oydin yozmasligi mumkin. Siyosiy, ma'muriy tazyiqlardan yuragini oldirib qo'ygan o'zbek fuqarosi buni juda yaxshi tushunadi. Boshqa jihatdan esa, ko'pchilik kishilarga xos, yuqori rahbariyatga yaxshi ko'rinish, boshlig'iga shaxsiy sodiqligini bildirib qo'yish maqsadida ham berilgan savollarga noreal, «o'ta ijobiy» javob berib, kimligini bildirib qo'yish maqsadida ism-sharifini ataylab ko'rsatib qo'yadiganlar ham uchrab turadi. Shuningdek, anketa savollariga, tadqiqot ishiga qarshi shaxslar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun, respondentlar bilan juda ehtiyot bo'lib, chiroyli, do'stona muomalada bo'lish zarur. Anketa o'tkazish davomida tadqiqotchidan yumshoqlik, shirinsuxanlik talab qilinadi.

Anketa o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Anketa so'rovi: 1) eng avvalo, anketa savollari tizimini ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi; 2) anketa so'rovini kim tomonidan, qanday maqsadda o'tkazilishini va respondentlarga anketa to'ldirib berishni o'z ichiga oladi; 3) anketa pasporti ham tarkibda muhim o'rin tutib, unda respondentning ijtimoiy-demografik xarakteristikasi tushuntiriladi. Bunda respondentning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va holati, ma'lumot darajasi, kasbi, partiyaviyligi, oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar aniqlanadi. Ko'pincha pasport anketaning oxirida beriladi. Ko'pchilik sotsiologlarning

fikricha, agar pasport anketaning boshida berilsa, respondentni choʻchitib empirik maʼlumotning aniq va toʻgʻri, hayotiylik darajasini pasaytirib yuboradi.

Asosiy savollar anketa tarkibida markaziy oʻrin egallaydi. Chunki, asosiy savollarga beriladigan javoblar sotsiologik tadqiqotlarning asosiy maʼlumotlari hisoblanadi.

Anketa oxirida yakunlovchi savollar kiritiladi. Oʻz mohiyatiga koʻra, yakunlovchi savollar asosiy savollarning mantiqiy davomi boʻlib, unda oʻrganilayotgan muammo yuzasidan respondentning individual, qoʻshimcha fikr va mulohazalari olinadi. Anketa soʻnggida tadqiqot uchun koʻrsatilgan beminnat yordam evaziga samimiy minnatdorchilik bildirishni unutmaslik kerak.

Anketa savollarining soni koʻpayib ketmasligi kerak. Qiziqarli, respondentni zeriktirmaydigan va ixcham tuzilmogʻi lozim. Oʻz shakliga koʻra, anketa savollari ochiq, yopiq, yarim ochiq va yarim yopiq boʻladi.

Ochiq savollarda respondentga javoblar varianti taqdim etilmaydi, yaʼni u qanday hohlasa shunday, erkin javob berishi mumkin boʻladi.

Yopiq savollarda esa respondent faqat «ha» yoki «yoʻq» tarzida javob berishi, yoki oldindan yozib qoʻyilgan javoblardan birini tanlashi lozim.

Yarim ochiq yoki yarim yopiq savollarda esa respondentga taqdim etilgan javoblar variantlaridan tashqari «boshqa» deb nomlangan variant ham beriladi, yaʼni respondent berilgan javoblardan birini tanlashi yoki oʻzining javobini taqdim etishi lozim boʻladi.

Anketa oʻtkazishda uning vaqti 10-45 daqiqa davom etishi kerak. Qisqa muddatda oʻtkaziladigan tezkor anketa oʻtkazish muddati 10-45 daqiqadan oshmasligi lozim. Anketa oʻtkazishning bunday usulida respondentning uzoq mulohaza qilishiga, ikkilanishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Savollar ham sodda, qisqa va aniq qilib tuziladi. Natijada qisqa muddatda empirik sotsiologik maʼlumotlar toʻplashga erishiladi.

- **Intervyu** (ing. uchrashuv) – sotsiologik tadqiqotda qoʻllaniladigan uslub – maqsadli suhbat. Uning maqsadi: tadqiqot dasturida koʻzda tutilgan savollarga

javob berishdan iborat. Intervyu funksiyasi: a) ma'lumot yig'adi; b) ta'sir ko'rsatish.

Intervyuning bir necha turlari mavjud:

1) Erkin intervyu.

2) Standartlashgan intervyu.

3) Yarim standartlashgan intervyu: a) gruppaviy panel usuli; b) kilinik intervyu; v) mo'ljalli intervyu.

Intervyu hozirgi kunda eng ko'p va keng tarqalgan so'rov usulidir. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham intervyu sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, statistika, etnografiya, pedagogika, boshqaruv singari fanlarda keng va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funksiyani bajaradi: 1) muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; 2) shu bilan birga, ob'yektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baro kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.

Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak ahloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o'ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko'p vaqt va moddiy sarf-harajatlar talab

qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o'rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O'ta injiq, alamzada, hatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu tayyorlash, uni o'tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o'zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini, umumiy tendentsiyalarini va uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. 1-2 intervyu olish bilan tadqiqot ob'yekti bo'yicha ob'yektiv asosga ega bo'lgan ilmiy tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Sotsiologik adabiyotlarda intervyu bir necha turlarga ajratib ko'rsatilgan, quyidagilar shular jumlasidandir:

Erkin intervyu (standartlashtirilmagan)– bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o'tkaziladi. Respondentga avvaldan belgilangan savollarga qo'shimcha ravishda savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Respondentga erkin va keng tarzda fikr yuritish imkoniyati yaratiladi. Intervyuning bunday turiga hozirda televidenie orqali muntazam ravishda olib borilayotgan «Yuzma-yuz» kabi ko'rsatuvlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejalashtirilgan, muayyan mavzuning qat'iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turiga aytiladi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblar, siyosatchilar, mas'ul va ma'muriy shaxslar – respondentlar bilan o'tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat'iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot ob'yektining norasmiy jihatlarini oydinlashtirish, ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'tkaziladi. Ayrim kasb egalari bilan, masalan, artistlar, mashhur shaxslar, tarbiyasi og'ir bolalar, jinoyatchi va boshqa shu kabi respondentlar bilan o'tkaziladigan intervyuni misol qilib olish mumkin.

O'tkazish jarayoniga ko'ra intervyu: a) ko'cha-ko'yda, b) guruhli, v) klinik, g) yo'naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin.

Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyu o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Chunki, respondent ochiq intervyu berishdan manfaatdor bo'lmaydi. Ko'pincha, yopiq intervyu davlat ichki ishlar maxsus bo'limlari vakillari bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo'qotib pushaymon bo'lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan kamida 50 dan ortiq respondentdan olingan empirik ma'lumotlar mazmun jihatdan guruhlariga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

Kuzatish usuli faqat sotsiologiya yoki ijtimoiy fanlardagina emas, balki barcha fan sohalarida ham keng qo'llaniladi. Kuzatish turli maqsadlarda, shaklda, qamrovda, vositalar yordamida olib boriladi. Barcha odamlar o'z hayotlarida kuzatish usulidan u yoki bu darajada foydalanadilar. Lekin ular foydalanadigan usul ilmiy kuzatish usuli emas, balki oddiy kuzatish usulidir. Oddiy turmushdagi kuzatish ham aksariyat holda muayyan maqsadga yo'naltirilgan va muayyan darajada tashkil etilgan bo'ladi. Lekin bu kuzatishlar ilmiy maqsadni ko'zlamagani va ilmiy muammoni hal etishga qaratilmagani uchun ilmiy kuzatish bo'la olmaydi.

Ilmiy kuzatishlar muayyan nazariya yoki farazni tasdiqlash, to'ldirishni yoki rad etishni maqsad qilgan holda olib boriladi. Ilmiy kuzatish-ning maishiy turmushdagi kuzatishdan farqli qiladigan xususiyatlaridan biri uning nazariy, ilmiy asoslaridir. Kundalik turmushdagi kuzatish kishi-larning hayot tajribasiga asoslanib olib borilsa, ilmiy kuzatish ilmiy bilimlar asosida olib boriladi.

Ijtimoiy fanlarda kuzatish usulining qo'llanilishi uning tabiiy fanlarda qo'llanilishidan ancha farq qiladi. Tabiatda tadqiqotchining kuchli his-tuyg'ularini uygotadigan voqealar yuz bermaydi. Jamiyatda yuz berayotgan hodisalarni kuzatayotganda esa tadqiqotchi his-tuyg'ularga berilib ketishi, bo'layotgan hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishi va bu hol tadqiqot natijalariga, xulosalarning ilmiy va obyektiv bo'lishiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Shuning uchun

ijtimoiy hodisalarni kuzatishga harakat qilayotgan tadqiqotchi o'z his-tuyg'ularini tizginlay olishi, xulosa chiqarish paytida shu his-tuyg'ulardan yuqoriroqqa ko'tarila olish qobili-yatiga ega bo'lishi lozim.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1. Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. Bu shart sotsiologik tadqiqotlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, natijalarning obyektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish olib borilganda shunday holatlar vujudga keladiki, ularni texnika vositalarida tasvirga tushirilmasa yoki ovozlar yozib olinmasa, bu holatlarni tabiiy holda qaytarish mumkin emas. Shuning uchun kuzatishni texnik jihatdan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kuzatishning muntazamliligi. Bu shart ham tadqiqot natijalarining obyektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish muntazam olib borilmay, o'lda-jo'lda va ahyon-ahyonda olib borilsa, tadqiqot obyekti uchun xarakterli holatlar kuzatilmay qolishi va oqibatda kuzatish natijalari obyektiv bo'lmay qolishi mumkin.

3. Kuzatuvchining xolisligi. Bu shart ta'minlanmasa, tadqiqot jarayonida kuzatuvchi o'zi o'rganayotgan jarayonlarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni subyektiv talqin qilishi mumkin.

4. Kuzatilayotgan obyekt to'g'risida mumkin qadar ko'proq, ma'lumot to'plash. Obyekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalarning haqiqatda shunchalik yaqin bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi. Xulosalar yetarli bo'lmagan ma'lumot asosida chiqarilsa, obyektning ma'lum xususiyatlari kuzatuvchi e'tiboriga tushmay qolgan bo'lishi mumkin. Bu esa xulosalarning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

5. Kuzatishning borishini va natijalarini batafsil qayd qilib borish. Agar shunday qilinmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Yuqorida aytilganidek, kuzatish jarayonini qayd qilib borishda texnika vositalari katta yordam berishi mumkin.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

1. Chetdan kuzatish.
2. Ichkaridan kuzatish.

Obyekt chetdan kuzatilganda undagi jarayonlarning ishtirokchilari o'zlari kuzatuv obyekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo'ladilar. Masalan, xaridorlar xulqini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi sotish zalida yoki peshtaxta ortida turib, xaridorlarni ko'proq qaysi buyum qiziqtirayotgani, ularning belgilangan narxlarga munosabati va boshqalarni kuzatishi mumkin. Bunda xaridorlar o'zlarining kuzatish obyekti bo'lganliklarini bilmaydilar. Agar ular o'zlari sotsiologik kuzatish obyekti bo'lganliklarini bilib qolsalar, ularning xulqida ma'lum o'zgarishlar yuz berishi, demak, bu xulq tabiiy bo'lmay qolishi mumkin.

Chetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganilayotgan obyektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy holda o'rganadi. Ichkaridan kuzatilganda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin:

- 1.Ochiq kuzatish.

- 2.Yashirin yoki xufya kuzatish.

Ilmiy bilishning boshqa usullari singari kuzatish usulining ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bu usulning eng asosiy afzalliklaridan biri shuki, u tadqiq qilinayotgan obyektidagi jarayonlarning kechishiga ta'sir o'tkazmay yoki juda kam ta'sir o'tkazgan holda o'rganish imkonini beradi. Sotsiologik kuzatish ilmiy empirik bilish usuli sifatida va mohiyat e'tibori bilan murakkab jarayon bo'lgani uchun reja asosida olib boriladi. Kuzatish rejasi usulning xususiyatlari va asosiy bosqichlarini nazarda tutgan holda tuziladi.

Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borilayotgan ob'yehtidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlar ob'yehtiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'yehtiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayoniga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi. Kuzatish usulining yana bir o'ziga xos jihati: uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki,

kuzatish orqali tadqiqotchini savolga qiziqtirish, kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha soʻz bilan ifodalanadi. Ammo baʼzi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va soʻz orqali ifodalash qiyin boʻladi. **Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli oʻrganilayotgan obʼyektga nisbatan chetdan yoki ichkaridan qoʻllanilishi mumkin.** Tadqiq etilayotgan obʼyekt chetdan kuzatilganda tadqiqotchi obʼyektga nisbatan mustaqil boʻladi va unga boʻysunmaydi. Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan obʼyektga roʻy berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va boʻysunadi.

Sotsiolog K.Yunusov kuzatish jarayonining xarakteriga qarab, kuzatishning quyidagi tiplarini ajratib koʻrsatgan:

- 1) Nazoratli va nazoratsiz.
- 2) Toʻliq qamrovli va qamramaydigan.
- 3) Dala va laboratoriya sharoitida.
- 4) Muntazam va tasodifiy kabilar.

Sotsiologik kuzatish obʼyekti insondir, shuning uchun tadqiqot jarayonida tadqiqotchining maqsadini intuitiv holda his qilish, oʻz xulq-atvori yoki xarakatini oʻzgartirishi mumkin. Natijada, olingan maʼlumot sotsiologning talabiga javob bermaydi

Sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan natijalar oʻrganilayotgan obʼyekt toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot bera olmaydi. Bu usuldan koʻpgina sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, obʼyekt toʻgʻrisida dastlabki tasavvurga ega boʻlish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan maʼlumotlarni, statistik hujjatlarni qoʻshimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

Umuman, kuzatish usuli bir necha koʻrinishga ega. Bu usulni tahlil qilishda vaqt va masofa belgilari hisobga olinadi. Kuzatishning koʻrinishlari quyidagilardan iborat: shartli ravishda uzluksiz va diskret, monografik, maxsus va boshqa koʻrinishlari mavjud.

**Nazoratli, ya`ni ochiq kuzatishda** kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo'yiladi, nazoratsiz, ya`ni inkognito kuzatishda esa, aksincha, guruh o'zini kuzatilayotganliklarini sezmaydi.

To'la qamrovli, standartlashtirilmagan kuzatishda u aniq bir harakat rejasiz amalga oshiriladi, standartlashtirilgan, ya`ni to'la qamramaydigan kuzatishda kuzatuvchi tadqiqot predmeti va jarayoniga nisbatan aniq chegaralangan programmaga asoslanadi.

Dala sharoitida kuzatish ob'yekti qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa ob'yekt qilib ob'yektiv voqelikka ma'lum bir darajada moslashtirilgan model olinadi.

Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan ob'yektda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va unga bo'ysunadi, chetdan kuzatishda esa tadqiqotchi ob'yektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi.

Ichkaridan kuzatishga misol qilib Amerika sotsiologi Uilyam Uaytning «Ko'cha burchaklari jamiyati» kitobida yoritilgan (1937y) tadqiqotini olish mumkin. Avtor, Italiya emigrantlari oilalaridan chiqqan yoshlar ichida raketning vujudga kelish jarayonini o'rganish niyatida, shu muhitda uch yarim yil yashagan, ular bilan bir xil hayot kechirgan.

-Eksperimen (lot. tajriba, sinov). Bu 3 tipda olib boriladi:

1) Ekspost – fakto eksperiment (o'tmishdan hozirgacha bo'lgan tadqiqot ob'yekti).

2) Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment.

3) Projektli eksperiment hozirgi kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotda eksperiment usuli.

Sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilayotgan ob'yekt to'g'risida dastlabki emperik ma'lumotlarni to'plashda tajriba o'tkazish alohida o'rin tutadi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida uzoq vaqt sotsial fanlarda tajriba o'tkazish eksperiment usulidan foydalanish munozarali masala bo'lib keldi. Shu bilan birga, jamiyat hayoti 73 yil davomida kishilar boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qiyinchiliklar solgan

sotsial eksperimentlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Ularning deyarli barchasi muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

Ijtimoiy hayotning murakkabligi, ong va ruhiy jarayonlarni o'lchash qiyinchiligi, katta moliyaviy harajatlar, kishilar guruhlarini unga jalb etish qiyinligi va shu kabi sabablarga ko'ra sotsial eksperiment o'tkazish va undan foydalanish darajasi pastdir.

Sotsial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ob'yektiv reallik tizimiga ta'sir ko'rsatish; nisbatan ajratib olingan eksperimental omilni tadqiq qilinayotgan ob'yektga nisbatan rejali asosda qo'llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o'zgarish samaradorligini, ijobiy va salbiy jihatlarini o'lchash.

Sotsiologik va sotsial-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eksperiment usulidan foydalanish ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi: tadqiqot ob'yektining o'zigaxosligiga va tadqiqot qilinayotgan ijtimoiy guruh javob reaksiyasining xarakteriga. Bu usul har qanday sotsial ob'yektga ham qo'llanilavermaydi. Bu usuldan foydalanishda eng avvalo, tadqiq etilayotgan ob'yektning eksperiment o'tkazish mumkin deb topilsa, uni o'tkazish chegarasi aniq belgilanmog'i lozim. Eksperiment sotsial ob'yekt tizim funksional munosabatlarini buzmasligi, izdan chiqarmasligi kerak. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida olib borilgan global sotsial eksperimentlar, ijtimoiy tizim rivojlanish qonuniyatlarini qo'pol ravishda buzilganligi, sun'iy, hayotiy bo'lmagan, hayoliy tarzda olib borilganligi oqibatida ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. Yaqin o'tmishdagi M.Gorbachevning jamiyat hayotini «qayta qurish» kabi aniq ichki qurilishga ega bo'lmagan hayoliy sotsial eksperimental urinishni fikrimizga misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Sotsial eksperimentlar o'z vazifasi mazmuni, yakuniy natijasi bilan o'zaro farq qilsada, barchasiga xos ichki tuzilishga ega. Uning ichki unsurlariga eksperiment o'tkazuvchi tadqiqotchi, olimlar guruhi, ilmiy laboratoriya, yaratiladigan shart-sharoit tizimi – eksperimental omil, eksperimental holat va eksperiment natijalari kiradi.

Sotsiologiyada eksperiment asosan 3 tipda olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy tadqiqot ob'yekti qilib olinganda o'tkaziladi.

2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu tipda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot ob'yekti qilib olingan bo'ladi.

3. Proyektli eksperiment. U hozirdan kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.

Bulardan tashqari, sotsial eksperimentlar: tadqiqot xususiyatiga qarab fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi eksperimentlar; sotsial eksperiment tarkibining xarakterigako'ra; dala va laboratoriya sharoitidagi; mantiqiy tarkibiga ko'ra parallel va davomiy tarzda tiplarga bo'linadi.

Ekspert so'rovi ham sotsiologik tadqiqotlarda muhim o'rin tutmoqda. Olingan mavjud sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirishda, ularni qanchalik mos ekanligini aniqlashda ekspert so'rovi turidan foydalaniladi

Hujjatlarni o'rganish usuli. Sotsiologik tadqiqotlarda ma'lumotlarni yig'ishning asosiy usullaridan biri.

Hujjatlarni o'rganishning quyidagi metodlari mavjud:

- 1) Statistik metod.
- 2) Avtobiografik metod.
- 3) Kontent – analiz metod

Birlamchi ma'lumotlar olishda hujjatlarni o'rganish. Hujjatlarni o'rganish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'zigaxos o'ringa ega.

Hujjatlar ma'lumotlarni to'plash usuliga ko'ra (qo'lyozma, bosma, kinoplyonka, magnit lenta), avtorlik tipiga ko'ra shaxsiy va ijtimoiy, ularni yig'ish usuliga ko'ra (jamiyatda amal qiluvchi, tashkilot, kollektiv, korxona faoliyati jarayoniga tashkiliy qism bo'lib kiruvchi hujjatlar), yig'ilayotgan empirik materialga yaqinlik darajasiga ko'ra (mavjud holatni bevosita aks ettiruvchi birlamchi va mavjud hujjatlarga asoslanib ko'rilgan ikkilamchi hujjatlar) klassifikatsiyalanadi.

Hujjatlarni o'rganish metodlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham ikki guruhga bo'linadi: umumiy (tushunish, intuitsiya, anglab yetish) va maxsus

(manbalarga asoslanish, psixologik, yuridik metodlar). Formallashtirilgan metodlarga kontent-analizni kiritish mumkin. Kontent-analiz (tarkibiy analiz) metodi hujjatda ma'lum bir asosiy tushunchalarning qanchalik ko'p ishlatilishiga asoslanib xulosa chiqarishdan tashkil topadi. Misol tariqasida ikkinchi jahon urushi yillarida amerika sotsiologi Lassuelning Leyts bilan birga olib borgan kontent-analizini olish mumkin. Ular fashistik orientatsiyaga asoslangan deb taxmin qilingan. Amerika gazetalaridan birini tadqiq qildilar. Shu gazetaning 1943 yil 3 dan 31 dekabrigacha bo'lgan davrdagi sonlarini kontent-analiz metodi bilan o'rgandilar va ularda Amerikaga qarshi va Germaniyani yoqlovchi fikrlar qo'llanish hollarini hisoblab, sanab chiqdilar. Natijada, tadqiqotchilar olgan xulosalar ijobiy ekanligi aniqlanib, bu gazetada AQSh Oliy Sudi tomonidan ta'qiqlangan.

Sotsiometriya – kichik guruhlarini tarkibiy tahlil qilish usuli.

Sotsiometriya (lotincha so'z: societas – jamiyat va yunoncha so'z: metron – o'lchamoq ma'nosini anglatib) kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tadbiiq qilishi oqibatida paydo bo'ldi. Sotsiometriyaga XX asrda fransuz sotsiologi, faylasufi G.D.Gurvich (1894-1965) va amerika ruxshunos olimi Ya.L.Moreno (1892-1974) lar tomonidan asos solingan. Ular kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosotsilogiyada sotsiometriyani qo'lladilar. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo'ldi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. So'rov usuli nima.
2. Hujjatlarni o'rganish usuli qanday amalga oshiriladi.
3. Intervyu usulining xillari.
4. Kuzatish usulining turlari.
5. Sotsial eksperiment usuli qanday amalga oshiriladi.

4.3 Sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va tahlil qilish hamda umumlashtirish. Tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hisobotlar tayyorlash.

Reja:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish.
2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish.
3. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil.
4. Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish.
5. Tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hisobotlar tayyorlash.

Tayanch iboralar: Empirik ma'lumot, statistik tahlil, hujjatlar, tartiblashtirish, darajalash, ilmiy hisobot, monitoring.

Empirik sotsiologik tadqiqotning yakuniy bosqichida sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar bajariladi.

Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sotsiologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish. Bunda asosiy vazifa empirik ma'lumotlar, hujjatlar bir xil shaklga keltiriladi. Rasmiy tarzda ishlab chiqiladi va belgilangan shartlar asosida tartibga keltiriladi.

2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish, ya'ni olingan empirik ma'lumotlardan tadqiqot maqsadiga qanchalik erishilganligi va oldinga qo'yilgan vazifa qay darajada hal qilinganligi aniqlanadi.

3. Statistik tahlil. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil orqali ba'zi ijtimoiy statistik qonuniyatlar va funksional munosabatlar oydinlashadi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot usullari yordamida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tartiblashtirish, tashkillashtirish, munosabatdorlik kabi usullardan ham keng foydalanish mumkin. Tartiblashtirish – bu tadqiq qilinayotgan ob'yektlarning o'zaro nisbiy ahamiyatini tartibli asosda aniqlashni bildiradi.

Darajalash – o'rganilayotgan ob'yektni boshqa ob'yektlarga nisbatan xususiy jihatlariga qarab sifat va miqdoriy darajasini aniqlash demakdir. Darajalash ekspert baholashning boshqa usullari bilan yanada to'ldirilishi mumkin.

Empirik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida asosiy e'tibor tadqiqot ob'yekting faqat ijobiy tomonlarigagina emas, ko'proq yechimini kutayotgan muammolarga qaratilmog'i lozim. Bu bosqichda tadqiqot farazi olingan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi. Ma'lumki, ishchi faraz – muayyan ijtimoiy ob'yekt to'g'risidagi taxminiy faraz, xolos. Sotsiologik tadqiqot natijalarining tahlili esa, shu ishchi farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi. Ishchi farazning qanchalik haqqoniyligini tekshirishning samarali vositasi – ijtimoiy amaliyot, kishilarning amaliy, xayotiy faoliyati hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish, muayyan xulosalar ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili va ularni umumlashtirish ilmiy hisobot tarzida tuziladi. Ilmiy hisobot guruhlashtirilgan va tizimlashtirilgan holda tuzilib, kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy hisobot tarkibi asosan ikki qismdan iborat bo'lib, nazariy va amaliy bo'limlarni tashkil qiladi.

Sotsiologik tadqiqotning ilmiy hisobotida quyidagi asosiy talablarga e'tibor berilmog'i lozim.

1. Ilmiy hisobotda tadqiqot predmetiga muvofiq muammoning barcha o'zaro bog'liq jihatlar chuqur aks etishi zarur. Bunda, sotsiologik muammoning asosiy mohiyatli jihati aniq ko'rsatilmog'i kerak. Bajarilgan ishlar esa mantiqiy tartib asosida yozilib chiqiladi.

2. Ilmiy hisobotning har bir bobi ikki qismdan iborat qilib tuzilmog'i maqsadga muvofiq. Birinchi qism muammo va tadqiqot natijalarini o'z ichiga olmog'i, ikkinchi qism esa – ilmiy xulosalarni, amaliy taklif va tavsiyalarni tashkil etmog'i kerak.

3. Ilmiy hisobotda anketa savollari umumlashtirilgan holda ixcham qilib ifodalanadi. Hisobot aniq, hayotiy, hujjatli va statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bo'lishi talab etiladi.

4. Ilmiy hisobot ixcham va to'g'ri yozilishi zarur. Ko'pi bilan 30-40 betdan oshmasligi zarur, jadvallar, diagrammalar ilova tarzida ham berilishi mumkin.

O'zbekistonda aniq sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazishning ahamiyati

Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas.

Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so'z erkinligi prinsiplarini amalda ta'minlashga erishish, matbuotda tanqid ruxini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televideniye va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlagan, yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda har qaysi matbuot xodimi kasb mahoratini egallash bilan birga, o'z hayotiy prinsiplariga ham ega bo'lishi, haqiqat uchun kurashishga intilishi, shu yo'lda qat'iyat va shijoat ko'rsatishi, lo'nda qilib aytganda, vijdon amri bilan yashashini zamonning o'zi talab qilmoqda.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini ilmiy va yuksak saviyada tahlil qilish, ulardan ijtimoiy boshqaruv amaliyotida unumli foydalanish imkonini beradi. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidayoq o'rganilayotgan ob'yektning muhim jihatlari ko'rina boshlaydi. Bu jihatlarni nazarda tutgan holda ilmiy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish, sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish bosqichi – ikki yoqlama jarayon bo'lib, unda olimlar, ilmiy xodimlar ham amaliyotchilar ham faol ishtirok etadi.

Ba'zi sotsiologlar fanning asosiy vazifasi aniq ma'lumotlar yig'ib, zarur xulosalar va o'rganilayotgan ijtimoiy muammo xususida zarur takliflar va tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, ularni hayotga, amaliyotga tadbqiq qilish esa jamoat tashkilotlari, ma'muriyatning ishi deb hisoblaydilar. Bunday qarash ilmiy ma'lumotlar va ularni boshqaruvdagi yechimi o'rtasida uzilishga olib keladi. Bizningcha, har ikki bosqich yagona ilmiy-amaliy dastur asosida bo'lmog'i maqsadga muvofiq.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbqiq etishning turli shakllari va usullari mavjud:

1. Uning muhim shakllaridan biri, olib borilgan tadqiqot natijalarini mavjud rahbariyat pog'onasi (ma'muriyat, kasaba uyushmasi, bo'linma va boshqalar) va tadqiqot guruhlar (masalan, ishchi brigadasi, talabalar guruhi kabilari) oldida himoya qilish.

2. Yana bir shakli, tadqiqot natijalarini kitob shaklida, uslubiy qo'llanma, maqolalar to'plamida va matbuotda nashr etish.

3. Sotsiologik tadqiqot natijalari bo'yicha olimlarning radio va televideniya chiqishlari ham o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

4. Ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, simpoziumlar tashkil etish va o'tkazish kabi shakllari ham muhim ahamiyatga ega.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanishda sotsial-psixologik markazlar faoliyatining ahamiyati katta. Afsuski, bunday markazlar bizning respublikamizda juda kam. Har bir viloyat, shahar va tuman hokimliklari qoshida shunday markazlar tashkil qilinsa, jamiyatimiz infrastrukturasidagi mavjud muammolarning hal qilib borilishida jiddiy o'zgarishlar yuz berishi aniq.

Hozirda amaliy sotsiologiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi aniq amaliy vazifalarni, mavjud ijtimoiy muammolarni yechish bilan bog'liq. Ammo, shuni ko'rsatib o'tish joizki, hozirgacha bizda bunga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Sotsiologiya fanining jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-amaliy roli juda past darajada. AQSh va Evropa mamlakatlarida keng rivojlangan «ijtimoiy muhandislik» kontsepsiyasini birinchi bor ishlab chiqqan ingliz faylasufi va sotsiologi **Karl Popper** fikricha, «ijtimoiy muhandislik» inson faoliyati va jamiyat hayotini oqilona asosda ta'mirlash demakdir. Ijtimoiy hayot muammolari «muhandislik» faoliyatining natijasidagina to'g'ri hal qilinishi mumkin. «Ijtimoiy muhandislik»ning asosiy vazifasi ham shundan iboratdir.

Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining mukammallashuvi hozirgi sharoitlarda ta'lim tizimi axborotlarini qayta ishlab, tahlil qilib, yig'ish tizimini, ya'ni «sotsiologik monitoring» ni yaratishni talab qiladi.

Bu tizim professor-muallimlik tarkibini, talaba yoshlar, hisoblash matematikasini, zamonaviy hisoblash texnikasini va ijtimoiy masalalarni hal qila olish imkoniyatini hisobga olgan holda yaratiladi.

Monitoring – bu sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, sotsiologik jarayonlar haqidagi axborotlardan doimiy foydalanishni ta'minlovchi tizimdir.

Sotsiologik amaliyotga tushuncha ekologiyadan kirib kelgan. Ekologik tadqiqotlarda u atrof-muhitni uzluksiz nazorat qilishni bildiradi.

Sotsiologik monitoring boshqaruv jarayonining sotsiologik ta'minotini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar uyushtirilganda odatda ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi zarurroq ko'rsatkichlar aniqlanadi. So'ngra takroriy tadqiqotlar usuli bilan me'yoriy va asosiy ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda uzluksiz ravishda dinamik axborotni yig'ib tahlil qilishni ta'minlaydigan sotsiologik o'lchovlar olib boriladi.

Tadqiq qilinayotgan tashkilotning bunga xos ko'rinishi nafaqat jamiyat va kuzatilayotgan ob'yekt hayotining turli sohalari haqida haqqoniy axborot olishni, ta'minlaydi, balki jamiyat jarayonlari munosabatlari va qonuniyatini ochib ham beradi.

Voqealarning rivojlanish munosabati doimiy nazoratda va ob'yektning zarur parametrlari o'zgartirilganda, katta axborot jadvali to'planganda katta monitoring

turiga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga talab yuzaga keladi. Bunday monitoring tizimlarga avval meteorologiya va seysmologiyada duch kelindi.

Hozirgi vaqtda bunday tizimlar statistika, bank ishi, birja, kosmonavtika, mudofaa, ishlab chiqarishda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Sotsiologiyaga monitoring tadqiqotlari usulbiyoti va amaliyoti ekologiyadan o'tdi. Dinamikaning monitoring tadqiqotlarida va ekologik holatlarda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar ustida kuzatishlar olib borildi. Bunda tizimlarni barcha komponentlari haqida ma'lumotlar jamlamasi yaratildi. Bizning respublikamizda bunday tadqiqotlar Orol bo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar munosabati bilan 90-yillarning boshlarida katta ko'lamda olib borildi. Katta hajmdagi ma'lumotlar jamlamasi yig'ildi.

Sotsiologik Tadqiqotlar Markazi ham 1989-92 yillarda Orol bo'yi ekologik tangligi oqibatlarini o'rganishda qatnashdi.

Monitoring yaratishdagi ishlar qo'llanilmagan bo'lsada, monitoring o'lchovlar yaratish g'oyalari fundamental sotsiologik tadqiqotlar olib borilayotganda paydo bo'ldi.

Sotsiologik tadqiqotlarga monitoring turi bo'yicha jamoat fikrini dinamik o'rganish ham kirdi. Monitoring qo'llovchi bo'lib Gellap Instituti hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida ham asosan monitoring turi qo'llanilmoqda. **Rossiyada sotsiologik tadqiqotlarning koordinatsion markazi akademik T.I.Zaslavskaya boshchiligidagi** Rossiya Sotsiologiya Markazi sanaladi. 1994 yildan beri Moskvada turli ijtimoiy muammolar bo'yicha natijalar e'lon qiluvchi «Monitoring axborot byulleteni» nashr qilib kelinmoqda.

Ba'zi rivojlangan davlatlarda va MDHda ta'lim sohalarida monitoringni yaratish va qo'llash bo'yicha qiziq natijalar olindi.

Bizning mamlakatimizda ham mustaqil bo'lganimizdan so'ng sotsiologik monitoring yaratish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Xususan, O'zMU sotsiologik markazi va Oliy ta'lim vazirligi tomonidan Oliy ta'lim monitoringining uslubiy asosini yaratish yo'lida ishlar olib borildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim monitoringi tizimining umumiy masalalari tizim struktura va funksiyalari bilan mos ravishda aniqlanadi.

Tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hisobotlar tayyorlash

Ma'lumotlarning tahlil bosqichi o'rganilayotgan obyekt haqida olingan axborotni shu obyekt haqida oldindan mavjud bo'lgan axborot bilan solishtirishdan iboratdir. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil etish bosqichining ma'nosi va maqsadi natijalarning ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdir. Shuning uchun tahlil natijasida hosil bo'ladigan hisobot, birinchidan, o'rganilayotgan ijti-moiy obyektning miqdoriy parametrlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi, ikkinchidan, uning rivojlanish sur'atlarini va yo'nalishlarini (o'sish yoki pasayish) ko'rsatishi, uchinchidan, ijtimoiy hodisalar orasidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ishonchli ko'rsatkichlar yordamida ochib berishi kerak. Yana shuni ta'kidlash zarurki, ishlov berish va matematik tahlil qilish bosqichidan keyin ma'lumotlari o'rtacha qiymatlari hosil bo'ladi, ular umumiy tasnif etilib, tadqiq etilayotgan obyektning xilma-xil element-larini yaxlit tizimda ifodalaydi. To'plangan empirik axborotlarni to'g'ri izohlash va ma'lumotlar mantig'iga mos xulosa va tavsiyalarni shakllantirish tadqiqotchidan katta aql hamda ilmiy-nazariy qobiliyatni talab etadi.

Sotsiologik tadqiqotning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy-uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, tashkilotlar ma'muriyati, ma'muriy va ma'rifiy sohalarda ishlovchi shaxslar, so'raluvchilarning o'zlari) ishtirokida amalga oshiriladi. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidagi ayrim bosqichlarni ajratib tavsif-lashga harakat qilamiz.

Birinchisi – tadqiqot gipotezalariga mos va muvofiq hosil qilingan empirik ma'lumotlarni tartibga solish, guruhlariga ajratish, tasniflashdir. Bu bosqichda tadqiq etiluvchi hodisalarning miqdoriy tasniflari tadqiqot tomonidan qamrab olinadigan, obyektlar tez-tez takrorlanishi empirik ma'lumotlarni statistik guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Ijtimoiy axborotlardagi ma'lumotlar hamda sotsiologik tadqiqotlarning vazifalari va maqsadlari xilma-xilligini inobatga olib, har xil guruhlariga ajratish usullarini qo'llash mumkin. Guruhlarga ajratishning eng sodda ko'rinishlaridan biri – tipologik qurilmalar, ya'ni kuzatiluvchi birliklarni biron bir alomat bo'yicha maxsus sinchiklab o'rganishdir (masalan, yoshi, jinsi va h.k.). Hozirgi paytda EHMDan foydalanish natijasida bu usulning imkoniyatlari ancha kengaydi. O'zgaruvchilarning tipologiyasini amalga oshirish va barqaror guruhlarni ajratib olish uchun faktorli, dispersion tahlil usullari qo'llanilayapti.

Interpretatsiya va tahlilning ikkinchi bosqichi – sonli tasniflarning ishonchliligini va o'rtacha qiymat xolisligini tekshirish, ma'lumotlarni umumlashtirishdir. Bu bosqichda turli tasodifiy tasnifga ega bo'lgan axbo-rotlar bir-biridan ajratib olinadi.

Uchinchi bosqichda hosil qilingan sonli tavsif orqali mavjud bo'lgan tadqiqotning gipotezalari tekshiriladi. Taxmin (gipoteza) deganda biror-bir dalil, hodisa va jarayonni tushuntirib (yoki rad etiladi, yoki qabul qilinadi) beradigan ilmiy mulohazani tushuniladi.

Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilishga va o'tkazilishiga katta sarf-xarajatlar ketishi tufayli o'rganilayotgan muaammoni iloji boricha to'laroq qamrab oladigan bir nechta gipoteza ilgari suriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyliigi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi ko'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o'rganilayotgan obyektning zaruriy, muhim jihat va xossalarini ajratib berishga intilishi kerak.

Gipotezalarni empirik sinashning eng yaxshi usullaridan biri *sotsiologik eksperiment*dir. U gipotezalarni sinash usullaridan eng ishonchlisi bo'lsada, o'rganilayotgan subyektlar orasidagi bog'lanishlar murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli hozirgi paytda kam ishlatiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri statistik usuldir. Gipotezalarning ishonchliligini aniqlashning tipik usuli sifatida miqdorlarning

o'rtacha qiymatlarini hisoblash, o'zaro bog'liq koeffitsiyentlarni aniqlash va h.k. ni ko'rsatib o'tish mumkin.

Ilmiy hisobotni tuzish. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlariga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotni tayyorlashda shuni esda tutish kerakki, u keyinchalik nazariy ishlarni davom ettirishga asos bo'lishi va ijtimoiy boshqaruv amaliyotida sotsiologik tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi mohiyat va shaklga ega bo'lishi kerak. Hisobotga izohlovchi xat kiritilishi ilmiy taomilga kirgan bo'lib, unda qisqacha asosiy xulosalar va natijalar keltiriladi.

Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalar, blanklar, test va boshqalar keltiriladi.

Hisobotning bo'limlari. Hisobotning tarkibi tadqiqotning turiga, nazariy yoki amaliy ekanligiga bog'liqdir.

Dastavval hisobot tuzilayotganda muammoning qo'yilishi, tadqiq etiluvchi masalalarning ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy interpretatsiyasi, muammoning qay darajada o'rganilganligi va uning yechimiga e'tibor beriladi. Alohida e'tiborni tadqiqotning uslublar tasnifiga, tanlovning tuzilishini, axborotlarni yig'ish tartiblariga ajratish kerak. Oxirida alohida bo'lim orqali o'tkazilgan tadqiqot natijalarining har tomonlama tahlili va qo'yilgan masalalarning yechim darajasi tasniflanadi. Bu bo'limning oxirida tadqiqotning mavjud bo'lgan amaliy natijalari ko'rsatiladi va aniq xulosalar shakllanadi, yangi axborotni olish zarurligi aniqlanadi va uni hosil qilish uchun texnikaviy uslubiy tavsiyalar beriladi.

Ikkinchidan, hisobotning har bir bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismning o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur. Birinchi qismda muammolar va natijalarni, ikkinchi qismda esa xulosalarni chuqur ilmiy asoslab berishi shart. Bu esa, tadqiqotchini hozirgi ahvolni sharhlash va umumlashtirishdan tashqari, uni tahlil va prognoz qilishga undaydi.

Uchinchidan, hisobot so'rovnomadagi savollar ketma-ketligidan mustasno, respondentlarning sotsial-ruhiy portreti, intellektual imkoniyatlari, voqelikka munosabati umumiy manzarasining ifodasidan iborat bo'lishi kerak. Hisobotda

so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalari ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etib beriladi.

To'rtinchidan, hisobotning texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to'g'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega. Ko'pi bilan hisobot (ilovasiz) 50-60 betdan iborat bo'lganligi ma'qul. Hisobotga doir tushuntirish xati 10 betgacha bo'lishi mumkin. Hisobotda tadqiqot ishlariga jalb etilgan barcha tashkilotlar, o'tkazilish muddati va joylari, tadqiqot uslubiyoti bo'yicha ko'rsatma beruvchilarni tayyorlashning tartibi va tarkibi, ma'lumotlar yig'ishning takomillashtirilishi, axborotlarni kodlashtirish uchun ishlatilgan tizim va matematik ishlov berishda qo'llanilgan usullar ko'rsatilishi lozim. Jadvallar keragidan ortiqcha raqamlarga ega bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari, hisobot yozish jarayonida buyurtmachiga tadqiqotning eng muhim natijalari bo'yicha tezkor axborotlarni ekspresrevyu ko'rinishida topshirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish.
2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish.
3. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil.
4. Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish.
5. Tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hisobotlar tayyorlash.

4.4. Harbiy sotsiologik tadqiqotlar sotsiologik tadqiqotlarning turi sifatida. Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish metodikasi

Reja:

1. Harbiy-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tashkillashtirish.
2. Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish metodikasi
3. Tadqiqot o'tkazish bo'yicha hisobot turlari va tuzilishi.

Tayanch iboralar: harbiy-sotsiologik tadqiqotlar, amaliy operativ, miqdoriy va sifatiy metodlar, original, harbiy-ijtimoiy, tashkilot, protsedural, tahlil, ob'ekt, predmet, dastur.

Jamiyatning hayotiy faoliyatining harbiy-ijtimoiy sohasida taqdim qilingan harbiy-ijtimoiy reallikning tadqiqot qilinishi aniq operatsiyalar, protseduralar va bilishga oid vositalarning mavjudligi va qo'llanilishi zarurligi bilan shartlanadi.

Harbiy sotsiologiya arsenalida (xazinasida) mazkur vosita bo'lib harbiy-sotsiologik tadqiqotlar hisoblanadi.

U predmetli o'ziga xoslikka ega, ya'ni individlar va individlar guruhlarining ijtimoiy o'zaro munosabatlarini (hamkorligini) o'rganish predmeti bo'lib. Mazkur holatda nazarda tutilmoqda: harbiy-ijtimoiy reallik, jamiyat hayotiy faoliyatining harbiy-ijtimoiy sohasi, harbiy-ijtimoiy umumiylik, harbiy xizmat ko'rsatish (usluga) va harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatchilar guruhi bilan bog'liq bo'lgan boshqa harbiy-ijtimoiy jarayonlar va xodisalar.

Olinadigan sotsiologik bilimning mazmuni bo'yicha ular *fundamental* va *amaliyga* (aniq, operativ) bo'linadi.

Birinchi guruhni tadqiqot qilishning eng ko'p ifoda qilingan xususiyatlari qatoriga quyidagilar qarashli:

1) harbiy-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tashkillashtirish protseduralarining muhim roli. U shartlangan – harbiy xizmat tizimining o'ziga xosligi va harbiy xizmatchilarning hayotiy faoliyatining tartibi (turmush-tarzi), uni yuqori darajadagi reglamentlashtirish (aniq ish tartibi) bilan;

2) sotsiologik so'rov metodining boshqa empirik ma'lumotni yig'ish metodidan ustun turishi;

3) miqdoriy va sifatiy metodlarini kombinatsiyalash (birga qo'shish) va integratsiyalash (yahlit holga keltirish);

4) original (o'ziga xos) bilishga oid metodikalarni ishlab chiqish. Harbiy jamoada (tashkilotda, muassasada) yuzaga keladigan vaziyat (holat)lar harbiy sotsiologiya sohasida tadqiqotchilar tomonidan salbiy holatlar va moyilliklarni kamaytirish va bartaraf qilish maqsadida, harbiy sotsiologiya sohasida aktual

(muhim) harbiy-ijtimoiy jarayonlarni va hodisalarni (holatlarni) sotsiologik o'rganish metodikalari paketini yaratishni talab qiladi;

5) harbiy-ijtimoiy hayotiy-faoliyat sub'ektlarining yashash sharoitlari va ishlashi (qayta ishlashi) to'g'risidagi empirik ma'lumotlarning olinishini ta'minlaydigan metodlarning obro'si va rolining oshishi. Salbiy tendensiyalarni oldini olish va davlat, harbiy boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijtimoiy oqibatlarining bashorat qilinishi barcha toifadagi harbiy xizmatchilar orasida qonuniylikni va ijrochilikni ushlab turishni, davlatga sodiqlikni va uning siyosatiga to'g'ri yondashishni ta'minlaydi;

6) harbiy-sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlari ustidan ishlash va tahlil qilish jarayonlarini informatizatsiyalash. Informatsion texnologiyalar nafaqat harbiy tashkilotning ishlashiga o'zgartirishlar kiritadi, balki harbiy-sotsiologik ma'lumotni olish, uning mazmunini o'zgartirish hamda yig'ish, saqlash va u bilan almashish manbai hisoblanadi;


7) harbiy sotsiologiyaning metodik arsenaliga tadqiqotning yangi metodlari va protseduralarini kiritish.

Mazkur nazariy-amaliy harbiy-sotsiologik tadqiqotning mazmuni, mohiyati, va tuzilishiga oid xususiyatlarning tushunilishi hal qilinadigan vazifalarni aniqlashga (belgilashga) imkon beradi (rasm 2).

Operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlar – bu amaliy harbiy-sotsiologik tadqiqotlarning o'ziga xos sinfi bo'lib, davlat va harbiy boshqaruv organlari uchun qiziqish uyg'otadigan harbiy tashkilotning (jamoaning) ijtimoiy hayotiy faoliyati jarayonlari va hodisalari to'g'risidagi ishonchli ma'lumotni qisqa muddat (bir necha kundan bir oyga qadar) ichida olish maqsadida amalga oshiriladi.

O'zining tuzilishi hamda tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi bo'yicha ular oddiy sotsiologik tadqiqotlardan xech qanday farq qilmaydi, faqat tadqiqotning nazariy-metodologik va protsedurali-tashkiliy bosqichma-bosqichli operatsiyalari va harakatlarini amalga oshirish muddatlari vaqtining maksimal tig'izligini (qisqaligini) inobatga olishdan tashqari.

O‘xshashlikni olsak, qanday tajribali vrach bemorning kasalligini arzimagan, bazo‘r bilinadigan alomatlar bo‘yicha aniqlay olsa, shunday tajribali sotsiolog (tadqiqotchi) ham standartli tadqiqotchilik protseduralar va operatsiyalarni minimal darajada qisqartirgan holda ijtimoiy ob‘ektning yashirin salbiy holatlarini va belgilanadigan funksional qarama-qarshiliklarni aniqlay oladi.



Rasm 2. Nazariy-amaliy harbiy-sotsiologik tadqiqotning mantiqiy tuzilishi.

Sotsiologik ilmda bunday tadqiqotlarni tekshiruv (taftish qilish) ham deb nomlash nuqtai nazari mavjud. Harbiy-sotsiologik tekshiruvni tashkillashtirish

vaqtida tanlab olishdan foydalanish mumkin, ya'ni xulosalar ma'lum darajada aniqlik bilan tanlab olish majmuidan son jihatdan ko'p bo'lgan boshqa harbiy xizmatchilar toifalariga ko'chib o'ta olish imkoni bo'lishi lozim.

Tekshiruvlarning maqsadi tavsiflash (ta'riflash) yoki dastlabki tahlil qilish bo'lishi mumkin. Agarda tavsifli tekshiruvlarda olingan ma'lumotlar, eng asosiysi, foizli ta'rif ko'rinishda (taqdim etiladiganni jadval ko'rinishida) tahlil qilinsa, u holda farazlar nazariyasini tekshirish uchun ko'p o'lchamli tahlil qilishning har xil metodlaridan foydalaniladi yoki sababli modellashtirish qo'llaniladi.

Amaliy, konkret (aniq), operativ xarakterga ega bo'lgan harbiy-sotsiologik tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda belgilanadi:

1) konkret harbiy-sotsiologik muammolarni bevosita tezkor hal qilishga ko'proq qaratilgan tadqiqotning maqsadlari bilan;

2) tadqiqot sub'ekti bilan, ya'ni uni o'tkazish uchun harbiy-ijtimoiy boshqaruv organi roliga chiqadigan tashabbuskor (buyurtmachi) tomonidan, ular o'z navbatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammo yoki qarama-qarshiliklarni sotsiologik o'rganishga bevosita manfaatdor (qiziquvchi);

3) tadqiqot natijalari, qaysinisi:

- bir tomondan, harbiy-ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi vaqtida o'zaro munosabatlar (aloqalar) va tendensiyalarni (mayllik, yo'nalishlar, g'oyalari, fikrlar) topishdan (aniqlashdan), harbiy tashkilot (jamo)ning har xil darajasida va uning ijtimoiy hayotiy faoliyati sohalarida normal (mo'tadil) ishlashi va rivojlanishiga yordam beradigan yoki qarshilik qiladigan ijtimoiy sharoitlarni baholashdan iborat;

- boshqa tomondan, ilgari ketish xarakteriga ega, yanada ko'proq asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan ijtimoiy qonuniylikni chuqur tushunishni mo'ljallaydi;

4) amaliy yo'naltirilganligi bilan. Nafaqat ijtimoiy muammolar yoki ularni hal qilish qarama-qarshiliklarini diagnostika qilinishi amalga oshiriladi, balkim "joyda, shu yerda, hozir" prinsipi bo'yicha ularni qat'iy qayd qilingan makonli-vaqtli o'choqli tarqalishiga yo'l qo'yilmasligi ham amalga oshiriladi, ya'ni ijtimoiy

yangiliklar (yangi kiritilgan tartib-qoida) amaliyotiga darhol kiritiladigan boshqaruv qarorlarni ishlab chiqish.

Mazkur turdagi harbiy-sotsiologik tadqiqotlar mohiyatini tushunish borasidagi ko'rib chiqilgan nuqtai nazar, ularning *o'ziga xos hususiyatlarini* belgilaydi:

1) tadqiqot ob'ekting predmetli sohasining xiraligi (noaniqligi), chunki u umumiy ijtimoiy vaziyat (holat)ga va muhim muammolar xarakteriga yoki sub'ektda va boshqaruv ob'ektida hamda ularning o'zaro ijtimoiy munosabatida (xatti-harakatlarida) yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarga bog'liq;

2) tadqiqot o'tkazishga vaqtning cheklanganligi, empirik ma'lumotlarni va sotsiologik tahlilni detallashtirishga (batafsil tekshirishga) imkon bermaydi, bu esa isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, farazni muhimlashtiradi: ishonchli ma'lumotning kichik hajmi shubhali xabar (ma'lumot)larning ko'p hajmidan ko'ra ko'proq foydaliroq;

3) o'xshash ijtimoiy muammolarni sotsiologik o'rganishning oldin ishlab chiqilgan metodikalarini (va ular turlanishini) tadqiqotning metodologik va uslubiy asosi sifatida foydalanish;

4) tadqiqotning amaliy yo'nalishi darajasini bir vaqtda ko'paytirish davomida ilmiylik (nazariy tushunib yetilishiga va tushuntirilishiga) darajasining kamaytirilishi, xarakterning sotsiologik sharhlanishi talablarining qattiqqligi bilan kompensatsiya (o'rnini to'ldiradi) qilinadi va o'rganiladigan ijtimoiy muammolar yoki qarama-qarshiliklarning yo'naltirilganligi bilan;

5) tadqiqotchilik faoliyatining harakat tartibi va bosqichlari birinchi navbatda dastlabki sotsiologik ma'lumotni amaliy foydalanish mantiqi bilan belgilanadi, ya'ni harbiy-ijtimoiy boshqaruv organlari tomonidan boshqaruvga oid qarorlari qabul qilish uchun;

6) tadqiqotning yakuniy (natijali) hujjati sifatida tushuntiruvchi (izohli) xat yoki hisobot hisoblanadi, uning mazmuni quyidagicha:

- ob'ekt holati va aniqlangan o'zaro aloqa (munosabat)lar to'g'risidagi minimum (eng kam miqdorda) ma'lumotlar;

- harbiy-ijtimoiy boshqaruv organlariga taklif qilinadigan qarorlar, takliflar va tavsiyalarni amalga oshirish usullari to'g'risida maksimum (eng ko'proq) ma'lumotlar.

Harbiy-sotsiologik operativ tadqiqotlar (tekshiruvlar) – bu samarali tadqiqotchilik faoliyatini hamda belgilangan vazifalarni sifatli hal qilishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar kompleksidir.

Tadqiqotchilik guruhining tashkiliy-shtatli tuzilishi uchta o'zaro bog'liq bo'linmalar bilan taqdim etilgan:

- 1) nazariy kichik guruh, uni sotsiolog-professionallar, tadqiqotchilar tashkil etadi;
- 2) ekspertli guruh, buning tarkibiga tadqiqot qilinadigan (o'rganiladigan) obektga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita aloqasi bo'lgan mutaxassislar kiradi;
- 3) dala guruhi, bunga dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ishni ta'minlovchi, birlashtirilgan ijrochilar kiradi.

Tadqiqotning samarali o'tkazilishi, ularning konstruktiv va o'zaro yaqin hamkorligi bilan shartlanadi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ishning turtta usulidan (so'rov, kuzatuv, hujjatlarni o'rganish va ijtimoiy eksperiment) operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarda, odatda, so'rov qo'llaniladi va intervyudan ko'ra ko'proq anketali so'rovdan foydalaniladi.

Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotni o'tkazish metodikasi – bu metodlarda qo'llash pretседuralarini ko'rsatuvchi operatsiyalar va ko'rsatmalar tizimi bo'lib, harbiy-ijtimoiy reallik to'g'risidagi validli, relevantli va reprezentativ sotsiologik ma'lumotlarni olish sharoitlarini ta'minlaydi

Shunday qilib, **harbiy-sotsiologik tadqiqot** – bu ijtimoiy tadqiqotlarning turi bo'lib, empirik ma'lumotlarni yig'ish va ishlab chiqish metodlari, shuningdek, sotsiologik ma'lumotni tahlil va bayon qilish asosida, harbiy tashkilotning (jamoaning) ko'p darajali hayotiy faoliyatining har xil sohasidagi ijtimoiy jihatlari, fuqarolar, harbiy xizmatchilar va harbiy ijtimoiy guruhlarining (urushdagi va harbiy

xizmat) faoliyatida, vaj-sabablarida va munosabatlarida namoyon bo‘ladigan harbiy-ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o‘rganadi.

Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish metodikasi

Harbiy-sotsiologik tadqiqotlar tomonidan harbiy voqelikning aniq ijtimoiy hodisalari va jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha hal qilinadigan nazariy va empirik vazifalari, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati uchun vaqtning va moddiy vositalarning mavjudligini ko‘zlaydi. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish tajribasi vaqt sarflanishini hisoblash (nisbatan birlikda) metodikasiga asos qilib olingan (jadval 2).

Jadval 2

Harbiy-sotsiologik tadqiqot bosqichlari va uni o‘tkazish uchun vaqt byudjetining o‘zaro nisbati

Bosqichlar	Tavsiflar (tadbirlar)	Vaqt sarfi, %
I	Tadqiqotning axborotli ta’minoti	30 gacha
	1. Dasturning metodologik bo‘limi:	
	1.1. Sotsiologik tadqiqot muammosi.	
	1.2. Tadqiqot muammosining ilmiy ishlab chiqish darajasi.	
	1.3. Tadqiqotning ob’ekti va predmeti.	
	1.4. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.	
	1.5. Tadqiqot ob’ektini dastlabki tizimli tahlil qilish	
	1.6. Asosiy tushunchani mantiqiy tahlil qilish.	
	1.7. Tadqiqotning farazlari.	
	2. Dasturning protsedurali bo‘limi:	
	2.1. Harbiy-sotsiologik tadqiqotni o‘tkazish rejasi (prinsipial, metodik, tashkiliy).	
	2.2. Empirik ma’lumotlar yig‘ishning asosiy	

	metodlari va protseduralari.	
	2.3. Anketaning mantiqiy tuzilishi.	
	2.4. Tanlab olish majmui hajmini aniqlash algoritmi.	
	2.5. Tadqiqot ma'lumotlari bilan ishlash va ularni tahlil qilish algoritmi.	
	2.6. Ma'lumotni EVMda ishlov berishning mantiqiy chizmalari.	
	2.7. Tadqiqotning oldinga surilgan farazlarini isbotlash algoritmi.	
II	Ijtimoiy ob'ekt to'g'risida empirik ma'lumotlarni yig'ish	10 gacha
III	Ma'lumotlarni ishlovga tayyorlash va ular bilan ishlash. Dastlabki sotsiologik ma'lumotni olish.	10 gacha
IV	Natijalarni tahlil qilish va farazlarni tekshirish	25 gacha
V	Hisobot: adabiy-matnli rasmiylashtirish	5 gacha
VI	Joriy qilish: a) ijtimoiy texnologiyalardan amaliy foydalanish; b) tadqiqot ob'ektining ishlashini va rivojlanishini optimallashtirish (qulaylashtirish).	20 gacha

Tahlil qilish vaqtida ko'rib chiqilgan dasturni ishlab chiqish metodikalari, sotsiologik tadqiqotning bosqichli protsedurali operatsiyalari, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida ko'p mehnat talab qilishini guvohlantiradi, bu esa bir oydan kam bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Biroq, amaliyotda tez-tez shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, ijtimoiy ob'ektning hozirgi real holatini bilish lozim bo'ladi, qisqa (chegaralangan) vaqt ichida uning umuman tezkor suratiga ega bo'lish zarur bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, operativ sotsiologik tadqiqotlar

(shu jumladan harbiy-sotsiologik) o'tkazishga boshqarmaning talabi (zarurati) paydo bo'ladi.

Operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlar – bu amaliy harbiy-sotsiologik tadqiqotlarning o'ziga xos sinfi bo'lib, davlat va harbiy boshqaruv organlari uchun qiziqish uyg'otadigan harbiy tashkilotning (jamoaning) ijtimoiy hayotiy faoliyati jarayonlari va hodisalari to'g'risidagi ishonchli ma'lumotni qisqa muddat (bir necha kundan bir oyga qadar) ichida olish maqsadida amalga oshiriladi.

O'zining tuzilishi hamda tashkillashtirish va o'tkazish metodikasi bo'yicha ular oddiy sotsiologik tadqiqotlardan xech qanday farq qilmaydi, faqat tadqiqotning nazariy-metodologik va protsedurali-tashkiliy bosqichma-bosqichli operatsiyalari va harakatlarini amalga oshirish muddatlari vaqtining maksimal tig'izligini (qisqaligini) inobatga olishdan tashqari.

O'xshashlikni olsak, qanday tajribali vrach bemorning kasalligini arzimagan, bazo'r bilinadigan alomatlar bo'yicha aniqlay olsa, shunday tajribali sotsiolog (tadqiqotchi) ham standartli tadqiqotchilik protseduralar va operatsiyalarni minimal darajada qisqartirgan holda ijtimoiy ob'ektning yashirin salbiy holatlarini va belgilanadigan funksional qarama-qarshiliklarni aniqlay oladi.

Sotsiologik ilmda bunday tadqiqotlarni tekshiruv (taftish qilish) ham deb nomlash nuqtai nazari mavjud. Harbiy-sotsiologik tekshiruvni tashkillashtirish vaqtida tanlab olishdan foydalanish mumkin, ya'ni xulosalar ma'lum darajada aniqlik bilan tanlab olish majmuidan son jihatdan ko'p bo'lgan boshqa harbiy xizmatchilar toifalariga ko'chib o'ta olish imkoni bo'lishi lozim.

Tekshiruvlarning maqsadi tavsiflash (ta'riflash) yoki dastlabki tahlil qilish bo'lishi mumkin. Agarda tavsifli tekshiruvlarda olingan ma'lumotlar, eng asosiysi, foizli ta'rif ko'rinishda (taqdim etiladiganni jadval ko'rinishida) tahlil qilinsa, u holda farazlar nazariyasini tekshirish uchun ko'p o'lchamli tahlil qilishning har xil metodlaridan foydalaniladi yoki sababli modellashtirish qo'llaniladi.

Amaliy, konkret (aniq), operativ xarakterga ega bo'lgan harbiy-sotsiologik tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda belgilanadi:

1) konkret harbiy-sotsiologik muammolarni bevosita tezkor hal qilishga ko‘proq qaratilgan tadqiqotning maqsadlari bilan;

2) tadqiqot sub’ekti bilan, ya’ni uni o‘tkazish uchun harbiy-ijtimoiy boshqaruv organi rolida chiqadigan tashabbuskor (buyurtmachi) tomonidan, ular o‘z navbatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammo yoki qarama-qarshiliklarni sotsiologik o‘rganishga bevosita manfaatdor (qiziquvchi);

3) tadqiqot natijalari, qaysinisi:

- bir tomondan, harbiy-ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi vaqtida o‘zaro munosabatlar (aloqalar) va tendensiyalarni (mayllik, yo‘nalishlar, g‘oyalar, fikrlar) topishdan (aniqlashdan), harbiy tashkilot (jamo)ning har xil darajasida va uning ijtimoiy hayotiy faoliyati sohalarida normal (mo‘‘tadil) ishlashi va rivojlanishiga yordam beradigan yoki qarshilik qiladigan ijtimoiy sharoitlarni baholashdan iborat;

- boshqa tomondan, ilgari ketish xarakteriga ega, yanada ko‘proq asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan ijtimoiy qonuniylikni chuqur tushunishni mo‘ljallaydi;

4) amaliy yo‘naltirilganligi bilan. Nafaqat ijtimoiy muammolar yoki ularni hal qilish qarama-qarshiliklarini diagnostika qilinishi amalga oshiriladi, balkim “joyda, shu erda, hozir” prinsipi bo‘yicha ularni qat’iy qayd qilingan makonli-vaqtli o‘choqli tarqalishiga yo‘l qo‘yilmasligi ham amalga oshiriladi, ya’ni ijtimoiy yangiliklar (yangi kiritilgan tartib-qoida) amaliyotiga darhol kiritiladigan boshqaruv qarorlarni ishlab chiqish.

Mazkur turdagi harbiy-sotsiologik tadqiqotlar mohiyatini tushunish borasidagi ko‘rib chiqilgan nuqtai nazar, ularning *o‘ziga xos hususiyatlarini* belgilaydi:

1) tadqiqot ob’ekti predmetli sohasining xiraligi (noaniqligi), chunki u umumiy ijtimoiy vaziyat (holat)ga va muhim muammolar xarakteriga yoki sub’ektda va boshqaruv ob’ektida hamda ularning o‘zaro ijtimoiy munosabatida (xatti-harakatlarida) yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarga bog‘liq;

2) tadqiqot o‘tkazishga vaqtning cheklanganligi, empirik ma’lumotlarni va sotsiologik tahlilni detallashtirishga (batafsil tekshirishga) imkon bermaydi, bu esa

isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, farazni muhimlashtiradi: ishonchli ma'lumotning kichik hajmi shubhali xabar (ma'lumot)larning ko'p hajmidan ko'ra ko'proq foydaliroq;

3) o'xshash ijtimoiy muammolarni sotsiologik o'rganishning oldin ishlab chiqilgan metodikalarini (va ular turlanishini) tadqiqotning metodologik va uslubiy asosi sifatida foydalanish;

4) tadqiqotning amaliy yo'nalishi darajasini bir vaqtda ko'paytirish davomida ilmiylik (nazariy tushunib etilishiga va tushuntirilishiga) darajasining kamaytirilishi, xarakterning sotsiologik sharhlanishi talablarining qattiqligi bilan kompensatsiya (o'rnini to'ldiradi) qilinadi va o'rganiladigan ijtimoiy muammolar yoki qarama-qarshiliklarning yo'naltirilganligi bilan;

5) tadqiqotchilik faoliyatining harakat tartibi va bosqichlari birinchi navbatda dastlabki sotsiologik ma'lumotni amaliy foydalanish mantiqi bilan belgilanadi, ya'ni harbiy-ijtimoiy boshqaruv organlari tomonidan boshqaruvga oid qarorlari qabul qilish uchun;

6) tadqiqotning yakuniy (natijali) hujjati sifatida tushuntiruvchi (izohli) xat yoki hisobot hisoblanadi, uning mazmuni quyidagicha:

- ob'ekt holati va aniqlangan o'zaro aloqa (munosabat)lar to'g'risidagi minimum (eng kam miqdorda) ma'lumotlar;

- harbiy-ijtimoiy boshqaruv organlariga taklif qilinadigan qarorlar, takliflar va tavsiyalarni amalga oshirish usullari to'g'risida maksimum (eng ko'proq) ma'lumotlar.

Harbiy-sotsiologik operativ tadqiqotlar (tekshiruvlar) – bu samarali tadqiqotchilik faoliyatini hamda belgilangan vazifalarni sifatli hal qilishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar kompleksidir.

Tadqiqotchilik guruhining tashkiliy-shtatli tuzilishi uchta o'zaro bog'liq bo'linmalar bilan taqdim etilgan:

1) nazariy kichik guruh, uni sotsiolog-professionallar, tadqiqotchilar tashkil etadi;

2) ekspertli guruh, buning tarkibiga tadqiqot qilinadigan (o'rganiladigan) obektga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita aloqasi bo'lgan mutaxassislar kiradi;

3) dala guruhi, bunga dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ishni ta'minlovchi, birlashtirilgan ijrochilar kiradi.

Tadqiqotning samarali o'tkazilishi, ularning konstruktiv va o'zaro yaqin hamkorligi bilan shartlanadi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ishning turtta usulidan (so'rov, kuzatuv, hujjatlarni o'rganish va ijtimoiy eksperiment) operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarda, odatda, so'rov qo'llaniladi va intervyudan ko'ra ko'proq anketali so'rovdan foydalaniladi.

Shuni muhim inobatga olish kerakki, odamning psixofiziologik xususiyatlari tadqiqot qilinganda, odam tomonidan aqliy faoliyat amalga oshirilganda eksperimental yo'li bilan quyidagi chegaralar belgilangan:

- anketa 13-16ta savoldan tuzilganda respondentning faollik darajasi maksimalga etgan (eng yuksak darajaga);

- 17-chi savoldan so'ng va 22-chiga (qo'shib) qadar respondentning faollik darajasi sezilarli pasayishni boshlagan;

- 23-dan 31-chi savolga qadar u chegarali xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy ob'ekt to'g'risida yig'iladigan empirik ma'lumotni etarlicha jiddiy buzilishini, noto'g'ri bo'lishini yuzaga keltiradi;

- anketaning 32-34-chi savollariga javobdan so'ng faollik darajasi "0"ga qadar tushib ketgan, aynan respondentlar savollarga javob bermasdan ularni o'tkazib yuborgan, yoki savol mazmun-mohiyatiga tushunib etmasdan ularga mexanik tarzda javob bergan. Bundan kelib chiqqan holda, anketa o'zining miqdoriy mazmuni bo'yicha 15-18 ta savoldan iborat bo'lishi eng qulaydir. Ko'rinib turibdiki, operativ harbiy-sotsiologik tadqiqot ma'lumot yig'ishning biror bir alohida, noyob vositalariga ega emas. Uning noyobligi, an'anaviy metodlardan foydalanish usuli bilan belgilanadi, ular:


1) davlat va harbiy boshqaruv organlarini ijtimoiy ob'ekt to'g'risidagi sotsiologik ma'lumotlar bilan axborotli ta'minlaydilar, uni samarali boshqarish borisida bilishga oid jarayonni jadallashtiradi (kuchaytiradi);

2) respondentni axborotli faollashish darajasini hamda tafakkurlash, fikrlash faoliyatini ko'tarishga qiziqtiradi, rag'batlantiradi.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi, xususiyl metodikaning mavjudligi va uning talablari va qoidalariga qattiq amal qilinishi tufayli mumkin.

Amaliyl operativ harbiyl-sotsiologik tadqiqotni o'tkazish metodikasi – bu metodlarda qo'llash pretseduralarini ko'rsatuvchi operatsiyalar va ko'rsatmalar tizimi bo'lib, harbiyl-ijtimoiyl reallik to'g'risidagi validli, relevantli va reprezentativ sotsiologik ma'lumotlarni olish sharoitlarini ta'minlaydi.

O'zining mazmuniga ko'ra ushbu metodika tadqiqotning tuzilishini tavsiflaydi (3 rasmda chizma ko'rinishda taqdim etilgan).



Rasm 3. Amaliyl operativ harbiyl-sotsiologik tadqiqotning tuzilishi

Rasmda ko'rinib turibdiki, u o'z ichiga quyidagi bosqichma-bosqichli tashkiliyl-protsedurali operatsiyalarni qo'shadi:

1) tadqiqot buyurtmasini ishlab chiqish;

- 2) tadqiqot dasturini (rejasini) ishlab chiqish;
- 3) tadqiqot instrumentariysini (ishlatish asboblari majmui) ishlab chiqish;
- 4) sotsiologik tadqiqotni tanlash va tanlab olish majmui tuzilishini loyihalashtirish;
- 5) tadqiqot instrumentariysini tirajlash;
- 6) tadqiqot o'tkazish va unga asosan tayyorlangan hujjatlarga tuzatish kiritish;
- 7) anketali yoki intervyu metodi orqali dastlabki sotsiologik ma'lumotni yig'ish;
- 8) anketali so'rov yoki intervyu olish jarayonida olingan ma'lumotlarni kompyuterda ishlash;
- 9) tadqiqot natijalarini mantiqiy tahlil qilish, umumlashtirish va nazariy tushunib etish (anglash), asosiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ta'riflash, ifodalash;
- 10) tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash va buyurtmachiga hisobotni taqdim etish;
- 11) tadqiqot materiallarini vaqtincha to'xtatish va arxivlashtirish, yakuniy natijalarni va tadqiqotning asosiy xulosalarini nashr etish (agar zarurat bo'lsa).

Tadqiqot davomida olingan ma'lumot harbiy vokelik (ahvol) ijtimoiy ob'ektining muammolarini hal qilishda yordam berishga majbur. Shu sababli uni bashorat qilish zarurati muhimlashadi (dolzarb bo'ladi) va tayyorlanadigan tavsiyalarning ogohlantiruvchi (oldindan xabar beruvchi, oldini oluvchi) xarakteriga asosan tadqiqot yakuni bo'yicha – ijtimoiy texnologiyalarning eng qulay (maqbul) sharoitlarini yaratish ishlab chiqiladi.

Ushbu maqsadda, tadqiqotchilik faoliyati yakunlari bo'yicha ijtimoiy ob'ektni sotsiologik tadqiqot qilish natijalari to'g'risida hisobot tayyorlanadi.

Tadqiqot o'tkazish bo'yicha hisobot turlari va tuzilishi

Sotsiologik tadqiqot to'g'risida hisobot – bu ijtimoiy ob'ektning ishlashi (xatti-harakati) va rivojlanishi davomidagi muammolar va qarama-qarshiliklar

(ziddiyatlar)ni o'rganish bo'yicha sotsiolog (tadqiqotchi)ning ilmiy va tashkiliy faoliyatiga xulosa chiqarish shakli.

Zamonaviy harbiy sotsiologiyada, boshqa fanlar singari, hisobot turlarri har xil asoslar bo'yicha farqlanadi, ya'ni:

1. Mazmundorlik jihatida bo'yicha:

1) hisobotning qisqartirilgan varianti, unda:

- tadqiqotda hal qilinadigan vazifalarning asosiy mazmuni ochiladi;
- ularni amalga oshirishning yo'nalishlari va yo'llari (usullari) ko'rib chiqiladi va taklif qilinadi;

2) hisobotning to'liq varianti, unda:

- tadqiqot dasturining barcha bo'limlari ta'riflanadi;
- tadqiqotning asosiy mohiyatining (konseptual) modelini tuzishda foydalaniladigan nazariyalar bayon qilinadi;
- metodologik va uslubiy apparatning o'ziga xos xususiyatlari izohlanadi;
- olingan ma'lumotlar tavsiflanadi va tushuntiriladi;
- sotsiologik ma'lumotlar bilan ishlash natijalari bo'yicha xulosalar qilinadi;
- harbiy-ijtimoiy boshqaruv organlariga tavsiyalar tayyorlanadi.

U ilovalar bilan qo'shimcha qilinadi, ularda keltiriladi:

- tadqiqotning uslubiy hujjatlari, ya'ni dastur, reja, ishlatish asboblari (anketalar, intervyu blanklari, testlar), yo'riqlar, qo'llanmalar va boshqa materiallar;

- raqam ko'rsatkichli jadvallar, shuningdek, grafik rasmlar va boshqa materiallar, hisobotning matn qismiga kiritilmagan rasmlar.

2. Bajariladigan ishlar hajmi bo'yicha:

1) oraliqdagi hisobot, unda aks ettiriladi:

- tadqiqotning to'liq hajmda tugatilmaganligi;
- tadqiqot natijalarining dastlabki ilk tahlili;

2) tadqiqot natijalari to'g'risida yakuniy hisobot, unda:

- ilmiy-tadqiqotchilik izlanishning mazmuni to‘liq, har tomonlama va chuqur ochib beriladi, uning barcha bosqichdagi topilma va bo‘shliqlari, shuningdek, hal qilinmay qolgan muammolar ochiladi;

- tadqiqotning metodologik va uslubiy dasturida ishlab chiqilgan apparatiga muvofiq ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ketma-ketligi yoritiladi;

- tadqiqotni amalga oshirishning barcha bosqichlarida tashkiliy ishlarning barcha yo‘nalishlari va uning natijalariga ishlov berilishi aks etiladi.

Tuzilishli rejada yakuniy hisobotning to‘liq varianti quyidagilardan iborat:

- titul varog‘idan;

- ijrochilar ro‘yxatidan;

- hujjat hajmi to‘g‘risida ma’lumotni aks etadigan referat, illyustratsiyalar (rasmlar) miqdori, jadvallar, grafikalar, kalitli so‘zlar ro‘yxati, shuningdek, tadqiqot mohiyati, uning yangiligi va ilmiy natijalarining qisqa tavsifidan;

- mundarijasidan;

- shartli belgilar, ramzlar ro‘yxatidan;

- kirish (muqaddima), unda muammo ifoda qilinadi, dolzarbligi (muhimligi) va yangiligi, shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslanib tushuntiriladi;

- asosiy qismdan, odatda, uchta bo‘limdan iborat;

- xulosadan, bunda tadqiqotning umumiy nazariy va amaliy xulosalari ta’riflanadi, olingan ma’lumotlarning ilmiy adabiyotda mavjud bo‘lganlari bilan aynan o‘xshashlik darajasi belgilanadi, shuningdek, mazkur tadqiqotda tekshirib bo‘lmagan keyinga o‘rganish uchun savollar, yangi keltirilgan farazlarni belgilash;

- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

- ilovalar.

Yakuniy hisobotning to‘liq variantining asosiy qismining tuzilishini quyidagi bo‘limlar tashkil etadi:

1. *Nazariy-metodologik bo‘lim.* Unda tavsiflanadi:

- mazkur muammo bo‘yicha asosiy nazariy g‘oyalar;

- mavzu nomiga kiradigan asosiy tushunchalarning mantiqiy tahlili;

- tadqiqotning ob'ekti va predmetini tizimli tahlil qilish;
 - tadqiqotning ob'ekti-predmetli sohasida o'rnatilgan, aniqlangan tuzilishli tarkibiy qismlarini nazariy sharhlash;
 - ijtimoiy ob'ektning ishlashi va rivojlanishining asosiy mohiyatining (konseptual) modeli (chizmasi), shuningdek, uni nobarqaror qiladigan muammolar va qarama-qarshiliklarni;
 - tadqiqotga metodologik qarash, ma'lumotni yig'ish, u bilan ishlash va tahlil qilish prinsipi;
 - tanlov, berilgan predmetli soha doirasida tadqiqot qilinadigan ijtimoiy ob'ektning xarakteri, ehtimoliy qonunlari, qonuniyatlari, o'zaro aloqalari (munosabati) va ishlashi (xatti-harakatlari) moyilliklarini ochib berishga imkon beradigan ijtimoiy mezonlari, belgilari, alomatlari, ko'rsatkichlari, indikatorlari tizimini nazariy asoslab berish;
 - ilmiy farazlarni asoslab berish;
 - ularni isbotlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot turini asoslash;
 - tadqiqot o'tkazishning umumilmiy va o'ziga xos metodlarini va o'tkazish metodikalarini asoslab berish va tavsiflash, shuningdek, ularning ishonchliligini va validligini tekshirish;
 - tanlab olish turi va tuzilishini va uning reprezentativligini asoslab berish;
 - tadqiqotni tashkillashtirish va o'tkazish tartibini bayon etish;
2. *Tavsifli-tahliliy bo'lim.* Bunda xarakteristika beriladi:
- tadqiqotda ishlatiladigan o'lchashga oid protseduralarning aniqligi, ishonchliligi va validligiga;
 - tadqiqotning ob'ekti-predmetli sohasining real holati;
 - ideallik (yuksak)ga real holatning to'g'ri (mos) kelmasligining farqi;
 - ijtimoiy ob'ektning ishlashi (xatti-harakati) va rivojlanishi davomida deterministik (narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot) og'ishlarining sababiy-oqibatli aloqalari;
 - tadqiqotning o'rta tashlangan farazlarini tekshirish va vazifalarini hal qilish doirasida dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotni.

3. *Texnologik-boshqaruv bo'limi*. Uning mazmunida bo'ladi:

- dasturda ko'rsatilgan farazlarga javoblar;
- tadqiqotning konkret (aniq) natijalari bo'yicha xulosalar;
- ijtimoiy ob'ektni eng qulaylashtirishning asosiy yo'nalishlari va usullari;

Ijtimoiy muammoni yoki qarama-qarshiliklarni hal qilish bo'yicha ijtimoiy boshqaruv organlariga konkret tavsiyalar.

Shunday qilib, **harbiy-sotsiologik tadqiqot** – bu ijtimoiy tadqiqotlarning turi bo'lib, empirik ma'lumotlarni yig'ish va ishlab chiqish metodlari, shuningdek, sotsiologik ma'lumotni tahlil va bayon qilish asosida, harbiy tashkilotning (jamoaning) ko'p darajali hayotiy faoliyatining har xil sohasidagi ijtimoiy jihatlari, fuqarolar, harbiy xizmatchilar va harbiy ijtimoiy guruhlarining (urushdagi va harbiy xizmat) faoliyatida, vaj-sabablarida va munosabatlarida namoyon bo'ladigan harbiy-ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o'rganadi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Harbiy-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tashkillashtirish.
2. Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish metodikasi
3. Tadqiqot o'tkazish bo'yicha hisobot turlari va tuzilishi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarida rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish, o'rganish va olingan ilmiy nazariy xulosalardan amaliy foydalanish muhim masalalardan biridir.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda harbiy sotsiologiyaning o'rganilishi katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy daxlsizligi va xalqning tinchligini ta'minlashga yordam beradi. Bugungi kunda harbiy sotsiologiyasining ob'yekti, uning maqsad va vazifalari, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro va ijtimoiy munosabatlar, ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va roli haqidagi masalalari muhim ahamiyat kasb etadi

Hozirgi yangi jamiyatga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanish va boshqarish uchun amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Harbiylarimiz hayotiy faoliyatini sotsiologik taxlil etish orqali Qurolli Kuchlarda faoliyat ko'rsatuvchi barcha harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy ta'sir va muommolarini ilmiy-sotsiologik nuqtai nazardan o'rganish, taxlil etish ularning mazmun-mohiyatini ochib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Harbiy jamoalarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning dolzarbligi va zaruriyati shundaki, harbiy qism, muassasalar va bo'linmalardagi yuksak jangovar shaylikni ta'minlash, harbiy intizomni mustahkamlash va sog'lom ahloqiy-ruhiy muhitni yaratish va uni ushlab turish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Harbiy jamoalarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish harbiy islohotlarni rivojlanish va muammolarni hal qilish yo'llarini to'la va atroflicha o'rganish va istiqboliy o'zgarishi darajasi xususida bashorat qilish imkonini beradi

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

SOTSIOLOGIYA – jamiyatning tarkibi va uni tashkil qiluvchi elementlar(unsurlar), ularning amal qilish shart-sharoitlari hamda bu tarkibda sodir bo‘ladigan sotsial jarayonlarni o‘rganuvchi fan.

MAKROSOTSIOLOGIYA- sotsial bilimlar sohasi bo‘lib, sotsial tarkibning yirik elementlari, ularning holati va o‘zaro aloqadorligini o‘rganadi.

MIKROSOTSIOLOGIYA- sotsial bilimlar sohasi bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi, guruhlar ichidagi va kishilar orasidagi kundalik o‘zaro hatti-harakatlarni o‘rganadi.

MAKRODARAJA - sotsiologiyada katta sotsial guruhlar va xalqlarni qamrab oluvchi sotsial hodisalar va jarayonlarni aniqlash; aholining ko‘chib yurishi, turli sotsial institutlarning inqirozi, jamiyatning bir ko‘rinishdan boshqasiga o‘tish tendentsiyasini ko‘rsatish holati.

SOTSIAL QONUN – sotsial ob’ektlar o‘rtasidagi nisbatan barqaror va muntazam yangilanib turuvchi munosabatlar.Hodisa va jarayonlar orasidagi muhim va zaruriy bog‘lanish. Sotsial qonunlar umumsotsiologik va maxsus sotsiologik qonunlarga bo‘linadi.

SOTSIAL NAZORAT – jamiyatdagi me’yor va qadriyatlar yig‘indisi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan turli sanksiyalar. Masalan, deviant xulq-atvorning oldini olishga, jazolashga yoki tuzatishga qaratilgan sanksiyalar.

SOTSIAL FAKT (DALIL) – jamiyatning u yoki bu sohasiga xos bo‘lgan alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqea hamda bir xil ko‘rinishli voqealar yig‘indisi.

TARMOQ SOTSILOGIYASI – sotsiologik bilimning muhim sohasi bo‘lib, ijtimoiy hayotning alohida yoki tor sohalaridagi sotsial hodisalar va jarayonlarni o‘rganadi. Umumiy sotsiologiyadan farqli o‘laroq, tarmoq sotsiologiyasining ob’ekti sifatida sotsial voqelikdagi aniq bir soha qamrab olinadi. Masalan, iqtisod sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va boshqa shu kabilar.

SOTSIAL INSTITUTLAR – nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan sotsial va siyosiy tizimli uyushmalar bo‘lib, bir-biridan tarkibining barqarorligi, o‘z elementlarining integratsiyalashganligi hamda vazifalarining xilma-xilligi, o‘zgaruvchanligi va egiluvchanligi bilan farqlanadi.

BIXEVIORIZM – (*ing. behaviour – xulq-atvor*) pozitivistik sotsiologiyadagi muhim yo‘nalishlardan biri. Bixevioristlar sotsiologiyaning predmeti deganda kishilar xulq-atvorini tushunganlar. Bu ta’limot asoschilari inson va hayvonot olamidagi sifatiiy farqlarni ajratmagan holda, sotsiologiya va psixologiyaning vazifasi ongni emas, balki kishilar xulq-atvorini o‘rganishga qaratilgan degan fikrni ilgari suradilar.

GEOGRAFIK MAKTAB – sotsiologiyadagi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning asoschilari geografik muhitni ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sharti va muhim omili sifatida qaraganlar. Shu bilan birga, ba’zi hollarda bu maktab

g'oyalari ayrim kishilar, masalan, fashizm namoyandalari tomonidan o'zlarining bosqinchi, agressiv geopolitik maqsadlari uchun qo'llanilgan.

SOTSIAL DARVINIZM – ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tabiiy tanlashning biologik qonunlari bilan o'xshash deb tushunuvchi ta'limot. Bu ta'limot vakillari ijtimoiy hayot insonning biologik xususiyati (tabiati) bilan aniqlanadi, degan fikrni ustun qo'yadilar. Sotsial-darvinizm g'oyalaridan keyinchalik liberalizm, individualizm, rasizm, fashizm kabi sotsial-siyosiy yo'nalishlarda ham foydalanilgan.

OLIGARXIYA – (*yunoncha oligarchia – ozchilik hokimiyati*) kichik guruhdagi kishilar, asosan boylarning siyosiy hokimiyatini ta'minlovchi boshqarishning nodemokratik shakli. Shu bilan birga, oligarxiya tushunchasi ilg'or, hukmron elita ma'nosini ham anglatadi.

ORGANIK YO'NALISH – jamiyat, uning amal qilishi va rivojlanishini jonli, biologik organizmning amal qilishi va rivojlanishi bilan aynanlashtiruvchi ta'limot. Bu yo'nalish vakillari ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan sotsial-siyosiy voqea-hodisalarni sof biologik nuqtai-nazardan izohlashga harakat qiladilar.

POZITIVIZM – XIX asr sotsiologiyasidagi etakchi yo'nalishlardan biri. Jamiyat haqidagi mushohadaviy qarashlardan voz kechgan holda, kuzatish va tajribaga asoslangan, fizika, ximiya, biologiya kabi tabiiy fanlarga o'xshash aniq, ob'ektiv bo'lgan fanni yaratishga qaratilgan ta'limot.

PRAGMATIZM – (*yunoncha – ish, harakat*) sotsial-siyosiy muammolar va ularni hal qilishda tez amaliy natijalar olish, afzalliklarga ega bo'lish, aniq manfaatlarni ko'zlashga qaratilgan ta'limot.

PSIXOLOGIK YO'NALISH – sotsiologiyadagi yo'nalish bo'lib, sotsial-siyosiy hodisa va jarayonlarni psixologik omillar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Bu yo'nalish tarafdorlari asosiy e'tiborni ijtimoiy va individual ongning sotsial-siyosiy hayotdagi o'рни va roli hamda ularning o'zaro nisbati masalasiga qaratadilar.

SIMVOLIK INTERAKTSIONIZM – (*lotin.interactio – o'zaro ta'sir*) sotsiologiyadagi muhim yo'nalish bo'lib, o'z e'tiborini kishilar o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalarga qaratadi hamda bu aloqalarni sotsial simvollarni almashish ko'rinishi sifatida baholaydi. Bu oqim tarafdorlarining fikricha, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzluksiz muloqot bo'lib, bu jarayonda ular bir-birlarini kuzatadilar, maqsadlarini anglab etadilar hamda tegishli munosabatda bo'ladilar.

TARKIBIY FUNKTSIONALIZM – (*lotin.functio – amalga oshirish, bajarish*) sotsiologiyadagi muhim yo'nalish, metodologik yondashuvlardan biri. Bu yo'nalish tarafdorlari jamiyat, undagi hodisa va jarayonlarga o'zining tarkibi, undagi tegishli o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi elementlarning o'zaro aloqa mexanizmiga ega bo'lgan sotsial tizimlar sifatida qaraydilar.

SOTSIAL BIRDAMLIK – ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi hamkorligi ko'rinishidir.

KOOPERATSIYA – bir yoki bir qancha sotsial guruh vakillarining yagona maqsadga erishish yoʻlida oʻzaro harakat qilish jarayoni. Oʻzaro manfaatdorlik kooperatsiyaning asosi hisoblanadi.

BEGONALASHUV – individ, shaxs yoki sotsial guruhning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-maʼnaviy jarayonlar, munosabatlar hamda faoliyatdan uzoqlashish, chetlashish holati. Sotsiologiyada begonalashuvning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, madaniy va ruhiy koʻrinishlariga koʻproq eʼtibor qaratiladi.

OILA – kishilarning nikoh va qondoshlik munosabatlariga asoslangan jamiyatning kichik sotsial yacheykasi. Oila kishilarni mulkchilik, umumiy xoʻjalik aloqalari va farzandlar tarbiyasidagi oʻzaro masʼuliyat hissi bilan ham bogʻlaydi.

NUKLEAR OILA - Ota –onalar va ularning qaramogʻida boʻlgan bolalardan tashkil topgan oila shakli. Hozirgi davrda koʻp avlodli oilalardan nuklear oilalarga oʻtish jarayoni yakunlanib bormoqda.

EKZOGAMIYA – nikohlanishda umr yoʻldoshini tanlashdagi cheklash boʻlib, guruh aʼzolari umr yoʻldoshini oʻz guruhi tashqarisidan izlashadi.

ENDOAMIYA - nikohlanishda umr yoʻldoshini tanlashdagi cheklash boʻlib, guruh aʼzolari umr yoʻldoshini faqat oʻz guruhi ichkarisidan tanlashadi.

ETNOS – maʼlum bir hududda tarixan qaror topgan, madaniyat va psixologik birlikning umumiy jihatlariga ega boʻlgan kishilarning barqaror uyushmasi.

SOTSIAL SINFLAR – (*lotin. classic – guruh, razryad*) yirik sotsial guruhlar boʻlib, oʻzida umumiy sotsial-iqtisodiy va siyosiy maqomga ega boʻlgan hamda oʻz ijtimoiy holatiga koʻra bir-biridan farqlanuvchi kishilarni birlashtiradi.

FAN – bilimlarni yaratish va toʻplashni taʼminlovchi sotsial institut; ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri. Fanlar tasnifiga koʻra bir qancha yoʻnalishlarga boʻlinadi. Sotsiologiyada fundamental va amaliy fanlarga alohida eʼtibor qaratiladi.

TAʼLIM – institutlashgan jarayon boʻlib, uning asosida qadriyatlar, bilim va malaka bir kishi, guruh yoki uyushma tomonidan boshqalarga oʻtkaziladi.

MADANIYAT – qadriyatlar, hayotiy qarashlar, xulq-atvor va meʼyorlar namunasi, shuningdek, turli predmetlar, moddiy boyliklarda (mehnat vositalari, belgilar kabilar) mujassamlashgan va keyingi avlodlarga oʻtadigan kishilar faoliyatining natijasi.

OMMAVIY MADANIYAT – mintaqaviy, diniy, sinfiy xususiyatlardan qatʼiy nazar mahsulotlari barcha xalqlarga tarqaladigan va ommalashadigan madaniyat shakli.

ELITAR MADANIYAT – oʻzida hashamatli sanʼat, musiqa va adabiyot namunalarini qamrab olgan hamda jamiyatdagi saralangan qatlam, oliy tabaqalarga moʻljallangan madaniyat shakli.

MADANIY RELYATIVIZM – boshqa sotsial guruhlar qadriyatlarini faqat oʻz madaniy qadriyatlari doirasida tushunish va tahlil qilishga boʻlgan urinish.

ETNOTSENTRIZM – hayotiy hodisalarni oʻz etnik guruhining anʼanalari va qadriyatlari doirasida baholovchi hamda oʻz madaniyatini umumiy etalon sifatida koʻrsatuvchi etnik xususiyat.

TOLERANTLIK – o‘zgalar turmush tarzi, xulq-atvori, urf-odatlar, his-tuyg‘ulari, qarashlari, g‘oyalari va diniy e‘tiqodlari sabr-bardosh, toqat bilan munosabatda bo‘lish.

TRADITSIYA (AN‘ANALAR) – avlodlardan- avlodlarga o‘tuvchi, ma‘lum bir uyushma yoki sotsial guruhda uzoq davr mobaynida saqlanib qoluvchi sotsial va madaniy merosning elementi.

QADRIYATLAR – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma‘naviy boyliklarning ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. G‘arbda qadriyatlar masalasi bilan aksiologiya fani shug‘ullanadi. Falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar qadriyatlar bo‘yicha tegishli tadqiqotlar olib bormoqdalar.

SOTSIAL STRATIFIKATSIYA – (*lot.stratum – qatlam*) sotsial qatlam (guruhlarining) daromadlari, bilim darajasi, hokimiyatga egalik qilishi, kasbiy obro‘-e‘tiboriga ko‘ra jamiyat strukturasi yuqoridan quyiga qarab joylashuvi.

TABAQA – nasldan-naslga o‘tuvchi huquq va majburiyatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi agrar va ko‘pgina industrial jamiyatlardagi sotsial guruhlar.

SOTSIAL MOBILLIK – individ yoki sotsial guruhning jamiyat ijtimoiy tuzilmasida bir sotsial holatdan boshqasiga o‘tishi, o‘z ijtimoiy holatini o‘zgartirish ko‘rsatkichi.

VERTIKAL MOBILLIK – individ yoki sotsial guruhning bir sotsial qatlamdan boshqasiga o‘tish jarayoni. Vertikal mobillik yuqori mansabga ko‘tarilish, daromadlarining oshib ketishi va hokimiyat bo‘lish bilan izohlanadi.

GORIZONTAL MOBILLIK - individ yoki sotsial guruhning bir sotsial bir oiladan boshqa oilaga, bir dindan boshqa dinga yoki bir turar joydan boshqa joyga o‘tish bilan izohlanadi.

DEVIANTLIK – individ yoki sotsial guruhning jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy me‘yorlarga mos kelmaydigan xulq-atvori. Buning natijasida ular tomonidan bu me‘yorlarni buzish holati sodir bo‘ladi. Deviantlikning jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, byurokratiya kabi ko‘rinishlari keng tarqalgan.

DELINKVENTLIK – militsiya yoki politsiyada hisobda turuvchi, muntazam ravishda jinoiy harakatlar sodir etuvchi, tarbiyasi qiyin bo‘lgan kishilar, ayniqsa, o‘smirlarning huquqbuzarliklarini ko‘rsatuvchi tushuncha.

SHAXS – sotsial mavjudot, sotsial hayotning ongli sub‘ekti bo‘lgan har bir inson. Individning samarali faoliyat va muloqotlar asosida sotsial munosabatlarga kirishini va sotsial xususiyatlarning bir butunligini anglatuvchi tushuncha.

MARGINAL SHAXS – individ yoki shaxsning ikki yoki undan ortiq madaniyatlar chegarasidagi oraliq holatni egallashi va qisman ularga qorishib ketishini ko‘rsatuvchi tushuncha.

SOTSIALLASHUV – individ tomonidan hayoti davomida o‘zi yashayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan jamiyatdagi sotsial me‘yorlar va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni. Oila, maktab, mahalla, qarindosh-urug‘lar, jamoatchilik sotsiallashuvning muhim agentlari bo‘lib xizmat qiladilar.

JAMIYAT – yaxlit sotsial tizim bo‘lib, u o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy sohalariga ega bo‘ladi. Unda yagona hudud doirasida kishilar umumiy madaniy qadriyatlar va sotsial me‘yorlar (norma) asosida birlashadilar.

POSTINDUSTRIAL JAMIYAT – insoniyat va alohida davlatlar ilg‘or taraqqiyotining uchinchi bosqichi (*agrар va industrial jamiyatdan keyingi*). Unda zamonaviy ilmiy-texnologik, axborotlashgan inqiloblar asosida chuqur sotsial o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

ELEKTORAT – u yoki bu siyosiy partiya, siyosiy tashkilot va uning vakillari hamda mustaqil deputatlarga ovoz beruvchi saylovchilar guruhi. Elektoratnig ko‘lami demokratiya darajasi, siyosiy partiyalarning faolligi, ommaning siyosiy etukligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

MUXOLIFAT – (*arabcha “muxolafat” – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat*) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo‘l, demokratiyaning muhim belgisi.

JAMOATCHILIK FIKRI – butun jamiyat yoki uning alohida qismining ijtimoiy hodisalar va jarayonlar hamda alohida shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning faoliyatiga bo‘lgan munosabatlarini ochiq va yashirin holda ifodalovchi ommaviy ongning holati.

MAHALLA – (*arabcha “mahalla” – joy, o‘rin, makon*) – muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko‘rsatayotgan, aholi yashaydigan ma‘muriy-hududiy birlik, uyushma.

TADQIQOT DASTURI – tadqiqotning maqsadi, vazifalari, umumiy yo‘nalishlari, mantiqiy izchillik asosida tegishli taxminlarni bayon qilish va bo‘ljak xulosalarni olishga qaratilgan varaqa.

SOTSIOLOGIK ANKETA – (*fran. enquete – qidirish, tadqiq qilish*) tadqiqotchi sotsiolog tomonidan tuziluvchi va so‘rov o‘tkazilayotgan kishi tomonidan unda ko‘rsatilgan tartib-qoidalar asosida mustaqil ravishda to‘ldiriluvchi so‘rov varaqasi.

PANEL TADQIQOT – doimiy tanlov guruhi a‘zolarini bir necha marta so‘rash orqali tegishli axborotlarni yig‘ish usuli. Bu usuldagi tadqiqot ilgari so‘rovlar natijalarining dinamikasini o‘rganish maqsadida ham o‘tkaziladi.

PILOTAJ TADQIQOT – o‘tkaziladigan sotsiologik tadqiqotning sifatini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan uslubiy yo‘nalishdagi sinama tadqiqot.

DALA TADQIQOTI – alohida sotsial ob‘ektni unga qulay bo‘lgan tabiiy sharoitlarda bevosita va har tomonlama sotsiologik jihatdan o‘rganish. Dala tadqiqotlari diagnostik, tajribaviy va monografik shakllarda bo‘ladi.

LONGITYUD TADQIQOT – takroriy tadqiqot ko‘rinishi bo‘lib, bir sotsial ob‘ekt ustidan uzoq muddatli, davriy kuzatish olib boriladi. Bu kuzatish natijasida sotsial ob‘ektdagi tegishli o‘zgarishlar aniqlanadi.

KUZATISH – sotsiologik tadqiqot usuli bo‘lib, uning yordamida voqealar va ularning kechish jarayonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita qayd etish orqali tegishli axborotlar olinadi.

INTERVYU – tadqiqot dasturida ko‘zda tutilgan savollarga javob olish uchun o‘tkaziladigan maqsadli suhbat. Intervyu sotsiolog va so‘rov o‘tkazuvchi boshqa kishilar tomonidan olib boriladi.

REPREZENTATIVLIK – sotsiologik tanlovning xususiyati o‘rganilayotgan asosiy sohaning xarakteristikasini (*tavsifini*) aks ettirishini ifodalovchi tushuncha.

RESPONDENT – sotsiologik anketa va boshqa shakldagi so‘rov savollariga javob beruvchi kishi.

TANLOV – asosiy tadqiqotning mohiyati, xususiyatlari va nisbatini o‘zida qat’iy aks ettiruvchi aholining ma’lum bir qismi, bo‘lagini ifodalovchi tushuncha.

GENDER TADQIQOT – sotsiologik tadqiqot turi bo‘lib, uning asosida bir madaniyat doirasidagi jins xususiyatlariga ko‘ra farqlanuvchi kishilar xulq-atvorini o‘rganish masalasi yotadi.

AMALIY SOTSILOGIYA – sotsiologik bilimning tarmog‘i, sohasi bo‘lib, fundamental sotsiologiya bag‘rida sotsial hayotning tashkil etilishi, amal qilishi va rivojlanishiga doir amaliy savollarni hal qilishning yo‘llari, shakllari va usullarini va shu asosda tegishli ko‘rsatmalar, rejalar va taxminlarni ishlab chiqish jarayonini o‘rganadi.

EKSPERT SO‘ROV – savollarning yozma yoki og‘zaki shaklda tadqiqot predmeti sohasida maxsus chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassis-ekspertlar oldiga qo‘yilishi.

AXBOROT – jamiyat a‘zolari, guruhlar, sotsial va siyosiy tashkilotlar, birlashmalar munosabatlaridagi almashuv vositasi bo‘lgan sotsial va siyosiy hayot to‘g‘risidagi bilimlar, ma’lumotlar, dalillar, xabarlarining yig‘indisi.

MONITORING – (*inglizcha “monitoring” tekshirib turish, nazorat etish*) – ma’lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxminlash (prognoz) tushuniladi.

BEGONALASHUV - odamlar, ijtimoiy guruxlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

IJTIMOY NAZORAT - jamiyatning sog‘lom ijtimoiy tartibni ta’minlash maqsadida individ xatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli ta’siri, individ ijtimoiylashuvining omili.

IJTIMOY NAZORAT SHAKLLARI: oddiy (majburlovchi) sanksiyalar (tazyiqlar); jamoatchilik fikri; ijtimoiy institutlar. Ijtimoiy nazorat mexanizmi: 1) jismoniy tazyiqlar (individni guruh me’yorlarini buzganlik uchun jazolash); 2) iqtisodiy tazyiqlar («qo‘rqitish», «jarima»); 3) ma’muriy tazyiqlar.

IJTIMOY ME’YOR - 1) mavjud ijtimoiy sharoitlar uchun maqbul ravishda rivojlanishi uchun belgilangan me’yorlar guruhi ko‘rsatkichi; 2) ijtimoiy rivojlanishning ijtimoiy hodisa, jarayonning tadrijiy kechish yo‘liga mosligi; 3) zarur birgalikdagi xulq-atvor, hatti-harakatga nisbatan talablar, shartlar va istaklar.

IJTIMOY BIRDAMLIK - ijtimoiy hamjihatlik bilan ifodalanuvchi ijtimoiy holat. Mehnat taqsimotidan kelib chiquvchi ijtimoiy birdamlik ijtimoiy integratsiyaning muhim elementi hisoblanadi.

IJTIMOIIY DINAMIKA (yunon. dushishko - kuchli) - jamiyatning muntazam ravishda muayyan kuchlar ta'sirida taraqqiy etishi va ijtimoiy hayot voqealarining o'zgarib borish jarayonlari.

IJTIMOIIY MOSLASHUV (ADAPTATSIYA) - shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati turi. Ijtimoiy moslashuv individ yoki guruhning o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitni o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

ANOMIYA - ma'lum bir jamiyatda turli islohotlar (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va h.k.) davrida yuzaga keladigan, jamiyatda o'rnatilgan eski me'yorlarning yangi talablarga javob bera olmay qolishi hamda yangi me'yorlarning jamiyat a'zolari tomonidan turlicha tushunilishi natijasida yuzaga keladigan, o'ziga xos ommaviy ravishda noto'g'ri talqin etilishi. Buning natijasida, bitta jamiyat a'zolari tomonidan bir xil hodisalar turlicha, hatto qarama-qarshi (ba'zilar salbiy deb baholagan xatti-harakatlarni, boshqalar ijobiy deb qabul qiladi) munosabatlar yuzaga keladi.

ANKETA (fr. enquete - o'z mazmun va shakliga ko'ra tartiblangan savollar va mulohazalar bayon qilingan so'rov varaqasi).

ANKETA SO'ROVI - sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan so'rovlarning asosiy xilidan biri.

AXBOROTNI KODLASHTIRISH - 1) empirik ma'lumotlarni zarur talablar asosida qayta ishlash va taqdim qilishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisi; 2) sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichining birinchi davri (fazasi).

BIRLAMCHI GURUH - asosan individning birlamchi ijtimoiylashuv jarayonini va uning boshqa guruhlariga tortilishini ta'minlovchi kichik guruhning (oila, o'smirlar guruhi) ko'rinishidan biri.

VERBAL HUJJATLAR TAHLILI - hujjat manbalaridan axborot olish uslubi.

VERIFIKATSIYA (lot. verus - haqqoniy va facio - qilmoq) ilmiy xulosalarning haqqoniyligini empirik dekshirish orqali o'rnatish jarayonini ifodalovchi metodologik tushuncha. Verifikatsiya fanning nazariy xulosalarini kuzatilayotgan ob'ekt, tadqiqot bilan taqqoslash orqali tekshirib ko'rish, tajribada tasdiqlash bilan ifodalanadi.

GIPOTEZA - ilmiy taxmin, bashorat. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishdan oldin bo'lajak natijalarning qanday bo'lishini empirik tekshirish uchun qilinuvchi ilmiy taxmin.

DALA TADQIQOTI - 1) tor ma'noda - joylarda (uyda, korxonalarda va h.k.) o'tkaziladigan tadqiqot; 2) keng ma'noda - tadqiqot ob'ektini tabiiy «dala» sharoitlarida, uning kundalik hayotini ijtimoiy miqyosda o'rganish.

DIADA - ikki kishidan iborat guruh.

INDIKATOR (lot.indicator - ko'rsatkich) - ob'ektning o'rgansa va o'lchasa bo'ladigan xususiyati.

INTERVYU (ingl. interview) - sotsiologik tadqiqotda qo'llaniladigan uslub - maqsadli suhbat.

KATTA GURUH - katta miqdordagi a'zolarga ega bo'lgan, turli aloqalar xillariga asoslangan ijtimoiy guruh.

REPREZENTATIVLIK (fr. representatif - vakillik) - tanlash sig'imining o'rganilayotgan (general) sig'im xususiyatini aks ettirish xossasi.

IJTIMOIIY AXBOROT - ma'lum bir tizim doirasida xabarlar belgilari majmuasi sifatidagi axborotning bir sohasi. Ijtimoiy axborotning o'ziga xosligi, bir tomondan, ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy sohasi bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy hayot sub'ektlarining xususiyatlari bilan belgilanadi.

IJTIMOIIY AHVOL - ijtimoiy sub'ektning jamiyatda tutgan u yoki bu o'rni, u yoki bu ijtimoiy o'rinda (joyda) egallagan mavqeda qo'lga kiritgan mustahkam aloqalarining majmui.

IJTIMOIIY BASHORAT - ijtimoiy rivojlanish xususiyati va yo'nalishini jamiyat ijtimoiy rivojining ustuvor jihatlari, o'tmish tajribalari, uning tadrijiy o'zgarib borishi asosida oddindan aytib berish.

IJTIMOIIY VAQT - vaqtning jamiyat, ijtimoiy birliklar, individlar mavjud bo'lgan va rivojlanadigan o'ziga xos xususiyatlari.

IJTIMOIIY DALIL (FAKT) - ijtimoiy tizim evolyusiyasi va amal qilish holatining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy aniqlangan dalil, ijtimoiy borliqning naqd ko'rinishi, ijtimoiy ahamiyatga molik alohida voqea.

SO'ROV - fransuz tilidan olingan bo'lib, biron-bir narsani aniqlash degan ma'noni anglatadi. Sotsiologiyada so'rash usullari muayyan aholi guruhlariga savollar vositasida murojaat qilish orqali birlamchi ma'lumotlarni to'plash ma'nosini anglatadi. So'rash usullarining yozma (anketa), og'zaki (intervyu) hamda sirtidan (pochta, telefon va matbuot orqali) ma'lumotlar to'plash shakllari mavjud.

TANLASH - 1) sotsiologik tadqiqotning bevosita o'rganilishi kerak bo'lgan ob'ekti elementlarining majmuasi, 2) ob'ekt elementlarini, ommaviy sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan kuzatuv va o'rganish birliklarini saralab olish uslublari, usullari va tartib-qoidalarining majmuasi.

TANLASH (JARAYON SIFATIDA) - tadqiqotning butun bir ob'ektini (mamlakatning butun aholisi, barcha oilalar, maktablar) tashkil qiluvchi ko'pgina

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Huquqiy-me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumxarbiy Nizomlari. – T.: 1996y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa doktrinasi». Fevral, 2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa qonuni». 11-may, 2001 y.
4. O'zbekiston Respublikasi «Terrorizmga qarshi kurash» to'g'risidagi qonuni.(2000 yil, 15 dekabr)
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi. 1997 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (16.04.2018-yil PF-5416).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori (28.06.2017 yil PQ-3160).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (19.05.2017-yil PF -5046).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (20.04.2017-yil PQ-2909).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosatini samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni (05.06.2017-yil PF-5106).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4-avgustdagi harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PQ-3898- sonli Qarori.
12. Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni (07.02.2017-yil. PF-4947).

Gazeta va jurnallar

13. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 4 avgust. №153 (6848).

14. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 dekabr. №247 (6941).
15. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.//Xalqso‘zi,2016yil 8dekabr
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2017 yil 20-sentabr. № 189 (6883).
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi //Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr. №258 (6952)
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojatnomasi //Xalq so‘zi, 2018 yil 30 dekabr. №318 (8942)

Rahbariy adabiyotlar

19. Karimov I.A. Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. –T., 1994.
20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009.
21. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, taraqqiyot shartlari kafolatlari. T.: O‘zbekiston, 1997.
22. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Tanlangan asarlar to‘plami. T., Sharq, 1998.
23. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
24. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. I-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 592 b.

Asosiy adabiyotlar:

25. Aliev B., Mullajonova M. «Sotsiologiya» Darslik. T. 2011. 11-b.
26. Bekmurodov M., Aliqoriev N. “ Umumiy sotsiologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –T.: 2002 .11-b
27. Bogomolova N.N., Stefanenko T.G. Kontent-analiz. Spetspraktikum po sotsialnoy psixologii. M., 1992.
28. Devyatko I.F. Metodi sotsiologicheskogo issledovaniya. Uchebnoye posobiye. Moskva «Universitet knijniy dom», 2009.

29. Dobrenkov V.I. Kravchenko A.I. Fundamentalnaya sotsiologiya. 3-tom. Metodika i texnika issledovaniya. Moskva.; INFRA-M. 2009
30. Earl Bable. The practice of social research. 2010. Wadsworth. CECGAGE Learning. USA.
31. Giddens Antoni. Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002y
32. Gorshkov M. Sheregi F. Prikladnaya sotsiologiya: metodologiya i metody. Moskva.; 2011.
33. Ibragimov A. Harbiy sotsiologik atamalarining izohli lug'ati. Chirchiq, OTQMBYU, 2006 y.
34. Korf N.A. keng ma'noda tushunilgan strategiyaga umumiy kirish: harbiy fanlar falsafasi bo'yicha tadqiqotlar. –Sankt-Peterburg, 1897. - S. 4-15.
35. Kseiofontov V.N. Rossiyadagi harbiy sotsiologiya: muammolar va yo'nalishlar Ijtimoiy mantiqiy tadqiqotlar. 1995. - № 6. - 68-73 betlar.
36. Kulpygin V.P. Qo'shma Shtatlardagi harbiy sotsiologiyaning mohiyatli va institutsional shakllanishi Sotsiologik tadqiqotlar, 1993. - № 12. - S.
37. Loraine Blaxter, Christina Hughes, Malcolm Tight. How to research. Fourth edition. Open University Press, 2010. England, UK.
38. Martin M. AQSh harbiy sotsiologiyasining ba'zi jihatlari Defence National, oktyabr, 1981. - M: VPI VNA bo'limining tarjimasi. - № 342;
39. Martin M. Maurice Janowitz va AQSh harbiy sotsiologiyasi Mudofaa milliy, 1982 yil mart. - M.: VPI VNA bo'limining tarjimasi. -355-son.
40. Metodikai texnika issledovaniya. Moskva.; INFRA-M. 2009
41. Moskos Ch. "Urushni rad etish jamiyatida" qurolli kuchlar Armiya va general davlat. - M.: Progress, 1990. - S. 80-83.
42. Nazarenko S.V. "Sotsiologiya" –M., 2008g.
43. Obratsov I. V. Harbiy sotsiologiya: tarixiy yo'l muammolari va metodika. I qism Sotsiologik tadqiqotlar, 1993. - № 12. - S. 4-5.
44. Obratsov.I.V., Piliponskiy.A.G., Soloviev S.S. Rossiya harbiy sotsiologiyasining asri (1987-1997). –M.: VU, 1997. - S. 3-4.
45. Pyxanov K.C. RF Qurolli Kuchlaridagi islohotlar sharoitida ofitserlarning ijtimoiy harakatchanligi: mohiyati, holati, tartibga solinishi. Muallifning avtoreferati. dis. can.t sociol. fanlar. S.V.M.: VU, 1999. - S.
46. Smelzer N. Sotsiologiya. –M.: 1994. ingliz tilidan tarjima. 37-bet

Qo'shimcha adabiyotlar:

47. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent, 1993. - b. 167.
48. Alisher Navoiy. Mahbub ul - qulub. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. -B.3.

49. Soloviev A.V. Polemologiya - Fransiya urush sotsiologiyasi Sotsiologik tadqiqot, 1993. - № 12. - S. 125-131.
50. Sotsiologiya. Darslik. Toshkent 2002 y.
51. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999y
52. Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya. (izohli lugʻat - maʼlumotnoma). –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999y
53. Yadov V.A. Strategiya sotsiologicheskogo issledovaniya: opisaniye, obʻyasneniye, ponimaniye sotsialnoy realnosti: Uchebnik dlya studentov vuzov. –M.: Dobrosvet, 2008..
54. Вебер М. Наука как призвание и профессия. Избр. произв. М. 1990. 627-628 с.
55. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: 1991. 435-446 с.
56. История буржуазной социологии XIX начала XX веков. –М.: 1979. 183-с.
57. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. –М.: 1992. 27-с.
58. Социологические исследования. –М.: 1990. №2
59. Социология. –М.: Мысль. 1990. 25 с.

Internet manbalari:

60. . [http:// lex.ii/](http://lex.ii/) - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi.
61. . <http://www.gov.uz/> - O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali.
62. <http://www.socioline.ru>
63. <http://www.isras.ru>
64. <http://www.pseudology.org>
65. <http://www.scopus.com>
66. [http:// uzsci.net](http://uzsci.net) - Ilmiy taʼlim tarmogʻi.
67. [http:// www.connect.uz](http://www.connect.uz) - O‘zbekiston umumtaʼlim portali.
68. <http://txt.uz/> - Elektronnaya biblioteka.
69. <http://www.infocenter.uz/>-O‘quv adabiyotlar portali.<http://www.lib.socio.msu.ru>

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
1-BOB. UMUMSOTSILOGIYA-HARBIY SOTSILOGIYANING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Sotsiologiya fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	5
1.2. Sotsiologiyaning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.....	19
1.3.Sotsiologiyaning ijtimoiy va harbiy fanlar tizimida tutgan o'rni.....	36
1.4. Harbiy sotsiologiyaning rivojlanish tarixi, maqsad va vazifalari	44
2-BOB. HARBIY XIZMATCHI SHAXSI IJTIMOILASHUVI XUSUSIYATLARI	
2.1. Harbiy xizmatchi shaxsi va uning ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi	66
2.2. Harbiy xizmatchilarning tabaqalanishi va ijtimoiy harakatchanligi.....	72
2.3.Harbiy jamoalardagi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarni o'rganish.....	79
2.4.Harbiy mehnat va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi.....	97
3-BOB. HARBIY JAMOALARDA IJTIMOIIY NAZORATNING AHAMIYATI	
3.1. Shaxs ijtimoiilashuvi va deviant hulq-atvor sotsiologiyasi.....	109
3.2.Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning ko'rinishlari.....	128
3.3.Harbiy jamoalarda deviant hulq-atvoning oldini olish chora tadbirlari.....	136
4-BOB. HARBIY SOTSILOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI.....	
4.1. Sotsiologik tadqiqotlarni dasturi, strukturasi asosiy elementlari.....	147
4.2. Sotsiologiyada ma'lumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi ..	154
4.3. Sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish va tahlil qilish hamda umumlashtirish. Tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hisobotlar tayyorlash.....	170
4.4. Harbiy sotsiologik tadqiqotlar sotsiologik tadqiqotlarning turi sifatida Amaliy operativ harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish metodikasi.....	179
XULOSA.....	198
TAYANCH TUSHUNCHALAR.....	199
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	207
MUNDARIJA.....	211

